TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# NIZOMIY GANJAVIY

56

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# NIZOMIY GANJAVIY

56

1619319
FDU(U) ...OMIY
ARM (KUTUBXONA)

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.162-1
KBK 84(5Ozar)-5
N 57

**Tahrir hay’ati:**

Xayriddin Sulton — hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

**Ishchi guruh:**

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Tohir Qahhor, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

**To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi**

**Gulbahor Ashurova**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-3-0

**©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022**

## SHAYX NIZOMIY GANJAVIY HAQIDA

Sharq mumtoz she'riyati, dunyo badiiy tafakkurining buyuk namoyandasi Shayx Nizomiy Ganjaviy — shoir, adib, olim, musiqashunos, adabiyotshunos, muarrix, faylasuf, mutasavvif alloma edi. U o'zining keng qamrovli ijodiyotida X–XI asrgacha yashagan so'z san'atkorlari an'analarini davom ettirib, she'riyatni yangi pog'onaga ko'targan. Nizomiyning badiiy ijod tajribasini teran ilm va irfon, qoyaday sarbaland butun shaxsiyatdan ayri holda tasavvur qilish mumkin emas.

Shayx Nizomiy Ganjaviy sharq mumtoz adabiyotining beshigini tebratgan, xamsachilik kashshofi, "Ummul Xamsa", ya'ni "Xamsalar onasi"ni yaratgan ijodkor hisoblanadi. Uning to'liq nomi Abumuhammad Ilyos ibn Yusuf ibn Zakiy Muayyad bo'lib, 1141-yili Ozarbayjonning Ganja shahrida tug'ilgan.

Bo'lajak shoir ota-onadan yosh yetim qoladi. Uni boqish va tarbiyalashni tog'asi Xoja Umar o'z zimmasiga olib, imkon qadar jiyanining ilm egallashiga ko'maklashadi. U turli ilmlarni o'zlashtirishga ishtiyoqmand bo'lib, Qur'onni yod oladi. Keyin fiqh, tarix, jug'rofiya, falsafa, mantiq va adabdan ta'lim olib, ularning har birida ustod darajasiga yetishadi. Tabiiy fanlar, xususan, tabobat va ilmi nujum (astronomiya)ni tamomila o'ziniki qilib oladi. Zamonaviy ilmlardan tashqari, qadimgi yunon falsafasi va adabiyoti, eroniy xalqlarning islomdan oldingi so'z san'ati, xalifalik davri ilmiy-adabiy asarlari, yahudiy va nasroniy xalqlar tarixi, Kavkaz xalqlarining o'tmishidan ham yetarli ma'lumotga ega edi. Uni yetuk matematik sifatida e'tirof etardilar. Kimyo fanini chuqur bilar, hoziq tabib ham edi. Galen, Gippokrat, Zakariyo Roziy, Abu Ali ibn Sino kabi tib sohasi bilimdonlarining asarlaridan yaxshi xabardor edi. U dehqonchilik va bog'dorchilik ilmidan ham xabardor bo'lgan. Umuman, shoir she'riyati uning turli ilmlarni chuqur bilganligidan dalolat beradi. Shuning uchun ham

zamondoshlari uni hakim deb ulug'laganlar. Bu haqda she'rlaridan birida shoirning o'zi shunday yozgan edi:

*Har chi az daqiqahoyi nujum*
*Ba yakoyak nuhuftahoyi ulum*
*Xondam-u har varaq, ki mejustam*
*Chun turo yoftam varaq shustam.*

Mazmuni: "Nujum ilmi va umuman, barcha ilmlarni eng nozik nuqtalarigacha varaqma-varaq o'qib chiqar ekanman, maqsadim ular vositasida Seni topish edi. Seni topgach, bu ilmlarning barchasidan qo'limni yuvdim".

Nizomiy davri o'zining taloto'plari, notinchliklariga qaramay, Kavkaz, Eron va O'rta Osiyo xalqlari tamadduni davri edi. Jumladan, XII asrda Abula'lo Ganjaviy, Iziddin Shirvoniy, Mahastiy Ganjaviy, Mujiriddin Baylaqoniy, Xoqoniy Shirvoniy, Avhadiddin Anvariy, Rashididdin Vatvot, Jamoliddin Abdurazzoq, Farididdin Attor, Kamoliddin Ismoil kabi shoirlar yashab, ijod qildilar. Nizomiy ularning ko'pi bilan yaqin aloqada bo'lib, Xoqoniy bilan esa qalin do'st edi.

Bu davrda Xuroson va Movarounnahrning ko'plab shaharlari, jumladan, Ganjada ham javonmardlik yoki axiylik nomi bilan mashhur harakat keng yoyilgan. Harakat a'zolari, asosan, kosib va hunarmandlardan iborat bo'lib, ular zolim hukmdor va amaldorlarga qarshi kurashar, keng xalq ommasining manfaatlarini himoya qilar, kambag'al va bechoralarni qo'llab-quvvatlar edi. Ezgulik, adolat, insof, muruvvat, saxovat, lutf-u karamni shior qilib olgan bu toifa ilm-u ma'rifatga katta ahamiyat bergan. Nizomiy bu harakat qoidalarini hurmat qilar va ularga moyil edi. Nizomiy shaxsiyati, dunyoqarashi va ijtimoiy aqidalari shu tashkilot g'oyalari, kosib va hunarmandlar ta'sirida kamol topdi. Shoir asarlaridagi javonmardlik g'oyalari tasviri shuning mahsulidir.

Nizomiyning hayoti boshdan oxir Ganja shahrida o'tgan. Bir gal Iroq sultoni Tug'rulshohning da'vatiga binoan Tabrizga safar qilgan, biroq u yerda uch kundan ortiq turolmagan. U saroy xizmatiga kirmay, o'z umrini erkinlik va uzlatda o'tkazgan. Lekin

o‘sha davr hukmdorlari unga sovg‘a-salomlar yuborib turganlar. Chunonchi, Darband hokimi Boybars ibn Malik Muzaffar 1169-yili tuhfalar qatorida unga Ofoq ismli bir kanizakni ham hadya qiladi. U shoirning cho‘risi emas, balki umr yo‘ldoshi, maslahatchisi, ilhomchisiga aylandi. Nizomiyga Muhammad ismli o‘g‘il hadya etgan Ofoq 1180-yili bevaqt vafot etadi. Shoir eng aziz kishisi bo‘lgan bu ayol muhabbati va hurmatini bir umr xotirasida saqlab, “Xusrav va Shirin” dostonidagi Shirin timsolida uning yorqin siymosini abadiylashtiradi. Shirin obrazi Nizomiyning Ofoq uchun qo‘ygan haykali edi. Nizomiy Ofoqqa bo‘lgan qaynoq his-tuyg‘ularini keksalik yillarida yaratgan “Iskandarnoma” dostonida ham dard bilan eslaydi.

Nizomiy Ganjaviy yoshlikdan matematika va astronomiyaga juda qiziqqan va shu soha bo‘yicha bilim olgan. U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozarbayjonda Shirvon Tohir sulolasi hukmronlik qilar edi. Ular shoirni o‘z saroylariga taklif qiladi, lekin Nizomiy bu taklifni rad etib, erkin ijod qilishni ma’qul ko‘rgan.

Shoirning ijodi lirik she’rlar yozish bilan boshlanadi. Bu she’rlarning ko‘pchiligi ishqiy mavzudagi g‘azallar edi. Masalan, uning “Qaydaki sen bor, qamar na darkor, Kimgaki sen yor, shakar na darkor” matlasi bilan boshlanuvchi g‘azali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qo‘shiq qilib aytilgan degan ma’lumotlar bor. Shoir lirik she’rlarida ham o‘z zamonasidan shikoyat qilib, uni “adolatsiz jamiyat” deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli janrlarida ijod qilgan, u ko‘plab ruboiy, qit’a, qasidalar ham yozgan. Lekin shoirni dunyoga tanitgan uning “Xamsa” asari bo‘ldi. Sharq adabiyotida xamsachilik an’anasi uzoq tarixga ega bo‘lib, ushbu an’anani ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Nizomiy yaratgan “Xamsa” faqatgina o‘z xalqi adabiyoti uchungina emas, balki Sharq xalqlari adabiyotida ham yangi sahifani ochdi. Nizomiydan keyin “Xamsa” yaratish kuchli bir adabiy an’anaga aylandi. “Xamsa” yaratish uchun yoziladigan besh doston Nizomiy dostonlarining janri, nomlanishi, kompozitsiyasi, sujeti, vazni, obrazlariga monand bo‘lishi, ammo Nizomiy “Xamsa”sining takrori bo‘lmasligi lozim

edi. "Xamsa" yaratishga qo'l urgan har bir ijodkor so'z san'ati taraqqiyotida yangi pog'onaga ko'tarila olgan bo'lishi kerak. Bunday murakkab an'ana tufayli o'nlab shoirlar "Xamsa" yaratgan bo'lsalar-da, ularning aksariyati bu sohada muvaffaqiyat qozona olmadi. Nizomiydan keyin faqatgina uch shoir ulug' xamsanavis bo'lib, Nizomiy qatoridan o'rin olishga muyassar bo'ldi. Bular — hind shoiri Xisrav Dehlaviy, tojik shoiri Abdurahmon Jomiy va ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy.

Bu badiiy ijodda katta mahorat maktabi sanalgan. "Xamsa" dostonlarining har biri mavzusi, qahramonlari, hatto qo'yilgan masalalarigacha aniqlikka ega bo'lib, bu janrda ijod qilgan yozuvchi o'z mahoratini ana shu an'anaviy vositalar yordamida ko'rsatishi, shu orqali o'z davri ideallarini ifodalashi lozim bo'lgan. An'anaga ko'ra, "Xamsa"dagi birinchi dostonning asosini falsafiy-axloqiy masalalar tashkil etgan. Ikkinchi, uchinchi dostonlar sevgi voqealari orqali ifodalangan, ijtimoiy-ma'naviy masalalarni yorituvchi mavzu asosida uyushgan. To'rtinchi doston sarguzasht asar bo'lib, unda adolatli shoh masalasi ko'tarilgan. So'nggi doston avvalgilarining xulosasi, umumlashmasi bo'lib, unda ijodkorning ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari aks etgan. Sharqda badiiy qimmati turlicha bo'lgan 50 dan ortiq "Xamsa"lar vujudga kelgan. "Xamsa"ning alohida dostonlariga javoblar ham yozilgan. Lekin bizgacha bu asarlarning hammasi ham yetib kelgan emas. "Xamsa" dostonlaridan faqat birigagina javob yozib, yuksak darajada shuhrat qozongan ijodkorlar ham bo'lgan (Fuzuliy, "Layli va Majnun"). "Xamsa"larda eng ko'p dostonlar "Layli va Majnun" mavzusida yaratilgan. Keyingi o'rinlarda tegishli ravishda "Xusrav va Shirin", "Maxzan ul-asror", "Iskandarnoma", "Haft paykar" mavzusidagi dostonlar turadi. Xamsanavislar o'z asarlarida epik-romanik, qahramonlik yoki tasavvufiy, so'fiylik mavzusini birinchi o'ringa qo'yganlar. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"sining sujet va mavzulari turli xalqlar badiiy adabiyotlariga ta'sir etib, bugunga qadar "Xamsa" qahramonlari ishtirok etgan olti yuzdan ortiq asarlar yaratilgan.

Nizomiydan keyin xamsanavislikda turkiy, urdu, pushtu, kurd va boshqa tillarda ham "Xamsa"lar yaratilganligi manbalarda aytil-

gan. Davrlar o'tishi bilan muayyan ijtimoiy-siyosiy sharoitda belgilangan mavzu, sujet, kompozitsiya, obrazlarga ega bo'lgan "Xamsa" dostonlarining mazmuni, tarkibi o'zgarib borgan. "Xamsa" an'anasi Kavkazorti, O'rta Osiyo, Afg'oniston, Pokiston va Hindiston mamlakatlarida davom ettirilgan. Turkiy xalqlar adabiyotida "Xamsa" yozishga qiziqish XIII-XIV asrlardan boshlangan. Qutb Xorazmiy Nizomiyning "Xusrav va Shirin" dostonini, Haydar Xorazmiy she'riy shaklini saqlagan holda ayrim o'zgarishlar bilan "Maxzan ul-asror" dostonini turkiy tilga tarjima qilgan. Turkiy (o'zbek) tilida "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ayi sayyor", "Saddi Iskandariy" nomlari bilan "Xamsa" yaratgan Alisher Navoiy turkiy xalqlar adabiyotida "Xamsa" janri takomilini Nizomiy Ganjaviy darajasiga ko'tardi. Navoiy o'zigacha bo'lgan buyuk xamsanavislar — Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarni o'ziga ustoz deb bildi va ularning ijodini, g'oyaviy-badiiy an'analarini mahorat bilan rivojlantirdi. Nizomiy "Xamsa"si turli xalqlar dostonchiligining keyingi taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilgan. O'zbek shoiri Xoja ("Maqsad ul-atvor"), turk shoiri Lomiy va uyg'ur shoiri Nizoriy ("Farhod va Shirin"), ozarbayjon shoiri Fuzuliy ("Layli va Majnun") dostonlarini yaratganlar.

## NIZOMIY MAQBARASI

Nizomiy maqbarasi — buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy tavallud topgan Ganja shahri yaqinida joylashgan. Maqbara 20 m balandlikda, silindr shaklida marmar bino va atrofidagi park bilan birga ta'mirlangan. Maqbara yaqinida shoirning boqiy asarlarini tarannum etuvchi bronzadan yasalgan obida joylashgan. Nizomiy qabri ustida qadimdan oq ohak toshdan maqbara qurilgan edi. Ilk maqbara qurilishi XIII–XIV asrlarga tegishli deb taxmin qilinadi. Maqbara Oltin Arslon tomonidan Nizomiyga sovg'a qilingan Hamdon — hozirgi Ahmadli qishlog'i hududida va bu hududni mahalliy aholi hozir ham "Shayx tekisligi", "Shix tekisligi" deb atashadi. "Shix tekisligi"da olib borilgan arxeologik qazilmalar

shuni tasdiqlaydiki, bu hudud o'z vaqtida Ganja shahrining faxriy xiyoboni bo'lgan. Bu yerda Shayx Nizomiyning maqbarasi atrofida Ganja shahrining boshqa mashhur shaxslarining ham maqbaralari joylashgan.

XIX asr boshlarida Rusiyaning Kavkazda olib borgan mustamlakachilik siyosati natijasida Ganja xonligi tanazzulga uchragach, 1826-yilda "Shix tekisligi"da yuz bergan jang vaqtida maqbara jiddiy shikastlanadi va ta'mirlanmagani sababli xaroba holatiga kelib qolgan.

XIX asr 40-yillarida butunlay vayron bo'lish xavfi ostida qolgan maqbarani jiddiy ta'mirlash lozimligini ko'rgan Qorabog' xonligi tarixchisi Mirzabey Adigozal XIX asr o'rtalarida maqbarani ta'mirlatib, uning qulab tushgan gumbazi o'rniga yangi gumbaz qurdiradi. Keyinchalik gumbaz general Yodgorzoda tomonidan qayta qurilgan.

XX asr boshlarida esa Adigozal naslidan bo'lgan va Ganja politsiya boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatgan Ajdarbey Adigozalov – Goraniy gumbazni ta'mirlatadi. Bundan keyin maqbara butunlay qarovsiz qolgani sababli vayron boladi. 1875-yilda Eron valiahdi Farhod Mirzo Qachar buyuk shoir ziyoratiga keladi va maqbara holatini o'zining "Yo'l yo'riqnomasi" kitobida shunday tasvirlaydi: "Biz yetti chaqirim yo'l bosganimizdan so'ng uncha katta bo'lmagan gumbazni ko'rdik. Gumbazning yarmi vayron bo'lgan edi. Bu shayx Nizomiyning mozori edi. Bu yerdan Ganjaga yetti chaqirim qolgandi. Men shosha-pisha qabr tomonga ketdim. Faqat uning yaqinidagi qo'riqchilar gumbaz yonida shunchalik ko'p otliq yig'gan edilarki, ichkariga kirishning imkoni bo'lmadi".

1879-yilda Makka ziyoratiga borgan Sayyid Azim Shirvoniy Nizomiy maqbarasini ziyorat qiladi va uning achinarli holatidan ta'sirlanib, shoirning mashhur ruboiysini o'qiydi:

*Ey, Shayx Nizomiy, ey nizomi to'kilgan,*
*Ey, Ganjada izzat-u ehtiromi to'kilgan.*
*Bo'lmagan jahonda bir sen-la manimdek,*
*Bayti, uyi, maktabi, kalomi to'kilgan.*

1947-yilda shoirning mozori ustida tavalludining 750 yilligiga bag'ishlab obida barpo etildi. Maqbara 1990–1991-yillarda qaytadan qurildi. Bugungi kunda Nizomiy Ganjaviy maqbarasi kompleksiga qo'riqxona maqomi berilgan.

"Nizomiy "Xamsa"ning ilk dostoni "Maxzan ul-asror"ni 1173–1176-yillar orasida yozgan va Kichik Osiyodagi Erzinjon shahrining hokimi Bahromshohga yo'llagan. Doston Bahromshohga ma'qul tushib, shoirga talay in'om-ehson jo'natgan. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Nizomiyning muxoliflari bu tuhfani talon-taroj etganlar. Shuning uchun ham shoirning moddiy ahvoli umrining oxirigacha og'irligicha qolgan".

Qizil Arslon ham hech qanday daromad kelmaydigan Hamdo'yon qishlog'ini Nizomiyga muhrlab beradi. Buni eshitganlardan biri uzunligi va eni yarim farsah keladigan bu qishloqning yillik daromadi uning xarjiga ham yetmasligini pisanda qiladi. Shoir shu yerning o'zidayoq ushbu yorliqni duch kelgan bir kishining qo'liga berib, jo'nab qoladi.

Nizomiyning nomini jahonga mashhur qilgan narsa — besh dostonni o'z ichiga olgan "Xamsa"si bo'ldi. Bu dostonlar — "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal") va "Iskandarnoma" (u "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" nomli ikki qismdan tashkil topgan). Abdurahmon Jomiy ta'biri bilan aytganda, shoirning "Xamsa"da "qo'lga kiritgan nazokati va latofati hech kimga muyassar bo'lmagan, balki, umuman, odamzod qudratidan tashqari". Alisher Navoiy esa "ul nazmlar agarchi zohir yuzidin afsonadur, ammo haqiqat yuzidin haqoyiq kashfi va maorif bayonig'a bahonadur", deb ta'riflaydi.

Nizomiyning she'rlar devoni bizgacha yetib kelmagan. Shoirning lirik she'rlari turli bayoz va to'plamlardan topib jamlangan. Chunonchi, uning Eronda nashr etilgan birinchi devonida 12 qasida, 137 g'azal, 9 qit'a, 46 ruboiy mavjud bo'lsa, ikkinchi nashrida 16 qasida, 192 g'azal, 5 qit'a, 68 ruboiy va 17 bayt parokanda she'rlar bor. Shu ikki nashr asosida Tojikistonda J. Dodalishoyev ham Nizomiy devonini nashr etgan. Dushanbeda nashr etilgan shoir asarlarining 5 jildligida esa 55 g'azal, 5 qasida, 2 qit'a,

9 ruboiy mavjud. Holbuki, Davlatshoh Samarqandiy Nizomiy devoni 20 ming bayt she'rni o'z ichiga olgan, deb ko'rsatadi.

XV asrda Nizomiyning lirik she'rlari keng o'quvchilar ommasiga ma'lum bo'lmagan bo'lsa kerakki, Navoiy Nizomiyni masnaviy ustasi sifatida baholagan holda, lirik shoir sifatida tilga olmaydi. "Mahbub ul-qulub"dagi shoirlar tasnifotida ham uning nomini uchratmaymiz. Lekin "Xamsa" dostonlaridan barchasining muqaddima qismida va "Saddi Iskandariy" xotimasida Navoiy Nizomiyni ustoz shoir sifatida madh etib, uning she'riy mahorati va badiiy balog'atini ta'rif-tavsif qiladi. Chunonchi, "Hayrat ul-abror"da Nizomiyga alohida bob bag'ishlab, uni, jumladan, quyidagi so'zlar bilan ta'riflaydi:

*Ganja quyoshiki ko'targach alam,*
*Ayladi so'z mamlakatin yakqalam...*
*Ko'p kishi ham qildi tatabbu havas,*
*Sarv-u gul o'trusig'a kelturdi xas...*

"Farhod va Shirin" dostonida ham Nizomiy va Dehlaviyga alohida bob bag'ishlaydi. Jumladan, Nizomiyni — fil, o'zini — pashshaga o'xshatib, "Xamsa" yaratishda uning ruhidan madad so'raydi:

*Emas oson bu maydon ichra turmoq,*
*Nizomiy panjasig'a panja urmoq.*

"Saddi Iskandariy" dostoni nihoyasida esa shoir bir tush ko'rgani va Nizomiy uni "Xamsa" yozganini qo'llab, muborakbod etganini yozadi. "Nasoyim ul-muhabbat"da Nizomiyni shayxlar qatorida tilga oladi:

"Mashhur mundoqdurki, alar suluk ayyomida qirq arba'in chiqaribdurlar va to'rt arba'inni bir daraxt ustida chiqaribdurlar. Har oyina bu nav mufrit riyozatlar tortmag'uncha bu nav besh ganjki, alarg'a nasib bo'lubdurki, ko'p abyoti alfoz jazolatidin va ma'no-yu tarkib salosatidin desa bo'lurki, e'joz sarhadiga yetibdur, kishining ilkiga kirmak imkon emas va umrlari oltmishdan o'tgan ekandur...".

Nizomiy she'rlari faqat badiiy jihatdan go'zal va mukammal bo'libgina qolmay, ularda o'z zamonining barcha ilm-u hunarlarini egallagan mutafakkir olim va hayotda katta tajribaga ega bo'lgan donishmand insonning teran va purhikmat so'zlari o'z aksini topganligini ko'ramiz.

Ma'lumki, Sharq mumtoz shoirlari ijodida o'zining she'riyatda tutgan o'rnidan, o'z mahorati va balog'atidan faxrlanib yozilgan she'r va baytlar ko'p uchraydi. Chunonchi, Nizomiy yozadi:

*Base ko'shid bulbul bo Nizomiy,*
*Chu bishnid in g'azal, minqor barbast.*

Mazmuni: "Nizomiyga yetaman, deb bulbul juda ko'p sa'y-harakat qildi, lekin ushbu g'azalni eshitdi-yu, xomush bo'ldi".

Darhaqiqat, Nizomiyni ustoz deb bilgan, unga ergashgan, unga taqlid qilgan shoirlar ko'p, lekin ularning hech biri Nizomiy ko'tarilgan shohsupaga ko'tarilolmagan.

Nizomiy Ganjaviy nomi qadimdan xalqimiz orasida mashhur, ta'bir joiz bo'lsa, u o'zbekning o'z shoiriga aylanib ketgan. Alisher Navoiygina emas, barcha mumtoz shoirlarimiz uni o'zlariga ustoz deb bilishgan. XIV asr o'rtalaridayoq Qutb Xorazmiy uning eng mashhur dostoni "Xusrav va Shirin"ni tilimizga mahorat bilan tarjima qilgan edi. Oradan bir asr o'tgach, Haydar Xorazmiy "Xamsa" asoschisining "Maxzan ul-asror" dostoniga javoban "Gulshan ul-asror" asarini yaratadi. O'z "Xamsa"sining besh dostonini besh buyuk salafi (Nizomiy, Xusrav, Xoju, Ashraf, Jomiy)ga tatabbu sifatida yaratgan Navoiy "Hayrat ul-abror"ni aynan "Maxzan ul-asror"ga javob tariqasida yozadi. ""Xamsa" panjasig'a panja urupmen. Avvalkim, "Hayrat ul-abror" bog'ida ta'bim gullar ochibdur, Shayx Nizomiy ruhi "Maxzan ul-asror"idin boshimga durlar sochibdur", — deb yozadi shoirning o'zi bu haqda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida.

Zabardast shoir va mohir mutarjim Muhammadrizo Ogahiy "Haft paykar"ni erkin nasriy tarjima qiladi. "Iskandarnoma" dostoni ham o'tmishda ilm-u adab ahlining diqqatini o'ziga jalb etgan. Jumladan, "Shohnoma" tarjimoni, shoir va adib Shohi Hijron "Qissayi Doroyi Zarrinkamar" asarida "Iqbolnoma"ning

muxtasar mazmunini bayon etgan. Nurmuhammad Buxoriy, Mulla Fozil Xomushiylar ham Nizomiy "Xamsa"sini sharhlar ekanlar, "Iskandarnoma"ni batafsilroq tahlil qilishga harakat etishgan".

1947-yil Nizomiyning 800 yillik yubileyi sobiq Ittifoq miqyosida keng nishonlangan. Shu munosabat bilan O'zbekistonda ham shoir "Xamsa"si dostonlari tarjimasidan namunalar — "Xusrav va Shirin" (Qutb tarjimasi), "Maxzan ul-asror" (Haydar Xorazmiy tarjimasi) , "Haft paykar" (Ogahiy tarjimasi) hamda "Layli va Majnun" (N. Oxundiy va Xislat Muhammadjonovlar tarjimasi)dan parchalar Maqsud Shayxzoda so'zboshisi bilan alohida to'plam holida nashr qilindi. Keyinchalik taniqli tarjimon, fors-tojik adabiyoti bilimdoni Shoislom Shomuhamedov shoirning 2 qasidasi, 20 g'azali, 8 qit'asi, 49 ruboiysi, 74 hikmati hamda "Maxzan ul-asror" va "Haft paykar" dostonlaridan parchalar tarjima qilib, "Sharq klassiklari merosidan" turkumida chop ettirdi. Fors-tojik shoirlari asarlarining o'zbekcha tarjimalaridan tartib berilgan "Injular ummoni" to'plamida Ganja pirining yana 2 g'azali va "Xusrav va Shirin" dostonidan Shirin ta'rifiga bag'ishlangan parcha Sh. Shomuhamedov tarjimasida berilgan. Jonibek Suvonqulov "Iqbolnoma" masnaviysini tilimizga o'girgan bo'lsa, Olimjon Bo'riyev shoirning "Panj ganj"iga kiruvchi to'liq dostonlarini tarjima qildilar. Bu asar Olimjon Bo'riyev muallifligida 2016-yil "Istiqlol nuri" nashriyoyida akademik Aziz Qayumov so'zboshisi bilan Haydar Aliyev nomidagi Ozarboyjon Madaniyat markazi homiyligida nashr etilgan.

Eng quvonchli voqea 2017–2018-yillarda Haydar Aliyev nomidagi Ozarbayjon Madaniyat markazining rahbari Samir Abbasovning loyihasi asosida O'zbekiston Xalq shoiri Jamol Kamol shayx Nizomiy Ganjaviyning buyuk "Xamsa" asarini — to'liq olti dostonni o'z vaznida, aruz qoidalari asosida tarjima qildi. Ushbu asar Toshkentda va Boku shahrida to'liq holda nashr etildi. (Nashrga tayyorlovchi va muharrir G. Ashurova.) Qariyb to'qqiz asrdan so'ng Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa" asarining o'zbek kitobxonlariga o'zbek tilida taqdim etilishi muhim tarixiy voqelikdir!

Nizomiy Ganjaviy tasavvuf ilmining chinakam bilimdoni, shayx, mutasavvuf shoir bo'lgan. Lekin u jaholat, riyo yo'liga kirgan so'fiylar bilan hech murosa qilmagan. Haq visoliga erishish id-

daosi ila hamma narsani yig'ishtirib, safsata sotishni kasb etib olgan so'fiy va darveshlar tarafida bo'lmagan. Nizomiy Ganjaviy serqirra va sermahsul iste'dod sohibi. Ilmda uning asarlari soni ellikdan ortiqligi qayd etilgan. Nizomiy Ganjaviy mumtoz she'riyatning g'azal, ruboiy, qit'a va boshqa janrlarida ilhom bilan ijod qilgan. Ishq, irfon, komillik g'oyalarini u yangicha munosabat, yangicha ohang va bo'yoqlarda tasvirlab bergan. "Mening she'rim, — deydi u, — ishq azobi va qon yutishning bayonidir. G'azallar devonim emas, ular mening qilgan ishlarim, chekkan g'am-g'ussalarim".

G'azal, ruboiy janridagi she'rlari Nizomiy Ganjaviyning lirik salohiyatini namoyish etgan bo'lsa, "Xamsa" dostonlari epik mahoratini ko'rsatgan. "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal"), "Iskandarnoma" ichidagi "Sharafnoma" va "Iqbolnoma" singari asarlarida falsafa, axloq, ishq, irfon va tasavvuf, jamiyat va siyosat, shaxs erki va saltanat singari masalalardan bahs yuritilgan. Keyinchalik ular "Xamsa" nomi ostida birlashtirilib shuhrat tutgan.

Nizomiy ijodining ortida mashaqqat, fidoyilik, azob-uqubat va shijoat yashirindir. Shoirning taassuf va alam bilan mana bunday misralarni bitishiga, balki, sabab shudir:

*Man, ki qone shudam ba donayi xesh,*
*Sarvaram chun sadaf ba xonayi xesh.*
*Sarvari beh, ki yori man boshad,*
*Sarparasti chi kori man boshad.*
*Sher az on poyayi buzurgi yoft,*
*Ki sar az tavqi sarparasti toft.*

Sh. Shomuhamedov tarjimasi:

*O'z rizqim donidan qilib qanoat,*
*Sadafdek xonamda sarvarman faqat.*
*Birovlarga muhtoj bo'lgandan, ming bor —*
*Yaxshi-ku qanoat bo'lsa menga yor.*
*O'zga homiyligin sher etib inkor,*
*Mavjudot ichinda bo'ldi ulug'vor.*

Nizomiy Ganjaviy 1209-yili 12-martda 68 yoshida Ozarbay-

jonning Ganja shahrida hayotdan ko‘z yumadi. Bunday ulug‘ va betimsol zotlarning vafoti — hayotdagi eng og‘ir ayriliq, ulkan yo‘qotishdir. Nizomiy Ganjaviy singari shaxslarning qabriga jasad bilan birga boshqa hech qachon topib, hech vaqt qaytarib bo‘lmas ma’no va tafakkur maxzani ham dafn etiladi. Ularning hayotdagi o‘rni ham, ma’naviy mavqeyi ham o‘lgan kunidan boshlab g‘oyatda aniq bilinadi. Chunki ular yetgan tafakkur yuksakligiga o‘zga birov yetolmaydi, ular qilgan ishni ayni tarzda boshqa birov eplolmaydi.

Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi dunyoning qator mamlakatlarida ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan, asarlaridan namunalar g‘arb va sharq xalqlarining turli tillariga tarjima qilingan. Nizomiyshunoslik, ayniqsa, XX asrda Rossiya, Eron, Tojikiston, Ozarbayjonda ancha taraqqiy topgan. Bu o‘rinda Y. E. Bertels, A. Hikmat, A. Mirzayev, A. Nasriddinov, A. Afsahzod, M. Rajabov, A. Sattorov, A. Guliyev, G. Aliyeva kabi rus, eron, tojik va ozar olimlarining tadqiqotlarini eslatib o‘tish mumkin. Nizomiyshunoslik bo‘yicha O‘zbekistonda ham bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Nizomiy Ganjaviy ijodiyoti taniqli olimlar P. Shamsiyev, Sh. Shomuhamedov, N. Mallayev, A. Qayumov, B. Valixo‘jayev, R. Vohidov, S. G‘aniyeva, H. Homidiy, Sh. Sirojiddinov, I. Haqqulov, J. Kamol, H. Boltaboyev, B. To‘xliyev, N. Jumaxo‘ja, E. Ochilov, N. Jabborov, K. Mullaxo‘jayeva, G. Ashurova, I. Ismoilov va boshqalarning maqola va risolalarida Nizomiy Ganjaviy ijodi turli rakurslardan tadqiq etilgan. Ushbu nashrda biz shayx Nizomiy Ganjaviyning “Xamsa” asari tarkibidagi “Layli va Majnun” dostonini O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimasida, she’riyatini esa Shoislom Shomuhamedov, Gulbahor Ashurova tarjimalaridan foydalandik.

Shayx Nizomiy Ganjaviy asarlarida sharq klassiklari ijodida rivoj topib sayqallangan insonparvarlik g‘oyasi yuqori bosqichga ko‘tarilgan. Mutafakkir shoir asarlaridagi ilohiy va so‘nmas tarovat, jo‘shqin abadiy hayot baxsh etib turuvchi yuksak qudrat ham ana shunda ko‘rinadi.

**Gulbahor Ashurova**
*filologiya fanlari nomzodi*

## QASIDALAR

Qo‘ng‘iroq junbishga kelmish, qo‘zg‘alibdir korvon,
Ko‘chni bog‘la mulki tandan endi jon qasri tomon.

Nola birla yo‘lga tushgil sorbondir rahnamo,
Korvonning halqasinda qo‘ng‘iroq munis hamon.

Halqa ichra kirganing chog‘, chorasizdir qo‘l-oyoq,
Qo‘ng‘iroqdek nola birlan yo‘lga tushgan beomon.

Ko‘nglida bor iztirobi nola aylar qo‘ng‘iroq,
O‘rtada bor qisqa qo‘llik, halqa ham aylar fig‘on.

Qo‘ng‘iroq, ma’zur tuting, der ezdi dilni dardi dil,
Halqa undan ham xarob, bedilni aylar imtihon.

Davlat izlang mazhab ichra mol-u dunyodan emas,
Bermagay Yusuf bo‘yin gul, ko‘ylak o‘lmas arg‘uvon.

Kasb etib hikmat yo‘lidin borki, hikmat chashmasi,
Aybi borning aybidin ham hikmat ol, bo‘l komron.

Gar qayiq ichra o‘tirding, tunmi, kunduz tikka tur,
Tikka bo‘lsa yelkani, haydar ani olg‘a bo‘ron.

Odam ichin bilmagaysan, devmi ul yokim malak,
Ertaning bo‘l suvrati, bul kunki, bor undin nishon.

Hindular-ku qoralikda bir nasabdurlar va le,
Hindu bor, o‘g‘ri-yu olchoq, hindular bor posbon.

Yo‘q bezakdan foyda aslo, tuhfa qil, zar tuhfa qil,
To tamom umringda zardek keksa bo‘l ham navqiron.

Dema ko‘p sulton-u sulton, bandaroqdur sendan ul,
Banda bo‘lg‘il ungakim, ul sohibi sultonnishon.

Erkalarkan sohibing, sen unga mayli bandi bo‘l,
Bandalarni et navozish qayda gar sen hukmron.

Kimki, qo‘l ostingdadur, adl ayla anga oqibat.
Oftob topgung lahadda, ham qiyomat soyabon.

Etma zolimlik kishiga, adl ila rom et uni,
Yaxshilik qo‘ldanki kelmas, zulm ham qilma chunon.

Kimki, zolimdir, qiyomat dushmani bo‘lgay diyor,
Kimki, johildir, uning joyi chuqur be norvon.

O‘zga nonin tortib olma, ichma o‘zgalar suvin,
Oqil odam bir farishta, zolim ersa beimon.

Soldi ne ishlar otang Odam boshiga bitta don,
Har qadam tuprog‘i bo‘lma topguningcha burda non.

Ichma o‘zgalar suvin, hattoki sharbat bo‘lsa ham,
Olma o‘zga nonini gar barchasi tasbehga don.

Sheri himmat bo‘l, hamisha qo‘l kuching birla yasha,
Ovga chiqsang, bo‘lishar cho‘l vahshilari mehmon.

O‘z zaifligingni ko‘rgil, qudratingdan urma lof,
Ey amir, sen bandasen-ku, ey tabib, sen notavon.

Ko‘zlaringdan chiqsa yosh, aslo bekitma sen ani,
Ipga tizmak lozim asli ko‘z ham etsa durfishon.

Pardasin ochib, qarab ko‘rgil zaminda ne o‘yun?
Ne zamon arboblari uyquda yotmish ko‘p zamon.

To bu tuproq uzra suvsizlikka ko‘rsatdim chidam,
Ko‘z suvi birla yuvindim, sharbatim — obi zamon.

Toshdan ajrab chiqmaguncha ravnaqin topmas kumush
La’l ham o‘z qiymatin topmas makoni bo‘lsa kon.

Kirding o‘ttizga, Nizomiy, endi tinchroq joy top,
Men nasihat qildim endi, xohi xo‘p de, xohi ton.

* * *

Bu gulshanda qarilikdin egilmishdir kamarim,
Baqo shohi atosidin nedur topgan samarim.

Daraxtimdin na soya bor, na meva bor biravga,
Xavodislar bo‘ronidan to‘kildi barg-u barim.

Falak qaddin egib menga lahad kavlashga mashg‘ul,
Soqol-sochimda oq kofur berar shundan xabarim.

Dahanda ikki tizim erdi oppoq tishlarim dur,
Falak zulmi bila bir-bir to‘kilmish bu guharim.

To‘kildi gavharim yulduzsimon umrim ko‘kidin,
Qizorgach mashriqi umrim, chiqib yulduz saharim.

Umr oxirga yetdi, endi men boyo‘g‘li misol
Xarobazorga yo‘l oldim, tuzatib bol-u parim.

Egildi qomatim, bosh yerga moyil bo‘ldi bul on,
Meni yerga egar bul chog‘da or-nomus samarim.

Egilmish qadd-u qomatim, etakka tegmasin deb qon,
Ko‘zimdan tirqiratib xun yuborgan chog‘ jigarim.

Tushib boshimga oppoq qor, bosar og‘irligi birlan,
Vujudim tomi tushmasmu bosib, shundan xatarim.

Agar qor bo‘lsa cho‘qqimda, erib suv ham kelar undan,
Ko‘zimdan suv chakillaydi, yosh to‘kishga chevarim.

Zaifligim shu qadar, soyadek jim surgalaman,
Kishilar topa olmaslar izimdan ham asarim.

Meni hech kim etolmas yod zaifligim tufayli,
Birar kimning diliga ham mening tushmas guzarim.

Zaiflik qomatimni aylamish duto go‘yokim,
Ajal tiyrin vahimasi birlan bo‘lmish siparim.

Farog‘at avji tomon men nechuk parvoz etayin,
Zaiflik jarligidin kim siniqdir bol-u parim.

Jahon bo‘stonida har yon umidim tarqalib ketdi.
Bo‘ron-u do‘l urib shohidin ajraldi shajarim.

Bo‘shalgach mevadan shox qaddi tiklangan edi, ammo
Mening qaddim egilmish sochilib bitgach samarim.

Egildi boshim avval bor, yelkamda na qilay,
Ajal shamshiridandir barcha qo‘rquv ham hazarim.

Zaif ko‘zlar iliq yoshi bilan yuzlarni yuvgaylar,
Safarga ketdi do‘stlarning ko‘pi, yaqin safarim.

Zaiflikdan muqim uy ichra qoldim, hech qayon chiqmay,
Uyim ostonasidan hatlamak mushkul, jigarim.

Agar oy-u quyosh nur sochsa ham varoq beti uzra
Bayoz xatin o‘qiy olmas, qarong‘udir nazarim.

Umr o‘tdi gunohim kun-bakun ortib borar hargiz,
Yurarmen elda boshim xam, egik qomat va sarim.

Tanam hech larzadan tinmas, qo‘lim ham titramakdin hech,
Nechuk shodlik mayi bo‘lsin qadahlarda icharim.

Halovat topmadim oxir hayotdan ko‘p chekib g‘am,
Bo‘lar og‘zimda zaqqum luqma non yoki shakarim.

Bu gulshan ob-u havosiga ham endi yo‘q ishim,
Agar Iso nafasidek esa ham, u zararim.

Qo‘limdan ketdi yoshlik rang-u bo‘yi ila bul kun,
O‘g‘irlab ketdi bu naqdinani ko‘k ishvagarim.

Hunar izlamagil mendan bu kun topgung faqat ayb,
Aybdan battar erur bul kuni bori hunarim.

## G‘AZALLAR

Men oshiqmen go‘zal yuzga, yuzi oyga solur g‘avg‘o,
Ne yuzdir? Yuzlari dilbar. Ne dilbar? Dilbari zebo.

Agarda ko‘rmasam yuzin bo‘lur ikki ko‘zim chashma,
Ne chashma? Chashmayi dur ul. Ne durdir? Marvarid a’lo.

Xirom etsa agar bog‘da, bo‘lur har yonda ming gul-gul,
Ne hamdam? Hamdami mahram. Ne mahram? Mahrami jono.

Nigorimda go‘zallik ko‘p, yana zulfida xushbo‘ylik.
Ne xushbo‘y? Xushbo‘yi anbar. Ne anbar? Anbari soro.

Nizomiy, dilbar ishqinda kerakdir senga bir sharbat.
Ne sharbat? Sharbati qotil. Ne qotil? Qotili burro.

* * *

Xarob holim etaymu senga oshkor?
Qaro ko‘zga nasihat ayla, dildor.

Nechun oshuftasen, deb etma ta’na,
O‘zing ko‘r oy yuzing ko‘zguda takror.

Men ohim yo‘lini sendin ayurdim,
Firoq yo‘lini ham tark ayla zinhor.

Agar tutsam panoh seni, dema ayb,
Eturmen boshqani pushti panoh, yor.

Bu nolon dilni etding sen Yusufdek
Zanah chohida zindon-u giriftor.

Qurir nofa kabi qonim tanamda,
Gajak soching taratgach mushki totor.

Xijolatda tilim lol-u majolsiz,
Qalam birla bitay uzrimni bisyor.

Nizomiy bo‘ldi bandang, shafqat ayla,
Vafo ko‘rsat, jafo qilma, vafodor.

* * *

Malomat qilma oshiqlarni aslo,
Malomat qilmag‘ay kim bo‘lsa dono.

Uning ishqdin bo‘lak hech kori yo‘qdir,
Agar bo‘lsa ham, ul savdo va safro.

Etak ho‘l bo‘lgach ishq oni yasatmas,
Nishoni ishq uzoqdin ko‘zga paydo.

Muqallid joy ololmas bu zamindin,
Maqomiga ega oshiqi shaydo.

Lutf jomidin ichgil necha qultum,
Chapak chal, biz ila ma’shuqi barno.

Ayo oshiq o‘zingdin chetga chiqqil,
Muhabbat ichra dardi sar muhayyo.

Bu yo‘lda nomurodlik manzili ko‘p,
Bu yo‘lda zahmi dil doim huvaydo.

Qo‘lingdin kelganicha porso bo‘l,
Nizomiy, porsolik dilga ro‘shno.

* * *

Meni shunday deding, shunday kun, ey dil,
Jigar purdardu dil lim-lim xun, ey dil.

Judo qil mendin oshiqliq hadisin,
O‘zing Laylo, meni bil Majnun, ey dil.

Tun-u kun aylabon faryod-u faryod,
Sening dastingdan o‘ldim uchqun, ey dil.

Qilurmishsan sen ishq ahlin navozish,
Agar men uchrasam qil berun, ey dil.

Demishsen: “Gar yiqilsang qo‘l tutarmen”,
Yiqilganlar aro men mahzun, ey dil.

Nizomiy senga she’rin aytdi maxfiy,
Seni olmasmi qo‘lga afsun, ey dil.

* * *

Ey diyda, sendan bizga nazar yo‘q,
Ey aql, sendan boshda samar yo‘q.

O‘shal sanam deb devona bo‘ldik,
Ammo netaylik, senda xabar yo‘q.

Ko‘z va aqldan ne so‘z degaymiz,
Bul ketdi qo‘ldan, undan asar yo‘q.

Ne yo‘lki, bo‘lsa, qo‘ldan beribmiz.
Jon berish qoldi, rohi digar yo‘q.

Bunga ham rozi bo‘lmasa agar,
Cho‘zmasmiz endi, agar-magar yo‘q.

Chunki qiyomat kuni hisobda,
Bu naqddan o‘zga naqdina zar yo‘q.

Yo‘qliqqa ketmak bo‘lsa musallam,
Bu mulk egasi, hur-u bashar yo‘q.

Jondin dilingni uzgil, Nizomiy,
Bu sukut joyi, foyda-zarar yo‘q.

* * *

Gar bil nazaring bu xasta dil taniga tushdi,
Lutfing-la labing shirini so‘zchaniga tushdi.

Zulfing gajagin poyida dil urdi tapo-tap,
Go‘yo o‘ralib halqasi kishaniga tushdi.

Hasrat ila bu yo‘lda yoqam chok-u chok etdim,
To ko‘z yana ul ko‘ylagi gulshaniga tushdi.

G‘am birla alam kunjida dodim yetajakmu,
Yo qissalarim yaxshi-yomon faniga tushdi.

Bir dam yechibon tashla niqobingni yuzingdan,
Dey: “Otashi xun gul bila sumaniga tushdi”.

Chehrang taratib har tarafa nur-u ziyoying,
Tushdi Nizomiyga-yu suxaniga tushdi.

* * *

Sabo yor bo‘yini keltirsa manga,
Degil, Isonafas jon berdi tanga.

Yaqubning diydasi ochilganidek,
Ko‘zin surtgach yusufiy pirahanga.

Gul-u rayhonlari bo‘ldi muattar,
Uning zulfi bo‘yi yetgach chamanga.

Gahi g‘uncha choponin chok etardi,
Gahi oshub yetardi yosumanga.

Muanbar zulfidin jonimga rohat,
Sahar chog‘ etsa gar mushki xo‘tanga.

O‘lik yuz yilda chin do‘stga yetushsa,
Ajabmaskim, magar kirsa suxanga.

Nizomiy aylasa shukri visolin,
Iliq so‘z tarqalur dunyo — chamanga.

* * *

Shod yasha, bu zamon g‘amga arzimas,
Qisilmagil, ko‘p-u kamga arzimas.

Arpa donicha ham turmaydi o‘zi,
Sitami ko‘z yosh-u namga arzimas.

Kunduz diljo‘shi-yu ro‘shinoligi,
Subhidam salqin shabnamga arzimas.

Dedingki, bu kam-kam tuzalib qolar,
Bu so‘z to‘g‘rimas, bir damga arzimas.

* * *

Nigorim ishqida har damda qiynoqda kuyar jonim,
Biror osuda dam yo‘q, otash ichra qoldi ham onim.

G‘aming poyimga o‘t tashlar, tutashgay boshga ul oxir,
Qo‘lim olmas kishi bir dam, kuyar to poy-u poyonim.

Meni bo‘hton etar mardum, ki sensiz zinda ermishman,
G‘ulomidurman ul tilni, desa: “Kuymas bu bo‘htonim”.

Nechun mayl etmading menga, desam, kuymakligimdin shod
Ekansen, nozanin, g‘oz etma, yorim, o‘rtab imonim.

Mening o‘tdek dilim koptok kabi chavgoniga tushdi,
Ajabkim, kuymadi chavgon bu otash tushgani onim.

Soqiyo, may ber, bekor o‘ltirmagil, kelmish bahor,
Baxt ham bekorchilikdan ishga bermish ixtiyor.

Men vafo tuxmini ekkan erdim ishqim bog‘ida,
Ul nihol ham o‘smish, unmish mevalar bermish qator.

Dil cho‘lin bag‘rim xuni birlan sug‘orib, yashnatib
Qo‘ygan erdim, bul kuni ovliqqa kelmish shahriyor.

Xotiri ko‘nglim barobar iztirobda erdilar,
Xotirimga keldi osoyishlig-u dilga qaror.

Qayda bundan ortiq iqbol-u saodat bul yo‘sin,
Keldi yorim, ey dilim, xizmatda bo‘l, kelmish nigor.

Ey Nizomiy, jon ila shukrona qilmoq shart erur,
G‘arq o‘lish vahmi agar bo‘lsa kema, tayyor kanor.

* * *

Qaydaki sen bor, qamar na darkor,
Kimgaki sen yor, shaker na darkor.

Ul tunki, oydek chiqib kelursan,
Derlarki: bul kech sahar na darkor.

Husning umidi dilimda yorqin,
Shul durdan o‘zga guhar na darkor.

Qachondir oxir eshigim ochgil,
Yo‘qsa hama dardisar na darkor.

Va’da berasen, nechun vafo yo‘q,
Mening g‘amim shul, digar na darkor.

Qulliqdan erur Nizomiy lofi,
Zulfingdan o‘zga kamar na darkor.

* * *

Gul mayga qarab chunon kulibdir,
Hatto ilik — ustuxon kulibdir.

Bul qahqaha bog‘ni yashnatibdi,
Lola tanasida jon kulibdir.

Yosh to‘kkan ekan sahar buluti,
Ul giryadan arg‘uvon kulibdir.

* * *

Dilimda qolmadi tinchlik va orom,
Talab ketdi o‘shal ma’shuqi Bahrom.

Yetur payg‘om yorimg‘a, sabo, tez,
Yetib anga degilkim, ey Dilorom.

Qachon mendin uzoq ketding chunonam,
Na hush qoldi, na qoldi aql-u orom.

Ichibsanmu g‘amimning sharbatin sen,
Ayo ar-ar qadu ham siyminandom.

Yugurdim erta-kecha manzil-bamanzil,
Talab aylab seni, ey chehra gulfom.

Na sendin bir xabar topdim, na payg‘om,
Na sendin menga sog‘ar bor, na bir jom.

Gajak zulfingga tushdim misli ov men,
Qo‘l-u poyimga zulfing tashlamish dom.

G‘azal aytmoqni qo‘y emdi, Nizomiy,
Kirib xilvatga cho‘k tush zor-u nokom.

* * *

Darig‘o dil, darig‘o dil, ki dildor topmadim hargiz,
G‘amim anglar, g‘amim anglar, ki g‘amxo‘r topmadim hargiz.

Bu miskin dil vafodorlik uchun bo‘lmish hijil doim,
Vafodorlik qilib, hech bir vafodor topmadim hargiz.

Dilimga suhbati orom suhbatdosh qayon topqum,
Agar bilsang, xabar yetkaz, birar bor topmadim hargiz.

Hayotim xarj etib oshnonamolar ko‘yig‘a har dam,
Keturmi umr behuda, hairdo topmadim hargiz.

Agar do‘stlar aro sohibdili bo‘lsa bu olamda,
Qidirmishman nechukkim men birar yor topmadim hargiz.

Bu sahrodan kimi gul tersa, ul xandon bo‘lur, albat,
Xarobmen xor terdim-ku gulinor topmadim hargiz.

Nizomiy, so‘z durin sochib, faqat Shirvon sari yurgil,
Shahanshohdan bo‘lak odil hairdo topmadim hargiz.

* * *

Dilimda g‘ussa-g‘am bisyor,
Xarobot shavqi-yu xummor-u xummor.

Bebaxtlarning yo‘lin tutdim, yo‘li shul
Riyokorlar dami darkor-darkor.

Ne qilsun menda tasbeh, ey yaqinlar,
Bu xirqam ostida zunnor-u zunnor.

Salibu qo‘ng‘iroqdin faxr etdim,
Namoz tasbehga dilda or-u yuz or.

Nechun pofam kesar ul muxtasibkim,
Ne bo‘lgay gar dilim mayxor-u mayxor.

Kiray da’vo ila mayxona ichra,
Bozorda jarchilar qator-u qator.

Mening kissamda hech naqdina yo‘qdir,
Ne qo‘rquv o‘g‘ridin, ne zor-u bezor.

Muhabbat zulmida, ming-ming shukrkim,
Tanamda bosh-u boshga sirtmog‘-u dor.

Bu ishlar ichra ayb etma, Nizomiy,
Qalandarvor yo‘lim bor-u, yo‘lim bor.

* * *

Sen bilan bul qul xushdil emas?
Ul falak g‘avg‘osidin g‘ofil emas.

Sen bilan jon tahlika, sensiz jafo,
Oqibat ish o‘ng emas, bedil emas.

Umrim o‘tdi haqqini sendan talab —
Aylasam, solgil quloq, botil emas.

Sensiz ketdi qo‘limdan hosilim,
Sensiz, ey jonon, murod hosil emas.

Sen-ku naqd, yoningda yo‘ldan urguchi,
Menga bunday joy hecham manzil emas.

Bul Nizomiy, ko‘rsa ham jabr-u jafo,
Ko‘ngil aslo o‘zgaga moyil emas.

* * *

Ishlarimni bu chigal, zulfingmi, ro‘zgorim mening?
Nuqtamu, og‘zingmi u yoki dili torim mening?

Tun qaromi yo diling, holingmi, ahvolim mening?
Shahd shirinmu, labing yoki shakarborim mening?

Yarqiroq Parvinmi, durmi, tishlaringmi, ey sanam?
Qomatingmi to‘g‘riroq, ar-armi, guftorim mening?

Nur berar oymu, quyoshmu yo yuzing, yoki so‘zim,
Toleyimmi beqaror, xulqingmi yo korim mening?

Qing‘ir u va’dangmi yo qaddimmi, yo ra’ying sening?
So‘zlaringmi beasos, bod, xomxayol zorim mening?

Menda yo‘qdir sabr jindek, senda paymon-u vafo,
Beadad husningmi yoki qayg‘u bedorim mening?

Ko‘zlaring xunrezroqmu yo falak, yo shoh tig‘i,
Tezroq g‘amzangmi yo shamshirmi, bozorim mening?

Dilni ovlarmi visoling yo mening she’riy so‘zim,
Dilni o‘rtar ayriliqmi yokim oh-zorim mening?

* * *

Keldi bahor ishq fasli bu, ma’shuqi gulruxsor qani?
Ishq ahliga to‘ldi bu bog‘, oxir degil, dildor qani?

Xirman o‘lib deboyi chin, zebo bo‘lib sahro chunin,
Da’vogar ayt-chi rostin, zulfi muanbar yor qani?

Har damda shaydo bulbuli, etdi quloqqa g‘ulg‘uli,
Kimga nasib olam guli bezahmat-u, be xor, qani?

Bulbul hamon aylar fig‘on, har nolasi so‘zlar ravon,
Rost aytayin, kezdim jahon, bir do‘sti ma’nodor qani?

Hech topmadim do‘stdan asar, o‘tgan yil-u yillar digar,
Bu yil tashlar yana nazar, chin do‘st qani, chin yor qani?

Ko‘p boshni charx pastga yiqib? Ko‘p do‘stlar qo‘ldan chiqib,
Ham vahmalar dilni siqib, hushyor dilozor qani?

Ertan, Nizomiy, ochma lab, kirsang agar bog‘i tarab,
Kim ko‘rsa gar, desun “ajab, bulbuli xushguftor qani?”

* * *

Bul davlati sarmastim hushyor bo‘lur bir kun,
Uyqudagi bul baxtim bedor bo‘lur bir kun.

Tun kechalar uyqusi ketmaydi bekor oxir,
Sabr aylasam ul uyqu darkor bo‘lur bir kun.

Yopiq eshik ochilgay ham tun kecha tong bo‘lg‘ay,
Dilbar shu zayl qolmas, dildor bo‘lur bir kun.

Ohista bo‘l, ul dushman ham do‘st bo‘lur bizga,
Osudarak, ey dushman, ul yor bo‘lur bir kun.

G‘am birla alam mendan ko‘rgach sevinar yovlar,
Ko‘zlarda aziz bul on, ham xor bo‘lur bir kun.

Kofir bo‘libon qoldim dastidanu shul qo‘llar,
O‘rgan sochi belimga zunnor bo‘lur bir kun.

Oh, ahdi Nizomiyni, sindirdi o‘shal jonon,
Men qo‘rqamen ahdidan bezor bo‘lur bir kun.

* * *

Yuz Yusufi Kan'ondir, yo'llaringda qurbondir,
Yo'llaringda qurbondir, yuz Yusufi Kan'ondir.

Lablaring durafshondir, yoqut-u ziyo sochgan,
Yoqut-u ziyo sochgan, lablaring durafshondir.

Yakka o'zi sultondir husn eli diyorinda,
Husn eli diyorinda yakka o'zi sultondir.

Sirli boqishi jondir, oshubi jahondir ul,
Oshubi jahondir ul, sirli boqishi jondir.

Tan va jonda pinhondir g'amzasi Nizomiyga,
G'amzasi Nizomiyga tan va jonda pinhondir.

## QIT'ALAR

Ketding, topdi shikast mahfilimiz,
Ham mahfilimiz, ham dilimiz.

* * *

Dushmanim mendan zo'r, dilimda alam,
Bedavo kasallik davosi chidam.

* * *

Nopok kishi hikmat so'zin qaytarsa,
Yaxshi ma'nosini yo'qotmas hikmat.

Pokizaro'y kishi jim o'tirsa ham,
Go'zal tabiati barchaga ibrat.

* * *

Ul toza gulga men etib nasihat
Dedim hamnishining bo'lmasin xas-xor.

Ammo biz xokiylar yaxshi bilamiz,
Uning etagiga qo'nmaydi g'ubor.

* * *

Bir kun bir yosh yigit go'riga yetdim,
Go'rdan chiqar edi yuz nola, faryod.

"Nechun noliysan, ey navqiron?" dedim,
Dedi: "Keksalikka yetolmadim, dod!"

* * *

Hamdamim menga dedi: "Bir kun suxan asnosida,
Senga ma'lumdir falak asrori-yu kori jahon.

Ham fazilat mulkida yakto hukumdor-u amir,
Ham suxan iqlim aro sensan yagona qahramon.

Umr o'tkazma tajarrud kunjida tanho o'zing,
O'zgalar oila ahli birladir tinch-u omon".

Men dedim: "Ey fikri sha'mi jonimizga nurbaxsh,
Ey aql birla guhar zoting odamzodga hayon.

Menga amr etganlaring aslida bori yaxshiliq,
Chunki yaxshidan yomonliq kelganin bilmas zamon.

Lekin ishq kuyida ozod ersa kimki sarvdek,
Toki imkon bor ekan bo'lg'ay sarafroz, shodmon".

* * *

Hayfdir g'uncha misoli joniga solsa tugun,
Gul kabi bir necha kun bog' ichra biz ham mehmon.

Gar ayol vaslin qidirgan kimsa oning vaslidan,
Rohat-u kayf-u safo, ishrat degaydir har qachon.

Lekin undan yashnamas suhbat chirog'i hech mahal,
Men gapirsam bog'dan, tog'dan kelodir ul hamon.

* * *

Aql ko'zi bila ko'rdim juda ko'p,
Gapirmaslik ekan odam jamoli,

Ilm bahsi ila darsga berilmoq,
Bilan doim oshar inson kamoli.

Zamoni she'r-u satranj ham hikoyat
Bular birlan yetar xotir maloli.

## RUBOIYLAR

Ey o‘z qomatidan bo‘lgan sarafroz,
Ko‘zlaring pistirma qurgan tiyrandoz.
Zulfing halqasidan dili qon bo‘lib,
Belin bog‘lamadi bu ko‘ngil jonboz.

* * *

Holimizni pisand etgaysan, jono,
Husn-u jamolingga ko‘zim noravo.
Kayqubod, Xusravlar yetmagan vasling,
Bu sho‘rida havas etsa ne savdo?

* * *

Xurramlik asosi tortib qoldi nam,
Aysh-u ishrat tushdi kishanga mahkam.
Nechuk shod bo‘layin? Shodlik bo‘lmasa,
Nechun g‘am chekmayin, qonimda-ku g‘am.

* * *

In’omingdan asar kutdim, bo‘lmadi,
Duogo‘yga nazar tutdim, bo‘lmadi.
Ranj-u mehnatingga sherikman, ayon,
Rohatingdan xabar kutdim, bo‘lmadi.

* * *

Umrimiz-ku shom-u xufton orasi,
Yaxshilik qiladi odam sarasi.
Bu dunyo hech kimga qolmas abadiy,
Do‘st dilini ovla, gapning xullasi.



1619319

* * *

Yo‘l bosdik, ish qildik, barchasi o‘tdi.
Zamonsozlik qildik, boqmayin ketdi.
Fig‘on chekdik, ammo qani tovushimiz,
Umri naqdinamiz zum o‘tmay bitdi.

* * *

Ey ko‘z, ko‘rmadingmi jonon ketganin,
Yig‘imizni ko‘rib, xandon ketganin,
Bir-birin suyashdi jon-u dilimiz,
Ul esa boqmayin shodon ketganin.

* * *

Ishq niholin dilga ekdim g‘amingdan,
Ne-ne alamlarni chekdim g‘amingdan.
Ne so‘ylay, g‘amingda to‘ydim jonimdan,
Yaxshisi demayin lom-mim g‘amingdan.

* * *

Ey parizod, tishing, e’jozi falak,
Zamona adolat ko‘rsatib andak.
Daryoga pisanda etib desaki:
“Mana, durni shundoq yasamoq kerak!”

* * *

Yor ko‘yida ko‘ngil chaqqon chopadir,
Bevafo yorni deb, har yon chopadir.
Es-hushdan ayrilgan devona ko‘ngil,
Devona na bilsun qayon chopadir.

* * *

Qachonki yor qo‘lga qizil gul olur,
Go‘yo mayga to‘lar ul jomi billur.
Gul yuzi gul bilan kirsa pardaga,
Barchaga go‘zalliklar jamuljam bo‘lur.

* * *

Bu visol kechasi bir pasdek o‘tar,
Xurram nafas ol, bir nafasdek o‘tar.
Shodlik lochini bo‘l, fano kalxati,
Baqo qush-u emas, magasdek o‘tar.

* * *

Dilni faqirlikka fido qilaylik,
Fano zahmatiga vafo qilaylik.
Go‘shanishinlikni ado qilaylik,
Ko‘ngilni nishoni bano qilaylik.

* * *

Kabob yeyolmayman, to‘yganman o‘zim,
Do‘stsiz qultum suvga qarolmas ko‘zim.
Shohona majlisda mastlik — yo‘qsullik,
Men yo‘qsul, sharobga yo‘q tajovuzim.

* * *

Kayf qilishar kimga sharob yetishsa,
Dard oshxonasidan kabob yetishsa,
Ular majlisini havas qilaman,
Shoyadki menga ham gulob yetishsa.

* * *

Menga yovg‘on karam, shul ham yetadi,
G‘amim yemas sanam, shul ham yetadi,
O‘lsam dilim tirnar faqat bir narsa
Sanam tutmas motam, shul ham yetadi.

* * *

Adolat farzandi zafardir, zafar,
Zulmning mevasi zarardir, zarar.
Saxiylik aybingni yopadi oson,
Ammo baxt asosi hunardir, hunar.

* * *

Sarv qad ketidan yugurma chandon,
Xalqing ta'nasiga bo'lasan nishon.
Deya befoyda pand berma, donishmand.
Ixtiyorsiz tortar ul qoshi kamon.

* * *

Balki, sarkashlikni ko'rib boshoqda,
Boshini uzdilar uning o'roqda,
Tegirmonga solib etdilar kukun,
Avval po'stin shilib, urib tayoqda.

* * *

Fig'on cheksam do'st ham chekadi fig'on,
Sabr qilsam agar, ko'zlar nigoron.
Faqat bir narsadan dilda vahima,
Raqibim dodiga yetmasin jonon.

* * *

Ne gaplar bor qaytarishga chidamaydi bet,
Dashnom, yolg'on, ig'vo, tuhmat so'zdan uzoq ket.
Dushman so'zi deya do'stdan kechmoqlik abas,
Ne desalar desunlar, do'st birla umr et.

* * *

Ishqing mast qilganga bo'lmagil bedod,
Vafo yo'linda u mehring etar yod.
Oynaga boqqil ketmasang hushdan.
Haq sening ko'nglingda derman umrbod.

* * *

Ishqing otashidan isitmam oshkor,
Dardingdan halqumga keldi jon, ey yor.
Yuzingga o'g'rinchi boqsam, ey dildor
Qatl etmasa ajab meni shul diydor.

* * *

Ichimliklar ichra sharob a'loroq
Maykada ichida may-nob a'loroq,
Olam xarobazor, obod joyi yo'q,
Xarobada bo'lsang, xarob a'loroq.

* * *

Vafo yo'lida tan va joning boy ber,
Mol-u zar-u siym, xonumoning boy ber.
Umid jihozin yig' ikki jahondan,
Forig' o'ltir, ikki jahoning boy ber.

* * *

G'aming yukin falak ham o'lcholmaydi,
Jabringdan hech ko'ngil zahr icholmaydi.
Shavqingdan oshiqlar shunday berar jon,
Hatto Azroil ham ip esholmaydi.

* * *

Bu lablarda shakar va suv aralash,
Xummor ko'zlarida uyqu aralash
Voy, toza ochilgan gunafshaga boq,
Bosh ko'tarmish otash va suv aralash.

* * *

Turib kel sen uchun hujram yasatdim
Dasturxonim ulfat uchun tuzatdim.
Sharob-u kabobga sherik bo'l sen ham,
Ularni ko'z yosh-u dildan yaratdim.

* * *

Sen unda qolding, men esam bunda zor,
Xayolingdan o'zga yo'qdir hech g'amxo'r.
Yer yuziga chizib sening surating
Qarasam, ko'zimdan xun oqar, nigor.

* * *

Menga davo sening masiho daming,
Zahmimga davodir sening malhaming.
Men uzring, sen jurmim aytamiz tokay?
Sen qonim, men esa yutamen g‘aming.

* * *

Qaydan qidirayin, sen mendan olis, men na qilayin?
Darding kimga aytay, kim borki xolis men na qilayin?
Yaxshi bilamenki bundan buyoq seni ko‘ra olmaymen,
Dil-u jigar kuysa chiqarmayin is, men na qilayin?

* * *

Ko‘k gumbaz tagida bilmayin tinim
Pargordek aylandim sargashta muqim.
Bisyor qidirdum-u topa olmadim
Bir muvofiq do‘stki bo‘lardim taslim.

* * *

Shodmizki, bir damni olmadik beg‘am,
Bisyor qon yutdik-ku dam urmadik, dam.
Oh shu’lasi chiqmay ochilmadi lab,
Qatra tommay kiprik bo‘lmadi-da nam.

* * *

Bizlarki, joynamoz birla yopdik xum,
Mayxona xokidan qildik tayammum,
Zora yorni topsak shu butxonadan,
Uni biz cherkovda aylagandik gum.

* * *

Vaqti yetdi uzlatdan chiqarib o‘zni,
Yaxshi-yu yomondan yumaylik ko‘zni.
Avval o‘z ishimiz poyonin bilib,
Keyin boshqalardan so‘raylik so‘zni.

* * *

Bir kun Yaman shohin go‘ri ustiga borsam,
Qo‘l cho‘zdi-yu tutdi kafan, ko‘rsatib karam.
Va dedi: “Bu saxovatim ayb aylamagil,
Bu dunyoda bundan boshqa yo‘q biror narsam”.

* * *

Yo Rab, noz uyqudan uni bedor ayla,
Husni jomidan mast, endi hushyor ayla.
Yo meni bexabar ayla o‘z holimdan,
Yo uni holimdan sen xabardor ayla.

* * *

Bunda har kim to‘plar mol, zar etakka,
Jonni kaftga ol-u sol zar etakka.
Ishq bahri to‘fonli va benihoyat,
Qing‘ir qayiq qachon yetar etakka.

* * *

Bo‘ldi-ku ro‘zgorim siyoh g‘amingdan,
Tik qaddim kamondek dutoh g‘amingdan.
Firoqing shunchalar ayladi shitob,
Boshim ham bebosheb, ko‘loh g‘amingdan.

* * *

Ey bod, so‘zim nihon, ataylab aytgil,
Yuz til ila asta ochib lab aytgil.
Qo‘qqisdan gapirma, malol tushmasin,
Kezini keltirib, avaylab aytgil.

* * *

Darvish xastalikda chekar sarin oh,
Na davlati qoldi va na jahon shoh.
Yo‘qlik safariga darveshlik yaxshi,
Na shohlik tashvishi, na toj-u ko‘loh.

* * *

Kecha tun yetishdi orom-u ishrat,
Yonimda toza gul bir mohi tal'at.
Zulfi gardanini olgan kamandga,
Gardanida sochi eshilgan qat-qat.

* * *

Koshki xalq ko'rsaydi o'shal sanamni,
Bilarmidi menga tushgan alamni.
Oshiq yig'isidan kulishni qo'ysa,
Topmasmidik biror bedil, beg'amni.

* * *

Yor-u do'stdan xoli bu bechora dil,
Kim be yor-u bekas ishlari mushkil.
Bir-ikki nafasga berilmish hayot,
Dil bo'lsa, dildorsiz kun o'tkazmagil.

* * *

Jahondan topmayin muvofiq dildor,
Behuda kezamen ishlarim dushvor.
Jigarim qoni-yu ko'z yoshim bilan
Dil holin yozamen devorma-devor.

* * *

Gar oh ursam qayga yetar faryodim,
Sabr qilsam tugar umri obodim,
Birovning savdosin birovga bermas,
Har nafas sendadir, yor, fikr-u yodim.

* * *

Nay derki: "Oyog'im loyda erdi bas,
Menga o'roq soldi havo-yu havas.
Og'ir jafo kechdim kimning qo'lidan,
Ma'zur tutay dildan nolisam nafas".

* * *

Ko‘ngil bersam sendan qilay shikoyat,
Bilasenmi nechun arz benihoyat?
Parda yirtilmasa sening haqingda,
Benihoyat qilar edim hikoyat.

* * *

Ey darvesh dil, shov-shuv ko‘tarib hargiz,
Yaxshi-yu yomondan o‘girasen yuz.
Foyda yo‘q sochlaring tushib ketsa ham,
Boshingda tugun bir soch bo‘lsa hanuz.

## HIKMATLAR

O‘zga qo‘li bilan kavlama gavhar,
Qo‘l-oyog‘ing ishlat tiriksan magar.

* * *

Shunday ishni qil, ko‘tarsin holat,
Keltirmasin u senga xijolat.

* * *

Oldin bilib olib, keyin so‘zlagil,
Oltin topib, so‘ngra xarjin ko‘zlagil.

* * *

Muhabbatsiz kishi misoli muzlik,
Yuz joni bo‘lsa ham — o‘likdir, o‘lik.

* * *

Muhabbatsiz bo‘lganda olam,
Qachon tirik bo‘lardi odam?!

* * *

Xalq xizmatiga yarashga intil,
Xulqing bila bu jahonni soz qil.

* * *

Qalamga olib bedodliqni,
Xalq ichra o‘rnat obodliqni.

* * *

Sulh ila ish bitib turganda zinhor,
Tepkidan boshlama, bu kimga darkor?!

* * *

Unday dardni dono qilmagay hech yod,
Ul agar aylasa g‘anim dilin shod.

* * *

Juda ko‘p ish do‘stlikdan unmish,
Do‘st kerakdir, unsin desang ish.

* * *

Boshda aylansa ham gar tegirmon tosh,
Odam emas tortsa dilbaridan bosh.

* * *

Jonning dushmani ham gar bo‘lsa dono,
Aqlsiz do‘stdan u yuz karra a’lo.

* * *

Qadam qo‘yar joying yaxshi sanab boq,
Faqat shundan keyin ishga qo‘y oyoq.

* * *

O‘z-o‘zingga zo‘rlik qilib sher monand,
So‘ngra o‘zing bo‘l o‘z xulqingga farzand.

* * *

Egrilik keltirar boshga g‘am-alam,
To‘g‘rilik-chi, barcha g‘amlarga barham.

* * *

Qamish topdi shakar to‘g‘riligidan,
Egriligidan gul bargida tikan.

* * *

Bog‘la vafo ahdi kamarin mahkam,
Ahding buzmaslikka qadam qo‘y, shaxdam.

* * *

Qing‘ir qilmishlardan o‘giring yuzni,
To‘g‘ri yo‘lda maqsad kutadir sizni.

* * *

Insonga navozish — ehson va karam,
Ozodni ham senga etadi mahram.

* * *

O‘zgalar aybiga tetik nazar sol,
O‘z aybing ko‘rgandek, undan ibrat ol.

* * *

Agar suv top-toza, bo‘lsa ham zilol,
Ko‘p ichilsa ul ham me’daga malol.

* * *

Ikki yurak qo‘shilgan zamon —
Tog‘larni ham etishar tolqon.

* * *

Odamga aralash bo‘lsang gar odam,
Odamlar ichradir mo‘tabar odam.

* * *

Kimki o‘rganishni uyat, or demas,
Suvdan dur topadi, toshdan la’l-olmos.

* * *

Yoshlikdir-ku asli dadillikka toj,
Gohida ish keksa aqliga muhtoj.

* * *

Dono yosh bo‘lsa ham ishda seriloj,
Gohi bo‘lur keksa so‘ziga muhtoj.

* * *

To bordir sog‘lig-u yoshlik bilagi,
Ro‘yobga chiqadi har kim tilagi.

* * *

Nafsingni jiyroni bo‘larkan roming,
Ixlos tangasiga so‘qilur noming.

* * *

Noloyiq so‘z zohir etsa nodon til,
Unga sukunatni javob aylagil.

* * *

Til so‘zlaganda til, ko‘z ko‘rganda nur,
Avval uzum pishar, so‘ng shinni pishur.

* * *

Badxulq mehribondan yaxshidur yuz bor,
Shirinzabon bo‘lsa mehrsiz ag‘yor.

* * *

Chalinib tursa ham so‘zingga qarsak,
So‘zlamay o‘ltirmoq yaxshidur, andak.

* * *

Eshitganing yuvib tashla suv misol,
Faqat ko‘rganingdan de, ko‘zgu misol.

* * *

So‘zing lutfi oqsa bamisoli ob,
O‘shanda ham kamroq gapirmoq savob.

* * *

Kam gapir-u, tanla misli dur,
Oz-ozdan ham jahon liq to‘lur.

* * *

Har ayol xotinmas, har bola farzand,
Har gul meva bermas yo har qamish qand.

* * *

Ikki dilbar tutsa, ul dil dil emas,
Kimda ikki dildir ul oqil emas.

* * *

Ayol ne to‘qisa, shuni ko‘radi,
Erkak nima eksa, shuni o‘radi.

* * *

Kim oldingga boqar, xato qilmaydi,
O‘limdan so‘ng doru shifo qilmaydi.

* * *

Yoqqan o‘tin taratar tutun,
Pushaymoning foydasiz bu kun.

* * *

Noumid bo‘lmag‘il qaro kunda ham,
Qut qatrasi qaro bulut ichra jam.

* * *

Chora eshigini berkitma aslo,
Achchiq bo‘ladi-ku, ko‘pincha, davo.

* * *

Noumidlikdan ham umid urar bong,
Qaro kechadan so‘ng, otar oppoq tong.

* * *

Yaxshi bil, qaro tun tushsa ham boshga,
Oxiri yetursan porloq quyoshga.

* * *

Dunyoda yechilur har qanday tugun,
Lekin birdan emas, ohista, sekin.

* * *

Har kecha so‘ngida nuri ziyo bor,
Har bardosh so‘ngida zavqi safo bor.

* * *

Quduq qazi yerdan suv chiqsa agar,
Qon chiqar joydan ur tomirga nashtar.

* * *

Siringni aytmoqchi bo‘lsang, xo‘p sara,
Sara do‘stingga ham dushmandek qara.

* * *

Hech kim ekkanini o‘zimga demas,
Hech kim keragidan ortiqcha yemas.

* * *

Ajdodlar bog‘-u rog‘ ekib ketishdi,
Mevasiga yangi avlod yetishdi.

* * *

Biz uchun ekilgan ekan necha bog‘,
Ekaylik boshqalar uchun biz bu chog‘.

* * *

Ekish-u o‘rishdan iborat jahon,
Barcha bunda biri biriga dehqon.

* * *

Qo‘zg‘atarkan qaysi ish sharmsorlik,
Bajo etganda ham keltirar xorlik.

* * *

Hunarni ham aybga sanar aqli g‘o‘r,
Tovus oyog‘inmas, qarg‘a ko‘zin ko‘r.

* * *

Xurmo daraxt baland bo‘lmasa erdi,
Har bola toshidan ko‘p zavol erdi.

* * *

Osmon-u zaminda ne bo‘lsa bari,
Odamning fikridan emas tashqari.

* * *

Senga ma’lum qilichbozliq maholi,
G‘o‘daymaklik bo‘lur boshning zavoli.

* * *

Bu kun bir kunimga yara ey odam,
Biror kuningga yarab qolurman men ham.

* * *

Dunyodan yo‘qolib ketsa xor-u xas,
Gul-u shamshod qadrin hech kim bilolmas.

* * *

Bahor kelsa quruq gulni irg‘itma,
Sovuq qish ish berib qolar, unutma.

* * *

Yuqtirmagin dilga hech qandayin gard,
Har qandayin gard ham dilga og‘ir dard.

* * *

Bir tekis o‘smagay qo‘lda o‘n barmoq.

* * *

Cho‘ntagi bo‘m-bo‘sh odam,
Doimo xotiri jam.

* * *

Oz yaxshi — ko‘p yomondan yaxshi.
Yuz kishi huzuriga kelur bir odam,

* * *

Birning huzuriga yuz kelmas hecham.
O‘zga oyog‘i-la yo‘l yurib bo‘lmas.

* * *

Hech kim demaydi, jonim,
Achchiq mening ayronim.

* * *

Bilimsiz bo‘lsa kishi,
Durust chiqmas hech ishi.

* * *

Shunday ish tanlab ol, shunday qil mehnat,
Umringda undan hech chekma xijolat.

* * *

Hunar o‘rgan, chunki hunarda ko‘p sir,
Yopiq eshiklarni ochar birma-bir.

* * *

Bandasan-u, shohlik da'vo etasan,
Nechuk shohsankim, yovuzlik ekasan?!

* * *

Sabr qilgan bo'shar bandidan oxir,
Bandalarning kaliti sabrdir, sabr.

* * *

Nasihatim ol, ey o'g'lim yak bor,
Ota pandidan bo'lg'il hosildor.

* * *

Rohati mardum degil, ozor demak
Meva bermas, hech xijolatdan bo'lak.

## "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI

*Aziz kitobxon!*

*Inson yaralibdiki, ishq unga hamroh, u yorga mubtalo. Ishqi dunyoga doston bo'lgan oshiqlar ozmi? Tohir va Zuhro, Vomiq va Uzro, Romeo va Julyetta, Ravshan va Zulxumor, Oshiq G'arib va Shohsanam, Baiju Bavra, Antoni va Kleopatra... Ammo ular orasida Layli va Majnunga yetadigani yo'q. Bu — ilohiy muhabbat timsoli!*

*Shayx Nizomiy Ganjaviyning "Layli va Majnun" asari Allohdan insoniyatga nasib etgan, sevgi deb atalgan ana shu muborak tuyg'uning yuksak ifodasi. Hamisha tirik va tarovatli doston.*

*O'qing, Nizomiy qalamga olgan, kitobxonning qalbiga o't, ruhiga nur bag'ishlovchi go'zal ishq, boqiy muhabbat sururi sizga ham nasib etsin.*

### Debocha

***Yaratgan Rahmonir***
***Rahim ismi ila***

Ey noming erurki nomapardoz,
Noming ila noma etdim og'oz.

Ey yoding anisi naqdi jonim,
Sendin demas o'zgani zabonim.

Noming-la yechildi barcha mushkul,
Qulf ersa necha, kalitidir ul.

Ey, necha yozuvki keldi avval,
Nomingsiz etilmadi mukammal.

Ey olami borni bor etgan,
Qay qudrat o'shalki, senga yetgan?

Ey xutbang o'lib "Taborak — Alloh"[1],
Fayzingga hamisha borakalloh!

Ey yetti kelin-u[2] to'qqiz osmon
Parda tutibon qoshingda har on.

Ey borlig'i pok tariyqu chundan,
Ich-tashqarini biluvchi chindan.

Ey har neki jon-u jonsiz etding,
Bir kunfayakun[3] ila yaratding.

Ey berguvchi aql-u boisi jon,
Hukming ila bor-u, yo'q yakson.

Ey mahrami olami tahayur,
Sensiz u va sen ila to'liqdir.

Ey senga sifoting o'ldi ta'rif,
Munkar-Nakaring — amri ma'ruf.

Ey amring o'lib bajo mutlaq,
Amringga shu koinot berur haq.

Ey maqsudi barcha sohib himmat,
Ham xastav-u benavoga maqsad.

---

[1] **Taborak Alloh** — Alloh ulug' va pokdir.
[2] **Yetti kelin** — yetti sayyora.
[3] **Kunfayakun** — mavjudot olamiga ishora.

Ey surma chekib baland nazarga,
Darvozani so‘ng ochuvchi unga.

Ey sahfasi uzra darsi ayyom
Avval edi, so‘ngra topdi anjom.

Sohib sen-u o‘zgalar g‘ulomdir,
Sulton sen-u o‘zgalar qayondir?

Ey yo‘lida nuri loyazoli[1],
Chun shirkusherikdanam u xoli.

Ortiq nechakim yaratding andoq,
Ojiz uni anglamoqqa idrok.

Berding shu jahonga shakl-u tartib,
Har ayru maqomga mos-munosib.

Tong chavkari, oqshom otiga ul
Qurding o‘sha osmondek og‘il.

Yetti tugun erdi charx uzra,
Yetmish tugun ochding unda so‘ngra.

Tuproqdin etib kulingni ayro,
Yuz oyina aylading musaffo.

Har sahfaki neki so‘z bitding,
Qo‘sh harfing ila ifoda etding.

Chun ishga solib u “kof”u “nun”ni[2],
Qurding shu sipehri besutunni.

Har yerda xazinayi shigarfdir,
Qulf-u kaliti shu ikki harfdir.

[1] **Loyazol** — Xudoning sifati, abadiy, doimiy.

[2] **“Kof”u “nun”** — arab yozuvidagi bu harflar birikmasidan “kun” — “bo‘l” so‘zi hosil bo‘ladi.

So‘zdirki bari, bahosi yo‘qdir,
Har nuqtaki, hech xatosi yo‘qdir.

Olamda yaratding olshame, bas,
Bundan go‘zalin qalam chekolmas!

Har lahza chekarmen unchakim ranj,
Men xastaga aylagil ravo ganj.

Ganjingdin olinsa, hech kamaymas,
Ganj o‘zgada chun karamli ermas.

Sendin yetar ul nasibi davlat
Har bandaga, xohish etsang, albat.

Ul otashi zulmu dudi mazlum
Ahvoli o‘zingga yaxshi ma’lum.

Har qissa ko‘rinmayin, to‘qirsan,
Har noma bitilmayin, o‘qirsan.

Aql horg‘in-u sust, ko‘y qorong‘u,
Yo‘l unda ingichka qilcha, yohu!

Tavfiq nasib etmasang bu yo‘lda,
Ijro-yu amal aqlga qayda?

Nur ingay aqlga eshigingdin,
Kuygay u qadamlab o‘tsa andin.

Aqlimga o‘shal kifoyating ber,
Ber unga madad, hidoyating ber.

Men o‘ksig-u zor-u yo‘l xatarnok,
Sen rahbar esang yo‘limda, ne, bok?

Yelkamda yukimki muncha og‘ir,
Sabrim tugadi, ne bo‘lgay oxir?

Jahd etgum, agarchi men zaif zor,
Sen bor-ku yonimda, ne g‘amim bor.

Lutf ayla va yo qahr zohir,
Bol birla zahar qoshingda birdir.

Men senga asir-u zor ulkim,
Lutfing-la tirik, qahrdin o‘lgum.

Yo sharbat uzatki, no‘sh qilsam,
Yo etma g‘azam g‘azabga kelsam.

Gar qahr-u g‘azab sazoyimizdir,
Har lutf-u karam jazoyimizdir.

To jon-u tanimda bir nafas, dam,
Fitrokni[1] qo‘yarmidim qo‘limdan?

Gar so‘nggi nafas o‘limga kelgay,
Noming shu zamon tilimga kelgay.

Ul damki o‘lim nasiba menga,
Noming hanut[2] bo‘lur tanimga.

Tuproq bo‘lib, xor-u pastmen,
Har joyda esam, senparastmen.

To borliq aro bor erurmen,
Yoding ila boda sipqorurmen.

[1] **Fitrok** — ovlangan ovni osish uchun ot egariga boylangan tasma.
[2] **Hanut** — murdaga sepiladigan atr-u ufor.

Dargohing agar maskan ermish,
Shaytoni rajim menga kim ermish?

Hifzingda esam, xavf-xatar yo‘q,
Dev panjasi yetmagay, asar yo‘q.

Ehrom yopinib, ko‘yingdadirmen,
Labbayk deya izlabon yuribmen.

Ehrom buzuvchi baski bisyor,
Ehrom buzishimga qo‘yma zinhor.

Men bekas-u chun balo nihondir,
Sendek uni kim bilishga qodir?

Yo‘q menga suyanch o‘zingdin o‘zga,
Et lutf-u karamni kimsasizga.

Bir zarra u kimyoyi ixlos
Ursang shu misimga, men dag‘i xos.

Lutfing soridin tushsa bir nur,
Tuproq zar-u suv bo‘lur hamon dur.

Gavharman-u, yo safol erurmen,
Husnigga mudom yuzim surarmen.

Atring menga bermish ul atrbo‘y,
Gar udman-u yo daramna[1] badbo‘y.

Qarshingda na din-u toatim bor,
Izmingda so‘rar shafoatim bor.

Cho‘kmay hali suvlar ichra kemam,
Rahmat qil-u tut qo‘limni mahkam.

[1] **Daramna** — shifobaxsh giyoh.

Qaddimni ko‘targil-u avayla,
Jahlim otidin piyoda ayla.

Har neki nasibang ersa jonga,
Yetkur qadamimni ul tomonga.

Tun zulmatidin raholigim ber,
Nuring ila oshinoligim ber.

Tokay menga bu vahm-u ummid,
Parvona etar oy-u xurshid?

Tokaygacha burda non uchun men
Chun shoh-u gadoga yolborurmen?

Sufrang kabi sufra bormi to‘kin,
Lutf-u karamingga teng kelur kim?

Xirmoning ulug‘, ber zakotim,
Ayb-u gunahimga yoz barotim.

Bir paykal erurmen, xor-u barbod,
Tuprog‘-u suvingdin ayla obod.

Tuproq bir eshik tubidin, unsin,
Suv berki, xashakni chetga sursin.

Ul kun olaringda jonni tandin,
Nuri guharing ayirma mendin.

Ul damki berarsen olganing boz,
Bir soya boshimga keltirib yoz.

Ul soya yiroq emas chiroqdin,
Nuri taralur yaqin-yiroqdin.

To nuring ila nur bo‘lsam,
Nur bo‘lsam-u, soyadin uzilsam...

Har kim ila bunda hamnafasmen,
O‘tgan u damimga shod emasmen.

Ahddin u eshiklar erdi xoliy,
Illo, eshiging — loyazoliy.

Har ahdki hayotdadir, hayotdir,
Gar kelsa o‘lim, u besubotdir.

Ahdingni, u ahdi jovidoniy,
Ya’ni o‘lim-u tiriklik oni.

Ko‘rsam necha ahd aro o‘zimni,
Ahdingdin o‘girmagum yuzimni.

Yoding ila men olib nafasni,
Yod etmagum unda o‘zga kasni.

Avvalda, hali yaralmagandim,
Bu tarzu nizomni bilmagandim.

Tuproqdin o‘zing yasab tanamni,
Berding anga so‘ngra shu adamni.

Ul lahzaki borlig‘im yaratding,
Oroyishi suratimni etding.

Endi-chi, nishonagohi judman[1],
To vaqti adamgacha vujudman.

Har qayda o‘tir, deding, o‘tirdim,
Har joyda itoatingda turdim.

[1] **Judaman** — bu yerda in’om, ehson.

Bir chokar[1] edim yo‘lingda har goh,
Maskan menga gohi taxt, gahi choh.

Gar keksa va yoki navqironman,
Yo‘l ayricha, men esa hamonman...

Gar gohida turfa tusda holim,
Avvalgi yo‘limdadir faolim.

Behojat etib yaratding avval,
Oxirda qulingni etma mahtal.

Gar yetsa o‘lim, ne qo‘rquvim bor,
Eltgay meni ul qoshingga zinhor.

Ne ermish o‘lim? U — bog‘-u bo‘ston,
Do‘st qasriga boshlaguvchi posbon.

Tokay o‘laman deb oh uray men?
Sendin kelur ulki, bas, o‘lay men!

Yo‘q-yo‘qki, o‘lim emas u mutloq,
Ul joyni qo‘yib, bu joyga kelmoq.

Oshxonadin ul yotoqqa kirsang,
Shoh bazmiga so‘ng kirib, o‘tirsang.

Bazmingga yetaklar ersa uyqu,
Jonimga tutash farog‘atim bu!

Shavqing ila ul yotoqqa yurgum,
Shod uxlab-u, shodmon turgum.

Gar banda Nizomiy ul chekib dard,
Bu nazmi duoga etdi jur’at.

[1] **Chokar** — xizmatkor.

Bahringdin erur bulut, unutma,
Bir qatra to‘kilsa, zoye etma!

Gar yuzta lug‘atda so‘z namoyish,
Har so‘zda seni etar sitoyish[1].

Uzri huzuringda yuz hazordir[2],
Ming bitta magar gunohi bordir.

Ul so‘z demagay tang holdin,
So‘z qayda kelur zaboni loldin?

Tan ersa qaro, yaratganing ul,
Xat ersa xato, bitganing ul.

Har neki yozibsan unda, yuvgin,
Bu ezmaligimni menga qo‘ygin.

Vallohki, yana gunohga borsam,
Amri adabim o‘zinggadir tan.

Ulki ajalim kelmasidin,
Erkimni qo‘limdin olmasidin.

Ber menga ziyorati qabulim,
Ul ravzati turbati Rasulim...

**Rasuli akram sallallohu alayhi vassalam vasfida**

Ey jumla jahon shahsuvori,
Sultoni xirad, zafar shiori.

Ey barcha nabiylar ichra yulduz,
So‘nggi asal-u avvalin tuz.

[1] **Sitoyish** — madh, sano, maqtov.
[2] **Hazor** — ming.

Ey mevayi ilkin-u shirin ham,
Lashkarkashi ahdi oxirin ham.

Ey hokimi kishvari kifoyat,
Amring ila fath o'lur viloyat.

Har kimsaki senga qarshi turgay,
Shamshiri adabga o'zni urgay.

Ey o'tdi u Sidra uzra rohing,
V-ey manzari Arsh poygohing.

Ey xoking emishki to'tiyodin,
Olam ko'zi ravshan o'ldi ondin.

Har shamki sendin olmagay nur,
O'z epkini kasridin so'nar ul.

Ey qabilalarga til topgan,
Har zarbiga ham dalil topgan.

Ey sohibi hujjati ilohiy,
Bilguvchi u rozi subhgohiy.

Ey sayyidi borgahi kavnayn,
Hassobayi shahri qoba qavsayn.[1]

Bording u baland Arsh sori,
Yetmish ming pardadin yuqori.

Ey sadrnishini ikki olam,
Mehrobi zamin-u osmon ham.

Osmonni zamin etdi dining,
Yo'q-yo'qki, u osmon zamining.

[1] Ey ikki dunyo qasrining xo'jasi,
Qoba qavsayin shahrining ustasi.
Qoba qavsayn — ikki yoy oralig'i. Yaqin masofadan. Me'roj kechasi Alloh va Muhammad (s.a.v.)ning o'zaro yaqinlashuvi.

Ey olti jihatni lol etgan,
Ul yetti falakka oti yetgan.

Olti-yetti ming yilki o‘tgay,
Bu dabdabani jahon eshitgay.

Ey aql so‘rab taomi xoning,
Jon bandanishini ostoning.

Sensiz esa aql, u kesikdir,
Sensiz esa jon, u o‘likdir.

Ey kunyatu nom senga Muayyad,
Bulqosim erurki, ul Muhammad.

Aql chu xalifayi shigarfdir,
So‘z lavhida ul tamom harfdir.

Bir muhri muayyadi ko‘rinmas,
To mehri Muhammadi ko‘rinmas.

Ey shohi muqarraboni dargoh,
Bazmingga qurildi yetti xirgoh.

Ey sohibi har viloyati jud,1
Maqsudi jahon, jahoni maqsud.

Ey durri xulosayi maoniy,
Sarchashmayi obi zindagoniy.

Xoking u — chiroyi ro‘yi odam,
Chehrang u — charog‘i chashmi olam.

Davronki, qoshingda mot o‘ldi,
Yetti ot ila piyoda qoldi.

[1] **Jud** — saxovat.

Sajdangga hamisha charx yugurmish,
Mag‘rib bo‘lurin bahona qilmish.

Yulduz haraming tavof etgay,
Ko‘k sahniga yo‘lni ul yo‘qotgay.

Kimdirki u nuri tobishingda,
Tuproq kabi past emas qoshingda?

Iksiring etib xokni anvo,
Yolg‘iz seni deb yaraldi dunyo.

Sarxayl o‘zing-u, barcha — xayling,
Maqsud sen-u, barcha sen tufayling.

Sultoni sariri koinotsen,
Shohanshahi kishvari hayotsen.

Lashkargahing osmoni xuzro,[1]
Soching senga xayma,[2] g‘amza — tug‘ro.

Besh karra namoz — tavbadir ul
Besh karra urilgay unda dovul.

Din uyida besh etish-la bunyod,
Kesding necha ming zulm-u bedod.

Ul xonaga yetti saqf[3] aylab,
To‘rt xalifaga vaqf aylab.

Siddiq sidqi-la peshvo ul,
Foruq farqdin judo ul.

[1] **Xuzro** — moviy.
[2] **Xayma** — chodir.
[3] **Saqf** — shift.

Ul piri hayotiyi Xudotars[1]
Ul sheri Xudoga erdi hamdars.

To‘rt pahlavon erdi to‘rt o‘g‘lon,
Bir havzadin erdi sabza rayhon.

To‘rt xalifa etdi mulk barpo,
To‘rt had ila xona ul muhayyo.

To‘rt yoni tutashdi to‘rt yona,
Tiklandi ajab u to‘rt xona.

Diningaki to‘rtta tog‘ berding,
To‘rt gumbazi yarqiroq berding.

Qoshing kabi to‘rt husniofoq,
Bo‘ldi gahi juft-u gohida toq.

Uzding uni, erdi halqayi farsh,
Bir raqs ila manziling etib Arsh...

## Hazrati Payg‘ambarimiz (s.a.v.) me’roji

Ey naqshing u — ma’raji maoniy,
Me’rojing u — naqli osmoniy.

To yetti xazinaniki ochding,
To‘rt gavhar uza qadamni bosding.

Ahvolshi zamona tang ekanda
Qo‘yding qadaming falakka tunda.

Tun bayrog‘ini ko‘targan ul dam
Tun rangli Buroqing uchdi ildam.

[1] **Xudotars** — Xudodan qo‘rquvchi, uchinchi xalifa Usmon ibn Affon.

Go‘yoki qanot chiqardi poying,
Xilvatgohi Arsh bo‘ldi joying.

Uchding, qo‘yib ul saroyi foniy,
To avji saroyi Ummahoniy.

Jibril dedikim: bo‘lib nigoron,
Bel boyladi xizmatingga osmon.

Ul yetti falakki ustuvordir,
Bor jumla yo‘lingda intizordir.

Turgil, emas endi fursati xob,
Oy muntaziringdir, ey oftob!

Harfingdin Utorud holi dushvor,
O‘z holidin ul emas xabardor.

Zuhro, boshida tabaq to‘la dur,
Kutgay, ne zamon yuzing sochar nur.

Xurshid yo‘lingda chun hiloldir,
Yo‘l zahmati birla bo‘yla holdir.

Mirrix — mulozimi yotog‘ing,
Yo‘lingda yugurdagi ushog‘ing.

Nur kelgusi Mushtariy tarafdin,
Asrar seni ul yomon nazardin.

Kayvon qora bayrog‘in tikib, zor,
Har lahzada xizmatingga tayyor.

Bu nurli jamoat ichra shodon,
Shartdir yurib o‘tmaging, xiromon.

Bu kecha qadr tuni, shitob et,
Qadringni qadr tuni hisob et.

Oroyishi sarmadiy bu kecha,
Me'roji Muhammadiy bu kecha.

Qandoq kecha bu, misoli kunduz,
Bo'ldi qadamingdin olamafruz.

Pargor qo'yib eshigingga avval,
Chizding u sipehr uzra jadval.

Chaqmoqni Buroq nom etding,
Rifqi ravishingga rom etding.

Taxt erdi ajabki ul senga xos,
Etding, ne sharafki, ko'kka parvoz.

Bir ot ila chun qanotni yoyding,
Davron edi ikki otli, qo'yding.

Ul qasri falak to'rt tarafdin,
Tutdi senga necha ming samardin.

Oq-u qizil erdi mevayi bog',
Baxshi nazaringda ishq edi toq.

Oshganda u damda yetti olam,
Qoldirmading unda tos-u parcham.[1]

Charx parchami yirtilib qo'lingda,
Oy tosi-da sindi ul yo'lingda.

Qarshingda hama tovus liqolar,
Qayrildi qanoti, to'kdilar par.

[1] **Parcham** — bayroq.

Jibril horidi, qolib oyoqdin,
Alloh senga yor, dedi yiroqdin.

Mikoil edi, ko‘tardi boshga,
Eltdi seni o‘zga xo‘jatoshga.[1]

Isrofil yurib edi jadallab,
Qoldi u yarim yo‘l uzra charchab.

Rafraf[2] edi ul rafiqi rohing,
Yetkazdi, yetishdi sidragohing.

Sidra boshidin osharda ildam,
Avroqi hadisni yozding ul dam.

So‘ng xayr debon yetti farshga,
Yetding u zamon yuqori Arshga.

“Sabbuh!” deyishib o‘shanda qancha,
Nuringga g‘usl etishdi barcha.

Arsh chodiridin nariga o‘tding,
Yetmishta niqob erdi, yirtding.

Qoldi bari ul bisot-u ul raxt,
Qoldi o‘sha mulk-u toj ila taxt.

Bozori jihatni sindirib bot,
Bo‘lding o‘sha past-balanddin ozod.

Bo‘ldi senga bo‘yla manzili mos,
Tangri huzurida xaymayi xos.

[1] Xo‘jatosh — xizmatkor.
[2] Rafraf — Payg‘ambarimiz (s.a.v.) me’roj yo‘lida mingan ikkinchi ot.

Ham hazrati Zuljalolni ko‘rding,
Ham sirri kalomi Haqni so‘rding.

Ul g‘oyati vahm-u g‘ayri idrok,
Ham ko‘rganing-u eshitganing pok.

So‘rding uni, ulki erdi koming,
Istakka ravo ko‘rildi noming.

Topding Haqi hazratingga qurbat,[1]
Qaytding, tilaging bo‘lib ijobat.

Gulnor ochildi manglayingdin,
Ehson sochildi yenglaringdin.

Afv etdi gunohimizni Tangri,
Ul fayzi shafoting tufayli.

Bizga ne g‘amki, shohimizsan,
Soyangni solib, panohimizsan.

Ul joydaki ravshan ersang, oftob,
Yo‘q bizga ajab, charaqla har tob.

Daryoyi muruvvat o‘ldi roying,
Xuzroyi nubuvvat o‘ldi joying.

Sensiz qani xalqqa ul muruvvat,
Yopiq edi qopqayi nubuvvat.

Sendin kishikim chekar qadamni,
Baxti uz aul chizar qalamni.

Har kimsaki senga hakmjihatdir,
Maskan anga manzari abaddir.

[1] **Qurbat** — yaqinlik.

Bog‘i Iram ul umid-u biming,[1]
Xarjini to‘lab, tilar nasiming.

Ey mas’adi osmonni bitding,
Bir ganj kabi shu zaminga
qaytding.

Ul sur’ati osmonxiromiy
Sirrini so‘yla der Nizomiy.

Tokay bul ajab niqob tutarsen?
Tokaygacha uyquda yotarsen?

Turgil-da, hamon niqobni yechgil,
Shohsen, iki-uchni ruxga qo‘shgil.

Bu sufrani yukdin nari sur,
Bu pardani ishdin ol, uloqtir.

Rang ikki qarodin oqni sayla,
To‘rt ziddiga ul tab’ingni shayla.

Bir ahdli et ikki bevafoni,
Bir qo‘l dag‘i ayla chorponi.

Chun tarbiyati hayot etding,
Halli hama mushkilot etding.

Ul nofadin ufla yelga tibe,[2]
Etgil ani bizga ham nasibe.

Ul lavhki, o‘qiding bidoyat,[3]
Bir sori tushirgil andin oyat.

[1] **Bim** — qo‘rquv.
[2] **Tib** — xushbo‘y hid, atir.
[3] **Bidoyat** — ibtido, avval.

Ul sarfaki, ul topildi besarf,
Yoz daftarimizga jilla bir harf.

Ko‘rsat ani bizga, kim ekanmiz,
Butgarmi va yoki butshikanmiz?

Ey bahri Xudoki, et shafoat,
Dildan bu duoga qil qanoat.

Sendin o‘sha barcha ish, tamomiy,
Sendin o‘sha bahrayi Nizomiy.

To parda tushirki, ko‘rmasinlar,
Ul pardaki bor, ko‘tarmasinlar...

## Borliq yaratilishi xususida qat’iy burhon-u dalil

Har kimga nasibi kom bermak,
Shahr ahliga jumla jom bermak,

Fayz berguchi abri jud[1] bo‘lmak,
Naysoni hama vujud bo‘lmak.

Har yon to‘kilib misoli may, mul,
Kulmak, ochilib misoli bir gul.

Har joyda quyoshdek yuz ochmak,
Yo‘llarga nisori zar sochmak.

So‘ng barchaga bori baxshish etmak,
Qarzi esa, qarzidin kechmak.

So‘rmak shu jahonda: eyki odam,
Ne tarzda yaraldi ushbu olam?..

[1] **Abri jud** — saxovat buluti.

So‘z lozim erurki, kor qilsin,
Gulg‘uncha misoli xanda ursin.

Yengimda so‘zimki shakkarindir,
Sochgum uni, yor nozanindir.

Tinglay, uni men sochib butkul,
Farzandi azizim ne degay ul?

To barchaga chun g‘izo berib men,
Qismi jigarim qo‘shib berurmen.

Ey noziri naqshi ofarinish,
Och bizga u rohi ilm-u donish.

Yo‘lingda chu kimsada vujuddir,
Mashg‘uli ibodat-u sujuddir.

Hay-huylama to‘ldirib havoni,
Bekor dema kimsadin navoni.

Har zarraki, garchi u g‘ubordir,
Dunyoda uning-da o‘rni bordir.

Bu yetti hisor-u garduni toq,[1]
Ermakka yaralmamish u mutloq.

Bu yetti ravoqki, unda parda,
Bekorgami yo‘q bo‘lur magarda?

Keldik shu jahonga sen-u men — biz,
Bilgilki, o‘yinga kelmaganmiz.

Kelganda azaldin ulki darsdir,
Hirs-u yemak, uxlamak emasdir.

[1] **Hisor** — qal’a, qo‘rg‘on.

Yeb-ichmag-u uxlamakda ne bor?
Ul mol-u eshakda bo'lgay oshkor.

Ta'b o'ldi u moyadin muqarrar,
Ki bizga yozildi o'zga daftar.

To boqsag-u bunda roz qidirsak,
Sarrishtayi ishni boz qidirsak.

Ko'rsak shu zamin-u osmonni,
Tadqiq nazar etsak har tomonni.

Bu kimning ishi va ne uchundir?
Sohib hunari adosi kimdir?

Har xatki, bu sahfa uzra bitmish,
Shak yo'qki, uning o'zi yaratmish.

Har neki muvofiq unda, sozdir,
Tartibi guvohi korsozdir.

Ont ichgum bu haqki ul Xudoyim,
Bu nuqta — sabog'i rahnamoyim.

Ko'rmishmi jahonda kimsa ko'zgu,
Sayqal sira bunda topmamish u?

Sayqalsiz ul oyina maholdir,
Sayqalsiz o'lur dema, vuboldir.

Har narsani aylaganda tahqiq,
Yor et nazaringga nuri tavfiq.

Ko'rma unikim, nechuk yaratmish,
Ulkim, nazari bu yanglig' ermish.

Ko‘rgil, ne yanglig‘ ul berib dod,
Etdi shu kor-u borni bunyod.

To senga shu nuqta lozim o‘lgay,
Bir boshqa anga mulozim o‘lgay.

Chun rasmga mashg‘ul o‘ldi rassom,
Qolmas senga jahl-u, menga dashnom.

Har naqshi go‘zalki, bori san’at,
Undan kelur ulki, undan albat.

Sarrishtayi rozi chun yaralmish,
Oddiy ko‘z uni ko‘rolmas ermish.

Bu rishta qazodin onchunondir,
Sarrishtani topmog‘ing gumondir.

Tangri o‘zi tugdi bul tugunni,
Bir kimsa yecholmas ul tugunni.

Ojiz anga aql, lol-u shaydo,
Bu sirni nechuk u etdi paydo?

Bilsa kishi, chun jahon etgay,
Mumkin u dag‘i chunon etgay.

Bas, vaz’i jahon ko‘p maholdir,
Sig‘mas o‘sha, nechakim xayoldir.

Ul pardayi sirri osmoniy,
Sirri siz-u biz uchun nihoniy.

Har nechaki ot surarmen, evoh,
Sirriga uning yetolmam aslo.

Ul taxtaga men terib ruqumni,[1]
Bildim hama nusxayi nujumni.

Har nechaki angladim o‘qib xat,
Jonimga yetishmadi farog‘at.

Bildim, ne amalki soz etibdir,
Ta’bi hunariga mos etibdir.

Har neki nazarga oshkordir,
Bag‘rida nihon xazina bordir.

Ochmoqqa xazinaning kalidi,
Yo‘q, shisha dema, po‘lat kerakdi.

Andoqki, xazinaga kirib sen,
Sharbat so‘rab og‘u so‘rmagaysen.

Ma’lumki, xazinalarda har chog‘,
Og‘u bo‘lur hamda dori-taryoq.

Musoda xazina erdi gavhar,
Horunda xazina sim edi, zar.

Lek o‘rtada farq onchunondir,
Bu manfaat, ul haloki jondir.

Har narsaki, ul ko‘rinmas ermish,
Jadvalkashi unga xat chekmish.

Avjidin o‘tarkan har safar xat,
Qaytishni iziga istar, albat.

Andishaga bo‘lsa bo‘yla mashg‘ul,
Qaytish, yana qaytish istagay ul.

[1] **Ruqum** — raqamlar, yozuvlar.

Pargor chizib ul daroz, qaytar,
Avvalgi qadamga boz qaytar.

Bu halqaki girdi xona ermish,
Maqsad anga shu, bahona ermish.

Kim boshini halqadin chiqargay,
Sargashta bo‘lib, alamda qolgay.

Zanjiri falakka tegma zinhor,
Bu silsilaning ham oxiri bor.

Gar hukmi tabiat ersa, qo‘ygil,
Oxirgi yetishni unga yo‘ygil.

Bundan naridir havolagohi,
Ul joyi tariyqi ajz rohi.

Ul pardadin ol nasim nafasni,
Chalg‘itmadi yo‘ldin u kasni.

Bu yetti falakki, pardasozdir,
Andin shu xayolga raqsi nozdir.

Bu pardadin hech tarona kelmas,
O‘z-o‘zini ul tanishni bilmas.

Bu parda bilindi bu qiyosdin,
Pardang nima asli, bilmagaysen.

Gar Borbad esang-da, sehr-u ovoz,
Beparda birovga chalmagil soz.

Gar pardadaronlar[1] ersalar jam,
Bir lahza ularga bo‘lma hamdam.

[1] **Pardadaronlar** — behayo, odobsizlar.

Ul pardani so‘rki, chun Nizomiy,
El nazdida nom qozon, kiromiy.

Tokay shu zamin aro qolursen,
Tuprog‘-u shamolga yem bo‘lursen?

Yeldek yelasan quvib o‘shal xok,
Mashg‘uling hamisha xor-u xoshok?

Yeldir tilagi hamisha xokdir,
Farroshi cho‘nqir-u mag‘okdir.

Bundan olib, unga topshirar ul,
Goh olgay-u, gohi keltirar ul.

Yer uzra u necha mamlakatdir,
Tuproqdir o‘shal, qavat-qavatdir.

Goh zilzila, gohi sel turgay,
Goh xirmon uyar-da, goh supurgay.

Sel yuvsa-yu, sursa zilzila, bas,
Yer sahni, xaritaga tushar darz.

Darz boshiga tig‘ chekarkan ayyom,
Vodiy bo‘lib ul topar saranjom.

Anhorki, ochar dasht aro yo‘l,
Yel oqimi, suv nishobidir ul.

Yer uzra kezib, ko‘rarsen ishlar,
Ham sahni falakda o‘zgar ishlar.

Har bittasi boshqasi uchun shart,
Koptok misoli shart-u surat.

Bu shaklki, kurrayi Zamindir,
Atrofida neki bor, chunindir.

Har dud bu mag‘okdin uchsa har dam,
Turgay necha nayza yuksalib jam.

Goh-gohida mayl etib mag‘okni,
Qaytar u, tavof etar shu xokni.

Parkor kabi charx aylanishda,
Tayyora[1] emasmi shu ravishda?

Tark aylabon ul bulut biyobon,
Avj manziliga borar shitobon.

Avj nuqtasiga yetar quyundek,
Ul nuqtasidin osholmagay lek.

So‘ng doira qaydida qolar ul,
Ham doira shaklini olar ul.

Boqsang, bamisoli chodiri chosh,
Yer ufqiga enkayib qo‘yar bosh.

Ko‘rding, ne emish u ko‘ch-u xayli,
Doira bo‘lish uning-da mayli.

Har javhari fardki, u basitdir,
Mayli o‘sha sahnayi muhitdir.

Gardunki, muhiti yetti mavj ul,
Etgusi bu yuksalishda avj ul.

Gar o‘rni ufuqdadir, balandda,
Har joyda u talpinur balandga.

[1] **Tayyora** — bu yerda parvoz qiluvchi ma’nosida.

Andoqki jahonxirom uningdir,
Yuksaklik o‘shal tamom uningdir.

Ey senki shu yuksalishga intiq,
Yo‘q yuksagi ul falakdin ortiq.

Gar ilmi falakda yo‘q rasolik,
Lek barcha ilmda — ro‘shnolik.

Gar moya tariq va yo qaro pul,
Bor to‘rtta guhardin intirok ul.

Bilmas kishi, dona yakka-yu toq,
O‘sgay suv-u tuproq ichra qandoq?

Tuproqki o‘sishda moya, albat,
Qandoq berur unga shakl-u suvrat?

Tuproq kabi toptaluvchi joydan,
Bir dona boshoq jamoli qaydan?

Bas, donasidin boshog‘i kelmish,
Kim qolip-u suvratiga solmish?

Chun fikr-u xayolki charx urgay,
Oxir sababin uning qidirgay.

Nazdingda o‘shal sabab ne erdi?
Ko‘rgil, bu suxan azizdir endi.

Bilguvchi hama sabani orif,
Bilgayki, sababchi ul musabbib.[1]

Zinhor, Nizomiy, sen etib sayr,
Mayl aylama, bo‘lma tutqinidayr...

[1] **Musabbib** — boshlang‘ich sabab, ya’ni Parvardigor.

## Kitobning yozilish sababi

Ul kunki muborak erdi, shodlik,
Ko‘nglimda nishoti kayqubodlik.

Qoshimni yozib, hilol aylab,
Devoni Nizomiyim varaqlab.

Baxtimga tutibon yuzimga oyna,
Iqbol uribon sochimga shona.

Tong bir dasta tutib qizil gul,
Har lahza to‘lib quvonchga ko‘ngil.

Parvonayi dil charog‘ ila mast,
Men bulbuli bog‘-u bog‘ sarmast.

So‘z avjida dil chekib alamni[1],
San’at uza ul surib qalamni.

Minqori qalam teshar edi la’l,
Til lafzida nukta erdi har gal.

O‘y tushdi yurakka: vaqti kordir,
Iqbol rafiq-u baxt yordir.

Tokay nafasim quruq kechirgum,
Mashg‘uli jahondin ayru turgum?

Davronki, nishoti kam emas, mo‘l,
Kim borsa quruq, quruq etar ul.

It och esa, gar azobda joni,
Intilmasa, qayda unga noni?

Sen sozi jahon, navoga bo‘l jo‘r,
Jo‘r bo‘lsang agar, jahon seningdir.

[1] **Alam** — bayroq.

Gar kimsa havoga bosh ko‘targay,
Ul barchaga chun havo yuborgay.

Chun oyina qayda ersa har on,
Yolg‘ondakam aks etar namoyon.

Har ta’bga u zid, xilof izlar,
Kaj parda kabi xilof so‘zlar.

Ey shohim, agar buyuk bo‘larding,
Bir ishni menga ravo qilarding.

Men qur’a ochib, ko‘rar ekan fol,
Yulduzlar uchib, ko‘rindi xushhol.

Qosid[1] shu zamon yetishdi nogoh,
Keltirdi u amri hazrati shoh.

O‘n-o‘n besh edi satrda, berdi,
Xatti xub ila bitilmish erdi.

Har harfi bahorda misli bog‘e,
Shu’la taratishda shabchirog‘e.

“Ey mahrami halqayi g‘ulomiy,
Jodusuxani jahon, Nizomiy!

Subhiy nafasing-la so‘z bayon et,
Bir o‘zgacha sehri so‘z ayon et.

Lofi ajab ichra ayni fursat,
Ul bori fasohatingni ko‘rsat!

Istarmen etarda yodi Majnun,
Aytsang necha so‘z, durri maknun.

[1] **Qosid** — chopar, elchi.

Chun bokira Laylidek shu asno
So‘z ayt necha dilkash-u musaffo.

To aytayin undakim: “Shakar bu!”
Bosh tebratayinki: “Toji sar bu!”

Minglarcha yozilgan ishqnoma
Uzra yana so‘yla, chek xoma.

Shohdir hama harf-u so‘zga bu harf,
Shoyad anga aylasang suxan sarf.

Forsiy-arabiyda et nisoro,
Ul yangi kelinga zeb-u oro.

Baytingga o‘zim bahoni bergum,
Yangisini eskidin ayirgum.

To toza, musaffo oltining bor,
Sen soxta dinorga boqma zinhor.

Ochganda u huqqayi tafakkur,
Yod et tizishingni kimga deb dur.

Turkiy sifati vafoyimizmas,
Turkona suxan sazoyimizmas.

Ulki nasabi balanddin ermish,
Aytar so‘zini baland dermish...”.

Shoh so‘zi quloqqa yetdi andoq,
Tark etdi boshimni aql-u idrok.

Na raddiga ul yetib majolim,
Na ganj sari yo‘l topishga holim.

Sargashta bo‘lib, chekib xijolat,
Bechora edim, shikasta holat.

Yo‘q mahrame, unga roz aytsam,
Bu qissa ne erdi, boz aytsam.

Farzand — Muhammadi Nizomiy,
Jonimga u jon erur, kiromiy.

Bu xatni qo‘yib qo‘limga ortiq,
O‘ltirdi yonimda soya yanglig‘.

Dedi oyog‘im o‘pib shu ora:
“Ko‘kka chekar eding nog‘ora!

Xisrav-la Shirinni yod etding,
Xalq ko‘nglini necha shod etding.

“Layli ila Majnun” endi so‘yla,
Ul toza guharni juft ayla.

Bu noma bayon etilsa, yaxshi,
Tovus ila tovus ersa, yaxshi.

Xossa malike, u shohi Shervon,
Shervon ne, u shahriyori Eron.

Ne’mat ulashuvchi, chorasoz ul,
Sohib karam-u suxannavoz ul.

Sendin so‘ramish, shu nomani yoz,
O‘ltirgil-u, noma ayla pardoz...”

Dedim: “Bu so‘zingda jon emas kam,
Ey oyinarux, fikri mahkam!

Naylayki, havoda ikki rangdir,
Andisha azim-u siyna tangdir.

Dahlizi fasona bo‘lsa gar tor,
So‘z yurmagi unda baski dushvor.

Maydoni suxan keng bo‘lgay,
To ta’bi suvoriying ko‘ringay.

Mashhur esa-da bu nuqta chindan,
Tafsiri nishot yiroqdir andin.

So‘z lazzati ul nishot-u nozdir,
Ul ikkisidin bahonasozdir.

Oshuftalik ichra band-u zanjir
Etgay uni belibos-u dilgir.

Oroyishi haddin oshsa har gal,
Qissa yuziga solur ajinlar.

Gar manzil-u yo‘lni bilmayurmen,
So‘z bor nechakim, bayon qilurmen.

Na bog‘-u na bazmi shahriyorlig‘,
Na soz-u na may, na komgorlig‘.

Dasht otashi, tog‘-u toshi jon so‘z,
Tokay bu alam aro kechar so‘z?

So‘z bo‘lsa, anga sevinch qovushsa,
To qissada bayt o‘yinga tushsa.

Chun bo‘yladir ibtidoyi holat,
Hech kimsaga yetmagay malolat.

Aytuvchi yozar ekan qanotin,
To aytsa buni, tiyilsa andin.

Ul shohi jahonki amr etar: yoz,
Nomimga chu noma ayla pardoz.

Gar ersa-da torlig-u masofat,
Men ungacha yetkazay latofat.

To hazrati shohga manzur o'lsin,
Yo'liga guhar bo'lib sochilsin.

O'quvchi agar fasurda ko'ngil,
Mast bo'lsin anga, tirik esa ul!"

Boz u xalafi xalifazoda
Ganj eshigin ochdi shul aroda.

Bir dona u, avvalin futuhim,
Bir lola u, oxirin sabuhim.

Dediki: "So'zing barobarimdir,
Ya'niki aziz birodarimdir.

Ayturda bu qissani kerak chust,
Andishayi nazming aylama sust.

Har joydaki ishq sufra ochgay,
Bu qissa taomga tuz sochgay.

Garchi tuzining tuzik tobi,
Lek sufrada xom erur kabobi.

Gar xom sening sixingga o'tgay,
Ul pishga-yu lazzatiga yetgay.

Zebo sanam, ulki chehrasi gul,
Shu damgacha yuzlari ochiqdir.

Kimsa ko‘zidin yiroda qolmish,
Ochiq yuz ila, firoqda qolmish.

Jon deb kishi gar joni kuymas,
Ul ko‘ylagi oriyatin kiymas.

O‘z husnini jonidin topar jon,
Ul joni azizni qo‘ymas inson.

Jonbaxsh shu jahonga ul damingdir,
Bu joni azizki, mahramingdir.

Sendin amali suxanguzorlik,
Bizdin bu duo-yu baxtiyorlik!”

Bu daldani eshitib jigardin,
Dil berdim anga, kechib jigardin.

Gavhar qidirishni odat etdim,
Kon qazdim-u kimiyoga yetdim.

Tab’im qidirib rohi ko‘toh,
Olis deya yo‘l chekar edi oh.

Yo‘l yo‘q edi bundanam yaqinroq,
Har to‘xtami tez yetardi andoq.

Dengiz edi, mo‘l baliqlar unda,
Jonliq edi, bas, emasdi murda.

Ko‘p so‘zda deyildi bu halovat,
Yo‘q erdi ularda bu tarovat.

Qalb dengizidin birorta g‘avvos,
Keltirmadi bo‘yla gavhari xos.

Har bayti misoli rishtayidur,
Beaybdir-u san’at-u hunardur.

Izlarda bu bebaho matohim,
Bir qilcha toyilmadi oyog‘im.

So‘ylardim-u, dil javob berardi,
Kavlardim-u, chashma ob berardi.

Aqlimdin olib, darj qildim,
Zeb-zevarim unga xarj qildim.

To‘rt mingding oshiqroq erdi bayt ul,
To‘rt oy ichida bitildi butkul.

Gar boshqa ishim harom bo‘lurdi,[1]
O‘n to‘rt kechada tamom bo‘lurdi.

Bu yangi kelinga termilib shod,
“Obod!” desa kim, bo‘lsin obod!

Orasta bo‘lib, bezandi xushhol,
Salhi rajab ichra se-yu fe, dol.[2]

Tarixi ayon: besh yuz yilday,
Sakson to‘rt anga keyin qo‘shilgay.

Chun zeb-u jamolini tuzib men,
Bu taxti ravonga o‘tqizib men.

Derman: bu sanamga solsin, illo,
Qutlug‘ nazarini hazrati shoh...

[1] Ya’ni boshqa ish-tashvishlarim bo‘lmasaydi.

[2] **Abjad hisobida Se** — 500, **fe** — 80, **dol** — 4 raqamiga teng. Bu hijriy 584, milodiy 1188-yil demak.

## Shirvonshoh Axsaton ibni Manuchehr madhida

Ey sohibi taxti podsholik,
Ey noziri oq ila qarolik.

Sarxayli sipohi tojdorlar,
Sarjumlayi jumla shahriyorlar.

Xoqoni jahon, malik muazzam,
Mutlaq malikulmuluki olam.

Sohibjihati jalol-u tamkin,
Ya'niki jaloli davlat-u din.

Tojdori kabir Abulmuzaffar,
Zebandayi mulki yetti kishvar.

Shervonshahi oftobsoya,
Kayxisravi kayqubodpoya.

So'z shohiki, axsaton nomi,
Mehrki, quyosh erur g'ulomi.

Sultonsen-u chodir ichra ermas,
Paydov-u, xalifayi nihonmas.

Bahromnajot-u Mushtariychehr,
Durri sadafi Malik Manuchehr.

Bu toifadin boshlab avval
Shoh nasli kelur tutash, musalsal.

Nasli tutashur uning har goh
To Odam atoga, shoh bar shoh.

Bo'lsin shu jahonda doim ul er,
Qisqa qalam-u, uzun shamshir.

Mulk taxtida doim ustuvordir,
Farmonida aqli oshkordir.

Rad etgay u yetti charx rizosin,
Yetti eran aylagay duosin.

Razzoqmas-u, rizq beruvchi har chog‘,
Sardorsen-u tojdori ofoq.

Fayzbaxshi chashmayi maoniy,
Donoyi ramuzi osmoniy.

O‘n ikki u asrori ulumdir,
Ilkida uning misoli mumdir.

Bu yetti qurog‘-u, olti barmoq
Bir ko‘z, to‘rt qo‘l-u to‘qiz toq.[1]

Halqa urib aylanurlar uyqosh,
Ul doiradin chiqarmayin bosh.

Daryoyi xushob nomi bordir,
Chun obihayot maromi bordir.

Kon kafti ila xarob o‘lgay,
Bahr himmatidin sarob o‘lgay.

Bir yon zafari jahon ochgay,
Bir yon karami jahon sochgay.

Chun yo‘lga ravona bo‘lsa har dam,
Qamchi bosar otiga damo-dam.

Kavsar oqar ul ufor taratsa,
Do‘zax qochar ul g‘azabga minsa.

[1] Yetti falak, olti taraf, quyosh, to‘rt unsur, to‘qqiz osmon (gumbaz).

Xurshidi mamoliki jahondir,
Shoyistayi bazm-u razmi jondir.

Mirrix tig‘-u Zuhro tutibon jom,
O‘ng-u so‘lida olurlar orom.

Zuhro jom ila etar yorlig‘,
Mirrix tig‘ ila silohdorlig‘.

La’l tog‘in agarda tig‘i ochgay,
La’l tog‘ini so‘ngra jomi sochgay.

Ko‘rgilki, bu ikki la’li xunxor,
Qon birla sharobda la’li rang bor.

Lutfi gahi subhidamda soqiy,
Bo‘lsin shu jahonda lutfi boqiy.

Dushmanni u qiyratur g‘azabdin,
Haq asrasin ul yomon nazardin.

Lutfi sahariy sabodek essin,
Har joygaki yetsa, shodlik eltsin.

Zarbiki chaqin misoli qattol,
Har kimsaga yetdi, yoqdi darhol.

Lutfiki saboyi jonfishondir,
Zaxmi — shomi hajri beomondir.

Sanjog‘i qimirlasa, hamone
Teshgay u po‘latni, yo‘q gumone.

Bayrog‘ini boshiga ko‘tarsa,
G‘avg‘oyi jahon tinar shu lahza.

Bu qoidakdir jahonda birday,
Suv pastda-yu, o‘t balandda turgay.

Lek otiga minsa ul havasdin,
Suv ustun-u, otash o‘lgay ostin.

Qaysar etar unga otboqarlik,
Fag‘fur ishi ul gadoyi zorlik.

Xurshidki, samoda porlamishdir,
Bazmida misoli sham emishdir.

Oydirki, falakda nur hamisha,
Eshigida ul haqir hamisha.

Derlarki, chun erdi tiri Otash,
Od qavmi u nayzasiga o‘xshash.

Shoh solsa nazarni ul sari, hay,
Qolgaydi kamonda o‘q otilmay.

Derlarki, husnda shohi Parvez
Yakto-vu yagona erdi har kez.

Shoh oti tuyog‘i xoki gardi
Yetsa, u alamda qolgay erdi.

Shoh shamshiri tegsa gar birovga,
Jonini olur ajal garovga.

Shoh nayzasi yetsa, zarbidin, bas,
Bir halqa o‘shal sovutda qolmas.

Zo‘bin[1] otar ersa shoh, hamoni
Qoq ikkiga bo‘lgay ul jahonni.

[1] **Zo‘bin** — kalta nayza.

Shoh mehrida oftob zohir,
Shoh qahri bo‘ron-u girdiboddir.

Tong singari mehri benazir ul,
Qahr etsa, quyoshdek shergir ul.

Nomiki iborat olti harfdin,
Oldi shu jahonni har tarafdin.

Ul olti jihatni tutdi nomi,
Nard o‘ynar esa, yutar tamomiy.

Gar dushmani pashsha ersa, g‘ujg‘on,
Qahri yeli birla yo‘q-u yakson.

Oftobi jahonki bosh ko‘targay,
Soya o‘zini kavakka urgay.

Har joygaki otidin yetar sum,[1]
Ul joyda palang-u sher bo‘lur gum.

O‘q yog‘dirib ul ajal socharkan,
Bir kimsa tirik qolurmi erkan?

Gar xanjari juzgun chiqargay,
Toshdin o‘sha la’li xun chiqargay.

Gar tig‘ini ul sug‘irsa qindan,
Dushman degani qutulmas undan.

Gar dushmani ul Farosiyobdir,
Shoh nayza urishda oftobdir.

Lashkar hali boylamay kamarni,
Ul xasmiga ko‘rsatur hunarni.

[1] **Sum** — tuyoq.

Lashkar uning ortidin kelib, bas,
Yov lashkaridin nishona ko‘rmas.

Yuz Rustam uning rikobdori,
Maydonda zafar quchish shiori.

Gar boshlasa bazmi shahriyorlik,
Har lahzasi fayzi navbahorlik.

Har nechaki qo‘lda sim-u zardir,
Bergay u, saxosi onqadardir.

Bir kunda u aylagay chunon xarj,
Yillar sanabon, etolmagay darj.

Ehson etib dur-ru gavharin ul,
Ozod etar guruh-guruh qul.

Ul jomki, tiydi Jamshid o‘zni,
Har kun tutar o‘zgalarga yuzni.

Bormi shu jahonda bitta inson,
Shoh etmamish unga to‘n ehson?

Ehsonki, muncha benazirdir,
Chin bo‘lsa-da, nazdida haqirdir.

Bir hamla bilan olur hisore,
Bergay u qasidaga diyore.

Bas, fayzi safosi munchakim mo‘l,
Daryoyi azimga sig‘magay ul.

Ul sim ila zarki, choshu porloq,
Qalbiga qiyos etilsa, toshloq.

Har yurtda ado bo‘lur xazina,
Shoh himmatidin to‘lur xazina.

Bir pashshaga aylasa chunon jud,
Ojiz qolur unga pili Mahmud.

Yor etdi qadahga toj-u taxtni,
Fil ham simirolmas ul qadahni.

Daryoyi Firotdir ul va lokin
Daryoyi ravon, Firoti sokin.

Ul kunki yana bahor bo‘lgay,
Navro‘z elimizga yor bo‘lgay.

Ko‘rmay turib aytaman, menga baxt,
Bo‘lgay ne shukuhda sohibi taxt.

Tog‘ boshida oy misoli ko‘rkam,
Atrofida necha yulduzi jam.

Yo chashmayi oftobi ravshan,
Yashnar nuri birla bog‘-u gulshan.

Yo partavi rahmati ilohiy,
Ki nozil o‘lur subhgohi.

Har ko‘zki ko‘rgay onchunon nur,
Bexayr nazardin asragay ul.

Yo Rabki, men ul Uvays nomim,
Ham ishqi Muhammadiy maqomim.

Ul shoh, Muhammadiy jamoldir,
Etsin menga, har nekim xayoldir...

## Yer o‘pib aytur...

Ey olami jon-u joni olam,
Shod etguchi odami-yu Odam.

Tojingcha emas u toji xurshid,
Taxtingcha emas u taxti Jamshid.

Obod esa olam ul, o‘zingdin,
Ozod esa mardum ul, o‘zingdin.

Mavlo deb atar seni mamolik,[1]
Sendin hama amr-u rahnamolik.

Ham mulki jahon sening-la ko‘rkam,
Ham hukmi jahon senga musallam.

Ham xutbang o‘zi tirozi islom,
Ham sikkang o‘shal xalifa ehrom.[2]

Xutbangga nishona bo‘lsa gar xok,
Zar bo‘lgay u joyda xor-u xoshok.

Sikkangni chu toshga ursalar, bas,
Kimsa sira sim-u zarga boqmas.

Rozi bo‘lib ham ko‘rib viqoring,
Davlat eshigingda nayzadoring.

Miroxuring har kuni falakda,
Ko‘kdin tashigay somon-u arpa.

Ul arpa-yu barcha ul somondir,
Hosilayi mulki kahkashondir.

[1] **Mamolik** — mamlakatlar.
[2] Xutbang islomning ziynatidir, zarb etgan puling xalifaning tangasiga teng.

Baxsh etsa havo latifxo‘ylik,
Ham bodi sabo atirbo‘ylik.

Fayzingki, u chashmayi hayotdir,
Mardumga umid ila najotdir.

Gul faslida lola borki, birday,
Xoki qadamingni orzu etgay.

Har go‘shada dil Qofdin — Qof,
Aytib senga qulligin, urar lof.

Chun dasti zafar kuloh berursen,
Chun fazli Xudo gunoh kechursen.

Mulk boqiy erur siyosating-la,
Old-ortida ul himoyating-la.

Gar oldda esang, charohi rohsen,
Gar ortda esang, jahonpanohsen.

Chun mash’ali peshbin, muvofiq,
Nurlar taratishda subhi sodiq.

Devoni amalnishon qo‘lingda,
Hukmi amali jahon qo‘lingda.

Ul barchaki ish-amal tuzurlar,
Xoking uza “abduhu” yozurlar.

Mustavfi aql-u mushrifi roy,
Yurtingda hamisha korfarmoy.

Davlatki, nishonayi muroddir,
Haqqingda u sohib e’tiqoddir.

Nusratki, g‘anim qochurlar andin,
Yuksalgusi fayzi davlatingdin.

Bayroqki, u nuri diydang ermish,
Chun davlating avjidin yaralmish.

Har kimgaki bir xatar solursen,
Ming mard beliga kamar solursen.

Qon ichra o‘shal tani bo‘lur losh,
Zarbing ila tandin ayrilur bosh.

Har kimga nazar etar esang, hay,
U taxti saodatiga yetgay.

Fath birla yozarsen oyatini,
Obod etib viloyatini.

Yuksang nazaring tushib, Nizomiy
Yuksaldi, sharaf qozondi nomi.

Bir bandaki, posboni ko‘ydir,
Ehsoning ila xujastaro‘ydir.

Qushdirki, humoy nom anga,
Xursandligining adosi qayda?

Qushdirki, hamisha mehring oziq,
Soyangda erurki, rizqi ortiq.

Har qushki, u murg‘i subhgohdir,
Lahnida mudom duoyi shohdir.

Mehr-u karaming-la keldi noming,
Fath-u zafar uzradir maqoming.

Mehr-u karaming-la baxtiyor bo‘l,
Taxtingda hamisha ustuvor bo‘l.

Olam karaming-la ko‘rdi shodlik,
Sendin sira ko‘rmasin judolik.

Iqbol hamisha yoring o‘lsin,
Tavfiq rafiqi koring o‘lsin.

Bo‘lsin dag‘i bundanam ziyoda,
Ul davlati shoh-u shahzoda!..

## Farzandimni Shirvonshoh farzandligiga topshirganim

Tong qo‘ynida o‘ylakim qizil dur,
Yuz ochdi qorong‘ulik aro nur.

Ul gavhari benaziri jonim,
Pushti kamarimdin aylagonim.

Durri guharin boshimga sochdi,
Shoh gavhari jonidin so‘z ochdi.

Dediki, ma’yus dilimni chog‘la,
O‘g‘lingni malikzodga bog‘la.

Ul sori bugun yo‘lim ravon et,
Ul navqalam-u, men unga shogird.

Toki karami kamol topgay,
Darsingdin o‘ziga fol topgay.

Ki taxtnishin-u avjsoydir,
Yoshdir, vale buzrukroydir.

Sayyorayi osmoni mulk ul,
Jismi malik-u joni mulk ul.

Ul Yusufi yetti bazm-u no'h mahd,[1]
Ham hokimi ahd-u, ham valiahd.

Navmajlis-u navnishot-u navmehr,
Durri sadafi malik Manuchehr.

Ki ikki jahonda sarbalanddir,
Shohlar aro shohi xushmanddir.

Voris deb ataydi oy-u xurshid,
Mansub anga bori bim-u ummid.

Nuri basari ahli taqvo,
Mehrobi namozi jumla podsho.

Zebandayi taxt-u ziynati toj,
Iqbol anga bir boqishga muhtoj.

Eyki, sharafing-la, shahzoda,
Shoh ko'zlari nurlidir ziyoda.

Qoningda u ikki shohi oliy,
Tong pallasi ikki nur misoli.

Shohlik nasabing-la shohzotsen,
Albattaki, nasli Kayqubodsen.

Ul markazi xatti yetti parkor,
Eng avjida o'ltirar yering bor.

Ezid panoh bo'lib azaldin,
Asrab-ayasin yomon nazardin.

[1] **No'h mahd** — to'qqiz taxt.

Men Tangridin har dame umidvor,
Sen bo‘ylaki sohib aql-u hushyor.

Yetkazsin o‘zi etib inoyat,
Shon-u sharafingga ul bag‘oyat.

Ham shohlar nomasin o‘qigil,
Ham ahli xirad so‘zini bilgil.

Ud ganji nihon bo‘lur huvaydo,
Oydek to‘lishib falakda paydo.

Qarshingda kelinchak ermish ul, bas,
Har kimsaga ham muyassar ermas.

Garchi hali ko‘rmading atosin,
Lek ko‘rgil-u hurmat et ag‘osin.[1]

Lutfing-la navozish ayla nomin,
Hurmatda hamisha tut maqomin.

To qolmasin o‘g‘lim och-yalang‘och,
Bir kimsa qoshida zor-u muhtoj.

Etdim shu so‘zim-la qissa ko‘toh,
Bo‘lsin senga baxt-u davlati shoh.

Ul ko‘zda hamisha porla, ey nur,
Ul bog‘-u chamanda sarvdek tur.

Podshoga tayanchsen har nafasda,
Dushman dilin aylar ul shikasta.

Sendin yetar unga jovidonlik.
Chun Xizrga obi zindagonlik.

[1] Garchi asarning otasi — muallifi Nizomiyni ko‘rmading, ammo uning (dostonning) akasi — Nizomiyning o‘g‘lini hurmat qil.

Ko‘kda necha yulduz ersa, har gal
Yoqsin barini shu ikki mash’al.

## Hasadgo‘y va munkirlar dastidin shikoyat

Jo‘r ur, yuragimki, vaqti jo‘shdir,
Go‘yoki jahon nechun xamushdir?

Maydoni suxanki, menga tortiq,
So‘z bormi bugun so‘zimdin ortiq?

Bul non-u tuzim bari o‘zimdin,
Gar muhtasham ersam, ul so‘zimdin.

Bu sehri saharki, aytdi ko‘ngil,
Qur’oni Karimdin haftyak ul.

Ul sehrki, chun halol bo‘lgay,
Munkir bo‘lishing mahol bo‘lgay.

Chun sehri suxanda bo‘yla komim,
Oyinayi g‘ayb bo‘ldi nomim.

Shamshiri tilimki, xushravondir,
Mo‘jizi masihiyi zamondir.

Nazmim asari chunon ko‘ringay,
Ki jazri asamda tilga kirgay.[1]

So‘zimda hamisha jilvayi nur,
Tut unga qo‘lingni, kuydirar ul.

She’r menda ziloli toza topdi,
Sipqordi suvim, ovoza topdi.

[1] **Jazri asam** — har narsaning kasrli asli.

Bu ahli hasadki, non yegaylar,
Soyamda turib jahon yegaylar.

Ov ovlar arslon, hech gumon yo‘q,
Sher o‘ljasi birla tulkilar to‘q.

Yerman u taomni, menga loyiq,
Mendin yesa yaxshidir xaloyiq.

Hosid men-u, sen debon firoqdin,
G‘iybat qiladir yaqin-yiroqdin.

Qarshimda misoli soyadek past,
Nazmimga u o‘g‘ridek urar dast.

Gar aylar esam g‘azalsarolik,
Ul menga etar dag‘aldarolik.

Gar so‘ylar esam qasidayi chust,
Ul menga eshar qaloyidi sust.[1]

Har galki u nazmi qissa bitgay,
Qissa ne emishki, qissa etgay.

Men tangayi tillo zarb etar dam,
Soxta pulini yasaydi ul ham.

Maymun etadi ne etsa mardum,
Suv uzra misoli tiyra anjum.

Har qaysi jasadga tushsa ul nur,
O‘z soyasidan-da ranjigay ul.

Soya demagilki, mardga nuqson,
Ham ayb-u gunoh-u hamda yolg‘on.

[1] U bo‘ynimga solish uchun it yoki tuyaning arqonini shaylaydi.

Ayb izlasa, kutmagil hayosin,
Ko‘z bo‘lmasa, qaydanam uyalsin?

Besoya edi Rasuli akram,
Lek soya ta’qib etardi har dam.

Daryoyi muhitki, suvlari pok,
It ursa og‘iz, bo‘lurmu nopok?

Har daf’a munofiq uchrasa, hay,
Qonlar gupurib, yuzimga urgay.

Dengiz kabi to‘lqinim.toshar, bas,
Ammo bu yomon fe’limdin ermas.

Zahmeki yetishsa, gar chiroqmen,
Bir kulgu tufayli shamchiroqmen.

Chun oyina gar temirmas aslim,
Tosh qalblar ila nechuk o‘tirgum?

Aytmam senga, konni qazganim ko‘r,
Dardim-la g‘anim jon uzganim ko‘r.

Inkori san’atimda xayr yo‘q,
Chorshanba tunida hech samar yo‘q.

Durrimni o‘g‘irlamoqqa to‘g‘ri
Kelmishki, meni yomon der o‘g‘ri.

Ul o‘g‘rilar erdikim, muqarrar,
“Tut o‘g‘rini!” deb qichqirurlar.

Dur o‘g‘irlashi halol bo‘lgay,
Ayb aylamagi vubol bo‘lgay.

Ko‘rgay hunar-u hunarni bilmas,
Tubanligi ul qadarki, bilmas.

Ko‘rguchi esa, u ko‘rmas o‘lsin,
Gar ko‘r esa, undanam past o‘lsin.

Ul o‘g‘ri-yu, men esam xijolat,
Chun o‘g‘rilik ermish unga shuhrat.

Yo‘q-yo‘q, ayanch gado erur ul,
Och eshig-u, chorla: “Kel o‘margil!”

U o‘lja-yu, manfaatga mushtoq,
Ming shukurki, men emasman undoq.

Har ikki jahon bisoti menda,
Ul muflis-u o‘g‘rida bu qayda?

Bergum sadaqa gadoga alhol,
Dermanki, o‘g‘irla yo so‘rab ol!

Daryoyi guhar koni ganjim
Bir tomteshar o‘g‘ridin ne ranjim?

Ganjinani bandda tutsa bo‘lgay,
Xublikni sipandda[1] tutsa bo‘lgay.

Onamki sipandi yor-la tug‘mish,
Sovuti Sipandyor-la tug‘mish.

Ul xatti Nizomiy ichra komim,
Ming bitta ko‘rarsen unda nomim.

Ilyosda ayir “alif”ni “lom”din,
Ko‘r to‘qson-u to‘qqiz ushbu nomdin.

[1] **Sipand** — hazorsipand, isiriq.

Ming bitta shu qal'a ichra ham men
Yuz kam bitta yaxshilik ko'rarmen.

Forig'men o'shal azobi ranjdin,
Emin yana ehtiyoti ganjdin.

Ganjdirki, chunon hisori bormish,
O'g'ri anga hech pisandmi ermish?

Ganj ersa, uning iloni bo'lgay,
Gul ersa, uning tikoni bo'lgay.

Har kimsa jahonda nomdordir,
Badnom etuvchi do'sti bordir.

Yusufki, u o'xshar erdi mohga,
O'z og'alari itardi chohga.

Isoki, damida yo'qdi dude,
Chekdi u jafoyi har juhude.

Ahmadki, saromadi arabdir,
Ham xastayi xori Bu-Lahabdir.

Tartib bu jahonda bo'yladir, hay,
Bol ersa, bolari nishi ham shay...

## Shikoyat uzri

Men men ekan ul xayrli kundan
Bir chumoli ranj ko‘rmadi mendan.

Durrimni o‘zim yuvarmen har vaqt,
Bir kimsaga ortmagum mashaqqat.

Ul joydaki men raqib emasmen,
It ersa magar, yomon demasmen.

It fisqidin ulki sherligim bor,
“Lo ayb-u lahu”[1]din erligim bor.

So‘zdirki, g‘azablar ichra endi
Aytdim uni, aytmasam bo‘lardi.

Lekin shuni deydi kordonlik:
Tanballik emasmi bezabonlik?

Har kimsa shaharda oshinodur,
Bilgay ne emish matoyimiz ul.

Har kimki yomonlik etsa menga,
Bir kimsa yomonlik etgay unga.

Jim bo‘l, yuragim, bu gapni qo‘ygil,
G‘am bodasini o‘zing simirgil.

Guldek uzilishni o‘ylagil xo‘b,
Har kimsaki uzsa, qo‘llarin o‘p.

Qoningni no‘sh ayla nonxurushdak,
Bosh ketsa-da, tut kulohni yuksak.

Ozor chek-u bo‘lmagil dilozor,
Sen qiynal-u xalqqa berma ozor.

[1] U aybdan pok.

O‘n to‘rtga yetishgan, ey niholim,
Ey ikki jahon aro kamolim.

Ul damdaki yetti yoshda erding,
Guldek chaman ichra sayr etarding.

O‘n to‘rtga yetishdi endi yoshing,
Sarv singari tikka bo‘ldi boshing.

Bas ayla o‘yinni, garchi xushdir,
Vaqti hunar-u kamol topishdir.

Donish talab et, buyuklik o‘rgan,
Kun-kundan o‘sib, yetuklik o‘rgan.

Nasli so‘ralur yoshdin, bas,
Yoshi yetuk ersa, bu so‘ralmas.

Yoshing yetuk ersa, shubhasizdir,
Otang oti senga foydasizdir.

Sher singari filni ham yiqar bo‘l,
Farzandi fazilat-u hunar bo‘l.

Davlat tilasang, sababda turgil,
Xalq birla mudom adabda turgil.

Har qayda fasona so‘ylasang, bot
Sen qahri Xudoni aylagil yod.

Bir ishga kirishki, ayni holat
Ham so‘nggida chekmagil xijolat.

So‘ylay senga, ey o‘g‘il, eshit pand,
Otang so‘zin ayla dilga payvand.

Garchi sari sarvaring ko‘rarmen,
Oyini suxanvaring ko‘rarmen.

Sen she’rga yopishma, chun aql der:
Har maqtovi birla xorlanur she’r.

Bu fan ila istama baland nom,
Borini Nizomiy etdi itmom.

Nazm martabasi magar balanddir,
Ilm ista, o‘shalki sudmanddir.

Bu nuqtaga diqqat aylagil sen,
O‘rgan va o‘zingni anglagil sen.

Ta’bing nechuk erdi, sharhini tuz,
Chin ma’rifat asli xotirafruz.[1]

Aytmishdi Nabiy: “Al’ ilmu ilmon
Ilmaladyon va ilmalabdon”.[2]

Bu ikki ilmda atri tibdir,
O‘rgansa faqih yo tabibdir.

Bo‘lgil faqihi toatando‘z,
Ammo na faqihi hiylatomo‘z.[3]

Bo‘lgil tabibi Isaviyhush,
Ammo na tabibi odamiykush.

Har ikkis bo‘l, balanddirsen,
Har kimsaga arjumanddirsen.

Izmingda hayot, mamot bo‘lgay,
Baxt-u sharafing qanot bo‘lgay.

[1] **Xotirafruz** — ko‘ngilni yorituvchi.
[2] **Ilmlar ilmi** — din ilmi va tabobat ilmidir.
[3] Toatga boshlovchi faqih bo‘l, hiyla-nayrang o‘rgatuvchi emas.

Har safhanikim o‘qirsan, etgil
G‘ayrat, uqibon, tagiga yetgil.

Bir kimsa ajab to‘qim tikarkan,
Afzal u yomon kuloh takardan.

Mendin demag-u, sendin etmak,
Bekorchi bo‘lishni qilma ermak.

Har so‘z-u suxanga ob-u tobdir,
Kam so‘ylamak hammadin savobdir.

Suv garchi shirin, zilol kelgay,
Ko‘p ichsa uni, malol kelgay.

Oz so‘zla, so‘zingni aylabon dur,
Oz so‘z ila sen jahonni to‘ldir.

Durdona erur suxan kam ersa,
G‘ishtdek bo‘lur ul magar ko‘paysa.

Marvarid aslda zoti pokdir,
Zebandayi husni ob-u xokdir.

Dur erkanida u ganji kondir,
Yanchilsa magar davoyi jondir.

Bir dona guli dimog‘parvar
Yuz xirmani o‘t-alafdin afzal.

Yuz yulduz agarchi porlagay, bas,
Bir dona quyoshcha ul bo‘lolmas.

Nurlar sochar ersa bizga boshdin,
Chaqnab yonishi o‘shal quyoshdin...

Soqiy qani, chorla, mayparastmen,
May tutmasa ul, rizo emasmen.

Ishq mazhabi ichra may haloldir,
Ashkim kabi pokdir-u ziloldir.

Men mayga qo‘lim cho‘zarmen ulkim,
Ummidki, biroz ochilsa ko‘nglim.

Bir sherki meni to‘sar yo‘limdin,
Istarmen uni yo‘qotsam andin.

Avvallari necha shod edim, hay,
Endi men emasmen avvalinday.

Bersam shuni ham qo‘limdin, albat,
Ojizligim ortadir bag‘oyat.

Soqiy, qani, tut menga mayi la’l,
So‘z tashladi otashimga bir na’l.

Ul mayki, tugunni yechgay ortiq,
Ruh avjiga ruh kabi muvofiq.

Bobomdin otamga erdi sunnat,
Yusufdi, ibn Zakiy Muayyad.

Davronga hakamlik aylamak ne?
Javr o‘lmasa, unda yig‘lamak ne?

Avval padar erdi bizga Odam,
Xuni padarimni bersin olam.

Ko‘rdim otalikni necha yuzdin,
Ildiz-tomirin ko‘ngildin uzdim.

Jonimga jafo etarsa ul no‘sh,
Men ro‘za bilan etay faromush.

Soqiy, karam ayla, tut menga may,
Qonimni maying ila tamizlay.

Bir mayki, simirsa gung, muqarrar
Nutqida sochar u dur-ru gavhar.

Onam edi kurd qavm-u qondin,
Bir onadek o‘tdi u jahondin.

Yig‘lab yana kimni aylayin yod,
Yonimda chunon etuvchi faryod?

Bu dard-u alam chunonki har on,
Gardobiga bo‘y berolmas inson.

G‘am kosasi g‘amga lim to‘liqdir,
Ming ichgan ila tuganmagay ul.

Bu dard-u alamki bekanora,
Yolg‘iz unitishdir unga chora.

Soqiy, ko‘ngilda necha dog‘dir,
May berki, borar yo‘lim yiroqdir.

Ul mayki, boshingga sho‘r chiqargay,
Ming bosh o‘sib unda, birga borgay.

Ul Hoji Umarki, tog‘am erdi,
Kuydirdi meni vafoti dardi.

Achchiq edi bo‘ylakim navolam,[1]
Bo‘g‘zimga tiqildi-qoldi nolam.

[1] **Navola** — yemish.

Men qo‘rqamen, ulki moviy osmon
Bo‘g‘zimdin olur gar etsam afg‘on!

Soqiy, qani xum, sharobxona,
May tut menga chun anor dona.

Ul mayki, farog‘ati kengishdir,
Hamshirayi shirayi bihishtdir.

Qayda dami ahl, ahli dam ul,
Hamroh qani, qayda hamqadam ul?

Xurmoki shahd-la xurram o‘lgay,
Ul shahdini hamdamidin olgay.

Pilla boshida ipak kuloh bor,
Hamdamlari yo‘lda ulfat-u yor.

Hamdamlari zavqidin chumoli
Sudraydi ne ersa sher misoli.

Hamdam esa do‘st-u oshnoying,
Sen jo‘r bo‘lib unga tuz navoying.

Bo‘lmas senga bahra bu hunarda,
Ohangini bilmasang agarda.

Chin mulkida gar harir to‘qirlar,
Goh hulla, gahi hasir[1] to‘qirlar.

Har ishda ko‘mak etilsa har on,
Topgay u samar ila saranjom.

Tor tushmasa kuyga, bas, muqarrar
Uzgaylar, agarchi u jaranglar.

[1] **Hasir** — bo‘yra.

Soqiy, mayi mushkbo‘y shayla,
Bandimni yechishga chora ayla.

Ul mayki chu sharbati hayotdir,
Bokurayi ko‘zayi nabotdir.[1]

Bu xonayi xokpo‘sh aro sen
Tokaygacha dard-u g‘am yutarsen?

O‘rgimchak uyasidir bu manzar,
Goh boylar-u, goh yarangni tirnar.

Goh pashshaga etgay ul shaboxun,
Goh kimsa qo‘lidin oqizur xun.

Sen pilladek eshigingni qulfla,
To tun bo‘yi rohat ichra uxla.

Bu xonaki xonayi vuboldir,
Paydo bo‘lib, oxiri zavoldir.

Soqiy, may-u jomga bermagil tin,
May achchig‘-u, lek nishoti[2] shirin.

Ul mayki, o‘shanda mard holi
Zohir o‘lur, aqli-yu kamoli.

Sen kibr-u havoga bo‘lmagil el,
Ortingdin o‘shal yetib kelar sel.

Gar yetti bosh ajdaho esang-da,
Ul yettisi ham kesilgay unda.

Lek xavf-u xatarni o‘ylama sen,
To tashvish-u ranj chekmagaysen.

[1] **Nabot** — ko‘zasining shirasi.
[2] **Nishot** — shodiyona.

Tomdin qoqinib yiqilgan oning
Yaxshidir agar past ersa toming.

Tuproq bo‘l-u o‘ylama xatarni,
Tuproqqa bag‘ishla uch guharni.

Har gavhar agarchi sof-u porloq,
Eng manzuri senga xok-u tuproq.

Tuproqda nihondir ul uchovlon,
Tuproq-da yashar ularda pinhon.

Soqiy, mayi lolarang uzatgil,
Jo‘r ayla, navoyi chang uzatgil,

Ul mayki munodiyi sabuhdir,
Rang olguchi ul saroyi ruhdir.

Tokay g‘am ila alamga to‘lmoq,
O‘zni yana bilmaganga solmoq?

Koshkiydi so‘zimni yod etsang,
O‘tgan u kuningni yot etsang.

O‘tgan u umrki muddat erdi,
Fikr ayla, u o‘tdi, qaytmas endi.

O‘tgan yozib varaqqa solgil,
So‘ng yangisini qalamga olgil.

Fikr aylaki, haftyak edi ul,
Yo umring uzandi yetti ming yil.

Kechgay bari ul, adamga ketgay,
Turmas, o‘sha yetti ming yil o‘tgay.

Kelgay kishiga zamoni g‘arqi,
Ul qisqami yo uzun, ne farqi?

Soqiy, quy o‘shal sabuhi bomdod,
Etgil shu ko‘ngilni bir qadar shod.

May sunki, u oftob bo‘lsin,
Suvsiz esa chashma, suvga to‘lsin.

Tokaygacha muz kabi qotursen,
Suvda mushi murdadek[1] yotursen?

Gul bo‘lma, uning ishi to‘kislik,
Ham bo‘lma binafsha, ikkiyuzlik.

Xubdir kishi goh tikon bo‘lgay,
Devonalik unda kor qilgay.

Kurd Ka’bada chun yo‘qotdi eshak,
Dod soldi, yelib-yugurdi yeldak.

Dediki, bu dasht yo‘li uzundir,
Eshak yo‘qotishda bormi bir sir?

Shu so‘zni deb ortiga burildi,
Ko‘rdi eshagin, sevindi, kuldi.

Dedi: eshagim yo‘qoldi qandoq?
Dod solgan edim, topildi mundoq!..

Dod solmasa erdi kurdi o‘ksik,
Eshshak bo‘lib ul tashir edi yuk.

Bu ko‘hna jahonki, ahli noshod,
Zolimga mudom berar mukofot.

[1] **Mushi murda** — o‘lik sichqon

Sherdir o‘sha, kimda sher yurak bor,
Qo‘rqoq esa, unda ne bilak bor?

Soqiy, yana yetdi mayga fursat,
Suv urgil-u, otashimni gurlat.

Ul mayki bu tosh yuzini yuvgay,
Tosh yuzdin o‘shanda yoqut ungay.

Nokasga bo‘yin ekkaning ne?
Olchoqqa o‘yin bo‘lganing ne?

Qulluq qilib har nechuk gadoga,
Rozi bo‘ladursen har jafoga?

Tog‘ singari tikka, sarbaland bo‘l,
Shu xulqi jahonga sen dag‘al bo‘l.

Savsan kabi to‘qisang-da shohi,
Loy ichkizur ul zamini sofi.

Xorlik ila bag‘ri xun bo‘lursen,
Gar mazlum esang, zabun bo‘lursen.

Nayzangni hamisha tut qo‘lingda,
Gul xirmanini qucharsen unda.

Quvvatni yemirgay oh-u faryod,
Ohlar chekib o‘lgay odamizod.

Soqiy, kun og‘di, charchadim xo‘b,
May berki, boshimda tashvishim ko‘p.

Ul mayki charog‘i rahravondir,
Gar keksa simirsa, navqirondir.

Bo‘l necha ayyosh-u[1] rindga hamdam,
Kir yo‘lga-yu, ber g‘ururga barham.

Bo‘l zarrada misli nuri xurshid,
Sen qayda-yu ul nishoti Jamshid?

Tark et u maoshi podsholik,
Ovoralik aslida sipohlik.

Shoh suhbatidin chekin, yiroq bo‘l,
Sen paxta esang magar, olov ul.

Ul otash agarchi nurga kondir,
Har kimki yiroq esa, omondir.

Parvonaki nuri shamni suydi,
Sham bazmiga kirgan erdi, kuydi.

Soqiy, yana g‘am ila bo‘g‘ildim,
May berki, bu qayg‘udin qutilgum.

May berki, safoyi siym andin,
Dilda asari azim andin.

Har neki nasibang ul, rizo bo‘l,
Rizqiga birovni cho‘zmagil qo‘l.

Holing bu jahonda bo‘lmagay tang,
Ko‘rpangga qarab oyoq uzatsang.

Qush haddidin ortiq uchsa yuksak,
Yetgay u haloki joni beshak.

O‘z yo‘liga yurmasa ilon, hay,
O‘z joniga qasd etib o‘ralgay.

[1] **Ayyosh** — aysh-u ishratni xush ko‘ruvchi.

Zohidki yarog‘ taqarkan, albat,
Boshiga yog‘ar salohi kulfat.

Tulki hujum etsa sherga, zinhor
Bilgilki, qo‘lida bir qilich bor.

Soqiy, mayi mag‘zjo‘sh[1] bergil,
Chun yetdi sadoyi “no‘sh”, bergil.

Ul mayki kalidi ganji shodlik,
Jondoruyi jomi Kayqubodlik.

Shodlikni ta’bingga ayla payvand,
Boriga ko‘ngilni ayla xursand.

Har jonki odamiydin ayru,
Har lahza qanoat ichradir u.

Rizq axtaribon yelib-yugurgay,
Har neki topilsa, yeb bitirgay.

Rizqi magaram kifoyat etmas,
Bir kimsaga u shikoyat etmas.

Yolg‘iz bu jahonda odamizod
Gar to‘ymasa qorni, dod solar, dod.

Gar yetmasa bir gal osh-u noni,
Uchgay to falakkacha fig‘oni.

Gar tomiga tomsa qatra nayson,
Yog‘dirgusi ul bulutga dashnom.

Duch kelsa tani tariqcha toshga,
Xarsangni uloqtirar quyoshga.

[1] **Mag‘zjo‘sh** — boshni qizdiruvchi.

Bu shart-u ravish erurki, chun nur,
Har yaxshi-yomondanam yiroq tur.

Xushdirki, mehrda suvdek ersang,
Har neki rang ersa, unga hamrang.

Soqiy, qo'y o'shal bahona, turgil,
Keltur u mayi mug'ona, turgil.

Ul mayki bazmga noz bag'ishlar,
Jang ichra saloh-u[1] soz bag'ishlar.

Muz qotma, magarki tosh emassen,
Jahd ayla, magar cho'loqmassen.

Chun eski namat bu, changini qoq,
Unga qadamingni bos dadilroq.

Gar tosh-u kesakli ersa-da yo'l,
Raqs ayla, yurishda chun falak bo'l.

Otingni berib, piyoda yurgil,
Kaltak yegil-u, ziyoda yurgil.

Kosh ahli bashar yukin ko'tarsang,
Koshkiydi jahonda yukchi bo'lsang.

Gar yo'lda yiqilgudek esang, hay,
Qolmas, u yukingni el ko'targay.

Soqiy, mayi arg'uvon yuritgil,
Jonimga hayot g'izosidir ul.

Ul mayki borib mijozga yetgay,
Jon birla jigarni pok etgay.

[1] **Saloh** — sulh.

Ko‘ngilni ibodatingga boyla,
Ojizliging e’tirof ayla.

Yo‘l uzraki necha tog‘, balandlik,
Behudaga etma zo‘rmandlik.

Qalqoning o‘shalki, pardayi gul,
Shovqin solasan misoli bulbul.

Yo‘l xavfli, qanot-u parni tashla,
Shamshir senga bas, siparni tashla.

Oting yugurib, shamoldin o‘tsin,
Charx bori yukingni yengil etsin.

Yaxshisi yiqil-da, tashla oting,
Bir yo‘la yetar senga najoting.

Ko‘rgil uni, oy shikasta yurgay,
O‘z aybini ko‘ksidin supurgay.

Soqiy, chu og‘izga keldi jonim,
May tutgil-u, namla shu dahonim.

Ul mayki agarda joyi jondir,
No‘sh aylasa, ul davoyi jondir.

Turgil, ko‘chishingga yetdi fursat,
Ko‘p boqma o‘zingga, etma ofat.

Poying qabariq, yo‘l dushvor,
Ey mahkumi kor, ne bo‘lur kor?

Ko‘chingni ko‘tar-da,
yo‘lga tush, chop,
Yo zayli zamonga eshiging yop.

Suhbat senga hech berarmi g‘alla?
Sen xilvati joyda jonni asra.

Xatsiz esa safha, ne o‘qir ko‘z?
Fikr ayla, suzarmi kema suvsiz?

Kel endi, Nizomiyo, Xizrdek
Shu chashma bo‘yida chodiring tik.

Ichgan kabi unda durri maknun,
Ich obi ziloli ishqi Majnun...

**Doston ibtidosi**

Aytuvchi suxan aro to‘kib dur,
Ul qissani bizga bo‘yla aytur:

Mulki Arab ichra bir ulug‘vor
Bor erdi amir, shukuhli, dongdor.

Aylardi ulus itoat unga,
Mansub edi bir viloyat unga.

Ul xoki Arabda bo‘yla nomi,
Har yonga taralmish atri jomi.

Sohibhunar erdi, fozili toq,
Shoyistayi jumla dayr-u ofoq.

Sultoni Arabdi, komgor ul,
Qoruni Ajamdi, moldor ul.

Darveshnavoz-u mehmondo‘st,
Iqbol ila ul — mag‘z ila po‘st.

Garchi u xalifavor mashhur,
Bevoris edi, chu sham’i benur.

Xohish anga farzand erdi, yohu,
Chun donni boshog‘i aylar orzu.

Derdiki, daraxti baxtim, evoh,
Koshkiydi chiqarsa erdi bir shox.

Yetganda chu sarvigul zavoli,
O‘rnida ko‘karsa ul niholi.

Kelganda chaman aro tazarve,[1]
Sarv o‘rnida ko‘rsa yangi sarve.

Ko‘rmas esa eski sarvni asti,
Maskan esa yangi sarv osti.

Bitmaydi bashar hayoti, poydor,
Gar nasli jahonda qolsa yodgor.

Shu niyat ila etib karamlar,
Sochgay edi har mahal diramlar.[2]

Izlardi nishona, ko‘rmas erdi,
Ekkan guli hech ko‘karmas erdi.

Izlar edi, lek ko‘rinmas ul nur,
Bo‘zlar edi, qayda derdi ul dur.

Bilmaydi vale jahonda inson,
Toleyi nazardin ersa pinhon.

Gar orzu muyassar o‘lmasa, boq,
Bir hikmati borki, bo‘ldi shundoq.

Har yaxshi-yomonki kelsa zinhor,
Zimnida ishonki, xayriyat bor.

[1] **Tazarv** — tustovuq.
[2] **Dirham** — kumush tanga.

Kon topganing ersa senga dilxush,
Topmasliging asli undanam xush.

Orzuki yurakda qatma-qatdir,
Sir tutmagi ul salohi marddir.

Inson yugurib-yelarkan har ne,
Bilmas bu jahonda ul samar ne.

Sarrishtayi g'ayb nopadiddir,[1]
Har qulfga yaroqli bir kalitdir.

Bechoradir asli odamizod,
Bir puf ila yelda sovrilur bot.

Ko'ngilni jahonda shod ayla,
Orzu-tilaging qabrga joyla.

Farzandtalab ul amiri oshna
Kon erdi misoli la'lga tashna.

Dodiga yetib Xudo nihoyat,
Etdi anga bir o'g'il inoyat.

Navrasta gul erdi, nori xandon,
Yo'q-yo'qki, ziyod ming chandon!

Ravshanguhar erdi, shu'layi pok,
Ravshan edi andin olami xok.

Chun ko'rdi ota o'g'il jamolin,
Bas, ochdi xazina, sochdi molin.

Shodligi ko'ngilda gul ochardi,
Gul singari boyligin sochardi.

[1] **Nopadid** — ko'rinmas.

Amr etdi, o‘g‘ilni oldi doya,
O‘rgildi, boshiga soldi soya.

Davron dag‘i etdi doyagonlik,
Ko‘rsatdi kamoli mehribonlik.

Har sutki, labiga tutdilar ul,
Insof-u vafodin erdi butkul.

Har moyaki, ul g‘azodin oldi,
Ko‘ngliga karam, saxoni soldi.

Har nilki, yuziga chekdilar to,
Afsuni ko‘ngilni etdi paydo.

Chun lola og‘iz chayardi sutda,
Chun bargi suman o‘sardi sutda.

Ko‘rgan uni sutmi, bol derdi,
Beshikda misoli oy erdi.

Qo‘shhafta ichida bo‘y cho‘zib,
hoy,
Oy erdi u, ikki haftalik oy!

Sharti hunar erdi ul tamomi,
Qaysi hunar o‘ldi shunda nomi.

Bir yil shu yo‘sin arodin o‘tdi,
Ul husni yana kamolga yetdi.

Ishqi anga suv, gulob berardi,
Ul gavhari ishqqa tob berardi.

Chun kechdi o‘yinda ikki-uch yil,
O‘sdi chaman ichra yayradi ul.

Ul damki yetishdi yetti yoshga,
Zeb berdi binafsha lola boshga.

Ul lahzaki yoshi o‘nga to‘ldi,
Husni taralib, fasona bo‘ldi.

Har kimsaki ko‘rdi chun yiroqdin,
Jon sog‘lig‘ini tilardi Haqdin.

Ota anga termilib, dili shod,
Maktabga jo‘natdi haq etib yod.

Ta’limi savodin aylab unda,
Cheksin dedi ranj kun-u tunda.

Esh bo‘ldilar unga bir guruhye,
Ki jumla saodat-u shukuhye.

Har bola o‘shanda dars o‘qirdi,
Dillarda umid-u qo‘rquv erdi.

Chun necha o‘g‘illar erdilar jam,
Hamdars yana shunda necha qiz ham.

Har qavm-u qabiladin aroda,
Hozir edilar adabsaroda.

Qays unda sahifakim ochardi,
Yoqut labidin guhar sochardi.

Bor erdi qatorda o‘zga inju,
Kelmishdi bo‘lak qabiladin u.

Gulg‘uncha misoli qiz edi, xub,
Oqila va yaxshi nomga mansub.

Orasta edi, misoli oy ul,
Dilbar edi, lolagun chiroy ul.

Sho‘x erdi ado-vu g‘amzasi, hay,
Ming bitta yurakni pora etgay.

Ohu ko‘zi birla har zamoni
Taslim etar erdi bor jahonni.

Mohi arab erdi yuz ochishda,
Turki ajam erdi dil olishda.

Zulfi kecha erdi, chehrasi nur,
Bir mash’ala erdi, sirti billur.

Pista dahan erdi, gul soya,
La’li shakar erdi benihoya.

Shakkarshikan erdi haddin ortiq,
Lashkarshikan erdi shunga loyiq.

Tumor etishardi hamnishinlar,
E’zoz etishardi nozaninlar.

Dostoni tiriklik ichra bayt ul,
Yoshlik g‘azaliga shohbayt ul.

Manglay teri erdi durri marjon,
Har halqayi zulfi sabza rayhon.

Gulgunasi yuzga sutdin ermish,
Surma dag‘i ul anosi bermish.

O‘ynab yuzi uzra zulfi, xoli,
Yashnardi javohiri jamoli.

Har dilda chu ishtiyoqi, mayli,
Kokili tun erdi, nomi Layli.

Qays ko‘rdi u nozanin nechuk gul,
Ko‘ngil berib unga, oldi ko‘ngil.

Qays mehriga moyil erdi mahvash,
Har ikki yurakni yoqdi otash.

Ishq keldi-yu jomi may tutdi,
Har ikkisini u sarxush etdi.

Ilk boda chunonki mast etgay,
Mast etsa magar, yomon yiqitgay.

Chun mehr gulidin oldilar bo‘y,
Bir-birga chu odat etdilar, xo‘y.

Bu unga berardi jonini, hay,
Ko‘ngil olur erdi jonin olmay.

Bu unga ravo etib payomin,
Dil bergay-u bermas erdi komin.

Do‘stlar etishardi harfxonlik,
Bu ikkisi darsi mehribonlik.

Do‘stlar lug‘at uzra tiksalar ko‘z,
Bu ikkisi sevgidin yozar so‘z.

Do‘stlar bari ilm olish ila band,
Bul ikkisi ishqi jonga payvand.

Do‘stlar sifati faol so‘ylar,
Bu ikkis hasbi hol so‘ylar.

Do‘stlar sanasa sanoq, ko‘ringki,
Bu ikkisining hisobi ikki.[1]

[1] Ular faqat o‘zlarini ko‘rib, o‘zlarini sanashardi.

## Layli va Majnun bir-birlarini sevib qolishgani

Har kun yana yangi tong otardi,
Ul Yusufi Mashriqiy yetardi.

Andin shu falak turunjpaykar
Rayhoniy o'lib, taqar edi zar.

Layli etibon turunjbozlik,
Boshlardi yana turunjsozlik.

Ul toza turunjni ko'rgani on
O'z kaftini zud kechardi inson.

Qiz kaftida ul turunj ko'rib tek,
Ishqdin yorilar edi anordek.

Qays g'uncha nigori hamdamida
Sarg'aydi yuzi turunj g'amida.

Do'stlar dumog'iga berib ranj,
Tarqatdi ufor turunj-u noranj.[1]

Ko'p o'tmadi vaqt, nainki davron,
Ul ikki ko'ngildin uchdi afg'on.

Ishq keldi-yu, etdi xona xoli,
O'qtaldi u tig'i louboli.

G'am berdi-yu, dil qarorin oldi,
Dildan hama ixtiyorin oldi.

Ishq o'tida ikki dil qovushdi,
Mardum buni so'ylamoqqa tushdi.

Shu so'zni gapirdi shunda har ko'y,
Shu rozni eshitdi shunda har so'y.

[1] **Turunju noranj** — limon-u apelsin.

Bu qissaki mahkam oyat erdi,
El og‘zida bir hikoyat erdi.

Roz yo‘lida etdilar madoro,
To bo‘lmagay elga oshkoro.

Gar nofayi oh-u[1] bandi xushkdir,[2]
Xushbo‘yligi ul guvohi mushkdir.

Yel voqif edi kamoli ishqdin,
Chun ochdi niqob jamoli ishqdin.

Yopmoqqa tirishdilar boyakbor,
Bu ishqniki, bo‘yla erdi oshkor.

Ishq ichra sabr bo‘lurmi, oyo?
Oftobni to‘sib bo‘lurmu aslo?

Ko‘z g‘amza-ado-la ersa g‘ammoz,
Qolgaymu u parda ostida roz?

Zulf ersa hazor halqa zanjir,
Oshufta ko‘ngilga qayda tadbir?

Bir-birni yoqishlik odat o‘ldi,
O‘g‘rincha boqishlik odat o‘ldi.

Qays bo‘ldi chunonki oshiqi zor,
Ul chanbari ishqqa chun giriftor.

Ki ishqi jamoli ul dilorom,
Bermas edi unga lahza orom.

Ul suhbati nozanin-u zebo
Bermas edi unga hech tasallo.

[1] **Nofayi ohu** — kiyik kindigi.
[2] **Xushk** — quruq.

Savdosi oyoqdin oldi beshak,
Yirtildi-yu mesh, yiqildi eshak.

Mardumki ishqqa erdilar yot,
"Majnun" deya unga qo'ydilar ot.

Ul ersa etardi benavolik,
Bu so'zga berar edi guvohlik.

El tiymagach o'zni ta'nalardin,
Ul oyni yashirdilar nazardin.

It hursa ayon etib qadamni,
Ohu bara tark etar chamanni.

Layli dilida xayoli Majnun,
Ko'zdin oqizardi durri Maknun.

Majnunda edi xayoli Layli,
Ko'z yoshi to'kardi shu tufayli.

Sargashta kezardi ko'y-u bozor,
Ko'zlarda sirishk-u dilda ozor.

So'ylardi suyukli ul nigorin,
Kuylardi yurakdin ishqi zorin.

Ul qaydaki hozir o'lsa qancha,
"Majnun! Majnun!"
deyardi barcha.

Ul dog'i alamda toqati toq,
Devonaligin etardi andoq.

Haydab eshagini yo'l olardi,
Eshak ketar erdi, ip qolardi.

Chok aylar edi ko‘ngilni chun nor,
Derdi o‘qisin dilimni ul yor.

Istardi yashirsa ishqni zora,
O‘t ersa ko‘ngilda, qayda chora?

Xuni jigari yuziga urdi,
So‘ng boshiga yetdi-yu gupurdi.

Ul yor g‘ami birla, yor yiroqda,
Ul purg‘am-u g‘amgusor yiroqda.

Bir sham’ kabi uyqusiz, beorom,
Na kunduzi tin, na tunda orom.

Chun o‘zni yoqib olovda butkul,
Izlar edi dardiga davo ul.

So‘ng jonidanam umid uzardi,
Ostonaga boshini urardi.

Har tong yalangoyoq, yalangbosh,
Sahro kezib ul to‘kardi ko‘z yosh.

Ul bandayi yor-u yor tutqin,
Xursand edi yel ufursa atrin.

Tunlar she’r o‘qib firoqda nolon,
Pinhona kezardi ko‘yi jonon.

Yor eshigini o‘pib nihoyat,
Qaytmog‘i qiyin bo‘lardi g‘oyat.

Borganda shamol kabi yelardi,
Qaytish yo‘li yiloga teng bo‘lardi.

Borganda qanoti ming magarda,
Qaytarda tikan edi qadamda.

Borganda bosib borardi seldek,
Qaytishda yo‘l uzra yuzta jarlik.

Gar poyi qabarmish erdi, ammo
Yor sori uchardi otda go‘yo.

Choh oldida erdi, ortida yel,
Qaytdim bu uyimga men nechun der.

Baxti anga yor esa, bas erdi,
Hargiz bu vatanga qaytmas erdi...

## Majnun ishqi nechuk ishq erdi?

Ishq ahliga toj-u taxtli sulton,
Ashk lashkariga buyuk qo‘mondon.

Pinhona etardi dilnavozlik,
Devonalik ichra ishqbozlik.

Qonundi,[1] chalardi ahli Bag‘dod,
Dalloldi, bozori oh-u faryod.

Cholg‘uchi nog‘ora, ohanin ko‘s,[2]
Ruhboni kalisiyoni afsus.

Joduyi nihon-u devi paydo,
Horuti mushavvash, ahli shaydo.

Kayxusrav-u bekuloh-u betaxt,
Yuz mingta faqirga do‘st, ulfat.

[1] **Qonun** — cholg‘u asbobi.
[2] **Ohanin ko‘s** — katta nog‘ora, dovul.

Mulkini chumolilarga bermish,
Taxtini qulonlar uzra qurmish.

Qo‘rquv to‘la qal’alarga sog‘ib,
Necha egasiz dayrga[1] sohib.

Majnuni g‘aribi dilshikasta,
Daryoki, toshar edi nafasda.

Bor edi bir-ikki ulfat-u yor,
Savdoyi jununidin xabardor.

Chun ulfat-u yori-la ṣahargoh,
Borgaydi tavofga so‘yi ul moh.

Har lahza tilida nomi Layli,
Yo‘q boshqa suxanga zarra mayli.

Har kimsaki o‘zga so‘zni derdi,
Bermasdi javob, eshitmas erdi.

Bir tog‘ edi unda, Najd nomi,
Layli edi manzili, maqomi.

Qalbi to‘la ishq-u dudi anduh,
Shu tog‘ga yetib kelar edi u.

Mast singari so‘ng chapak chalardi,
Goh yiqilardi, goh qo‘pardi.

Kuylar edi bor ovoz-la so‘ngra,
Goh o‘ngga chopardi, gohi so‘lga.

Ko‘z yoshini durri nob etardi,
Tong yellariga xitob etardi.

[1] **Dayr** — mayxona.

Ey bodi sabo, Layliga yet,
Zulfidin o‘zingni anbarin et!

Aytgilki, ko‘ying adosi bo‘lgan,
Ul xoki rahing uza yiqilgan.

Yeldin nafas-u damingni izlar,
Tuproqqa sening g‘amingni so‘zlar!

Yurting soridin ufursa gar yel,
Andin menga deb g‘ubor yuborgil.

Yeldek senga titramas esa kas,
Yel qayda o‘shal,
g‘uborcha ermas.

Ulki senga bermas ersa jonni,
Yaxshiki, g‘am ichra bersa jonni!

Gar otashi ishqing o‘lmasaydi,
Selobi g‘aming oqizgay erdi.

Ko‘z yoshlarim oqmasa, ko‘ngil zor
Bo‘lgay edi otashingda abgor.

Xurshidki, jahonga yog‘dirar nur,
Ohim o‘ti yetsa, o‘rtanar ul.

Ey sham’i jahon-u jonim, ey ganj,
Parvonang erurmen, aylama ranj.

Jodu ko‘zing oldi uyqu-xobim,
Andin jigarim erur kabobim.

Ey dard-u g‘amingki rohati dil,
Ham marham-u ham jarohati dil.

Qanddir labing, asrama ushatgil,
Andin menga bir uvoq uzatgil.

Oshuftalik ichra bandimen, band,
Ma'juni davoyim o'lgay ul qand.

Ul ko'zki nigohin otdi nogoh,
Chun boqdi yomon, yiqildim, evoh!

Bir mevayi sarxil erdim andoq,
Ko'z tegdi, makonim o'ldi tuproq.

Barmog'i zamona erdi botil,
Zaxmi menga bo'ldi zaxmi qotil.

Ko'z tegdiki menga bo'ylakim, bas,
Cho'zsam-da qo'limni, senga yetmas.

Nil tortadi yuzga gohi dildor,
Ko'z solmasin unga deydi ag'yor.

Oftobki yuzi qaroda qolmish,
Ko'z tegmish-u, ko'k aro tutilmish.

Har ganjki yopmasa yuzin ul,
Dunyo eli ul tomon cho'zar qo'l!..

## Majnun Laylini ko'rishga borgani

Ul kunki havo safoli erdi,
Ko'k toqi quloqqa sirg'a ildi.

Siymob kabi erdi necha yulduz,
Oftob nuri berdi pushtirang tus.

Majnuni shikastadil o‘shal dam,
Bir necha anis-u do‘st hamdam.

Yor ko‘yiga boz keldi qaytib,
“Labbayk” deya ham tarona aytib.

Yor ko‘yida ul kezardi mushtoq,
Bo‘lmish edi baski toqati toq.

O‘trusida erdi xirmani gul,
Yirtiq edi sabr, domani dil.

Andoqki, misoli mast-u sarxush,
Boshiga gahi urar edi musht.

Savdosi oshib, tutashdi chun, bas,
Yor chodiri ichra kirdi sarmast.

Chun rasmi arab shu erdi, ul moh
Chodirida o‘ltirardi tanho.

Ul ko‘rdi buni, oqizdi jola,[1]
Bul ko‘rdi uni-yu, chekdi nola.

Layli to‘lin oy edi shu oni,
Majnun falak erdi, soyaboni.

Layli karam etdi, ochdi yuzni,
Majnun gina birla aytdi so‘zni.

Layli edi misli chang, jarang soz,
Majnun chu rubob edi, jarangos.

Layli edi subhi getiafruz,[2]
Majnun edi sham’i jon-u tanso‘z.

[1] **Jola** — shabnam, bu yerda ko‘z yoshi ma’nosida.
[2] **Subhi getiafruz** — dunyoni yorituvchi tong.

Layli edi ulki, bog‘ uza bog‘,
Majnun edi ulki, dog‘ uza dog‘.

Layli qamar erdi, to‘ni atlas,
Majnun qasab erdi, qaymati past.

Layli daraxt erdi hosili gul,
Majnun ko‘zidin sochar edi dur.

Layli ne suxan? — Parivash erdi,
Majnun, ne hikoyat? —
Otash erdi.

Layli suman erdi, bexazon ul,
Majnun chaman erdi, purxazon ul.

Layli dami subh erdi tunda,
Majnun chu charog‘ so‘nardi unda.

Laylida karashma erdi har on,
Majnunda vafo edi namoyon.

Laylida sabuhi jonnavozlik,
Majnunda samoyi xirqabozlik.

Layli tikar erdi shohi ichdan,
Majnun isiriq yoqardi tishdan.

Layli guli noz undirardi,
Majnun gulob-la yuz yuvardi.

Layli sochiga urardi shona,
Majnun ko‘zi yoshi dona-dona.

Laylida sharobi mushkbo‘y, bas,
Majnun esa bo‘yi may ila mast.

Qone edi ul shu atr-u bo‘ydin,
Rozi edi dil bu justujo‘ydin.[1]

To payqamasin deya raqiblar,
Bir-birga boqardi ul g‘ariblar.

Lek qo‘ymadi charx, jafoga o‘tdi,
Yolg‘iz shu nazarni ham man etdi...

## Majnunning otasi Layliga sovchilikka borgani

Yor ko‘yiga yo‘l to‘sildi nogoh,
Ko‘prik edi, ul buzildi nogoh.

Majnunda mashaqqati judolik,
Tunlarda etar g‘azalsarolik.

Har dam tilida tarona, ohi,
Najd tog‘iga izlanardi gohi.

Ortida hamisha yor-u yo‘ldosh,
Ul ersa yalangoyoq, yalangbosh.

Savdozadayi zamona erdi,
El ichra yomon fasona erdi.

Xeshlar bo‘shamay shikoyatidin,
G‘amgin otasi hikoyatidin.

Payd aylasa, pandni tinglamasdi,
Majnun edi, o‘zni o‘nglamasdi.

Pand garchi hazor, sudmanddir,
Ishq kelsa-chi, qayda joyi panddir?

[1] **Justujo‘y** — izlash, axtarish.

Miskin ota erdi qayg‘uga band,
O‘rtar edi, ranjitardi farzand.

Boshida xayoli erdi yuzlab,
Bechora edi u chora izlab.

So‘rdi u, javoban ahli xona
Arz ayladi unga bir fasona.

Ki ko‘nglini bir sanamga bermish,
Shu yo‘lda ado bo‘ib, yiqilmish.

Chun tingladi qissa, ayladi ahd,
Gul chehrasidin aritgay ul gard:

“Xushdir u guhar uyimga kelsa,
Shu toji murodim uzra qo‘nsa.

Ul ziynati qavmni men so‘rarman,
Yor o‘lgusi unga nuri diydam...”

Qo‘llashdi qabila pirlari ul,
Bu ota qarori bo‘ldi ma’qul.

Ul durri yagonani olib zud,
Bu gavhari jonga aylasin juft.

Shu bo‘ldi guruhda fikr ila roy,
Ohangi safarga bo‘lsin ul shay.

Qodir esa ul nikohni etsin,
Oshiq o‘sha dilraboga yetsin.

Bu so‘zni amir eshitdi ul dam,
Tark etdi alamni, kuldi xurram.

So‘ng tuzdi uyida majlisi xos,
Ham yo‘lga tadorik ayladi rost.

Orasta etib bir guruhe,
So‘ng boshladi yo‘lga bo shukuhe.

Ul ahli qabilayi dilorom
Ogoh bo‘lishib shod-u xushkom.

Peshvoz chiqib, etdi mezbonlik,
Ko‘rsatdi vafo-yu mehribonlik.

Manzilda mehr rioyat aylab,
Keng sufra yozib, ziyofat aylab.

Sayyidi amirga termilib zor,
Aytgil, dedilar, ne hojating bor?

Maqsadni gapir, ravo eturmiz,
Har ne tilaging bajo eturmiz!..

Dediki, murodim oshnolik,
Bir bo‘lsa ul ikki ro‘shnolik.

Qiz otasi sori so‘ng dedi ul,
Juft bo‘lsa ne xush ikki ko‘ngil.

Istarmen aroda mehr-u payvand,
Bir-birga yetishsa ikki farzand.

O‘g‘limki ado-vu tashnakomdir,
Chashmang sari termulib, adodir.

Har chashmaki, unda suv erur, hay,
Chun chashma simirsa, joni kirgay.

Aytdim buni, o‘zga hojatim yo‘q,
Aytarda uni xijolatim yo‘q.

Bilsang, arab ichra shu miyona
Menman o‘sha ma’rufi zamona.

Ham hashmatu ham xazina menda,
Ham olati mehr-u kiyna menda.

Men olguchi, sen sotuvchisen dur,
Sot menga matoying, ersang oqil.

Har necha bahoying ayla izhor,
Ol so‘ngra ziyoda necha miqdor.

Ul naqdina sendakim baholik,
Sotgil menga, senga bu ravolik...

Tinglab bu yoniq amir xitobin,
Qiz otasi berdi shu javobin:

So‘zni demagilki,
men deyurmen,
Zayli falak ersa, ne qilurmen?

So‘zingga agarchi jonni bergum,
Lek o‘zni nechuk olovga urgum?

Gar ustida do‘stlig-u omonlik,
Yuz ming erur ostida yomonlik.

Farzanding agarchi arjumanddir,
Qaydin anga baxtki, xudpisanddir.

Devonalik aylar unchakim, bas,
Devona qizimga esh bo‘lolmas.

Aqlini tuzat, inoyat ayla,
So‘ng sidqini ayt, hikoyat ayla.

To sog‘ligi vajhidin xabar yo‘q,
Bu suhbat-u bahsdin samar yo‘q.

Gavharni tizar ekanda, yondosh,
Bir ipga tizilmagay siniq tosh.

Bilgaysen, arab aybjo‘dir,
Etsam shuni, el-u yurt ne deydir?

Bas, olma tilingga, et faromush,
Deb so‘zni tugatdi, bo‘ldi xomush...

Bu so‘zniki sovchilar eshitdi,
Turdi hama, tarki manzil etdi.

Navmed bo‘libon borurdi barcha,
Tortib g‘ami jon borurdi barcha.

Har bittasi dard-u g‘amda erdi,
Til xanjaridin sitamda erdi.

O‘ylardi hama, ne chora bo‘lg‘ay?
Ul sheftaga ne iloj topilg‘ay?

So‘ng etdilar unga necha pandni,
Otash sari otdilar tikanni.

Ki ushbu chamanda sho‘x-u dilbar,
Bordir necha qiz, nozparvar.

Yoqutlab-u so‘zlari asal, xush,
Ham g‘oliyaposh-u, ham qasabpo‘sh.[1]

[1] **G‘oliyaposh** — muattar. **Qasabpo‘sh** — harir libosli.

Har qaysisi nozanin nigore,
Orastalik ichra navbahore.

Qarshingda yuz oshno erur sen,
Begonaga ne ko'ngil berursen?

Kel, mencha yoningda mohi tobon,
Sen tanla o'zingga yori jonon.

Bir yorki, dilingga u yovushgay,
Chun shir-u shakar kabi qovushgay.

Layli senga jon emas, unutgil,
Ko'nglingni o'shandin ayru tutgil...

## Majnun Layli ishqida fig'on chekkani

Majnun buni chun eshitgani on
Oh chekdi shikasta-vu parishon.

Chok ayladi, yirtdi pirahanni,[1]
— Murda ne qilur, — dedi, — kafanni?

Ki ikki jahonni tark etgay,
Ko'ylak kiyib ul qayoqqa yetgay?

Vomiq kabi orzu aylab Uzro,
Goh tog' kezardi, goh sahro.

Turk singari chiqdi-ketdi uydin,
Chun erdi makoni ko'cha-ko'ydin.

To'n o'rniga ul sovut kiyib bot,
Zanjir uzib, etdi o'zni ozod.

[1] **Pirahan** — ko'ylak.

Yurgay edi ul g‘arib-u g‘amnok,
Andoqki yaqov-u domani chok.

Ham joniga qasd etish havasda,
“Lohavl” derdi har nafasda.

Devonasifat yurardi sarson,
“Layli!” yana “Layli!”
derdi har on.

Chun ko‘ylagi yirtig‘-u yalangbosh,
Shu ko‘yi malomat ichra yakkash.

Ne yaxshi-yomon, ayirmas erdi,
Ki yaxshi-yomonni bilmas erdi.

Kuylardi tarona goh zamoni,
Vasf aylab u yori dilraboni.

Otash solur erdi jonga har bayt,
Yod olgay edi eshitgan, albat.

Hayron edi holiga xaloyiq,
Giryon edi holiga xaloyiq.

Lek forig‘ edi u barcha ko‘zdin,
Mardum degan-u deguchi so‘zdin.

Tark etmish edi jahonni butkul,
Na murda-vu, na tirik edi ul.

Tuproq kabi tosh uza qo‘yib bosh,
Ko‘ksi uza qo‘ndirib yana tosh.

Sofiy tanikim, makoni dardi,
Ul toshlar aro uvoqdek erdi.

Sham erdi, chu o‘rtanib ado ul,
Qush erdiki, juftidin judo ul.

Ham ko‘ksida ul firoqi choki,
Ham chehrasida qubori xoki.

Charchatdi uni azob-u anduh,
Sajjodani bir tomon otib u

O‘ltirdi-yu boshlab oh-u voyin,
Arz etdi: netay, nedir davoyim?

Savdoyi junun tutib qo‘limni,
Bilmasmen uyim sari yo‘limni.

Na dayr-u fano aro panohim,
Na manzili yor-u do‘stga rohim.

Bu shishayi nom-u nangni[1] ko‘rgil,
Chun toshga urildi, sindi chil-chil.

Baxtimni nog‘ora bongi tindi,
Ko‘chmoqqa nog‘ora chalgum endi.

Afsus ila gohi mast derlar,
Gohi oshiqi butparast derlar.

Hargiz demagilki, gilparastdir,
Guldir bu qo‘limda, gil emasdir.

Turkdir, anga men shikori langmen,[2]
O‘qlar uzadir, nishon-yalang men.

Ul yorki, egikdir unga boshim,
Qurboni bo‘layki, ul quyoshim.

[1] **Nom-u nang** — or-nomus.
[2] **Shikori lang** — cho‘loq ov.

Gar mast desa yor, mast-adomen,
Shaydo desa, zor-u mubtalomen.

Shaydolig-u mastligimki buldir,
Ul ikkisi ichra izlama dil.

Oshuftalik o'ldi taqdirimdin,
Yo'q menga najot zanjirimdin.

Vayrona bo'libmen unchakim, bas,
Obod bo'lishimga ko'z yetmas.

Koshki edi yel yetishsa menga,
Yel yetsa, meni sovursa yelga.

Chaqmoqqa yo'liqsa joni zorim,
Kul bo'lsa uyim, bisot-u borim.

Hay, bormi birov olovga solsa,
Burqitsa dudim, jonimni olsa.

Yem etsa nahangga, chun olib tin,
Pok o'lsa jahon malomatimdin.

Aytur meni mardumi zamona:
Devonayi xalq-u devi xona.

Qavmimni jununim aylamish xor,
Nomimdin eturlar ulfatim or.

Bir kimsa yetishsa, to'ksa qonim,
Aylardi diyat, qasosni qoyim.

Ey yor-u anis-u, do'st-u ulfat,
Xayr endi,
omon bo'ling, salomat!

Ul shishayi mayki qo‘lda erdi,
Qo‘ldin tushib ul ushaldi, sindi.

Yo‘l uzra necha siniq edi ul,
Sel bosdi kelib, oqizdi butkul.

To kimsa kelar esa, oyog‘in
Ul shisha siniqlar etmagay xun.

Ey bexabar ishq-u ahli g‘aflat,
Siz endi yo‘limga chekmangiz sad.

Men baski yo‘qoldim, izlamang, bas,
Yo‘q kimsaga so‘zni so‘zlamang, bas.

Tokay sitam-u jafo qilursiz?
Bu g‘ussaga mubtalo qilursiz?

Quvmang meni bu diyordin ortiq,
Men qochgali shay turibmen, otliq.

Charchab, horidim bu yo‘lda butkul,
Ey yor, kelib,
qo‘limni tutgil.

Bu xastaki iltifoting istar,
Sen birla tirikdir, o‘lsa afzal.

Bir karra alik olib salomim,
Lutfingga muyassar et payonim.

Devona men-u nechuk bu tadbir
Bo‘ynigga ilibti bo‘yla zanjir?

Tark ayla uni, o‘zingni qutqor,
Zanjirda bo‘lishni menga qo‘y, yor!

Zulfingni jahonim etdi barbod,
Kim erdi bu yo‘lda senga ustod?

Zulfingni sovurdi yo‘q-u borim,
Ul hindu qoraytdi ro‘zgorim.

Etsang ne bo‘lurdi chorasin bot,
Men chohga tushibmen, ayla ozod.

Yo ushla qo‘limni, qo‘y firog‘ing,
Yo cho‘zgil, o‘zim o‘pay oyog‘ing.

Joizmiki jim, bechora turmak,
Bir go‘shada indamay o‘tirmak?

Oshiqqa jafo qilmadingmi?
“Irham-turham”,[1] bilmadingmi?

Osuda-yu g‘amsiz ersa ko‘ngil,
G‘am ahlini qaydanam bilur ul?

To‘q ochni bilurmu hech? Qayda!
Nonni ushatur u mayda-mayda.

Ul kimsaki o‘t-olovni bilgay,
Kuydirgusi deb rioya qilgay.

Ey ham men-u ham sen odamizod,
Men xor-u xasak, sen ersa shamshod.

Zarnix ila zar bahoda tengmas,
Ul xirmaniga bu zarradir bas.

Ey rohati jon, qayerda qolding?
Jonimni olishmidir muroding?

[1] “Rahm-shafqat qilsang, rahm-shafqat ko‘rasan...”.

Ul ayb-u gunohmi uchsa ohim,
Sevdim seni, o‘zga ne gunohim?

Bir kechani bizga sen ravo qil,
Bu xayr-u savob uchun xato qil.

Bosh tovlama, ber anga rizoying,
Bo‘ynimga olay o‘sha xatoying.

Bu g‘amzadaning gunohi ko‘pdir,
Lutfing esa unga, qayg‘u yo‘qdir.

Qay kun bu g‘aribni yod etursen?
Qay kun anga iltifot etursen?

Ishqing ila yonsa jon, ravomi?
Ko‘z yoshim ila o‘chir olovni.

Ey yulduzim, ey mahi hilolim,
Har lahzada senga band xayolim.

Yaxshiki, menga navozish ermas,
Oshuftaga yangi oy ko‘rinmas.

So‘rmam seni soyadin, ajab yor,
Soyamdin ajabki qo‘rquvim bor.

Soyamga boqib, o‘zingni ko‘rsam,
Soyangni olib boshimdin ul dam.

Jonimni olursen, ey parizod,
Yo‘q, ermak emas, bu zulm-u bedod.

Ishqing ila keldi menga nomim,
Ham yetdi nihoyat-u tamomim.

Vaslingga agarchi intizormen,
G‘am yo‘qki, umiding ichra bormen.

Tush ko‘rsa go‘dak qucharkan uyqu,
Zar ko‘zada unga tutsalar suv.

Bas, uyqudin uyg‘onib o‘shal dam,
Barmog‘ini so‘rgay ul damo-dam.

Poyim iki “lo” kabi bukikdir,
Ilkim iki “yo” kabi egikdir.

Noming meni ham chunon aylar,
“Yo” ikki-yu, ikki “lom” aylar.

Ishqingni ko‘ngildin ayru etmam,
Bu rozi dilim birovga aytmam.

Sut birla kirib tanimga ul roz,
Jon birla tanimdin ul chiqar boz...

Shu so‘zni deb o‘zni yerga otdi,
Ko‘rganlar ezildi, g‘amga botdi.

So‘ng unga madad, muruvvat aylab,
Uy soriga eltdilar avaylab...

Ishq dema gar ishqi jovidonmas,
Yoshlik ko‘yida havas erur, bas.

Ishq ulki, yonib, kamaymas aslo,
Ko‘ngil bu safoga to‘ymas aslo.

Ishq ko‘yida sarsari xayol yo‘q,
Dunyosiga to abad zavol yo‘q.

Majnun edi, unga nom ishqdir,
Ma'rifati ham tamom ishqdir.

Ishq birla hamisha erdi sarxush,
Guldek u nasimi ishq ila xush.

Endi o'sha gulki kamyobdir,
Chun qatraki qoldi, u gulobdir.

Bas, menda ajab gulobi mushkbo'y,
Etgum shu ariqda suvni xushbo'y...

## Otasi Majnunni Xonayi Ka'baga eltgani

Ul bayraqi ishq bo'lib jahongir,
Layli mahidek osmongir.

Kun o'tsa, kuni qaroda bo'ldi,
Oshuftaligi ziyoda bo'ldi.

Bosh og'risa gar, ne aylab imkon,
Zanjirdin o'shal qutilgay inson?

Tole yuz o'girdi, sanolar aytib,
Tun so'ngida tong otarmikin deb.

Hojat deya necha joyga bordi,
Naf ko'rmadi, barcha besamardi.

Xeshlar etishib niyoz unga,
Har qaysisi chorasiz unga.

Bechoraligin ko'rib bag'oyat,
Bir chorani aytdilar nihoyat.

Ki istar esang o‘shal najoting,
So‘r Ka’badin, ul berar muroding.

Hojatgahi jumlayi jahon ul,
Mehrobi zamin-u osmon ul...

Haj mavsumi kelsa, dedi, ul vaqt
Bu choraga qo‘l urarmiz, albat.

Haj mavsimi yetdi, qildi tashkil,
Teva talab etdi, tikdi mahmil.[1]

Farzandi azizini suyab tek,
O‘tqizdi u mahmil uzra oydek.

Ka’ba sari keldi siynasi chok,
Bosh urdi u ravzaga alamnok.

Gavharga qo‘shib alam, kadarni,
Tuproq kabi sochdi siym-u zarni.

Bo‘ldi bu socharda chun xazona,
Ul xonayi ganj ganjxona.

Yuz ochdi jamoli Ka’ba ravshan,
Maqsad yo‘lida yurib shitoban.

Farzandi qo‘lini ota tutdi,
Ul soyayi Ka’ba sori eltdi.

Dediki, bolam, fursat ozdir,
Zud bo‘lki, bu joy chorasozdir.

Ka’ba ko‘yida qo‘ling qovushtir,
G‘am zanjiridin xalos etar ul.

[1] **Mahmil** — kajava.

Yo Rab, de, xalos etib gunohdin,
Qutqar meni tushgani bu chohdin.

Rahmat ila to‘g‘ri yo‘lga solgil,
Oshuftaligim boshimdin olgil.

Ko‘rgilki, chu mubtaloyi ishqman,
Qutqar meni bu baloyi ishqdan!..

Majnuki eshitdi ne edi so‘z,
Bas, yig‘ladi, so‘ngra kuldi jonso‘z.

Chaqmoq kabi uchdi o‘rnidin ul,
Qo‘l cho‘zdi, muborak halqaga qo‘l.

Dedi o‘sha halqani tutarkan:
“Men ham shu eshikka halqadirman!

Ishq halqasi ichradir shu jonim,
Ishq halqasi yo‘qsa, ne jahonim?

Derlarki, ishqdin et judolik,
Ki bo‘yla tariyqi oshnolik.

Ishq bo‘lsa magar, tirik bo‘lurmen,
Ishq o‘lsa mabodo, men o‘lurmen.

Ishq ichra yetishdi bu sirishtim,
Ishq bo‘lsin hamisha sarnavishtim!

Har dilki ishqdin ersa xoli,
Yetsin g‘am-u qayg‘udin zavoli.

Yo Rab, senga xosdir Xudolik,
Ilkingda kamoli podsholik.

Ishqimni base ziyoda qil sen,
Qolsin o‘sha, garchi qolmagum men!

Ber chashmayi ishqdin menga nur,
Bu surmani ko‘zdin olma bir qur.

Ishqim mayli birla menki chun mast,
Bundan-da ziyoda ayla sarmast.

Derlar menga: “Ishqni unutqil,
Layli ko‘yidin kanora tutgil!”

Yo Rab, menga hamdam et Laylim,
Har lahza ziyoda ayla maylim!

Umrimda kun ersa nechakim xush,
Ol mendan-u, Layli umriga qo‘sh!

Bir mo‘yidek etdi gar meni g‘am,
Bir mo‘yini etma boshida kam!

Ul halqaki menga go‘shmoli,
Go‘shi adabimdin etma xoli.

Ul tutmasa boda, jom kerakmas,
Zarb urmasa, menga nom kerakmas.

Jon sadqayi ul jamoli bo‘lsin,
Gar qonim ichar, haloli bo‘lsin!

Ishqi g‘amida yonarmen har tun,
Ishqi g‘ami yo‘qsa, bo‘lmasin kun.

Ishqimni rivojla kecha-kunduz,
Bir ersa hisobda, bo‘lsin ul yuz!..”

Majnunki bu so‘zni aytdi sarxush,
Chun tingladi ota, tortdi xomush.

Bildiki, bu ishq adosi yo‘qdir,
Darddirki, uning davosi yo‘qdir.

Qaytdi uyiga, kirib aroga,
Aytdi buni xesh-u aqraboga:

Savdoyi jununga banda farzand
Ka’ba eshigiga qo‘l urarkan.

Kutdim, anga iltijo etar ul,
Qutqar meni deb duo etar ul.

Yo‘q, so‘rmadi ishqqa ul ilojin,
So‘rdi shu malomati rivojin.

Qarg‘ab o‘zini, nidolar etdi,
Laylini faqat duolar etdi...

## Layli qabilasi qasdidan Majnun otasining xabar topgani

Olam uza bu xabar bo‘lib fosh,
Gap-so‘zni ko‘paytdi necha avbosh:

Bir nozanino ishqi muncha ermish,
Bir yaxshi yigitni jinni etmish...

Har yaxshi-yomonni tinglab, afsus,
Har yaxshi-yomondin ochdilar so‘z.

Layliga yetib bu turli g‘iybat,
G‘am xonasi ichra tutdi xilvat.

Qavmidin o‘shanda ikki kimsa,
Qavm shohiga etdi bo‘yla arza:

“Bir o‘spirin oshiq aylab o‘zni,
Badnom qilur qabilamizni.

Har kuni boshyalang kelar ul,
Atrofida necha daydi, juldur.

So‘z so‘ylasa, ishqi zoridin der,
Raqs aylar-u, gohida o‘par yer.

Har lahzada bir g‘azal etar soz,
Xushdir g‘azal unda, xushdir ovoz.

Har necha g‘azalki, kuylagay ul,
Yuz pardani yirtib, aylagay kul.

Ul kuylar-u xalq etar uni yod,
Ham bizga-yu hamda senga isnod.

Layli dilida alamli dog‘i,
So‘ngay bu shamoldin ul chirog‘i.

Qahr-u g‘azabingni unga rost et,
Ul oyni bu g‘alvadin xalos et”.

Chun shahnaga ravshan o‘ldi bu hol,
O‘g‘ri qochib,
shahna bo‘ldi qattol.

Shamshir sug‘urib, berdi tobin,
Dedi: shu bilan beray javobin!

Bir omiriy erdikim xabardor,
Bu qissani qavmiga bayakbor.

Yetkazdi, dediki, ey amir, zud
Ofatni kesishga qil taraddud.

Ul shahnayi jonsiton-u xunrez
Sudek beomon-u o‘t kabi tez!

Majnunki emas bu sirdin ogoh,
To yetmagay ofat unga nogoh.

Oldida ochibdi choh dahanni,
Choh soriga qo‘ymasin qadamni!..

Bechora atoga ne edi hol?
Qo‘zg‘aldi, oyoqqa turdi darhol.

Amr etdi qavmlariga chun, hay,
Ortiga tushing,
yeling shamolday.

Aylang anga bori dilnavozlik,
Aqlini yig‘ishga chorasozlik...

Har yonaki bo‘ldilar ravona,
Yo‘q erdi u telbadin nishona.

Ma’yus edilar: ajalmi yetmish,
Yirtqichmi va yoki o‘lja etmish?

Har do‘stki edi qabiladosh u,
Evoh deb anga chekardi qayg‘u.

Yig‘lar edi ahli xonadoni,
G‘oyib edi, yo‘q edi nishoni.

Ul ersa, o‘shal nishonayi ranj,
Bir go‘shada, ko‘zdin yiroq ganj.

Forig‘ edi shovqin-u surondin,
Sokin edi g‘alvayi jahondin.

Maskan edi unga dashti avloq,
Yo‘l gardiga xursand erdi andoq.

Bo‘ri esa sher qo‘lida muztar,
Andin to‘q ekanda tulki afzal.

Lochinki emas yemakka muhtoj,
Gar ko‘rsa-da ovlamaydi durroj.[1]

Och kimsaga arpa non-da halvo,
To‘q boqmagay ul patirga, hatto.

Gar ishtaha etsa o‘zni qoyim,
Javdar dag‘al ersa-da, muloyim.

Halvoki, shirindir-u shakardir,
Me’yoridin oshsa, ul zahardir.

Majnunki visoldin erdi ayru,
Yeb-ichgani bo‘ldi zahr-u og‘u.

Bergaydi chekarda benavolik,
O‘tmas u matohiga ravolik.

Yo‘q-yo‘q, g‘ami onchunon erdi,
Behad edi, bekaron erdi.

Ul g‘amki xati barot berardi,
Tutqinligidin najot berardi.

Ganj izlabon ul topar edi ranj,
Yo‘l bilmas edi toparga ul ganj.

[1] **Durroj** — kaklikning bir turi.

Qavmi Bani Sa'ddin bir odam
Shu yo'ldin o'tar edi o'shal dam.

Ko'rdiki, chu surati sarob ul,
Aftoda, zabun edi, xarob ul.

O'z bayti kabi g'arib, dilafgor,
Ma'ni kengish unda, qofiya tor.

Bir kimsasi yo'qdi yonida, bas,
Beqofiyadir kim ersa bekas.

Baxti kabi qomati kamondek,
Lek mehr-u vafoda o'q edi, tik.

Chun ko'zga uvoli tashlanardi,
O'q joylanib ul, kamon shay erdi.

Bir noladin o'zga hamdami yo'q,
Bir soyadin o'zga mahrami yo'q.

Chun ko'rdi, yotardi bo'yla madhush,
Lek shakl-u shamoyili edi xush.

So'z qotdi anga chekib nidoye,
Lek chiqmadi soyadin sadoye.

Ul kimsa umidikim uzildi,
Ketdi, yo'liga ravona bo'ldi.

Majnun elidin etib guzar ul,
Yetkazdi bu shevadin xabar ul.

Yotgay, dedi, bir xarobada tek,
Tosh ustiga tirmashib ilondek.

Devona-yu dardmand-u ranjur,
Dev singari ko‘zdin yiroq ul.

Kelmishdi magar ramaqqa joni,
Ma’lum edi mag‘zi ustuxoni...

Bechora ato eshitdi so‘zni,
Dasht bag‘riga shunda urdi o‘zni.

Topsam deb u telba, joni zorin,
Kezdi necha o‘r-u qir kanorin.

Hamrohlari birla ko‘rdi nogoh,
Tosh ustiga bosh qo‘yib, chekib oh.

O‘g‘li yotar erdi zor-u nolon,
Goh yig‘lasa, gohida g‘azalxon.

Ko‘z yoshi to‘kib, bechora erdi,
Baxti kabi ko‘ksi pora erdi.

Bexudlik aro edi chunon mast,
Jon qayda, jahon qayerda, bilmas.

Chun ko‘rdi ato, berib salomin,
Arz etdi anga shirin kalomin.

Majnun dag‘i ko‘rdi, ota erdi,
Chun poyiga soyadek yiqildi:

Ey boshdagi toj-u taxti jonim,
Uzrim qabul et, shu bo‘ldi holim!

Holimni ko‘rarda chekma nola,
O‘g‘lingni qazoga et havola!

Kosh erdi, qoshimga kelmasayding,
Boshimda bu kunni ko'rmasayding!

Ey ota, qoshingda yuz qaromen,
Uzrimni nechuk etay ado men?

Bildimki, bu ish bo'yladir, bas,
Sarrishta u yoqda, bizda ermas!...

**Otasi Majnunga nasihat etgani**

Chun ko'rdi ota, ne erdi ul zor,
Oh chekdi-yu boshdin otdi dastor.

Yoshli ko'ziga jahon toraydi,
Kunduz edi, tun kabi qoraydi.

Dediki: "Ayo shikasta, nolon,
Ham daftari gul kabi parishon!

Ey shefta, namuncha beqarorsen?
Ey so'xta, namuncha xomkorsen?

Kimning ko'zi tegdi senga nogoh?
Ne qarg'ishi soldi senga savdo?

Kimning xuni tushdi gardaningga?
Kim soldi tikanni domaningga?

Ayt, senga jafolar aylaganni,
Kim sanchdi ko'zingga bu tikanni?

Bormi bu jahonda sencha badbaxt,
Ki boshida shunchalar mashaqqat?

G‘am-qayg‘u chekib, toliqmadingmi?
El ta’nalar otdi, to‘ymadingmi?

Kamdirmi boshingda bu malomat?
Yetmasmi o‘zingga bu qiyomat?

Qo‘y behuda bu havasni, bas qil,
Obro‘yimiz o‘nglamoq havas qil.

Dunyo ishi baski ustakorlik,
Aybdir bu makonda beqarorlik.

Ayb yaxshiki, gar nihoni po‘stdir,
Oyinayi do‘st — yaxshi do‘stdir.

Oyina yuziki rost-u beayb,
Yuvgil, deya senga ko‘rsatur ayb.

Ul yaxshidanam, yomondanam pok,
Bir mo‘jizadirki, mahsuli xok.

Ko‘ngling tubidin chiqar u dardni,
Bas, urma sovuq temirga zarbni.

Deylik, senga yo‘q bu ishda toqat,
Yor ishqidin o‘zni ayru tutmoq.

Kelsang ne bo‘lardi goh-gohe,
Biz soriga tashlabon nigohe.

Kim orzu-havasda surgay otin,
Qochganda topolmagay qanotin.

Mastdirsen, ajab, simirmayin may,
Orzuparast o‘lding, orzu etmay.

Sen yelga sovurding unda xirman,
Men qoldim, aroga oldi dushman.

To menda zar ersa, senda ham zar,
Bu soxta dinordin o‘zni qutqar.

Sen soz chalarda men yutib qon,
To‘n yirtsang,
u yoqda men chekib jon.

Ishq birla yonar-da senda ko‘ngil,
Kuydi jigarim tanimda butkul.

Sen o‘ksima, chora izla har vaqt,
Don yerga ekilsa, ungay, albat.

Har ishki emas umidga ul yor,
Aylar seni oxiri umidvor.

Navmedlik aro umiddir andoq,
Tun so‘nggida tong yorishgay oppoq!

Davlatli bilan turib-o‘tirgil,
Bu baxtdin esa yuzingni burgil.

Davlatni qo‘lingda saqla zinhor,
Davlat bor ekanda komidil bor.

Davlat — sababi girehkusholik,
Firuzayi xotami Xudolik.

Har ikki jahonni qildilar kashf,
Davlat etagiga etdilar baxsh.

Sabr aylasang, ul sabr-la beshak,
Davlat senga kelgay andak-andak.

Daryoki azimdir-u suluv tan,
Paydo o‘sha qatra-qatra suvdan.

Tog‘ yuksak erur bulutdanam, boq,
Asli tani zarra-zarra tuproq.

Hay, sabr-u chidamda bo‘lmagil sust,
Gavhar topilur chidam-la yolg‘iz.

Gar azm-u iroda yo‘qsa erda,
Qurt singari sudralar u yerda.

Qashqirni qachonki tulki yermish,
Azm-u jadali ziyoda ermish.

Ko‘ngilni nechun berursen, ul zot
Yillar bo‘yi etmasa seni yod?

Sensiz u gul-u, sen ersa g‘amnok,
U toshbag‘ir unda, sen alamnok.

Gar senga u haqda so‘zlagaylar,
Rasvo bo‘lishingni ko‘zlagaylar.

Gar chaqsa chayon, karafs[1] berilmas,
Zahr ustiga zahr o‘lur, bo‘lakmas.

Mashg‘ul bo‘l, o‘g‘il, o‘zingga obdan,
Chiq bir yo‘la bu yomon hisobdan!

Fil boshiga cho‘p urar esa er,
Hind yurtini esga olmasin der.

Jonsan, yana ul azizi jonsan,
Qayt uyga, charog‘i xonumonsan!

[1] **Karafs** — giyoh nomi. Bu yerda chayon chaqqanga karafs berish xato tadbir qilishga ishora.

Bu tog‘da senga ne borki, tursang?
Suvdir, to‘kilur yuzingni yuvsang.

Toshdir yo‘ling uzra, necha bir choh,
Har ikkisiga hazir bo‘l, ogoh.

Mirshab pisib turar, hazir bo‘l,
Zanjir kesaman dema, temir ul.

Sen — yo‘lchi bola, fitna — yo‘lbon,
Shamshir ko‘r-u, ochma sirni bir on.

Jam ayla anis-u mahramingni,
Kuydir bu sevinch-la dushmaningni!”

## Majnun otasiga javob bergani

Majnun otasi shirin kalomin
Tinglab, dedi shu shakar payomin:

“Sen menga falaksen, ey shukuhmand,
Balki, u falakdanam balandsan!

Shohi daman-u[1] raisi atlol,
Sendin arab ahli anbarinxol.

Dargohing u qiblayi sujudim,
Sen birla tirik tanim, vujudim.

Istarmen, hamisha bo‘l chinordek,
Sensiz ne emish menga tiriklik!

Aytding u nasihatingni otam,
Kuygan yaram uzra bo‘ldi malham.

[1] **Daman** — tog‘ etagi, qir.

Lekin netayinki, men qaroyuz
Bu ishda beixtiyormen, ojiz.

Bu yo‘lga kirish qarorim ermas,
Kirdim anga, ixtiyorim ermas.

Men bandi-yu, zanjirim temir g‘ul,
Tadbir ne, magarki qismatim shul!

Bu bandni yecholmagaymen, hayhot,
Bu yukdin etolmam o‘zni ozod.

Chun urdi chaqinki, men yonarman,
Yongay bir emas,
hazor xirman.

Yolg‘iz men emas sitamrasida,
Mendek necha yuzni ko‘rdi diyda.

Tushgaymi quduqqa soyakim, hoy,
Ko‘k avjiga chiqmasa magar oy?

Fildan to chumolicha tirik jon
Bormiki bu yo‘lda yutmagay qon?

Xalq istagidek bo‘lsa har ish,
Xalq istamas ul yumush ne ermish?

Ko‘nglim g‘am-u iztirobi kammi,
Kim istar o‘ziga muncha g‘amni?

Baxtim menga ko‘rsatur qaroni,
Kim quvgay o‘zidin ul baloni?

Bo‘lsaydi nasibim, ul sumansoy,
Oftob edim unda yo to‘lin oy.

Ish bo‘ylaki, bizda ixtiyormas,
Ish omadi bizga qolgan ermas.

Shod bo‘lmadi bu ko‘ngil balokash,
Kimdir u dili sevinchga uyqash?

Xunrezman o‘shal yarosi bordek,
Sargashtaman o‘ylakim g‘ubordek.

Chaqmoq kabi gar labimni yumdim,
Kulsam, base kuydirar u kulgim.

Derlar: nega kulmagaysen, odam,
Ko‘z yoshi —
nishoni qayg‘udir, g‘am?

Qo‘rqamen etarga kulgu, xanda,
Og‘zimdin olov chiqar o‘shanda...

## Hikoyat

Og‘zida chumoli erdi, kaklik
Aylar edi ul zaifga zo‘rlik.

Qah-qah urib aytdi ul chumoli:
“Kulmoq senga qayda men misoli?”

Qush dedi bu kulgudin bo‘lib sust,
“Kulguni chiqardi menga yolg‘iz...”.

So‘ng qahqaha urdi, kuldi kaklik,
Chun yetdi chumoliga xaloslik.

Har kimsaki etsa bo‘yla kulgu,
Bo‘lgay u hamon shukuhdin ayru.

Kulgu emas ersa o‘rnida gar,
Andin o‘sha yig‘lamog‘ing afzal...

Chun menga azob-u ranj bulkim,
Rohat yuzini qayonda ko‘rgum?

Ul qari eshak yuk tashir, yuk,
O‘lgunchadir unga bu tiriklik.

Osudalik unga qayda yukdin,
O‘lsa, qutulur bu ko‘rgulikdin.

Sen demaki, ishqda tig‘ tezdir,
Andoqki, bu ishq xonaxezdir.[1]

Xush ermasa kimga tig‘bozi,
Kessin o‘sha boshni mardi g‘ozi.

Ishq ichra u vahmi tig‘ ne ermish,
Oshiq o‘zini o‘shanga urmish!

Qo‘rqarmidi ul haloki jondin?
Jonon desa, qo‘rqmagay jahondin.

Kirmish bulut ichra ul quyoshim,
Hay, qayda qilichki, chopsa boshim?

Ul boshki, fidolik aylamas ul
Shoyistayi kiyn-u tig‘-u tos ul.

Jonimni olovga tushdi mundoq,
Noxushligi unga xushdir andoq.

Jonimki bu holga tushdi mandin,
Qo‘y holiga, ne tilarsen andin?”

[1] Ma’nosi: *bu ishq yurakdan kelmoqda...*

Majnun demadi bu so‘zdin o‘zga,
Bas, otasi yig‘ladi bu so‘zga.

Bir yonda ato turardi giryon,
Bir yonda o‘g‘il yotardi uryon.[1]

So‘ng uyiga eltdi benavoni,
Jam bo‘ldi anis-u do‘sti joni.

Ul oshig‘i shefta-yu qaro baxt
Sabr aylar edi chekib mashaqqat.

Uch kun alamga etdi bardosh,
Ko‘rganlar anga to‘kardi ko‘z yosh.

So‘ng pardani yirtdi, oh urdi,
Ul dasht-u dalo sari yugurdi.

Chekti yana ranj-u notavonlik,
Bejon edi, qayda zindagonlik?

Baxsh etdi ko‘ngilni ishq-u vajdga,
Bordi yana ul nishoti Najdga.

Mast sher kabi Najdga urdi ul bosh,
Poyida temirdi, ilkida tosh.

Faryodini ko‘kka yo‘lladi boz,
Ham o‘tli g‘azallar etdi og‘oz.

Jam bo‘ldi xaloyiq har tarafdin,
Ko‘z tashladi toshdan-u daraxtdin.

Har baytiki kon edi alamga,
Yod aylabon, oldilar qalamga.

[1] **Uryon** — yalang‘och.

Ul tuhfa bo'lib taraldi ofoq,
Chun dard-u farahga to'ldi ushshoq...

## Laylining ahvoli bayonida

Sardaftari oyati latofat,
Shohanshahi kishvari malohat.

Ham yetti falak chiroyi, naqshi,
Ham yetti xalifadin qumoshi.

Rashki ruhi mohi osmoniy,
Ranji dili sarvi bo'stoniy.

Mansubayi bori bim-u ammid,
Vorisayi zebi oy-u xurshid,

Mehrobi namozi butparast ham,
Qandili saroy-u sarvi ko'rkam.

Ham mahrami ishq-u hamdami roz,
Ham xozin-u[1], ham xazinapardoz,

Andin bezanur harirpo'shlar,
Sarmoya olur shakarfurushlar,

Dilband anga ming durri maknun,
Zanjir uzib anga ming Majnun,

Layliki, husnda oyat erdi,
Hukmida hama viloyat erdi.

Serob gul-u gul piyola qo'lda,
Gulg'uncha ochib ko'rindi yo'lda.

[1] **Xozin** — xazinachi.

Bo‘y cho‘zdi ajabki sarvqomat,
Yoqutlabi bo‘ldi jonga ofat.

Bir boqishi yondirardi gulni,
Noz-ishvasi kuydirardi dilni.

Ul joduki, ul boqishda har on,
Yuz mulkni etardi zor-u hayron.

Aylardi hamisha g‘amzasozlik,
Har tozi-yu[1] turkka turktozlik.

Saydi sari yetmasa kamandi,
Noz ovlar-u zulf etardi bandi.

Ohu ko‘zining adosi muncha,
Ham nofa, ham oh-u erdi o‘lja.

Ul halqayi zulfidin ochib sir,
Sher gardaniga solardi zanjir.

Ul la’li labini angubin deb,
Alqardi nabot ofarin deb.

Ming bitta sanam etardi, yohu,
Gulgun labidin asalni orzu.

Zulfi “Oling endi bo‘sa!” derdi,
Mijgoni “Xudo buyursa!” derdi.

Zulfi chaqirib, kel beri, der,
Mijgoni asirga, ket nari, der.

Ikki yuzi oydanam ziyoda,
Har guldin o‘zar edi piyoda.

[1] **Tozi** — arab.

Qaddi-bo‘yi erdi sarv yanglig‘,
Gul chehrasi ul tazarv yanglig‘.

Gar kulsa, u kulgisi shakardi,
La’li labidin shakar to‘kardi.

La’li etibon hikoyati bo‘s,
Shakkarligiga etardi afsus.

Chohi zanaxida ko‘r usulni,
Tutqin etar erdi yuz ko‘ngilni.

Zulfi rasani tushib yiroqdin,
Ozod etar erdi qulni chohdin.

Bas, bul hama noz ila adoda,
Xun erdi jigar u dilraboda.

Ul pardada, yo‘li erdi bog‘liq,
Ham parda misoli ko‘ngli dog‘liq.

Chun tomga chiqardi subh-u shomlar,
Pinhona boqardi har tomonlar.

Ko‘rsam edi Majnunimni, derdi,
Yonida dame o‘tirsam erdi.

Qay ko‘z ila, qaydin izlasin ul,
Qay so‘z-la g‘amini so‘zlasin ul?

Badxoh-u raqib vahmi dilda,
Tun yarmida termilardi yo‘lga.

Shamdek kuyib, o‘rtanardi ortiq,
Shirin kulib,
yig‘lar erdi achchiq.

Yosh birla yuvardi gul uzorin,
Har narsada ko‘rgay erdi yorin.

O‘rtar edi otashi judolik,
Na dud edi, na-da ro‘shnolik.

Oyinayi dard visoli erdi,
Munis anga o‘z xayoli erdi.

Gar yel kabi goh yelardi har yon,
Ichdin ezilib, yotar edi qon.

Soya edi yakka pardadori,
Parda edi yakka g‘amgusori.

Sirdosh anga soya, o‘zgamasdi,
Tunlar o‘sha soya uxlamasdi.

Maskan edi unga suv va otash,
Derdingki, paridir ul parivash.

Xotinga navo — sadoyi dukdir,
O‘q — olati lashkari mulukdir.

Layli otib ikki boshli dukni,
Oldi anga bitta boshli o‘qni.

Bir boshli o‘q erdi, otgani on
Qo‘sh boshli duk erdi zor-u sarson.

Daryo-daryo yig‘ardi dur, ha,
Ko‘zdin to‘kar erdi kema-kema.

Parda yopinib chekar edi g‘am,
G‘am unga nasiba erdi hardam.

Taqmishdi quloqqa halqayi zar,
Chun halqa eshikka erdi muztar.

Yolg‘iz uni kutgay erdi, yolg‘iz,
Bir boshqani kutmas erdi hargiz.

Ul sevgani dilda erdi doim,
Ikki ko‘zi yo‘lda erdi doim.

Kutgay edi bir payom kelar deb,
Ul kutganidin salom kelar deb.

Gar yel ufursa Najd tomondin,
Bir bo‘yi vafo kutardi ondin.

Gar chiqsa bulut samoga har gal,
Bir tomchi mehrga erdi mahtal.

Har qaydaki yursa, tursa erdi,
Yorning g‘azali ravon kelardi.

Qaytar esa har bola bozordin,
Bir bayt o‘qir erdi unga yordin.

Har kimki eshikdin o‘tsa nogoh,
Yor baytin anga etardi savg‘o.

Laylida chunon malohat erdi,
Nazm ichra ajab fasohat erdi.

Dur erdi o‘zi-yu durga monand,
Baytlar to‘qir erdi pok-u ravshan.

Aylar edi hasbi holi Majnun,
Har baytida so‘z — durri maknun.

Bunga u birov javob berardi,
O‘t oldida suv hisob berardi.

Qon yoshini chun siyoh etib qiz,
Dil rozini safhaga bitib qiz,

Baytlar tizar erdi ishqi jondin,
So‘ngra uni tashlar erdi tomdin.

Ul xatni olardi bir yo‘lovchi,
Shu onda o‘qib, oshib sevinchi,

Bechora g‘aribga yetkazardi,
Aytsin dag‘i ul tarôna derdi.

Ul ersa yana badiha ayta,
Yo‘llar edi u sanamga qayta.

Shu tarzi, yo‘sinda ikki dilband,
Ko‘nglini payom etardi payvand.

Ovozayi ikki bulbuli mast,
Ne balbala[1] ersa, ayladi past.

Ul ikki ipakdayin xushovoz
Soz ayladi bir ipakdayin soz.

Yangrardi rubob-u nolayi chang,
Jo‘r erdi navoda ikki ohang.

Ul bittasi so‘zga jon solardi,
Bul bittasi bunda nay chalardi.

Kuylar ekan ikki hamtarona,
Mutrib edi necha ahli xona.

[1] **Balbala** — shovqin-suron.

Dushmanlar esa bo‘lib beorom,
So‘ylardi ularga ta’na, dashnom.

Ul ikkisi tinglabon bu so‘zni,
Ko‘z yoshi bilan yuvardi yuzni.

Bir yilcha shu holda kechdi holi,
Band erdi xayoliga xayoli...

**Laylining sayri bo‘ston etgani**

Gul birla bezandi dasht-u sahro,
Gul atri-la bo‘ldi ul mutarro.[1]

Chun yayradi, yashnadi daraxtlar,
Yuz ochdi jahonga nekbaxtlar.

Ol lola, sariq gul erdi yashnoq,
Yer ikkisidin ko‘tardi bayroq.

Mast etdi chiroyi bog‘-u bo‘ston,
Chah-chahladi ul hazordaston.[2]

Shabnam ila yangi sabza endi
La’l ostida chun zumurrad erdi.

Lola to‘ni erdi ol-u shingarf,
Chekmishdi qarolik unga bir harf.

Barq urdi binafshaning quvonchi,
To yerga uzandi zulfi, sochi.

G‘uncha kamari belida mahkam,
O‘q-nayzasini otardi har dam.

[1] **Mutarro** — xushbo‘y, muattar.
[2] **Hazordaston** — bulbul.

Gul yopinib ustiga harirni,
Yol tortqilar ul isirg'alarni.

Oftobdin olib nilufar ul rang,
Otmishdi siparni suvga bejang.

Sunbul yana nofa ochdi xushhol,
Gul unga uzatdi qo'lni darhol.

Shamshod dag'i urdi sochga shona,
Gulnor gulin etdi dona-dona.

Nargisda harorat erdi, balqib,
Uyg'ondi, oyoqqa turdi qalqib.

Xurshid ichirdi boda, ondin,
Qonlarni oqizdi arg'uvondin.

Sim chashmaki,[1] yosumandi unda,
Nasrin yuzini yuvardi shunda.

Gul ko'zlarin ochdi bo'saga boz,
Chug mislsiz erdi, boshladi noz.

Savsan belida tig' erdi burro,
Yo'q-yo'q, tig'i erdi boshi uzra.

Qushlarki, u bezabondi chun zog',
Keltirdi zabonga gulshan-u bog'.

Durroj dilini kabob etarkan,
Qumri anga tuz separdi har dam.

Kaptar tutib oshiyon chinorni,
Xonish etar erdi vasfi yorni.

[1] **Sim chashma** — kumush buloq.

Bulbul o‘tirib daraxtda tanho,
Majnun kabi ul chekar edi oh.

Gul Laylisifat nigohi qiyg‘och,
Chiqmishdi chamanga,
boshida toj.

Gul fasliki erdi bo‘yla ravshan,
Layli etar erdi sayri gulshan.

Bandi sari zulfiga berib tob,
Gul chehrasini muattar aylab,

Hamrohi necha sanam shu onda,
Gavhardek uni olib aroga.

Turk erdi bari, arabnishon nom,
Xushdir esa turk toziandom.

Ul halqaki erdi halqayi hur,
Layli edi misli donayi dur.

Istardi o‘shal chamanga borsa,
Gul ostida bir nafas o‘tirsa.

Nargis qo‘lidin dom olsa,
Lola mayidin payom olsa.

Zulfi berib ul binafshaga tob,
Gul chehrasi gulni etsa mahtob.

Ko‘rsatsa sarvga yurgulikni,
O‘rgatsa sumanga ezgulikni.

G‘uncha labidin boj olsa,
Gul kosasidir xiroj olsa.

Yurganda chamanga soya solsa,
Ko‘z tashlasa sarv-u gulga, kulsa...

Yo‘q-yo‘q, niyat unga bu suxanmas,
Ul sarv, gul-u u nastarinmas.

Niyat edi topsa bir panohin,
Kuygan dilidin chiqarsa ohin.

Ul bulbuli mastga roz aytsa,
Chekmish g‘amin unga boz aytsa.

Yetkazsa nasimi bo‘stone,
Ul yori g‘aribidin nishone.

Bahri dili gul kabi ochilsa,
Qayg‘u yukidin u forig‘ o‘lsa...

Ul joyki ajab chamanli yerdi,
Oroyishi san’ati Chin erdi.

Xurmolari erdi munchakim mo‘l,
Ki bog‘i Eramga ochilur yo‘l.

Jon rohati angla bu chamanni,
Ki bir kishi bosmamish qadamni.

Layli bila necha sarvi jonon,
Bog‘ sayriga bo‘ldilar xiromon.

Chun sabza aro o‘tirsa gar ul,
Ul sabza hamon ochar edi gul.

Har yerda uforikim esardi,
Savsan ochilardi, gul o‘sardi.

Har joydaki yuvsa qo‘lni yayrab,
Shamshod sevinardi, sarv yashnab.

Ul necha sanamki, lolaruxsor
Birla ko‘ngil ochdi, kuldi bisyor.

Gul davrada ul sevinchga toldi,
So‘ng turdi-da, o‘zni chetga oldi.

O‘ltirdi u, boshi uzra sarve,
To‘ti pari uzra chun tazarve.

O‘ltirdi misoli xirmani gul,
Oh urganidek bahorda bulbul.

Chekdi necha nola ul nihoniy,
Har so‘zida erdi mehri joni:

“Ey yori muvofiqu vafodor,
Men senga-yu, menga sen sazovor.

Ey mard yigit, tiyra boshli,
Ey ko‘nglida dard-u ko‘zi yoshli.

Koshkiydi kelib shu so‘y bog‘din,
Ko‘nglimni aritsang erdi dog‘din.

Kosh erdiki, men ila o‘tirsang,
Men norvan-u,[1] sen sarvni ko‘rsang.

Balki, senga yetmagay farog‘im,
Hechdir senga ul saroy-u bog‘im?

Yo‘qsa, nega yo‘q salom sendin,
Yoring sari bir payom sendin?”

[1] **Norvan** — chiroyli, sersoya daraxt.

Etmay hali bu savoli parvoz,
O‘tkinchi birovdin uchdi ovoz.

Aytardi g‘azal chu durri maknun,
Har so‘zida ohi so‘zi Majnun:

“Sirrim ochib, eyki, parda yirting,
Pardam yana bo‘lsin ul umiding!

Majnunga makonki bahri qondir,
Layliga bu martaba qayondir?

Majnun jigariki pora-pora,
Layli etar unda kimga chora?

Majnun chekar ersa ohi anduh,
Laylida nechuk u noz uyqu?

Majnun boshi uzra qayg‘u bunda,
Layli nega shodlik istar unda?

Majnun dili ichra dard-u otash,
Layliga bahor-u bog‘mi dilkash?

Majnun kamari niyoz boylar,
Layli guli xanda kimga aylar?

Majnunga yetib firoqidin kom,
Layliga nechun nishot-u orom?”

Layli eshitib, oqizdi yoshni,
Ko‘z yoshidin ul eritdi toshni.

Bir sarvi sanamki boqdi zimdan,
Qiz holi ne erdi, bildi ul dam.

Bir o‘zgacha erdi Layli holi,
Yor yodiga band edi xayoli...

So‘ng qaytdilar uyga barcha yashnab,
Xuddi sadaf ichra durga o‘xshab.

Ul qizki, anga ayon edi sir,
Layli onasiga aytdi bir-bir.

O‘ylardiki, gar ona bilgay,
Qiz dardiga, balki, chora qilgay.

Ul onayi zorda talx o‘lib kom,
Bir qush edi to‘rda, chun beorom.

Der erdiki, qo‘ysam erkiga, bas,
Ul shefta emishki, bu bo‘lur mast.

Sabr ayla desam, ne naf andin?
Sabr aylamas, ul ketar qo‘limdin...

Farzandini o‘ylabon, egib bosh,
Ohlar chekibon etardi bardosh.

Layli esa ma’yus erdi, malul,
Misli qafas ichra oy edi ul.

Har ohi nihoni o‘t yanglig‘
Ko‘ksiga chekardi qayg‘udin tig‘.

Diltang edi, o‘rtanar edi jon,
Ishq ichra kim o‘lmamish parishon?!

## Ibni Salom Layliga sovchi yuborgani

Ul kimsaki etdi bu chaman-bog‘,
So‘z burdi yana chamanga mundoq:

Ul kunki chamanga kirdi ul oy,
O‘n to‘rtga yetishgan erdi chun oy.

Sarv boshida erdi guli dasta,
Bozori gulob-u gul shikasta.

Zulfi sochilib, tugun-tugun sir,
Chun erdiki, halqa-halqa zanjir...

Bir kimsa Bani Asaddin[1] erdi,
Yo‘l ustida ul parini ko‘rdi.

Yosh bir yigit ul, arabda nomlig‘,
Sohib hunar-u baland maqomlig‘.

Ko‘p sonli qabila-vu qarobat,
Sevgan ishi xizmat erdi, himmat.

Xalqdin ayamasdi hech salomin,
Baxt Ibni Salom demishdi nomin.

Sarvatli edi, yana viqorli,
El nazdida izzat-e’tiborli.

Chun ko‘rdi, edi charog‘i tobon,
Yel singari yeldi ul shitobon.

Lek bilmadi, jahd etsa ham to,
Yel birla chiroq yoqilmas aslo.

[1] **Bani Asad** — qabilaning nomi.

Qaytdi vataniga, band xayoli,
Ko‘nglida o‘shal pari visoli.

Bir kimsa qucharmi oyni?
Mushkul!
Bilmas buni, o‘ylamas edi ul.

Chun oh-u pariga bo‘ldi ovchi,
Vaslini tilab yubordi sovchi.

Laylini tilardi mahram etsa,
Yor etsa-yu, jonga malham etsa.

Nayrang ila chora tuzdi andoq,
Zar sochdi misoli xok-u tuproq.

Baxsh ayladi ming ganji shohiy,
Qo‘y, teva yubordi, yo‘q hisobi.

Chun bordi miyonachi suxango‘y,
Bas, istadi ul nigori diljo‘y.

Niyatga yetishni istabon ul,
Qo‘l o‘pdi o‘shanda, necha bir qo‘l.

Ham ota o‘tirdi, hamda ona,
So‘z ketdi aroda mardumona.

So‘ngra dedilarki: “Maslahat shu,
Ozroq sabr kerak, tavaqquf.

Ul toza bahor-u, bog‘-u bo‘ston,
Bemorligi bor, biroz parishon.

Ozroq kutingiz, sog‘aysin ul qiz,
Shukrona etib, nikoh qilurmiz.

Ul aqd — nishoni sud bo‘lgay,
Inshoollohki, zud bo‘lgay!

Ammoki kutingiz necha bir kun,
Shu va’dadin aylab o‘zni mamnun.

Gul g‘unchasi yashnabon ochilsin,
Bog‘ sahri ufori gulga to‘lsin.

Bo‘yniga taqib tilla marjon,
Sizga uzaturmiz shod-u xandon!”

Chun Ibni Salom eshitdi so‘zni,
Yettinchi samoda ko‘rdi o‘zni.

Ot surdi diyori soriga shod,
Ko‘nglini g‘ubordin aylab ozod.

Majnuni shikasta dasht aro zor,
Sargashta kezardi baxtidek xor.

Betavba yelardi dasht-u sahro,
Vahshiy necha borki, unga hamroh.

Goh o‘ltirar ersa, gohi qoim,
Ming dard ila bayt o‘qirdi doim.

Najd tog‘iga izlanur edi, bas,
Shayxona borardi, garchi shayxmas.

Ishq zahmatini chekardi andoq,
Ohi sovurardi yo‘lda tuproq.

Oshiq kishi ko‘rsa bu jununni,
Sabr aylamas, yirtar erdi to‘nni.

Bor erdi u yurtda bir kishi nek,
Qahr ichra temir, mehrda mumdek.

Navfal edi nomi, purshijoat,
Qavm ahli anga etar itoat.

Lashkar to'kilurdi ursa shamshir,
Mehrida g'izol-u qahrida sher.

Ham hashmatgir-u ham hashamdor,
Ham davlatmand-u ham diramdor.

Bir kun qadab o'qini kamonga,
Ov qilgali keldi shu tomonga.

Har lahzada o'lja izlar erdi,
Har go'shada oh-u ko'zlar erdi.

Ko'rdiki, yotardi zor-u dardmand,
Har mo'yiga nola erdi payvand.

Mehnatzada bir g'arib edi u,
Dushmanga asir-u, do'stdin ayru.

Vahshiylik emishdi unga yaxshi,
Atrofida erdi necha vahshiy.

Kuylardi ajabki tark etib hush,
Har kimsa eshitsa, erdi madhush...

So'rdi sababi bu qiyl-u qolin,
Sharh etdilar unga bo'yla holin:

Bir qiz ko'yida, ko'ring bu ishni,
Devona bo'lib yo'qotdi hushni.

Tun-kun uni yod etar-da, bo‘zlar,
Yellardin uning uforin izlar.

Keltirsa uforini magar yel,
Yuz bayt-u g‘azallarin anga der.

Gar kelsa bulut o‘shal diyordin,
Kuylar bu nishona deb nigordin.

Gar o‘tsa yo‘lovchilar, u holda
Ko‘rgaylar aniki, ne zavolda.

Bergaylar anga gahi taome,
Gohida libos, sharobi jome.

Ming qistov ila no‘sh etar jom,
Yod aylab hamisha ul dilorom.

Xullas, hama kor-u bori shundoq,
Bor holicha holi zori shundoq...

Navfal eshitib bu zabunlik,
Dediki, kerakdir odamiylik!

Ko‘rdim, madad aylagaymen unga,
Andoqki, yetar u komi dilga.

Har dam talabi shikor etib men,
Hay-hay, ne ajab shikor etibmen!..

Navfal buni otda erkan, aytdi,
So‘ng sakradi, o‘zni yerga otdi.

Chorlab qoshiga dedi: o‘tirgil,
So‘ng qo‘ydi taom: tanovul etgil!

Afsonalar aytib ul damo-dam,
Majnun dilini eritdi bir dam.

Ko‘rdiki, u oshig‘i javonmard
Yorsiz yemagay taomin hech vaqt.

So‘z desa, hadisi yor derdi,
Undan bo‘lak unga so‘z yo‘q erdi.

Har qissaki so‘ylanursa alhol,
Layliga burardi so‘zni darhol.

Ul sheftayi yor, asiri savdo,
Navfal so‘zidin topib tasallo,

Ko‘ngli ochilib, yorishdi kam-kam,
Yeb-ichdi, qoniqdi, bo‘ldi xurram.

Topmish edi ulfat-u musohib,
Izhori ko‘ngil uchun munosib.

Ko‘nglini muhabbat o‘rtar erdi,
Har lahza qasida aytar erdi.

So‘z, kulgu aro u har daqiqa,
So‘ylar edi o‘tli bir badiha.

Navfal dahi so‘z ila etib shod,
Vayronani aylar erdi obod.

Derdiki, o‘shal charog‘i purnur
Ko‘yida shamdek bo‘lma ranjur.

Men zar bila, balki zo‘r bilan ham
Etgum o‘sha yorni senga hamdam!

Gar qush bo‘lib uchsa-da havoga,
Yetgusi qo‘lim u dilraboga.

Tosh bag‘rida ersa misli uchqun,
Men zarbi temir ila chiqargum.

Mahram senga bo‘lmaguncha ul moh,
Undan kamandni chekmam aslo...

Majnunda edi umidi yorlig‘,
Ta’zim etar erdi, haqguzorlig‘.

Derdiki: so‘zing shạhd-u shirin,
Ummid udirki, lof emas, chin.

Ul qizining agarchi men adosi,
Devonaga bermagay anosi.

Kimki gulni shamol-bodga bergay?
Mohzodani devzodga bergay?

Biz sori tavofmi ul ravodir,
Devona-yu yangi oy? —
Xatodir!

Yuvmoq ila bo‘ldi chorasozlik,
Yo‘q, bo‘lmadi to‘nimiz namozlik.

Har chandki etishdi el davoni,
Bizdin u aritmadi qaroni.

Ilkingda magar karomating bor,
Bu dardi dilimga etmagay kor.

Avvalda madad, muruvvat aylab,
Ketgaysen meni so‘ng yo‘lda tashlab.

Domingga shikor tushmagach ul,
Mendin yuvasen qo'lingni butkul.

Aytganlaring ul quruq nog'ora,
Qo'rqarmen, etar seni ovora.

Lof aylab, agarchi va'da berding,
Ahsan[1] senga, yo'lni chun supurding!

Nazdimda, u so'zlaring sarobdir,
Qo'ygil meni, senga bu savobdir.

Ul yaxshiki, manzilimda qolsam,
Yolg'iz g'am-u tashvishim-la bo'lsam...

Navfal eshitib bu oh-u zorin,
Etmoqqa oshiqdi o'z qarorin.

Erdi dag'i yosh-u navqiron ul,
Ozodasirisht-u mehribon ul.

Erdi yana chun g'arib-u tengdosh,
Tengdosh ne emishki, balki dildosh.

Bas, turdi-yu qo'l ochib duoga,
Ahd ayladi yolborib Xudoga:

Bar haqqi rasolati Rasuli,
Imon-u aql erur qabuli.

Bu yo'lda qo'limda ganj-u shamshir,
Jahd aylagum endi misli bir sher.

Na sabr bo'lur, na non-u uyqu,
To ulki muyassar ermas orzu.

[1] **Ahsan** — ofarin.

Sendin vale iltimos, o‘tinch shul,
Devonaligingni endi qo‘ygil.

O‘ltirgil-u ayla xushxayol sen,
Bu telba ko‘ngilni qo‘lga ol sen.

Sendin chidam-u sabrga ko‘chmoq,
Mendin — u temir eshikni ochmoq!..

Ul sheftaki ko‘rdi, ish chunondir,
Bu sharbat anga najoti jondir.

Bas, joniga etmadi jafoni,
Chun ayladi ahdiga vafoni.

Sabr ayladi qayg‘udin olib tin,
Suv urdi olovga, etdi sokin.

Navfal ila ketdi, bo‘ldi hamroh,
Do‘st yonida tutdi ul qarorgoh.

Hammomga tushib, libos kiydi,
May ichdi, ko‘ngilda nash’a tuydi.

Rasmi arabiy-la salla bog‘lab,
Musiqi, sharob-la dilni chog‘lab.

O‘ltirdi, g‘azallar aytdi xursand,
Vasfida o‘shal jamoli dilband.

Navfal anga baski mehribonlik,
Misli bulut etdi durfishonlik.

Rasm ayladi yaxshi yeb-ichishni,
Orastalik uzra parvarishni.

Sorig‘ yuzi bo‘ldi arg‘uvoniy,
Ham qomati — tikka, navqironiy.

Ul g‘oliyagun xati siyohi
Andomida kuldi chehra-mohi.

Yel guldin olib uforin avval,
Qaytardi u olganin mukammal.

Yuz ochdi saboh shod-u xandon,
Xurshid yana bo‘ldi mehri tobon.

Devona hamon bo‘lib xirandmand,
Tutqinni bo‘shatdi zanjir-u band.

Bog‘ qo‘ynida sabza oldi orom,
Ilkida ajabki lolagun jom.

Majnun yana bo‘ldi begumoniy,
Chun oqili majlisi maoniy.

Navfal edi oqibatga molik,
Aylar edi unga mehribonlik.

Majnunsiz u suhbat etmas erdi,
Bir qatra sharob simirmas erdi.

Kechdi shu yo‘sinda necha bir oy,
Qo‘llarda qadah edi, qizil may...

## Majnun Navfalga ta'nali so'zlar aytgani

Bir kun chu o'ltirib ikovlon,
Suhbat qilishardi sho'x-u shodon.

Majnun etib ta'nayi zamona,
Bayt o'qidi necha oshiqona:

Ey bexabar ul dudi ohim,
Sovrildi firibing ichra xokim!

Berding menga yuz va'dayi nek,
Yarmiga vafo etmading lek.

Aytdingki, qoshingda aylaram no'sh,
Etdingmi u aytganing faromush?

Yuz hiyla-firib ila ketirding,
Sabr-u chidamimni yelga berding!

Ahd etmish eding vafoga payvand,
Endi ne sababdin ul tiling band?

Yuz zaxmi zabon ko'rib so'zingdin,
Bir marhame ko'rmadim o'zingdin!

Sabrim kamayur, bitsa, netgum,
Bir chorasin ayla, yo'qsa, ketgum!

Bechora chora ko'rsatish ne?
Ul so'zga keyin xilof bo'lish ne?

Mardlarga munosib ermas uncha,
Do'st-do'stga jafo etarmi shuncha?!

So'zdirki uning vafosi yo'qdir,
Sendek kishiga ravosi yo'qdir.

Yorsiz bu ko‘ngilda dard-u anduh,
Bir tashnaki, ul ziloldin ayru.

Suv ber anga, barham ayla ranjni,
Vayronaga mahram ayla ganjni.

Yo‘qsa, yana ayla zanjiring soz,
Devonayi shefta bo‘lmagim rost!

Layliga yetishtir aytganingdek,
Yo‘qsa, menga ne kerak tiriklik...

## Navfalning Layli qabilasi ila jangga kirishgani

Navfal bu itobni eshitib, hay,
Yumshaldi chu otash ichra mumday.

So‘ng qalqdi oyoqqa o‘ylakim sher,
Bas, kiydi sovut, taqdi shamshir.

Yuz jangchi yigitni jangga shaylab,
Saflarga tizib, suvoriy aylab.

Tartib-u nizom-la yo‘lga tushdi,
Yo‘l bosdi shitob, yeldek uchdi.

Chun Layli qabilasiga yetdi,
Qosid[1] chaqirib, siyosat etdi.

Dediki, men va lashkarim shay,
Jang shiddati misli o‘t-olovday.

Laylini talab eturmen, illo,
Yo‘qsa, siz uchun qilich muhayyo!

[1] **Qosid** — xabar yetkazuvchi.

Layliniki men olib keturmen,
Ul oshig‘iga nasib eturmen.

To tashna ziloli nobga qonsin,
Suv berguchi ham savobga qolsin!..

Qosid bu xabarni eltdi, ko‘rgil,
Mehr erdi aroda, sindi chil-chil.

Shu bo‘ldi javob: bu yo‘l xatodir,
Kulcha dema, Layli ko‘kda mohdir!

Oy soriga qo‘l cho‘zarmu hech kas,
Sen qaydaki, o‘zga ham yetolmas.

Qandoq yetasanki, oftob ul,
Seni devi rajim esang, shahob[1] ul.

Maydonga tushishga biz-da tayyor,
Qoruraga[2] qarshi toshimiz bor...

Qosib eshitib, chu kom-u nokom,
Yetkazdi hamon ne erdi payg‘om.

Navfal g‘azab ichra toqati toq,
Yetkaz, dedi, shu so‘zimni andoq.

Ey bexabar ahli qavm, shoshqin,
Qo‘rqing qilichimning otashidin!

Qahr-u g‘azabimki, begumondir,
Daryo kabi bossa, beomondir...

Qosid yana bordi-keldi takror,
Keltirdi javobi nosazovor.

[1] **Shahob** — uchar yulduz.
[2] **Qorura** — sharob shishasi

Navfal g‘azabi alanga oldi,
Sabri tugadi, tamom yo‘qoldi.

Shamshirini boshida tutib tik,
Tashlandi qabila uzra sherdek.

Qavm ahli hisobi tog‘dek ortib,
Qo‘zg‘aldi shu onda na’ra tortib.

Navfal sari qildilar yurishni,
Sher boshiga o‘qtalib qilichni.

Jang avjiga chiqdi, toshdi chandon,
Maydonda solishdi mardi maydon.

Shamshir oqizardi yerga xun, bas,
Har qatrasi yerni aylabon mast.

Nayza otishardi pahlavonlar,
Naq ko‘kka uchar edi suronlar.

O‘qlarki, misoli tez uchar qush,
Qon ichgali talpinardi mudhish.

Tig‘lar kesar erdi baski xunxor,
Boshlar oyoq ostiga tushib, xor.

Maydon aro hayqiriq va hoy-hoy,
Ko‘r erdi samo-vu kar edi oy.

Chun tig‘i ajal chaqin chaqardi,
Ul tosh-u temirni ham yoqardi.

Har nayzaki ul siyosatangez,
Qonlar oqizishda keskir-u tez.

Xurshid ko‘tarmish erdi bayroq,
Tong chehrasi qirmiz erdi andoq.

Yor sahnida qon oqardi daryo,
Toshlar dahi qonli, chun Surayyo.

Har jangchi misoli bir balodek,
Og‘zini ochardi ajdahodek.

Shiddat va shitobda erdilar sher,
Ostidagi otlarini dev der.

Maydonda ajal va oh-u zorlik,
Majnunda alam va jonsuporlik.

Har kimsaki jangga kirgay erdi,
Unga u duoyi sulh o‘qirdi.

Gar tig‘ esa o‘zgalarga qotil,
Afsusidin o‘zni o‘ldirar ul.

Aylardi duo hojilardek,
Sulh istar edi, tilardi tinchlik.

Ayb etmasalar, bulut yanglig‘,
O‘z lashkariga chekar edi tig‘.

El ta’nalar otmasa, bilardi,
O‘z lashkari birla jang qilardi.

Gar kulmasa erdi ul g‘animlar,
O‘z do‘stlariga chekardi xanjar.

Gar ilkida bo‘lsa erdi taqdir,
Safdoshlarini otardi bir-bir.

Ko‘nglini kiritsa erdi yo‘lga,
Sheriklarini tiqardi go‘rga.

O‘rni bu sipohda ersa ham gar,
Ul o‘zga sipohga nusrat istar.

O‘z lashkarining olib havosin,
Qilgay edi o‘zgalar duosin.

Sherigi yiqilsa, kutgay erdi,
Kesguvchi u qo‘lni o‘pgay erdi.

Yor lashkaridin kesilsa bir bosh,
Bosh uzra turib, to‘kardi ko‘z yosh.

Nayza uchin o‘qtalib u yovga,
Fath-u zafar istar ul tomonga.

O‘z lashkari ustun ersa, ko‘rgil,
O‘q birla kamonni irg‘itar ul.

Yov lashkari kelsa jangda ustun,
Shovqin solar erdi ul sevinchdin.

Chun bittasi so‘rdi: ey javonmard,
Bu teskari holatingni anglat!

Bizdin senga bo‘yla jonsuporlig‘,
Sendin nega ul g‘animga yorlig‘?

Dedi: g‘animki ul menga yor,
Qalqon-u qilich-la ne ishim bor?

Yov birla jang aylamog‘ing ul ish,
Yor birla jang etmaging ne ermish?

Jang ichra kelar esa jarohat,
Bul joyda senga nasimi rohat.

Ma'shuqa nasimi jon yuborgay,
Oshiq anga naqdi jon yuborgay.

Yor surma yuborgay, ul g'uborim,
Tosh otsam anga, ne deydi yorim?

Yor va'dasi gar asal esa, bas,
Men sirka yubormagim ravomas.

Bas, o'ylaki ul tarafdadir yor,
Aytgil, u tarafni kim etar xor?

Mayli dili mehribonim unda,
Dil qayda ersa, jonim unda.

Yor oldida koshki o'lsam erdi,
Ul olsa shu jonni, bersam erdi.

Chun yorga fidolik ersa mendin,
Sizlarga ne rahmat o'lgay andin?

So'rguvchiki ko'rdi hol mundoq,
Ko'z yoshi ila sug'ordi tuproq.

Majnun esa raqs etib, uchardi,
Shu holicha sahni jang kechardi.

Navfal esa shamshirin tutib dast,
Dahshat solar erdi chun pili mast.

Har hamlada mahv etardi jonni,
Tang aylab u xasmiga jahonni,

Qay yongaki yursa, bosh uzardi,
Qay joygaki yetsa, qon sizardi.

Sarf aylab aroda bori kuchni,
To shomgacha chopdilar qilichni.

Tun keldi-yu aylab intixobin,
Kun ustiga yopdi ul niqobin.

To zulfi siyohni yozdi gurji,
Tuslandi samo, qoraydi burji.

Jang to‘xtadi, ikki lashkar ajrab,
Uyquga ketishdi rohat aylab.

Tun chodiri chokidin so‘kildi,
Tong chehrasi boz yorishdi, kuldi.

Boz turdi oyoqqa ikki lashkar,
Qo‘llar qilich va nayza yaksar.

Layli qabilagohi girdi
Sonsiz sipohga to‘lmish erdi.

To‘sgan edi o‘ylakim ufuqni,
Yomg‘ir kabi yog‘dirardi o‘qni.

Navfalki ko‘rdi ish chunondir,
Jang aylamak endi ko‘p ziyondir.

Ul yoqqa miyonachi yubordi,
Sulh taklifini aroga soldi.

Dedi: ne kerak bu tiyrbozlik,
Ish — sovchilik uzra dilnavozlik.

Ishqida yigitki tikdi jonni,
Istarmiz anga parinishonni.

Ish halliga shu daqiqa xarvor,
Ganjina to‘kishga men tayyor!

Etsak shu amalni gar — savobdir,
Shirin so‘zingiz anga javobdir.

Gar shahdi shakarni sotmagaymiz,
Savdosiga sirka qotmagaymiz.

Gar etmasangiz bu ishga rag‘bat,
Shamshir dag‘i sirmamoq ne hojat?

To yetdi xabarchidin bu gaplar,
Ajrashdi, chekindi ikki lashkar.

Sulh barchaga xohish erdi, xushlik,
Bas, bitdi aroda kiynakashlik.

Har ikki guruh sevindi andin,
Chun bo‘ldi yiroq jang-jadaldin.

## Majnun Navfalga achchiq gaplar aytgani

Bu gapni eshitdi, bildi Majnun,
Navfalga necha so‘z aytdi dilxun.

Dedi g‘azab ichra ul: “Nihoyat,
Shu bo‘ldimi etganing himoyat?

Avvalda base umidvorlik,
Oxirda ajab tamomkorlik.

Shu erdimi shavkati kulohing,
Shamshir urishda zo‘r sipohing?

Shundoqmi hisobi zo‘rmandlik?
Ul sehr-u fusuni devbandlik?

Yeldek yugurik samand ne bo‘ldi?
Ilkingda yirik kamand ne bo‘ldi?

Maylimga xilof ish tutding,
Sulh o‘rniga jangni odat etding.

Ul do‘stki edi salomdushman,
Etding uni sen tamom dushman.

Yor eshigi erdi ul vafolig‘,
Etding anga qulf osib, jafolig‘.

Kechdim o‘sha do‘stligingdin,
ey yor,
Qilding-ku hama ishimni abgor.

Bas, rishtaki u uzildi yordin,
Ayrildi suvoriy ul savordin.

Cho‘ponki, tayog‘i qo‘lda erdi,
Ul bo‘riga otdi, itga tegdi.

Lutf-u karamingga garchi nomdir,
Ahd-u amaling notamomdir.

Ul damki kuyardim xastalikdin,
Xush erdi u senga bastalikdin.

Yerdinki chu noumid erding,
Bas, ermaganingni nega o‘rding?

Etding-ku u yaxshi ibtidosin,
Sidq-u karam ayla, et duosin.

Ko‘nglimki qorong‘u, ro‘shno sen,
Ozurda tanimki, mo‘miyo sen...”

Navfal siparini otdi avval,
So‘ng berdi shirin kalomiga gal.

Dediki: “Sipohim o‘ldi mag‘lub,
Etdim shu sababli sulhni taklif.

Qaytib u yerimga, quvvat olgum,
Olmos qilichimni ishga solgum.

Ul joyda sipoh jam aylagaymen,
Shamshirni toshga qayragaymen.

Men baski bajargum aytganimni,
Tuproqqa tiqarmen ul g‘animni!..”

Bag‘dod-u Madina sori qistab,
Odam yubordi lashkar istab.

Qo‘shin talab etdi har diyordin,
Kuch yig‘di umid-u e’tibordin.

Jam bo‘ldi azim sipoh andoq,
To‘ldi anga baski dasht-dala, tog‘.

Jangohga yurib, yetishdi avval,
Dushman edi ko‘r, balki ahval.[1]

[1] **Ahval** — g‘ilay.

## Navfal ikkinchi bor jang qilgani

To ochdi xazinabon xazina,
Dur sochdi jahonga, ganji siyna...

Ul kunki sipohni surdi Navfal,
Har jangchisi jangga erdi mahtal.

1795 Bir zilzila ko‘pdi jumla yoqdin,
Toshlar quladi Qubays tog‘din.

Dushmanki eshitdi bu xurujni,
Shaylandi, niyat etib urushni.

Solori qabila ul sipohda,
Joy oldi kelib nazoragohda.

Sahroda u ko‘rdi nayza yaksar,
Tutmishdi ufuqni mavji lashkar.

Chun na’rayi ko‘s-u nolayi noy,[1]
Ko‘ngilni etardi tanda bejoy.

1800 Royi yo‘q ediki, jangga kirsa,
Beti yo‘q ediki, yuz o‘girsa.

Harchand u mahkam etdi ahdin,
Sel keldi-yu surdi raxt-u baxtin...

Chun ikki taraf tushib savashga,
Qo‘llardagi tig‘ yetishdi boshga.

Qonlar oqibon, ravona erdi,
Har qatrasidin aqiq unardi.

[1] **Ko‘s** — katta nog‘ora, bong. **Noy** — karnay ma’nosida.

Ko‘ngil o‘kinardi tan kesishdin,
Shamshir xijil erdi bosh uzishdin.

Shamshirini sirmab unda Navfal,
Har hamlada tog‘ yiqardi dangal.

Maydonda chu ajdaho edi, bas,
Olmos tig‘i tin olishni bilmas.

Har daf’a g‘animga ursa ul gurz,
Yorgay edi,
bo‘lsa hamki Alburz.

Har safhaga tig‘ chekŝa daf’a,
Qolmas edi ul kitobda safha.

Majnunni u ishtiyoqi qistab,
Jang aylar edi o‘lishni istab.

Jang qildilar ul aroda so‘ngsiz,
Tig‘ arradin erdi taxta tekis.

Do‘stlar esa do‘st-u hamjihat, shay,
Toshdin-da zilol chiqarsa bo‘lgay.

Parkandaliging nifoq tufayli,
G‘olibliging ittifoq tufayli.

Navfal qo‘shiniga kuldi omad,
Yov boshiga soldilar qiyomat.

Maydonda o‘liklar erdi sonsiz,
Mahv etdilar o‘ylaki omonsiz.

Har jonki tirik, yaroli erdi,
Har tanki yaroli, jon berardi.

Qavm keksalari to‘kibon yosh,
Navfal eshigiga urdilar bosh.

Aylab necha bor fig‘on-u faryod,
Dovar, dedilar aylagil dod![1]

Ey xasming erur qoshingda murda,
Et bizni shu lahza burda-burda!

Ne naf senga bizni qirmagingdin,
Mard qayda to‘kibdi qon o‘likdin?

Biz birla bir-ikki nayza, tig‘ but,
Qo‘l siltama bizga, ilkimiz tut!

Qo‘y, bo‘yla qiyomat etma zinhor,
Oldinda hali qiyomatam bor!

Gar dushmaning etsa jang havosin,
Shamshir ila ber uning jazosin.

Xasming chu ado-vu holidir tang,
Mag‘lub ila kim urush qilur, jang?

Qalqon-u qilichni chetga otdik,
Afv aylaki, biz gunohga botdik!

Payg‘om deya tig‘-u nayza tokay?
Aftodaga bu siteza tokay?...

Navfalki eshitdi nolani chun,
Afv etdi u dushmani gunohin.

Dediki, kelinni topshiring zud,
Aylang shu tariyqa bizni xushnud...

[1] **Dod** — bu yerda adolat, marhamat ma’nosida.

Laylining atosi keldi g‘amnok,
Xok erdi, dag‘i o‘pdi ul xok.

Dediki, Arabda nomdorsen,
Ham loyiqi taxt-u tojdorsen!

Ojizman-u pir-u dilshikasta,
Jonim shu g‘am-u alamga basta.

Yurtimda malomat ichra qoldim,
Balki, “ajamiy” deya ataldim.

Xalq qoni to‘kildi, uchdi ohi,
Bo‘ynimda erur azim gunohi.

Sharmandalik o‘ldi, ne xatodir,
Siymob kabi erisam, ravodir.

Laylini uyimda tutmam ortiq,
Men keltiray, et qulingga tortiq.

Rozimen-u marhabo degaymen,
Hukmingga hamon bo‘yin egay men.

Gulxan esa, senga bu ravodir,
So‘ng tashla qizimni o‘tga, yondir.

Yo etguli bir quduqqa tashla,
To‘k qonini, shu dilingni xushla.

Amringda bo‘lurmen erta-yu kech,
Amr ayla,
bo‘yinni tovlamam hech.

Gar toza guli bahordirmen,
Amringda hamisha bordirmen...

Devonaga qiz berolmam aslo,
Devonaga zanjir ursa avlo.

Sarsomi-yu nur qayda uyqash?
Xoshok ila do‘st bo‘lurmu otash?

Ul sheftaravish-u nojavonmard,
Beoqibat hamda roygongard.[1]

Odat anga tog‘-u dashtda yurmak,
Goh turmag-u gohida yugurmak.

Olchoqlar ila anis-u o‘rtoq,
Nomimni u nomi-la etar dog‘.

Kasbi hunari shikastakomlig‘,
Andin xush erur shikastanomlig‘.

Bu xoki arabda bormidir bod,
Har lahza qizimni etmamish yod?

Ta’rifini qo‘ymadi zabondin,
Yuz ta’na yog‘ildi shu jahondin.

Topshirsang o‘shanga gar lijomim,
Tuban sanalur hamisha nomim.

Badnom esa kimsa, ne yoziqdir,
O‘lsa nahang og‘zida, tuzukdir.

Badnom bo‘lishimni kutma mendan,
Bu kunni ko‘rib, qo‘rq U kundan!

Faryodima yet, ayla imdod,
Shukronasini etay umrbod.

[1] **Roygongard** — vaqtini tentirab o‘tkazuvchi.

Yo‘qsa, bu alamni chekmam ortiq,
Nozingdin etarmen o‘zni forig‘.

Boshin kesamen qizimning, illo,
It oldiga ham otarmen ongoh!

Toki qutulay bu nom-u nangdin,
Ozod bo‘layin bu sulh-u jangdin.

It olsa qizimni, rozi bo‘lgum,
Mayliga, nainki devmardum!

It qopsa birovni, ne emish, hay,
Marham topilursa, u tuzalgay.

Lek odamiy og‘zin urdimi, bas,
Mirn marham anga davo bo‘lolmas!

Chun so‘yladi dardini g‘amangez,
Navfal qolib ul javobga ojiz.

Bas, dardi adosi etdi ta’sir,
Rahm ayladi, dedikim: “Qani, tur!

Men garchi sari sipoh erurmen,
Xush ko‘ngil ila qizing so‘rarmen.

Gar bermasang, chekma g‘am andin,
Zo‘rlik bila kim olardi sendin?

Zo‘rlik bila qiz olinsa, albat,
Nekbaxt emas ul, asira, badbaxt.

Men kelgan edim so‘rab duolar,
Afsus, necha ayladim jafolar...

Qo‘llashdi nadim-u xoslari ham,
Cholda ne gunoh? — deyishdi ul dam.

Ki sheftayi xotir ul, havasnok,
Nasli baland ersa hamki, nopok.

Har qizki uning qo‘liga tushgay,
Badxo‘ bo‘lur, ul yo‘liga tushgay.

Sho‘rida ko‘ngildir ul, havolik,
Bilmas ne emish kadxudolik.

Har neki berarsen, ul najotdir,
Sobit emas, ulki besabotdir.

Biz jonni tikarmiz unga har vaqt,
U yovga tilaydi fath-u nusrat.

Bizlar uni deb nishonayi tir,
U bizga o‘qiydi aksi takbir.

Yo‘q, yaxshi ko‘ngil nishonimas bul,
Xoh kulsin-u xoh yig‘lasin ul.

Gar vasl-u visolga yetsa bu dam,
Ish oxiri oqibat bo‘lur g‘am.

Ne keltirar aslida bu holat,
Unga zarar-u, senga xijolat.

Ul yaxshiki, nom-u nangda yursak,
Bu ishdin agarda yuz o‘girsak...

Navfal eshitib, rizolik aytdi,
Amr etdi qo‘shinga, ortga qaytdi...

Majnuni adoga tushdi larza,
Ko‘ksiga qadaldi necha nayza.

Oh urdi, g‘am-u alamga to‘ldi,
Ul baxtiki uxlar erdi, o‘ldi.

Baxtim, dedi, yor bo‘lsa bir on,
Do‘stim bo‘lur erdi mardi maydon.

Navfal sari keldi, ko‘zda yoshi,
Ko‘nglida g‘azab, g‘azabda toshi.

Dediki, ayo, do‘stmidirsan,
Ahd aylab, u ahdni so‘ngra buzgan!

Oppoq tong edi-ku, chin umidlik,
Kunduzda nechun bu noumidlik?

Saydim qani qaysi yoqqa ketdi?
Ilkingdin uchib, qayoqqa ketdi?

Men tashnani gar Firotga eltding,
Suv bermading, ahli do‘zax etding.

Sharbat yasading magar shakardin,
Lek menga tegmadi qatra andin.

Sufrangga navot qo‘yib, shirinlik,
Quvding meni so‘ngra pashsha yanglig‘.

Ip so‘nggida bu tugun esa gar,
Yo‘q, ip dema, paxta andin afzal.

Bu so‘zni dedi-yu, yuzni burdi,
Chaqmoq kabi uchdi, ot surdi.

Harchand dedilar etib muroot,[1]
Bundan-da go‘zal bo‘lur mukofot.

Izlab topamiz kezib diyoring,
Bir o‘zga nigor, anis-u yoring.

Bohurmat-u husn-u boxazina,
Siymin tan-u oftob siyna.

Qalbingga sadoyi soz qaytur,
Davlat eshigingga boz qaytur...

Har necha deyildi erta-yu kech,
Ko‘nglida tugunni yechmadi hech.

Bas, o‘chdi nishoni, bo‘ldi pinhon,
Tentir edi miskin-u parishon.

Ko‘z yoshi to‘kardi, manzili xok,
Chun zahri kushanda uzra taryok.

Navfal esa qavmi mulkida ul
Hamdamlari birla erdi mashg‘ul.

Majnuni adoni chorladi ko‘p,
Istar edi etsa do‘sti mahbub.

Izlab necha so‘rdilar maqomin,
Yod etmadi kimsa barda nomin.

Gum bo‘lgani garchi noravo ul,
Ma’lum edi ne sabab ado ul...

[1] **Muroot** — lutf-u marhamat.

## Majnun ohularni ozod etgani

Sozandayi arg‘ununi ul soz
Yangratdi yana, taratdi ovoz...

Ul orzusiga yetolmagan qush,
Navfal elini etib faromush.

Yeldek surar erdi ot, shitobon,
Atrofida dasht edi, biyobon.

Kuylardi surudi bevafoni,
Navfal anga aylagan jafoni.

Har go‘shaga yetsa ul nihoyat,
Aylar edi baxtidin shikoyat.

Dasht ichra kezardi g‘am-tugunda,
Bir dom-u tuzoqni ko‘rdi unda.

Ul dom-u tuzoqda necha ohu
Tutqin edi, xor-u zor asru.

Ham unda shu saydidin bo‘lib shod,
Hozir edi qon to‘kishga sayyod.

Majnun surib ot, boshiga bordi,
Sayyod u taraddud ichra qoldi.

Majnun dedi: menki senga mehmon,
Rasmi domyorliq et namoyon.[1]

Domingga tushibti ohular bot,
Jabr etma, ularni ayla ozod!

[1] Ovchi ov ustiga kelib qolgan kishiga ulush berishi.

Bechora shu jonni etma bejon,
Azbaski yashashga kelmish ul jon!

Ko‘zi xub-u son-surini ham xub,
Har ikkisi ul ko‘ngilga mahbub.

Ko‘ngling ne bo‘lurki, shu zamoni
So‘ymoqqa shu necha begunohni?

Ul kimsaki ohukush erur, bas,
Bir bo‘riki, jinsi odam ermas.

Ohu ko‘zi chashmi yorga monand,
Atri bo‘yi gulbahorga monand.

Qo‘ygil uni haqqi chashmi yoring,
Rahm aylabon esla gulbahoring.

Jabr aylama, ulki bevafomas,
Arqon dag‘i bo‘yniga ravomas.

Bo‘yniki, u tavqibanddin ozod,
Afsus, uni kessa tig‘i po‘lod.

Ul chashmi siyohki, surmasuda,
Tuproqqa qorishsa, oh unda.

Ul siynaki, rashki siyminobdir,
Na loyiqi otashi kabobdir!

Ul sodasurini nozparvard,
Zaxm aylamak unga ne qabohat!

Ul nofaki, mushki nob erur jam,
Qonlarga uni bo‘yarmi odam?

Ul nozik oyoqki, gulga loyiq,
Zanjir ila boylamak ne loyiq?

Ul belki, ravomas unga zalvor,
Tuproqqa bosib, etarmisan xor?..

Sayyod uni tinglab, o‘zni tiydi,
Barmog‘ini so‘ng labiga qo‘ydi.

1925 Ma’qul, dedi, so‘zlagan so‘zing ul,
Men miskin-u benavo-yu yo‘qsil.

Shu o‘ljaga yetdim ikki oyda,
Ahlim zoriqib kutarlar uyda.

Chun zor-u niyozmand ersa sayyod,
Saydini nechuk u aylar ozod?

Rahm aylasang ohularga alhol,
Ber haqqini, sen uni sotib ol!..”

Majnun eshitib javobni ul dam,
Bas, sakradi, tushdi otdin ildam.

1930 Ul ovchiga tutdi otini bot,
Chun ayladi ohularni ozod.

Qoldi o‘zi ikki oh-u birlan,
Sayyod esa ketdi oti birlan.

Majnun sira chekmas erdi afsus,
Ohu ko‘zidin olar edi bo‘s.

Chashmi gar emasdi chashmi ul yor,
Ul chashmi xumordin erdi yodgor!

Avval nechakim duolar etdi,
So‘ng dom-u tuzog‘idin bo‘shatdi.

So‘ng ketdi ular ila shitobon,
Faryod ila titratib biyobon.

Bedushmanu, lek silohi bordi,
Guldek u silohdin ohi bordi.

Manzil osha qum kechar edi tek,
Qaynar edi misli bir qozondek.

Ohi bila ko‘kni o‘rtar erdi,
Kimxob-u harirni yirtar erdi...

Tun keldi, qaro libosi kimxob,
Oy chiqdi, hamon bekindi oftob.

Ul oshig‘i zorda erdi chun hol,
Bir tori qasabdek erdi behol.

Har kimki qarab, qidirsa dildan,
Farqini bilolmas erdi qildan.

Yor zulfi kabi qoraydi kecha,
Yo‘l — oshig‘i zor kabi ingichka.

O‘ltirdi, makoni erdi bir g‘or,
Yig‘lardi,
chu morgazida susmor.[1]

Ikki ko‘zidin sochar edi dur,
Ko‘z yoshiga g‘arq bo‘ldi oxir.

Qaqshar edi to‘lg‘onib ilonday,
O‘t qo‘ynida o‘rtanib tikonday.

To tonggacha bo‘yla oh chekdi,
Tundek xatini siyoh chekdi...

[1] **Morgazida susmor** — ilon chaqqan kaltakesak.

## Majnun maralni qutqargani

Tong otdi, jamoli erdi ko‘zgu,
Bayrog‘i jahonga sochdi yog‘du.

Zalvorini tun ko‘tardi chindan,
Oyinayi Chin ko‘rindi Chindan...

Majnunki, xayoli oh-u zorli,
Oyina edi, vale g‘uborli.

Qo‘zg‘oldi chunonki, erdi otash,
Atri-bo‘yi anbarin edi, xush.

Yo‘l oldi, tilida baytxonlik,
She’rida fig‘on-u mehribonlik.

Kiprik ila yo‘l supurgay erdi,
“Moshaallohu kona” derdi.

Bir go‘shaga so‘ngra yetdi nogoh,
Bo‘ldi yana to‘r-tuzoqdin ogoh.

Tushgan edi bir maral[1] to‘rga,
Bo‘ynini egib turardi zo‘rg‘a.

Sayyod o‘sha dasht go‘zal moroli
Boshida turardi sher misoli.

Qonini to‘kishga shay erdi,
Qonidin uning ne ungay erdi?

Sayyodga yetishdi u jadallab,
Lab ochdi, so‘zini nishtar aylab:

Ey it kabi zolim-u zabungir,
Ojiz boshidin to‘ringni olgil!

[1] **Maral (morol)** — Sibir bug‘usi.

Qo‘ygil, shu asir-u dom aro band,
Yursin necha kun shod-u xursand.

O‘z qonidin ul kanora tutsin,
Jufti ila oshiyona tutsin.

Ul juftiki tun yarimda izlar,
Topmas esa yorini, ne so‘zlar?

Aytarki, u solid chun judolik,
Yetsin dag‘i unga ham balolik.

Sayyodki etdi bu jafosin,
Boshiga mening kunimni solsin!

Qo‘rqqil bu fig‘on-u oh-u zordin,
Tortgil dag‘i ul qo‘ling shikordin!

Naylarding, etilsa bo‘yla bedod,
Sen sayd esang-u u ersa sayyod?

Shukronasini qachon qilursen,
Ul ovdir-u, unga ovchidirsen?..

Tinglab bu suxan, nidoyi dilni,
Sayyod shikordin uzdi qo‘lni.

Dediki: “Tig‘imni urmam unga,
Lekin uni bermagum tekinga.

Undan bo‘lak ozuqam yo‘q alhol,
Gar unga shafiq esang, sotib ol”.

Majnun neki erdi unda bor-bud,
Qo‘ydi uni ovchi oldiga zud.

Ne o‘lja qo‘limga tushdi deb shod,
O‘z yo‘liga ketdi shunda sayyod.

Majnun kelib ul shikori dilband
Ahvoliga boqdi ota monand.

Boqdi karam-u navozish aylab,
Har neki yarosi bo‘lsa, boylab.

Boshdin to oyog‘ini silab u,
Ko‘z yoshlarini oqizdi duv-duv.

1975 Ey, dedi, nishoni qayg‘udirsen,
Men singari yordin ayrudirsen.

Ey peshravi sipohi sahro,
Manzil senga dasht-u tog‘i xazro.

Atring menga eslatur nigorim,
Chashming yana misli chashmi yorim.

Jufting-la qadamla dasht-u tog‘ing,
Band ko‘rmasin hech mahal oyog‘ing!

Boshingni avayla, bo‘lma bandi,
Hech yetmasin unga shoh kamandi!

1980 Dandoning og‘izda o‘ylakim zar,
Andoqki, sadaf ichida gavhar.

Charmingki, o‘shal kamonga ipdir,
To‘n ersa o‘zingga bori xubdir.

Ashkingki, agarchi erdi taryok,
Hech oqmasin, unda zahr o‘lur xok.

Ey siynasu keng-u qomati rost,
Kuygan shu ko‘ngilni ayla e’zoz!

Kez tog‘-u hisorni, o‘tla takror,
Ul mohi hisordin o‘l xabardor.

Borsang u tarafga o‘tlab har zum,
Bu holi dilimni ayla ma’lum.

Ey yor, ko‘yingda xasta jonmen,
Har neki tilarsen, onchunonmen.

Sen mendan-u men dag‘i yiroqda,
Sen ranjiru men dag‘i firoqda.

Pir yo‘qki, hamon aroga tushsa,
Tir yo‘qki, hamon kamondin uchsa.

Yel sochmasa atring erta-yu kech,
Nomini tilimga olmagum hech.

Yodi seni gar xabar etolmas,
Ko‘nglim sari ul guzar etolmas...”

Ul bandi morolga bo‘yla malul
So‘ylar edi arzi holini ul.

Alqissaki, bandini yechib bot,
O‘pdi ko‘zidin va etdi ozod.

Ketdi jonivor shod-u mamnun,
O‘z yo‘liga so‘ngra yurdi Majnun.

Tun yulduzi boqdi, ko‘rdi bir choh,
Yusuf jamolni topdi, chun moh.

Oy erdi o‘shalki, nurli, yorqin,
Nil singari ko‘kka tushdi jo‘shqin.

Mil-mil kezar erdi ul balokash,
Kiygan to‘ni erdi Nilga o‘xshash.

Harchandki tilin chiqargay ul mor,
Yoki qush urar suvga minqor.

Na osuda ul ilon edi tek,
Na sokin edi shikasta qushdek.

Ortib chu harorati dimog‘i,
O‘rtardi, yonar edi chirog‘i.

Shamdek kuyibon, so‘nardi sekin,
Bir joyda tin olmas erdi lekin...

## Majnun zog‘ ila so‘zlashgani

Tong shu’lasi chulg‘adi samoni,
Zangor uza chekdi zar jiloni.

Xandon urib oftob, sariq gul,
Alvonin ufuqqa yoydi butkul.

Majnun esa gulxazonga monand,
Ko‘z yoshiga g‘arq edi tamoman.

Suvdan anga otash urgay erdi,
Kishtini[1] quduqqa surgay erdi.

Peshinga oshib yana harorat,
Issiq uni ayladi betoqat.

Gar jismi misoli soya erdi,
Bir soyani topdi ul, o‘tirdi.

[1] **Kishti** — kema.

Chun soya solib daraxti oliy,
Atrofida suv edi, ziloliy.

Hovuz edi, ko‘k kabi mudavvar,[1]
Pokiza-yu xush, chu obi kavsar.

Suv tegrasi maysa erdi, sabza,
Yuzlar yuvilardi lahza-lahza.

Majnun edi tashnalab, jigartob,
Suv ichdi shu onda, bo‘ldi serob.

Tin oldi dame chopib yurishdin,
Hech tinglamay, oh-voh urishdin.

Ko‘z tashlab o‘shal chamanga nogoh,
Ko‘rdi bir og‘ochki, erdi zebo.

Bir shoxida qarg‘a-zog‘ erdi,
Ko‘z demaki, ul charog‘ erdi.

Chun zulfi sanamga erdi monand,
Jon birla ko‘ngilga erdi payvand.

Solih qush-u misli teva xomush,
Solih kabi erdi ul siyohpo‘sh.

Shox uzra u o‘ltirardi ziyrak,
Ko‘k shodada donayi qarodak.

Majnun u xayoli g‘ashni ko‘rdi,
Ko‘ngliga yaqin, adashni ko‘rdi.

So‘rdiki: “Ayo chamanda nodir,
Aytgil, ne sabab to‘ning qarodir?

[1] **Mudavvar** — doirasimon.

Tun rangini berdi ne judolik?
Boshingda ne bois ul qarolik?

Men otashi g‘amda, sendadir jo‘sh,
Men qayg‘u-alamda, sen siyohpo‘sh?

Ko‘ngli kuyik ersang, unda har ne,
Kuygan kabi bu qaroliging ne?

Ko‘ksingda alam esa bu yukdin,
Qochmoq ne kerak senga kuyikdin?

Shoyadki xatibi xutbaxonsen,
Andin bu qaro libosli jonsen?

Zanji bola birla o‘xshashing ne?
Hindu bola birla uyqashing ne?

Men shohmen-u sen boshimda chodir,
Yo‘qsa, ne sabab tusing qarodir?

Yetsang u sanamga, so‘yla: yorim,
Sensiz sira qolmadi madorim.

Yet dodima, bo‘ylakim gadomen,
Gar yo‘q desang, unda men adomen!

Va’dang edi: qo‘rqma, yoring o‘lgum,
Qo‘rqarmen, o‘shal havasda o‘lgum!

Sen kelsang-u, unda murda bo‘lsam,
Mehringni quchib, qabrda bo‘lsam.

Ko‘z ko‘r esa ayrilib ziyodin,
Ne naf menga, bersa, to‘tiyodin.

Bir ko‘zini olsa, qochsa qashqir,
Cho‘pon sasi so‘ngra besamardir.

Sel bossa, imoratingni yiqsa,
Devorda ne ayb, po‘latmi, paxsa?

Ekkan ekining to‘kilsa qurg‘ab,
Yomg‘ir yog‘ar ersa so‘ngra, ne naf?”

Ul tig‘i zabonni bo‘yla sundi,
Zog‘ shoxdin uchib, bu shoxga qo‘ydi.

Ul so‘zni daroz aylar erdi,
Qush o‘zni uchishga shaylar erdi.

Ul aytdi fasona, tingladi zog‘,
So‘ng uchdi, ko‘ngilda qoldi bir dog‘.

Tun kiydi chu qarg‘adek kiyim-bosh,
Shabparra ko‘tardi uyqudin bosh.

Yulduz edi ko‘k to‘la, charog‘dek,
Porlardi falakda chashmi zog‘dek.

Majnun dag‘i tunga yetmish erdi,
Ko‘z nurini qarg‘a eltmish erdi.

To tonggacha yig‘ladi chekib oh,
Sham erdi, kuyib bitardi go‘yo...

## Bir kampir Majnunni Layli chodiriga boshlab borgani

Ko‘rgil u charog‘i ko‘k — quyoshni,
Tong pardasidin chiqardi boshni.

Yashnab, ochilib ko‘rindi bog‘lar,
Ko‘zlar edi misli shabchiroqlar.

Majnun yana qarg‘a-zog‘ istab,
Parvonasifat charog‘ istab.

Tun manzilidin ko‘tardi o‘zni,
So‘ng burdi diyori yorga yuzni.

Yor atrini ul havoda tuydi,
Chun ko‘ksiga ul qo‘lini qo‘ydi.

Takror nafasi ravonga yetdi,
Murda edi, qayta jonga yetdi.

Bir kampir uzoqda bo‘ldi paydo,
Bir kimsa yana, shaklda shaydo.

Boshdin to oyoqda zanjir-u band,
Ul zanjir-u bandga erdi xursand.

Bas, bo‘yniga ip solib, shitobon,
Kampir uni sudrar erdi har on.

Majnun u asirni ko‘rgani payt,
Kampirga dedi: “Xudo haqi, ayt,

Yoningda asir-u bandi kimdir?
Ne bois anga solindi zanjir?”

Kampir dedi: “Senga so‘ylasam rost,
Bu bandi emas, mahbus ermas.

Men beva ayolmen-u, u darvesh,
Chun bizni zar-urat ayladi esh.

Darveshligi ma’lum o‘lgach o‘bdon,
Bo‘yniga shu onda soldim arqon.

O‘xshatdim uni asiri zorga,
Sudrab yetadurmen har diyorga.

Shu yo‘l bila keldi dilga xushlik,
Kirgay qo‘limizga bir yemishlik.

Har yerda muyassar o‘lsa ovqat,
Ikkiga bo‘lib yeyishlik odat.

Yarmi anga, yarmi menga har dam,
Qolmas bu aroda bir uvoq ham”.

Majnun eshitib ne erdikim hol,
Poyiga uning yiqildi darhol.

Dedi: “Nechakim tanob-u zanjir,
Ol undan-u, endi menga urgil!

Oshufta-yu zor-u mustamand men,
Ul ermas, axir, sazoyi band men!

Borgum shu qaro yuzim-la yakka,
Ul soriga yoki bul tarafga.

Har necha nasiba yetsa eldan,
Qo‘l cho‘zmagum unga, bori sendan”.

Kampir ko‘rib oldida ajab ov,
Shod bo‘ldi, bu gapga ko‘ndi darrov.

Ul bandidan oldi band-u zanjir,
Bul bandiga soldi, tugdi bir-bir.

Bo‘yniga muvofiq halqa aylab,
Arqonini soldi, tortdi boylab.

Sudrab uni, bori tortgay erdi,
Har go‘sha sari yugurtgay erdi.

Har joygaki eltsa, xalq ko‘rardi,
Yig‘lab biri, qay biri kulardi.

Kulgay edi ulki erdi g‘ofil,
Yig‘lar edi ulki erdi oqil.

Bul zaxmatiga rizo edi qul,
Zanjir oyoqda, bo‘ynida g‘ul.

Har xaymaga[1] yetsa, oh urib boz,
Mastona surud etardi og‘oz.

“Layli!” deya chaynar erdi ul tosh,
So‘ng raqs tushardi mast-u bebosh...

Tortib necha bir jafo-yu tahqir,
Layli eshigiga yetdi oxir.

Yor atri dumog‘iga ufurdi,
Xok uzra chu sabzadek o‘tirdi.

So‘ng yig‘ladi, so‘ngra chekdi afg‘on,
Yosh to‘kdi misoli abri nayson.

[1] **Xayma** — chodir.

Bo‘zlar edi yerga bosh urib u:
“Men g‘amingga juft-u sendin ayru!

Hech bormi yomoni ul gunohdin,
Ozod bo‘layin dedim bu chohdin?

Boq endi, tanimda zanjir-u band,
Yurgum shu uqubatingda xursand.

Gar bo‘ylakim ayladim gunohe,
Ma’zur bo‘lishimga yo‘q rohe.

Men hukmkash-u sen hukmron,
Ber har ne jazoying, ayla farmon.

Sen o‘ylama, bunda jang qilurmen,
Oldingda asir-u bandidurmen.

Chopdim necha jahd ila agarda,
Zarbimdin o‘zimga yetdi zarba.

Gar kecha gunohga botdi poyim,
Bo‘ynimda bugun ipim — jazoyim.

Gar kecha qo‘lim edi kamongir,
Boq endi, anga solindi zanjir.

Bas, ayb-u gunohki, so‘yladim ul,
Aslida jinoyat erdi butkul.

Tokay menga dard-u xor-u zorlik,
O‘ldir meni, ne ko‘tarsen ortiq!

Lutfingni qulingga tortiq ayla,
Tortgil meni xochga,
chormix ayla!

Ey ulki vafosi bevafolik,
Oldingda xato u bexatolik.

Sen birla nechuk bo‘lay xatokor,
Etgaymen o‘zimni men giriftor.

Shoyadki, vafo kelsa sendin,
Bir tiri xato kelsa sendin.

Men bo‘yla tirik ekan, topib yo‘l,
Boshim sari sunmading sira qo‘l.

O‘lsam, chu umid etarmen har dam,
Boshimni silarsen unda bir dam.

Boshimga tig‘ingni sirma shul on,
Jonimni etay ko‘yingda qurbon.

Ismoil etarmen o‘zni unda,
Mo‘min dema ranj ko‘rinsa menda.

Ko‘nglimki, misoli nurli shamdir,
Boshimni kesar esang, ne g‘amdir?

Sham boshi kesilsa, xursand andin,
Baskim qutular u dardi sardin.

Sensiz bu hayotni jon ne aylar,
Poyingga yiqilsin, o‘lsam afzal!

Sen sori borishga yo‘q rohim,
Tokay men-u bir kavakda ohim?

Boshim kesilarsa, oh-u voh yo‘q,
Bo‘lmas senga dardisar ortiq.

Dardisarning ul adosh bo‘lsin,
Dard menga-yu senga bosh bo‘lsin!”

Shundoq deya turdi sapchib oxir,
Devona bo‘lib ushatdi zanjir.

G‘am tog‘idin ul shukuh oldi,
Tog‘ sori yugurdi, ruh oldi.

Najd tog‘iga chiqdi, chekdi faryod,
Musht urdi, o‘ziga etdi bedod.

Qavm ahli xabar topib kelishdi,
Ko‘rmas bu qiyofani ko‘rishdi.

Ham ota-yu ham anosi keldi,
Yig‘lashdi ko‘rib umid yo‘q erdi.

Bir kimsaga boqmas erdi aslo,
Tark etdilar, unda qoldi tanho.

Har lahza kezib xarob-u obod,
Bo‘zlardi, etardi Laylini yod.

Bir kimsa gap ochsa o‘zgalardin,
Koyir edi yo qochardi andin...

## Otasi Laylini Ibni Salomga bergani

G‘avvosi javohiri maoniy
Etdi yana chun guharfishoniy...

Navfalki u kun zafar topdi,
Layli o‘sha dam xabar topdi.

O‘z-o‘ziga derdi-u dilafruz:
“Al-ayshki, yorim o‘ldi firuz!”

So‘ylab, suyunib atosi keldi,
Boshida amomasi kaj erdi.

Donoligin aytdi ta’rif aylab,
Topqirligin aytdi tavsif aylab.

Dediki, g‘animga hiyla qildim,
Ul jinni balosidin qutuldim.

Kesdim so‘zini, itob etdim,
Bir yo‘la anga javob etdim.

Navfalki, Xudo berar jazosin,
Tark etdi u xohish-u havosin.

Xushlik ila kechdi xomxayoldin.
Chun uzdi tamahni ul visoldin.

Arrizqa ilallah bo‘yla yorga,
Alminnatu lillaq bu qarorga!..

Layliki eshitdi bu hikoyat,
O‘rtandi, ezildi benihoyat.

Parda ichida chekar edi oh,
Ko‘rmas otasi, emasdi ogoh.

Bas, chiqdi atosi xonadin chun,
Ko‘z yoshi-la yuzni etdi gulgun.

Ikki ko‘zidin oqizdi qonlar,
Qoldirmadi garddin nishonlar.

Boy bermish edi hamon tilakni,
Tishlar edi kaftni, goh bilakni.

Ko‘z yoshida erdi xun-u soflik,
Aylarda u suvda hullaboflik.

Ko‘z yoshi suv erdi arg‘uvonga,
Har maysa giyoh qonardi qonga.

Ahd yo‘qki, qissa so‘zlagay boz,
Yor yo‘qki, chora izlagay boz.

Mahkam bekitib eshikni har dam,
Yolg‘iz yashar erdi ul chekib g‘am.

Chun husni kamolga yetgan erdi,
Ovozasi elga ketgan erdi.

Orzu etishardi nomdorlar,
Sovchi qo‘yishardi beqarorlar.

Izlar edi uning visolin,
Ko‘zlar edi uning jamolin.

Durdonatalab edi ziyoda,
Dallola ko‘p erdi bul aroda.

Ul bittasi ko‘z tikar go‘zalga,
Bul bittasi qo‘l cho‘zar asalga.

Lek otasi ehtiyot etib tek,
Asrar edi chun sadafda durdek.

Layli toliqardi bu taloshdin,
Chun shishani asrar edi toshdin.

No‘sh aylar edi etib madoro,
Pinhona mayi g‘am oshkoro.

Garchi kular erdi gohi shamdek,
Ul kulgu aro kuyar edi lek.

Guldek kamari belida mahkam,
Chun poyida tig‘-u ilkida sham.

Gar cheksa-da muncha qayg‘u, ozor,
Bir kimsaga aylamasdi oshkor.

Oy erdi u necha anjum uzra,
Atrofida erdi yuz Zuhra...

Bas, Ibni Salomga yetdi bu gap,
Ot surdi shu ondayoq jadallab.

Keldi etib ul arusxohlik,
Aylab ne jaloli podsholik.

Keltirdi u siym-u zarni bisyor,
Anbar necha mann,[1] shakar xarvor.

Ham nofayi mushk-u, la’li koniy
Keltirdi va etdi armug‘oniy.

Ham necha gilamlar etdi paydo,
Ham necha tuya hariri zebo.

Tulpor-u xachirda atlas erdi,
Andoqki, aqlga sig‘mas erdi.

[1] **Mann** — og‘irlik o‘lchovi.

Tillo edi unda munchakim, hay,
Qumdek sochar erdi ko‘zga ilmay.

Siym-u zarini sochardi shunda,
Xasmini magar ko‘mardi qumda.

Ko‘rsatdi saxovatini har yon,
Har kimsaki ko‘rdi, bo‘ldi hayron.

Bir-ikki kun istirohat etdi,
Qosid chaqirib, dalolat etdi.

Ul jodusuxan, firibli kimsa,
Toshni eritardi tilga kirsa.

O‘lganni tiriltirardi, illo,
Erdi nafasi — dami Masiho.

Ul mol-u bisotki chun ajoyib,
Kelmish yeri —
Rum-u Chin-u Toif,

Qosid qo‘lida yig‘ilmish erdi,
Eltdi u, xazinadorga berdi.

Keltirdi kalomga xush zabonin,
Ochdi u xazinayi nihonin.

Dediki, bu kimsa sherpaykar,
Zebi arab-u amiri lashkar.

Sohib ta’bu ham xujasta nomdir,
El ichra ajab baland maqomdir.

Gar xun tilasang, to‘kar u suvdek,
Gar zar tilasang, sochar u qumdek.

Ul ersa suyanchiq erta-yu kech,
Qolmas bu jahonda mushkiling hech!..

Qosidki suxanni surdi chandon,
Miskin ota qoldi lol-u hayron.

Chandonki ne ixtiyor qildi,
Iqroriga so‘ng qaror qildi.

Rozi edi endi ul nikohga,
Bermakka sanamni ajdahoga.

Chun ertasi kun arusi xurshid,
Olganda qo‘liga jomi Jamshid.

Shay erdi kuyov, g‘ulomi rusiy,
Yopdi anga jomayi arusiy.

Layli otasi yurib bayak bor,
Zar birla bezatdi ko‘y-u bozor.

Domod ila o‘zgalarni chorlab,
Uy to‘riga tortdi izzat aylab.

O‘yini surur-u shodkomlig‘,
Avj oldi bag‘oyati davomlig‘.

Ul ahdi nikoh, arabgadir xos,
Singan edi, payvand etdilar boz.

Pul sochdilar, erdi misli to‘fon,
Sut haqqiga taklif etdilar jon.

Ul hujraki, unda erdi dilbar,
Gul sufrasiga to‘kishdi shakar.

Ul la'li dudoqki unga boqdi,
Chun udu shakardek o'zni yoqdi.

Atrin sochar erdi dardi dog'i,
Ko'z yoshlari erdi g'am bulog'i.

La'l otash-u nargisi sochib suv,
Ul g'oliya, bu gulobdi asru.

Chun yetmadi yori-la murodi,
Hech narsaga yo'qdi e'timodi.

Eltganda labiga sindi ul jom,
Halvo pishirib, qoldi nokom.

Poy bosma tikanga, voh deyarsen,
Cho'g' eltma og'izgakim, kuyarsen.

Uzveki, muxolifatga ma'qul,
Amringni nazarga olmagay ul.

Har kimki qavmga bo'ldi osiy,
Bo'lmas u qavmning ahli xosi.

Barmoqni ilon chaqsa har dam,
Vojib uni ul zamon kesish ham.

Jondoriki dard davosidir ul,
Gar ichmasang, oqibat o'limdir.

Layli husn erdi gar jahonga,
Yetmish edi chun haloki jonga.

Gar erdi charog', bo'zlar erdi,
Tonglarda charog'in izlar edi...

## Ibni Salom Laylini uyiga olib ketgani

Chun subhidam oftobi ravshan
Ko‘k sahnini etdi bog‘-u gulshan.

Tun pardasi chun nihon bo‘ldi,
Dajla kabi ul ravon bo‘ld.

Uyg‘ondi kuyov shod-u xursand,
Shay etdi kelinga mahmili sha’n.

So‘ng boshladi yo‘lga ko‘p avaylab,
Ul taxti ravonda izzat aylab.

Eltdi, anga toj-u taxtni berdi,
Hukmi hama nek-u badni berdi.

Sabr ayladi necha kun, hayokim,
Tortsin dedi mum kabi muloyim.

Oxir u sabot-u sabri bitdi,
Xurmoli butoqqa qo‘l uzatdi.

Zarb yedi shu onda novdadin u,
Ko‘z o‘ngini qopladi qorong‘u.

Bir tarsaki urdi Layli andoq,
U murda kabi cho‘zildi shundoq.

Dedi: “Yana shu amalni etsang,
Mendan qutularsan-u o‘zingdan!

Ont ungaki, ul Xudoyi yorim,
O‘z sun’i-la chun yaratdi borim,

Mendin u muroding o‘lmas hosil,
Qonimni tig‘ing-la to‘ksangam ul!”

Chun Ibni Salomga bo‘ldi bu pand,
Bo‘ldi u quruq salomga xursand.

Bildiki, uning firog‘i bordir,
Ko‘nglida bo‘lak chirog‘i bordir.

Lekin zo‘r edi yurakda dardi,
Qizdin u ko‘ngil uzolmas erdi.

Ul nozli sanam, uzori gulgul
Etmishdi Salomni mast-u maftun.

Derdi: “Meni bo‘yla aylamish mast,
Boqsam anga men uzoqdanam, bas!

Ul yaxshiki, undan ayrilishdan,
Boqsam anga, o‘zni xursand etsam”.

So‘ng dedi:
“Ayo, kechir gunohim!
Ahd ayladim endi, tingla mohim!

Bo‘lgum seni bir ko‘rish ila shod,
Buzsam bu qasamni men —
haromzod!”

Ko‘rsatdi sadoqat u bu so‘zga,
Jahd etmadi bir boqishdin o‘zga.

Ul Layliki zebi bog‘-u gulshan,
Yo‘llarga tikardi ko‘zni ravshan.

Yel mujda etarmi deb g‘ubordin,
Ul domani g‘or-u yori g‘ordin.

Har lahza fig‘on etib, chekib oh,
Qiz chodiridin chiqardi nogoh.

Yor vasliga o‘zni shaylar erdi,
Bulbul kabi nola aylar erdi.

O‘zdin xabar etsa yori mahjur,
Jon topgay edi u joni ranjur.

Aylar edi bo‘yla besabrlik,
Joniga jafo edi asirlik.

Ul ishqi nihonki chun huvaydo,
Ul rozi quyoshdek erdi paydo.

Kechgan edi toqat-u sabrdin,
Qo‘rquv yo‘q edi ato-vu erdin.

Ishq aylamish erdi ko‘ksini chok,
Ne ermish ato-vu eridin bok?

## Laylining erga tegganidan Majnun xabar topgani

Bag‘dodli suxansaro, u dono,
So‘z sirridin etdi bo‘yla ogoh...

Devonaki, zanjirin uzib, hay,
Mast bo‘lgan o‘shal hilol ko‘rmay,[1]

Majnun, u jigarkabob erdi,
Ahvoli zabun, xarob erdi.

Tinmay kezar erdi dasht-u sahro,
Ulfat anga vo darig‘ edi, oh.

Gohi ufurardi atri yori,
Gulg‘uncha bahorining ufori.

[1] Devona yangi oy ko‘rganda jinniligi battar qo‘ziydi, degan gapga ishora.

Mushkin edi ul, dimog‘parvar,
A’zosi olardi rangi anbar.

Ul atr-u uforki ersa paydo,
Savdosi topar edi tasallo.

Tashlar edi o‘zni yerga nolon,
Boshida daraxti edi mug‘aylon.[1]

Cho‘ldirmi, chaman, bilmas erdi,
Guldirmi, tikan, bilmas erdi.

Nogah biri o‘tdi tevada tek,
Monandi yirik qora ilondek.

Ko‘rdiki, yotardi oshig‘i zor,
Bas, tortdi jilovni, boqdi takror.

G‘o‘rillab ovoz chiqardi devday,
G‘ofil kishi chun ovoz chiqargay.

“Ey, dedi, namuncha bexabarsen,
Oshiq dema o‘zni, butparastsen!

Yaxshi edi yuzni bursang andin,
Hayf, mehr-u vafo qidirsang andin.

Ul ishmiki, senga bermasa nur,
Ul yormiki, senga yor emas ul.

Ishsizliging afzal uncha kordin,
Yorsizliging afzal ul nigordin.

Ul yorgaki berding ishqi jone,
Dushmanligin etmading gumone.

[1] **Mug‘aylon** — o‘tkir tikanli, tikani zaharli buta.

Ul dushmaning etdi bevafolik,
Etmas senga endi oshnolik.

Gul xirmanini shamolga tutdi,
Yod etmadi ul, seni unutdi.

Yoringni kuzatdilar kuyovga,
Juft aylab uzatdilar kuyovga.

Rad etmadi dildan-u na tildan,
Eriga qovushdi jon-u dildan.

Endi tun-u kun u baxtidin xush,
Er birla huzurkash-u hamog‘ush.

Sevgan ishi bo‘sa, aysh-u rohat,
Sen g‘am chekasan, bu ne hamqomat!

Sendin u yiroq necha farsang,
Lozimki senam yiroqda tursang.

Yillar bo‘yi aylamas seni yod,
Sen ham dag‘i aylama uni yod!

Xotin bir emas, hazor bo‘lgay,
Ahdida kamustuvor bo‘lgay.

Chun ahd-u vafo yozib ne damlar,
Xotin desa, yozmadi qalamlar.

Xotin senga yordir zamone,
To topmasa o‘zga mehribone.

Bas, boshqasi birla bo‘lsa mashg‘ul,
Sen sori boqishni istamas ul.

Xotinda mayl ila havas ko‘p,
Lek maylini zohir aylamas ko‘p.

Lof so‘ylamas ersa u, ne so‘ylar?
Makr aylamas ersa u, ne aylar?

Ozmunchami chekdilar jafosin,
Bas, ko‘rdimi bir kishi vafosin?

Er kimsa xotinga ersa shaydo,
Har sidq-u vafosiz andin avlo!

Xotin ne emish? Firib-u nayrang,
Zohirida sulh-u ko‘nglida jang.

Dushmanligi ofati jahondir,
Do‘st qayda bo‘lur, haloki jondir.

Bir ishni bajar desang, degay: yo‘q,
Etma deganingni etgay ortiq.

Chun g‘am yesang, ul zamon bo‘lur shod,
Xursand esang, ul g‘am ichra, noshod.

Xotinlar uza talay hikoyat,
Afsun-u firibi benihoyat...”.

Chun tingladi Majnuni balokash,
Oh chekdi, ko‘ngildin uchdi otash.

Ohlar chekibon, yiqildi behush,
Monandiki, boshdin ayru bir qush.

So‘ng boshini toshga urdi chandon,
Qoni bila tog‘ni etdi alvon.

Tosh, qoya aro yiqildi bora,
Jon pora-yu joma pora-pora...

Dev ko‘rdiki ul ne erdi holat,
Chekdi o‘sha lofidin xijolat.

Olis hali ketmagandi, ko‘rdi,
Majnun yana hushga kelmish erdi.

Qaytdi dedi: “Ey dili parishon,
Aytdim senga bori lof-u yolg‘on.

Afv aylaki, ming uzr tilaymen,
Chun bo‘lgani bo‘ldi, ne qilay men?

Men senga hazil-mazah qildim,
Uzring deya jon muboh qildim.

Ul pardanishin-u ro‘ybasta,
Sendek alam ichra, dilshikasta.

Ul eriki, unga juft emishdir,
Bir kecha uning-la yotmamishdir.

Gar o‘zga ila nikohda turgay,
Sen birla vafo-yu ahdda turgay.

Sendin bo‘lak unga yori jon yo‘q,
Sensiz anga o‘ylakim jahon yo‘q.

Yo‘qdir yana bir dame, parizod
Yuz boraki etmagay seni yod.

Yil kechdi, kelindir ul diloro,
Mehring tila mo‘hridir musaffo,

Sensiz yana ming yil o‘tsa ham, hay,
Unga teginish mahol bo‘lgay...”.

Majnun eshitardi, dev derdi,
Bildiki, u ikki yuzli erdi.

Ne bo'lsa-da, dardi topdi taskin,
Avvalgidek ul emasdi keskin.

Qush erdi vale qanoti singan,
Chun boshi yaroli, ko'zi tingan.

Qon yoshlari chun oqarkan ul payt,
Ahdiga atab o'qir edi bayt.

Ki holi zabun, samarsiz erdi,
Ham yori yiroq, xabarsiz erdi...

## Majnun xayolan Layli ila so'ylashib, shikoyat etgani

Mashshotayi kelini diloro,
Taxt ustida berdi unga oro.

Chun taxtida o'ltirur qalamqosh,
Naqshini chizolmas erdi naqqosh.

Er uyida poyi bog'liq erdi,
Yor hajrida ko'ngli dog'liq erdi.

G'amxo'rining ersa dardi ortdi,
Yor aqdidin[1] ul xabar topdi.

Chun aql-u xiradga tushdi larza,
Majnunligi ortdi lahza-lahza.

Bepar-ru qanot qush erdi go'yo,
G'am qaydida behush erdi go'yo.

[1] **Aqd** — nikoh.

Jon no‘shini jonga topmoq istab,
Ko‘z ochdi, oyoqqa turdi sakrab.

Yo‘l oldi pari diyoriga ul,
Jismi zaif erdi, ko‘ngli malul.

Yel orqali ayladi xitobin:
“Ey jufti-la ichgan ul sharobin!

Ul ahd-u vafo qayoqda qoldi?
Diydori safo qayoqda qoldi?

Hay, qayda u va’dalar, suyishlar?
Sidq yo‘lida berganing tasallo?

Ahd tarkini bo‘yla etganing ne?
Mendin u yuzing bekitganing ne?

Gar mayli vafo yo‘q ersa senda,
Do‘stlikka da’voying endi qayda?

Men burda ishimki jonfurushlik,
Sen unda ishing zabonfurushlik!

Men bunda ko‘yingda jon tiksam,
Sen o‘zgani unda yor etsang!

Ahd aylasa yor ila, shu basmi?
Bir dam uni so‘ngra eslamasmi?

Sen bo‘ylaki yangi yor ila shod,
Ul eskini birda etmading yod!

Gar o‘zgasi birla sen hamog‘ush,
Etma bizi tilda ham faromush!

Bog‘ingda kechib u navqironlik,
Chekdim base ranji bog‘bonlik.

Qumri chekibon mashaqqati bog‘,
Tar mevasini yegaymidir zog‘?

Xurmoying o‘shalki dilrabodir,
Qo‘y o‘zgani, menga ul ravodir.

Bog‘ingda fig‘on-u zahmatim mo‘l,
Begona u bog‘ga cho‘zmasin qo‘l.

Chun sarvi ravonsen ul chamandin,
Bir kimsa uzarmi meva sendin?

Avval menga yorliging ne erdi,
Oxirda bu xorliging ne endi?

Ul kunki senga ko‘ngilni berdim,
Bir lahza gumonda ermas erdim.

Ont ichgan eding: sening bo‘lurman,
Bo‘lgum senga mehr-u jon-la payvand.

Ichgan qasamingga boq, ne bo‘ldi,
Payvand deganingni ko‘r, uzildi.

Gar o‘zgaga mehribon bo‘lursen,
Qay ko‘z ila menga ko‘z solursen?

Yolg‘iz sen-u men emas zamonda,
Mehr aylar-u jabr etar shu onda.

Bordir necha orif, ahli hurlar,
Yaxshi va yomonni ajraturlar.

Bilgaylar ular, g‘amingni chekdim,
Sen menga-yu, men senga ne etdim...

Nur yo‘q esa gar ko‘zimda zinhor,
Tong yo‘qki, necha ko‘ruvchi ko‘z bor.

Gar ahd-u vafoni izlagaylar,
Sha’ningga sanomi so‘zlagaylar?

Xushbaxt emas ulki sindirur ahd,
Andishali kimsa buzmagay taxt.

Gul buzmasa toki ahdi gulzor,
Ko‘ksiga zamona sanchmagay xor.

May ochmasa kirdikori avbosh,
Sir ochmagi qaydanam bo‘lur fosh?

Oy jomini etmaguncha chil-chil,
Tun topdimi yuz qaroligin ul?

Sendin ne etib umid qilay men?
Sendin yana ne yo‘sin kulay men?

Ul va’daki, etmading vafosin,
Umrim bo‘yi tortamen jafosin.

Gar yod etib etmading meni shod,
Men odam emasmen etmasam yod.

Etding necha ranjkim, edi ganj,
Ranjidamen o‘zdin ul desam ranj.

Ko‘nglimga g‘amingni qo‘yding uncha,
Joy qolmadi sharm uchun zig‘ircha.

Yuz yo‘qki, chu oshno degaymen,
Dil yo‘qki, chu bevafo degaymen.

Lol etdi meni bu fe’li xoming,
Bilmam, nima bo‘ldi yaxshi noming?

Gar muncha jafoki aylagaysen,
Lek quvvati jism-u quti jonsen!

Bedoding agar umrni o‘rtar,
Zeboliging unga uzrin aytar.

Ul kimsaki sohibi jamoldir,
Xuni hama kas anga haloldir.

Sen kunduz-u men esa so‘nik sham,
Kosh erdiki ul qoshingda so‘nsam.

Oy shakkarin ersa, mohdirsen,
Chun ikki vazirli shohdirsen.

Sen gulsen-u lolasen, alomat,
Uzum suvidek shirin-u sharbat.

Otash ko‘rar ersa sen kabi nur,
Og‘ziga shu lahza suv olur ul.

Bog‘ sahnida lolagul va ra’no,
Husningdin olurlar o‘zga oro.

Atlaski qaboyi la’l nishondir,
Qirmiz yuzing oldida somondir.

Qoshingki egik xayol emishdir,
Bayram tunida hilol emishdir.

Boq, sandal-u ud tusi oq ermish,
Qirmiz guling oldida qizarmish.

Zulfingki, socharda atr-u mushkin,
Ham mulki Habashni oldi, ham Chin.

Chehrangki husnda munchakim bor,
Ko'ngil uzish andin, ohki, dushvor!

Tadbir shuki, boshqa bilmayurmen,
Jonimni senga fido qilurmen.

Har nechaki javr ila jafoying,
Ummid menga mehring-u vafoying.

Ko'rgum yana toqat aylabon soz,
Umrim meni qayga boshlagay boz..."

**Otasi Majnunni ko'rishga kelgani**

Dehqon, o'sha porsizod-u sohir,
So'z aytdi yana arabga doir...

Ul otaki, kor-u bori qayg'u,
Ya'qub kabi Yusufidin ayru,

Majnunini ko'rgani u kundan,
Uzganda qariyb umidni undan.

Ohini sitamga darj etardi,
Umrini alamga xarj etardi.

Chora qidirardi o'zni qistab,
Ul zangi xo'tanni yuvmoq istab.

Tinmay sovurardi mol-u mulkin,
Iqbol anga boqmas erdi lekin.

Bas, yeldi-yugurdi, bo‘ldi navmid,
Chun qolmadi bir ilinj-ummid.

Bir go‘shada so‘ng makon tutdi,
Shaylandi tamom, o‘limni kutdi.

Pirlig-u zaiflig-u zabunlik
Aylar edi unga rahnamunlik.

Tor erdi jahon-u holi ko‘p tang,
Yetmasdi havo, derdi: attang!..

Qo‘rqar edi chun tugab hayoti,
Begonaga qolgay ul bisoti...

Bas, qo‘lga aso olib, to‘kib yosh,
Aylab dag‘i ikki yoshni yo‘ldosh,

Tushdi yana izlamoqqa farzand,
Har neki Xudo buyursa, xursand.

Kezdi necha tog‘-u dasht-u sahro,
Ko‘rdi necha o‘r-u qir-u ma’vo,

Izlardi agarchi yona-yona,
Yo‘q erdi u telbadin nishona.

Lek bittasi uchradi, dedi bot:
Maskandir anga Uqubatobod.

Ne maskan emish? Go‘shayi xok,
Go‘rdek chuqur erdi ham vahimnok.

Avzoyi qaro bulutga o‘xshash,
Naftdek[1] yana bag‘ri — koni otash.

Chun o‘g‘lini ko‘rdi piri mazlum,
Ko‘z o‘ngi qoraydi, qotdi bir zum.

Zor erdi ko‘rishga, ko‘rdi chindan,
Hozir edi qalbi chiqsa qindan.

Ko‘rdi o‘sha zor-u xasta jonni,
Tan o‘rnida po‘st-u ustuxonni.

Borliq shu jahonni tark aylab,
Boz ustiga, butparastlik aylab.

Cho‘p erdi, magar xayolga basta,
Qil erdi, ajalga noshikasta.

Yer ustida it misoli sarson,
Yer osti bisotidan-da pinhon.

Jismida qozoni qaynamasdi,
Aftoda-yu xor edi, abasdi.

Monandi ilondi to‘lg‘anishda,
Yo‘q erdi biror kulohi boshda.

Lek avrati ermas erdi ochiq,
Bir parcha charm edi yopinchiq...

Boshiga borib ato o‘tirdi,
Peshonasi uzra qo‘lni surdi.

Xuni jigarin to‘kardi mundoq,
Ko‘z yoshlari sochilardi qaynoq!

[1] **Naft** — neft.

Majnun ko‘zini ocharkan asta,
Ko‘rdiki, qoshida erdi kimsa.

Gar soldi nazarni unga, ammo,
Yo‘q, bilmadi ul, kim erdi siymo.

Bas, o‘zniki chun unutmish erdi,
Bilgay nechuk o‘zgalarni endi?

“Kimsan? — dedi, —
Ayt, ne istaging bor?
Men miskin-u zorga tushdimi kor?”

Dedi anga: “Men otangmen, evoh,
Izlab seni ko‘zda yoshi — daryo!”

Majnun tanidi atosin ul dam,
Poyiga yiqildi, quchdi mahkam.

Har ikkisi yig‘lar erdi betin,
Bir-birin o‘pardi ikki miskin.

Hol erdi ularga beqarorlig‘,
Faryod-u fig‘on-u oh-u zorlig‘.

Chun ota toliqti, tindi oxir,
Ko‘z soldi o‘g‘ilga boshdin oxir.

Ne erdi qiyofa, ul soqol-soch,
Bosh erdi yalang, oyoq yalang‘och...

So‘ng xurjunidin olib kiyimlar,
Kiydirdi o‘g‘ilga piri muztar.

Yopdi tani novatonga joma,
Kafsh poyiga, boshiga amoma.

Kiydirdi-yu, boz tuzatdi ota,
Pandi padarona aytdi ota:

"Ey joni padar, na vaqti xobdir,
Ayyom qo'shotlig'-u shitobdir!

Bu yo'lki, giyohi tig'i zolim,
Tark et uni, maslahat shu, o'g'lim!

Bu zahmati jonni bunda, e voy,
Bir yil chekasen va yoki bir oy.

O'q uzgusi charxi bemadoro,
Qoningni to'kar u oshkoro.

Uch kunda tamom toldirar ul,
Aftoda etar va o'ldirar ul.

Murdangki bu yerda losh bo'lgay,
Yirtqichlara ul talosh bo'lgay.

Hay, berma g'ariblik ohiga gal,
Shahringda kuchuk bo'lishlik afzal.

Chandonki qochishga jazm etding,
Qochding shu qadar, qayoqqa yetding?

Ranjida bo'lishda bormi ma'no,
G'amlar chekishingda ne tamanno?

Suvlarni ravon etuvchi soydir,
Sel bossa, hamisha holi voydir.

Sellarni suruvchi tog' emasmi?
Gar zilzila qo'psa, titramasmi?

Zahmat chekasen, munchalar g'am,
Bo'lgaysen ado temir esang ham.

Sarkashliging uncha, to‘ldi ayyom,
Ol endi picha tinch-u orom!

Bosh ketdi-yu senda badlijomlik,[1]
Dil kuydi-yu senda muncha xomlik.

Bas, endi nizomga sol hayoting,
Har soriga muncha surma oting.

Devxonaga sohib o‘lganing ne?
Devlarga munosib o‘lganing ne?

Sobir bo‘l-u sabr-u toqat ayla,
Bir lahza o‘zingni alda, avra.

Yel ersa-da noz, unga xushlan,
Oqil kishi ishva birla xursand.

Yolg‘onmidir ishva yoki ul rost,
Bir lahza dilingni aylar e’zoz.

Xush ulki, nafasni xush olursen,
So‘ngra u nafas ila qolursen.

Gar baxting o‘girsa yuzni sendin,
Sen uzma sira umidni undan.

Bug‘doyni to‘kishdi xirmon aylab,
Bir arpacha andin o‘lmadi naf.

Umring kuni o‘tgay ul xushovoz,
Joizki, ishingni o‘nglasang rost.

Yetsa ajaling boshingga yohu,
Uzringni jahon qabul etarmu?

[1] **Badlijomlik** — o‘jarlik, qaysarlik.

Sharbat-la hushingga keltirurlar,
Pardangni qoshingga keltirurlar.

Xotin ne tikar, kiyar o‘shanda,
Erkak ne ekar, yig‘ar o‘shanda.

Mushkin kamaringni boyla bul dam,
To atr-u ifor taralsin ul dam!

Avvaldin o‘lim tadorigin ko‘r,
To vaqti ajal bo‘lma ranjur.

Har kimki o‘lur o‘limdin oldin,
Qutqargusi jonini o‘limdin.

Gar boshni ko‘tarsa vaqtdin avval,
Tepki yegay ortidin muqarrar.

Ul kimsa magarki yo‘lda kulgay,
Hozirligi borki, bo‘yla kulgay.

Maydoning erur bekas endi,
Sho‘ridaliging yetar, bas endi.

Oromi bo‘lur hayoti damning,
Poyoni bo‘lur azob-u g‘amning!

It uyli-yu senda bir makon yo‘q,
Sen odamiy o‘g‘lisen, gumon yo‘q.

Gar odamiy ersang, odamiy bo‘l,
Dev ersang agar, uning kabi bo‘l.

Shaytonki mazammat ungadir ep,
O‘zni u tanitgay odamiy deb.

Sen odamiy, ul sharofating bor,
Shaytonga nechuk qarobating bor?

Otang chu ado-yu ko‘ngli pora,
Bo‘lsang necha kun yonimda zora.

Otangmen, axir, harifam[1] o‘lgil,
Taskini dili zaifim o‘lgil!

Pandim qabul etmasang bu oqshom,
Erta meni topmog‘ing ne imkon?

Gar aytganim ersa senga og‘ir,
Bu ham u qazoyi osmondir.

Oz qoldi otangga, ishni boshla,
Bir tartib ila yashashni boshla!

Sen shod yasha, men hubobdirmen,[2]
Sen may ich, men xarobdirmen.

Men endi ketarmen, sen omon bo‘l,
G‘am o‘ldirdi meni,
sen shodmon bo‘l!

Oftobga yetishdi xoki gardim,
Ko‘rgaymen ul oftobi zardim.

Kun tunga tutashdi, ey sahar kel!
Jon yetdi labimga, ey jigar kel!

Jon o‘g‘lim, otangga qayt, shitob et,
Jonim ham chiqmayin, savob et.

Kelgin, bolam, o‘lmasimdin oldin,
Kir uyga-yu, o‘z joyingni olgin.

Yetmay ajalim bilay zinhor,
Ortimda qoluvchi vorisim bor.

[1] **Harif** — bu yerda do‘st, hamkor ma’nosida.
[2] **Hubob** — suv pufagi.

Qolmas esa jismim ul saroyda,
Qolsin nuri gavharim u joyda.

Xush ko'rmagay hech do'st-u dushman,
Men o'lsam-u, sen yiroqda bo'lsang.

Begona aroga kirgay unda,
Borimni tamom supurgay unda.

Ortimda qoluvchi yo'q, tayanchim,
Sensan o'sha yolg'izim, suyanchim!

Kel, deb chaqirurki, men borurmen,
Illoki, ko'chishga shay erurmen.

Qo'rqarmen, alamlar ichra o'lsam,
Sen kelsang-u, men qabrda bo'lsam.

Qabrimga boshingni qo'ysang, hayohot,
Chekasen necha unda oh-u faryod.

Gar sahni falak qoraysa undan,
Naf menga bo'lurmu ul tutundan?

Gar yoqsa g'aming jahonni ham, hay,
Baxtimni o'shal nechuk yoritgay?!",

## Majnun otasiga javob bergani

Ota so'zini eshitdi farzand,
Istardi, ko'ngilga yetsa ul pand.

Sabr aylasa necha kun, nihoyat,
Taskin topib ota ketsa shoyad.

Chun istadi tavba aylamoqni,
Ishq keldi-yu cho'zdi ul quloqni.

Ishq ko‘yida pil piyoda bo‘lgay,
Mardona o‘shalki, gar yiqilgay.

Sheri namatin-u sheri besha,[1]
Ul tiksa, bu yirtadir hamisha.

Ishq o‘qi otilsa gar kamondin,
Otguvchiga zaxm yetgay ondin.

Majnunki, u tiyrahol-u badbaxt,
Chun tingladi otadin nasihat.

Dedi: “Nafasingki jon fazoyim,
Aytganlaring ul girehkushoyim!

Ko‘nglimga ularni jo etarmen,
Aytgil yana, men quloq tutarmen.

Pandingki, charog‘i jonfuruzdir,
Gar tinglamasam, falokatim ul!

Amringga agarchi bosh egarmen,
Naylayki, bajo etolmagaymen!

Aqlimni bahona qilmaging ne?
Bu holi badimga kulmaging ne?

Nazdimda shu ishq bo‘lsa, basdir,
Olam menga qilcha ham emasdir.

Baxtimki chunon bo‘ldi barbod,
Har neki eshitsam, etmagum yod.

Barbodligi muncha, so‘zimdir, sas,
Etgaymen unut, esimda qolmas.

[1] **Sheri besha** — o‘rmon arsloni.

"Kecha yeganing ne erdi?" — deb so'r,
Bilmasmen, o'shal faromushimdir.

Hozirda bir ishnikim qilurmen,
Ne deb so'ragil, ne bilurmen?

Otamsen agarchi, men g'uloming,
Bilmasmen o'shal ne erdi noming?

Yolg'iz shu emas unutganim ul,
Bir yo'la unutdim o'zni butkul.

Yodimda emas ne erdi jonim,
Oshiqmi yo ma'shuqa maqomim?

Chaqmoqki o'shal ko'ngilga tushdi,
Jismimga olov bo'lib tutashdi.

Men uzdim o'zimni osh-nondin,
Topdim yemishimni o't-giyohdin.

Davron deb atalmish ul tegirmon
Aylansa, sababchi suv bilan don.

O'z vahshatim ichra gum erurmen,
Mardum ila men nechuk tururmen?

Vahshiy ila kimki uns bo'lgay,
Ul odati vahshiyona olgay.

Pashsha talagan qovundek endi
Qornimni tilashsa, yaxshi erdi.

Ki chiqsa, taralsa zora ul gard,
Do'stlarga yetishsa so'ngra bu dard.

Chechak tutilar nihon go'dakdin,
Tinsin deya qoni qaynamakdin.

Vayronaga tushdi mayli, royim,
Xush ulki, xaroba bo‘lsa joyim.

Ko‘p g‘amlama, hosiling, kamaytgil,
Etdim uni xoki roh deb aytgil.

Bir so‘z dema, aytma ul yo‘rig‘ni,
Fikr aylaki, ekmading urug‘ni.

Go‘r kavlagil o‘z qo‘ling-la zinhor,
Fikr aylaki, o‘ldi oshiqi zor.

Kimda qalami saloh erur, bas,
Andin amali saloh so‘ralmas.

Dedingki, bolam, ko‘charmen, illo,
O‘g‘ling-da ko‘chishga shay hamono.

Rihlatki,[1] xazon bo‘lganimdir,
Bilmam, u seningmi yo manimdir.

O‘lsang, senga yosh to‘kar tirik, hay,
Men murda-ku, murdadin ne ungay?”

**Otasi Majnunga vido aytgani**

Ko‘rdi ota, chun dardmand ul,
Ishq olami ichra shahrband ul.

O‘nglanmog‘idin umidin uzdi,
Ul rishta tamom tugun-tugundi.

Dediki: “Ayo g‘amim, quvonchim,
Ham zanjir-u ham boshimda tojim!

Navmedliging unchaki, bilurmen,
Naylayki, senga vido qilurmen!

[1] **Rihlat** — ko‘chish, vafot etish.

Otang chu yiqildi xor, yig‘la,
Faryod chek-u zor-zor yig‘la.

Bo‘ynimga qo‘ling solib, ko‘zimga
Termul-da, yoshingni to‘k yuzimga.

G‘usli kafanim bo‘lur o‘shal suv,
Mahdi safarimda quchgum uyqu.

Azmi safar aylagum, rahil, bas,
Mildir u ko‘zimda, surma ermas.

Bag‘rimga bosay, keyin firoqdir,
Bir bahra olay, yo‘lim yiroqdir!

Aylab shu jahonni tark etgum,
Bir o‘zga jahonni maskan etgum.

Ketsam-da kuzatgum olamingni,
O‘lsam dag‘i tortamen g‘amingni.

Jonimsen-u nuri gavharimsen,
Xush qol, meni boshqa ko‘rmagaysen!

Xayr endi, tugun tugib biloxir,
Ketguvchi qayiqqa tushdim oxir.

Xayr endi, yukim qo‘limda tayyor,
Oldinda u Ro‘zi Mahsharim bor!

Xayr endi, jo‘nashdi necha bir jon,
Biz orqada zor, ketdi karvon.

Xayr endiki, boshqa kutmagaymen,
Ketdim safarimga, qaytmagaymen!”

Boz xayr-u duo etib o‘g‘ilga,
Ul aytdi vido-yu, qaytdi uyga.

Keldi uyiga shikasta, ranjur,
Hozir edi jon berishga, hozir.

Kechdi necha kun yana zamoni,
G‘am-g‘ussada erdi jism-u joni.

Keldi ajali yetib banogoh,
Etguvchi ishini etdi ijro.

Chun jon qushi uchdi tark etib dom,
Sidq manzili ichra topdi orom.

Arshiy u tanobi arshga yetdi,
Xokiy u nishebi xokka ketdi.

Osuda o‘shalki, misli bir oy,
Undan chiqiboq bu yoqda botgay.

Bermas shu diyori g‘amga ko‘ngil,
Chaqmoq kabi chaqnabon, so‘nar ul.

Bu olami foni-yu muvaqqat
Ichra senga qayda tinch-u rohat?

Har kimsaga dahr aro maqomdir,
Rohat anga yor emas, haromdir.

Har kimsaki, jonni qutqarur, bas,
Chun bunda o‘lar, u yoqda o‘lmas.

Devdir bu jahon farishtasurat,
Qatling anga har kuni zar-urat.

Bas, kosasi lim to‘lur yetib xun,
Olgay uni bag‘rimiz etib xun.

Kim birla jahonda hamnishinsen,
Ko‘rdingmi vafo? Ko‘rmamishsen.

Bu devkada joy emas muvofiq,
Toshqin yo‘lidirki, turma ortiq.

Bu xurmadahon, lekin tikan bo‘s,
Afsuski, bo‘yla joydir, afsus!

Sarving bu chamanda ko‘p darig‘dir,
Sho‘rdir suvi-yu giyohi tig‘dir.

Tokay shu g‘ami zamona yersan?
Chopgaysen-u, toziyona[1] yersan?

Sen xush yasha, olam aslida shu,
Olam g‘ami senda ersa, g‘am shu.

O‘g‘ri agar epchil ersa, tezta’b,
Gavhar topar ul matohni kavlab.

Ul kimsa — ilon, na mardi cholok,
Ganj bersa-yu yamlasa o‘zi xok.

Xush bo‘lki, jahon sen-la ravshan,
Tuproq yema ul ilonga o‘xshab.

Izmingda umrdir erta-yu kech,
Gar bitsa u, qolmagay vaqo hech.

Siym[2] yaxshi-yomonga xizmat aylar,
Ming kemada sindirur u langar.

Chohdek uni etma bandi zindon,
Oldingmi, berarda bo‘l tegirmon.

Bergil o‘sha olganingni sen bot,
Dunyo shu olish-berish-la obod.

[1] **Toziyona** — qamchi.
[2] **Siym** — kumush.

Goh duk yasagil, duktarosh bo‘l,
Goh tig‘ yasagil, tig‘tarosh bo‘l.

Yo‘q ersa yuking, boj yo‘qdir,
Vayronaga bir xiroj yo‘qdir.

Hech yerda bekor-u bo‘sh o‘tirma,
Yolg‘ondakam ersa-da, qimirla.

G‘ofilsifat o‘tma hech ko‘ydin,
Sol unga suron hoy-huydin.

Aftodadir ul o‘tirsa bekor,
Belangi eshakka qayda yuk bor?

Sen birla ularki surdilar ot,
Boq endi safingga, qoldi ne zot?

Ketdi u kayon-u dinparastlar,
Qoldi shu jahonda xor-u xaslar.

Ul qavm qayon-u bul qayondir?
Boq, joyi kayonda ne kiyondir![1]

To tutmasang ul tariyqi mardlik,
Qayda senga sidq-u bahramandlik?

Sen yaxshilik et, yomonlik etma,
Kelgay yana yaxshilik, unutma.

Kim senga yomonlik aylasa, hay,
O‘z joniga ul yomonlik etgay.

Sen yaxshilik et, quduqqa tashla,
Qaytgay senga yangi bir ravish-la,

[1] **Kiyon** — chodir.

Har yaxshi-yomon adosi bo‘lgay,
Olamda uning sadosi bo‘lgay.

Yuzlansangu tog‘ga so‘ylasang roz,
Ul aksi sadoda qaytadur boz.

Tutsang nechakim balandda maskan,
Solgin nazaringni xush-u xushmand.

Kim oshdi falakning avjidin ul?
Kim o‘qidi bu kitobni butkul?

Arroda-yu manjaniq-u g‘azbon,[1]
Ko‘k qal’asini etarmi vayron?

Yerdin shu qadar balanddir aflok,
Yer ta’nalar otsa, unga ne bok?

Mastona yurishgamas bu dargoh,
Ko‘plar chu yiqildi, yamladi choh.

Fikr aylading, o‘yladingmi bir pas,
Illo, bu namat o‘yin uchunmas?

To solmasalar quduqqa arqon,
Qayda senga ul chiqishga imkon?

“Lo valloh” — ul bisoti ma’mur,
Na’dirki, sira uzilmamish dur.

Har yerda imorat ersa tuzgun,
Oldi-ketidir xaroba, buzg‘un.

Har yerda imorat ersa, abgor,
Unda tuzalish nishoni ham bor.

Har manzil o‘shalki bo‘ldi bunyod,
Boqiy emas ul, xarobmi, obod...

[1] Arroda-yu manjaniq, g‘azbon — toshotar qurollar.

## Majnun otasining vafotidan xabar topgani

Vaqti sahar erdi, tong otardi,
Bir ovchi shikorga chiqqan erdi.

Najd tog‘ida o‘ltirardi Majnun,
Tosh uzra misoli durri maknun.

Sayyodki ko‘rdi, o‘ltirar ul,
So‘z ochdi, zaboni tig‘i shamshir.

So‘rdi u yuz-u ko‘zida qayg‘u:
Ey oila, yor-u do‘stdin ayru!

Aytgil, sen uchun yaqin-u hamdast
Laylidanam o‘zga bormidir kas?

Na ota-onangni aylagung yod,
Andoqki, ularni aylading yot!

Ey sharm-u hayosi yo‘q, sitamgar,
Bundan ko‘ra yerga kirsang afzal!

Otang tirigida bermading tin,
Yosh erding agarki qochding andin.

Ul etdi vafot, sen sabot et,
Hech bo‘lmasa, endi esla, yod et.

Borgil-da, uni ziyorat ayla,
Ko‘rsat anga izzatingni bo‘yla.

Qabrini tavof etishga borgil,
Uzringni de, ma’zuringni so‘rgil...

Majnun eshitib bu so‘zni ul dam,
Oh urdi-yu, boshin egdi bir dam.

So‘ng sachradi, yerga otdi o‘zni,
Musht urdi necha, ko‘kartdi yuzni.

“Otam!” — dedi-yu, yugurdi muncha,
Chun qabriga toki yetmaguncha.

To qabrini ko‘rdi ul yiroqdin,
Chok ayladi ko‘ksini firoqdin.

Qabriga yetib, yiqildi behush,
Qabri ila bo‘ldi ul ham og‘ush.

To‘kdi ko‘zidin sirishki pokin,
Nam ayladi andin ota xokin.

Goh quchgay edi qabrni mushtoq,
Goh boshiga sochgay erdi tuproq...

Mahbus kuni tun ila qorishdi,
Bemor tanida isitma oshdi.

Ulki hama yil sitamda erdi,
Avval qadami-la g‘amda erdi.

Andoqki o‘zi asiri bimdir,[1]
Ne bo‘lgusi endi gar yetimdir?

Navmed o‘lib har nechuk madaddin,
Chun zilli yetimlik ichra darddin,

Tuproqqa yiqildi bir zamone,
Izlar edi otadin nishone.

G‘amxo‘rini endi topmas erdi,
G‘amlar chekar erdi, tolmas erdi.

Chandonki ko‘zidin oqdi qonlar,
Qon-yoshiga bo‘ldi g‘arq makonlar.

[1] **Bim** — qo‘rquv, vahm, mashaqqat.

Derdiki: “Otam, qayerdasen, ayt,
O‘g‘lingga o‘zing nishona nusrat.

Aytgil, seni men qayoqdin izlay?
Bu dard-u g‘amimni kimga so‘zlay?

O‘g‘ling esa-da, o‘g‘ilsiz erding,
Shu dard ilami qabrga kirding?

Men bilmayin avval otasizlik,
Bildim uni, baski chorasizlik!

Faryod, otam, g‘amingda faryod,
G‘aryodi g‘amingdamen[1] umrbod!

Yorim eding-u, yovarim ham,
Nuri dilim-u, dilovarim ham.

Ustodi tariqatim sen erding,
G‘amxo‘ri haqiqatim sen erding!

Sensiz shu majoz ila qovushdim,
Afsuski, o‘zingdin ayru tushdim!

Yetdi senga ranj qilmishimdin,
Men bori xijilmen o‘z ishimdin.

Faryod chekarmen, ota, faryod,
Shoyadki etay nasihating yod!

Sen yo‘rg‘am eding, xushxiromim,
Men oting edim, badlijoming.

Sen — sirg‘a, qulog‘im uzra zarhal,
Men halqa edim eshikda har gal.

Men qo‘rs edim-u, sen — muloyim,
Men muzmen-u, sen olovda doim.

[1] **G‘aryodi g‘am** — qayg‘u yig‘isi.

Ko‘nglingga yoqar so‘z aytmadim hech,
Bir kecha yoningda yotmadim hech.

Sen dard-u g‘amim-la menga mashg‘ul,
Men girdi jahonda jangga mashg‘ul.

Sen shaylar eding to‘shakni kunda,
Men uyqusiz, uxlamasdim unda.

Sen bazmi nishotim aylab har dam,
Men tosh uza bosh qo‘yardim ul dam.

Sen xayri duo etib, samarsiz,
Men og‘och ekib, meva-barsiz...

Jondo‘stliging eslasam damo-dam,
Qolmas dil-u jonim ichra bir g‘am.

Ko‘z yosh to‘kamen to‘nimga nildek,
Bo‘lsin deya ul ko‘zim kabi ko‘k.

Ohlar chekamanki, bor dardim,
Yo‘q, bitta emas, hazor dardim!

Ne ranj-u balolar ayladim, hoy,
Ey ota, kechirmasang, menga voy!

To jurm-u gunoh tutib yo‘limni,
Mahshar kuni to‘smagay qo‘limni.

Ey nurli, charaqlagan sitoram,
Xushnud bo‘lishing — yagona choram!

O‘g‘ling bo‘lur ul Xudoga mardud,
Ermas esang andin, ota, xushnud.

O‘zing jigarim deding meni sen,
Nechun jigaringga o‘q otarsen?

Gar men jigariming esam, unutma,
Kuydirma uni, kabob etma.

Mendek jigaringdin oqsa gar qon,
Tuproqda nechuk yotarsen orom?

Xuni jigarim ichib bu yanglig‘,
Dersan jigarim, senga taraf yo‘q!

Yoqdim jigaringni, ey balokash,
Jonimga manim tutashdi otash.

Oldingda magar esam gunohkor,
Bo‘ldim anga men o‘zim giriftor.

Gar, ota, so‘zingga sarkash erdim,
Boq bungaki, ta’zirimni berding”.

Afsus ila bo‘yla oh chekardi,
Oq kunduziga qaro chekardi.

Tun burkadi ustiga qarosin,
Majnun chekar erdi g‘am navosin...

Tun misli sadaf edi, qaro tan,
Oldi u siquvga oyni chindan.

Oy ko‘rsatib oy tabiatin ul,
Tark etdi-yu to‘kdi og‘zidin dur.

Majnun ko‘zi erdi chun sadafrang,
Durlar oqizardi necha farsang.

Qabr ustida, kelmaguncha kunduz,
Aytdi necha bir qasida dilso‘z.

Boshin necha bor qabrga qo‘ydi,
Chun qabr ila joni bitta erdi.

Yuz surdi qabrga necha takror,
To tonggacha shunda yig‘ladi zor.

Subh yetishdi pok-u porloq,
Tog‘ ortidin ul ko‘tardi bayroq.

Iksirini urdi kimyogar,
Tuproqni damidin ayladi zar.

Ul xoki ravon tark etib xok,
Najd tog‘i tarafga yurdi g‘amnok.

Ko‘z yoshi to‘kib, chekar edi g‘am,
Boshida musibat erdi, motam.

Andoqki g‘arib edi, qaro baxt,
Tortar edi baski ming mashaqqat.

Ko‘nglida hamon o‘shal dilafruz,
Kunni tun etardi, tunni kunduz...

## Majnun vahshiy hayvonlar ila do‘st tutingani

Sohibxabar-u fasonapardoz,
Ul qissani talqin ayladi boz...

Ul to‘shagi dasht-u, bolishi tosh,
Ul totgani qayg‘u, ichgani yosh,

Ko‘ksida g‘am-u firoq erdi,
Ovorayi dasht-u tog‘ erdi.

Bir kun o‘sha dasht tarkin etdi,
Ul yor diyori sori ketdi.

Ko‘rdi, qalami vafo chekib chun,
Yozmishlar edi: “Layli-Majnun”.

Tirnoq necha urdi, harf ko‘chirdi,
Chun “Layli” so‘zini ul o‘chirdi.

Bas, so‘rdilar: “Ayt, ne qilding, afsus,
Ul bittasi qoldi yakka-yolg‘iz?”

Dediki: “Biri kifoyat etgay,
Shu so‘nggisi ikkimizga yetgay.

Oshiq dili sori boqsa har ko‘z,
Ma’shuqini ko‘rgay unda yolg‘iz”.

Boz so‘rdilar: “Ayt, bu ne erdi,
Qolgan sen-u ketgan u bo‘ldi?”

Majnun dedi: “Menga xush emas bul,
Men mag‘iz esamu po‘st esa ul.

Bu xushki, niqobi do‘st bo‘lsam,
Ul mag‘iz esa, unga po‘st bo‘lsam!”

Shu so‘zni dedi-yu ketdi yolg‘iz,
Chun Robiya cho‘lda yo‘l-u yo‘lsiz.

Kuylar edi ishqidin nasibe,[1]
Izlar edi dardiga tabibe.

Vahshiy bo‘lib, ipni uzmish erdi,
El ta’nasidin qutulmish erdi.

Kasb ayladi vahshiyona odat,
Har turli giyohlar erdi ovqat.

Xavf solmas edi birorta hayvon,
Hamdam edilar hamisha, har on.

Chun hifz-u himoyasida birday,
Sher bilan marallar erdilar shay.

[1] **Nasib** — ma’shuqaga atalgan g‘azal ma’nosida.

Dasht ichra ne jonliq ersa qoim,
Xizmat etishardi unga doim.

Ul sher-u morol-u tulki, qashqir,
Yo‘l ustida lashkar erdi, hozir.

Andin kutishardi amr-u farmon,
Ul erdi misoli shoh Sulaymon.

Burgut pati erdi soyaboni,
Kalxat edi soqchi, posboni.

Podsholigi solgay erdi dahshat,
Darrandada qolmamishdi vahshat.

Qo‘y bo‘ri-la shod-u xurram erdi,
Sher ohu-la do‘st-u hamdam erdi.

It birla quyon yashardi totuv,
Arslonni emardi jajji ohu.

Majnun borar erdi, kaftida jon,
Old-ortida necha turli hayvon.

Gar uxlasa gohi, toza girdi,
Tulki dumi-la supurgay erdi.

Ohu yugurardi g‘amza aylab,
Tuproqni bosar edi avaylab.

Gohida bo‘lib qulonga qo‘ldosh,
Gohida morolga erdi yo‘ldosh.

Yonida himoyachi edi sher,
Ilkida mudom shay erdi shamshir.

Bo‘ri dag‘i erdi unga posbon,
Hozir edi jon etishga qurbon.

Yo‘lbars edi mehribon mushukdak,
Yo‘lbarsligin aylamishdi ul tark.

Hayvon necha ersa ul tarafda,
Hozir edi barcha necha safda.

Ul o‘rtada o‘ltirar edi tek,
Andoqki, ularga podshodek.

Qo‘rqinch edi jumla yirtqich ul, bas,
Qo‘rqardi yaqinlashishga bir kas.

Izn etmasa, yo‘q kelishga chora,
Yirtqichlar etardi pora-pora.

Izn etsa, ular etar rioyat,
Ul kimsaga yetmas erdi zahmat.

Gar qavmidir ul yoki oshno,
O‘z istagicha kelolmas aslo.

Gavjum edi oldi-orti har on,
Ul podaga Majnun erdi cho‘pon.

Vahshiylar ila kim ersa ulfat,
Vahshiylik o‘shanga o‘tgay, albat.

Ul ohular ichra unda sayron,
Bir ohucha erdi sho‘x-u chaqqon.

Bo‘yni uzun erdi, qomati tik,
O‘ynoqi edi ajab, shamoldek.

Majnun boqib ohularga har gal,
Ul ohuchani ko‘rardi avval.

Chorlar edi, asta erkalardi,
Siypar edi, boshini silardi.

Ohu ko‘zini o‘par edi bot,
Aylar edi yori chashmini yod.

Mardum edi unga lol-u hayron,
Atrofida jam shuncha hayvon.

Ko‘rmak uni hammaga havasdi,
To ko‘rmasa kimsa, tinchimasdi.

Har kun kelishardi ko‘rgani to,
Shunda tutishardi so‘ng qarorgoh.

Bas, keltirar erdi ul odamlar
Shoyad yesa deb anga taomlar.

Ul ko‘ksida oh, yurakda dardi,
Ul dashti azim sheri mardi,

Bir luqma yegaydi, so‘ngra shartta
Borin berar erdi dom-u dadga.[1]

Andoq kechibon bahor-u yozi,
Erdi hama rizqi ro‘zga rozi.

Rizq berguvchi deb bilardi barcha,
Ko‘rganda etardi unga sajda.

Atrofida necha turli hayvon,
Rizqin tilab aylanardi har on.

Ehsonki, o‘shal umumga ma’qul,
Ozod esa kimsa, aylagay qul.

Gar itga saxo etar majusiy,
It o‘zni mushukdek aylagusi...

[1] **Dom-u dad** — hayvonlar.

## Hikoyat

Roviy tilidin eshitganim bor,
Marvda yashar erdi bir hukmdor.

Farmonida erdi necha ko‘ppak,
Zanjirda tutardi misli devdak.

Qo‘rqinch edi itlari azim-da,
Teva boshini uzardi zumda.

Qahr aylasa podsho birovga,
Itlarga berar edi, talovga.

Har kimgaki shoh etar adovat,
Itlarga yemish etardi, albat.

Shoh xizmatida turardi doim,
Tadbirli, aqlli, yosh mulozim.

Qo‘rqar edi, bo‘yla nogahoniy,
Shoh unga ham aylagay jafoni.

Chun ohuga ham u “chora” etgay,
Itlar tishi birla pora etgay.

Qo‘rquv sabab o‘ldi, kutmay ortiq,
Itbon ila etdi oshnoliq.

Bas, har kuni bitta qo‘y so‘yib ul,
Itlarga berardi keltirib ul.

Chandon saxovat etdi, chandon,
Ul mushkili bo‘ldi shunda oson.

Chun mehr-u muruvvat ayladi fosh,
Itlar dag‘i unga egdilar bosh...

Bir kun ne bo‘ldi-yu banogoh
Sochdi u yigitga qahrini shoh.

Shotirlariga buyurdi ishni,
Itlarga yigitni yem qilishni.

Itliklarin aylashib namoyon,
Sudrashdi yigitni itga monand.

Itlarga uni berishdi boylab,
Bir chekkada so‘ng turishdi poylab.

Itlarki, yovuz va sher changal,
Shiddat ila tashlanishdi avval.

Lek ko‘rdilar, o‘lja erdi oshno,
Dumlarni chun o‘ynatib hamono,

Atrofin o‘rab tinch-u yuvosh,
So‘ng panjalar uzra qo‘ydilar bosh.

Bir doyadek erdi barcha dilso‘z,
Kechdi shu yo‘sinda kecha-kunduz.

Tong otdi, libosi oq-u barqut,
Tun to‘nini ayladi zarandud.[1]

Shoh qilganidan bo‘lib pushaymon,
Yuzlandi nadimlariga nolon.

Dedi: kecha men etib xatoni,
Itlarga beribmen begunohni.

Ko‘ring-chi, ne kechdi holi itdin,
Ne qoldi nishona ul yigitdin?

[1] **Zarandud** — zarga bo‘yalgan.

Itbon bo‘lib bu gapdin ogoh,
Keldi shu daqiqa, dedi: ey shoh,

Ul odam emas, magar farishta,
Chun nuri Xudo ila sirishta.

Ko‘rgil, bo‘lib unda g‘arqayi nur,
Bir sun’i Xudodek o‘ltirar ul.

Itlarga nishona etdi yuzni,
Itlar anga urmadi og‘izni.

Ul bo‘ribosar, ajdahoro‘y,
Bir uzmadi boshidin aning mo‘y.

Shoh shunda buyurdi tez boring deb,
Mahkumi adoni keltiring deb.

Chun bordi nadimlar unga alhol,
Shoh qoshiga keltirishdi darhol.

Shoh erdi taajjub ichra bisyor,
Itlar nega bermamishlar ozor?

Shoh ko‘rdi, omondir ul, shu payti
Ko‘z yoshi to‘kib, uzrlar aytdi.

So‘rdi: ne sababki, ne alomat,
Qolding necha bo‘ridin salomat?

Dediki, ularga ulfat erdim,
Bordim necha bor,
nasiba berdim.

Itlarki totdilar u tuzni,
Hech urmadilar menga og‘izni.

O‘n yil senga xizmat etdim, evoh,
Shu bo‘ldimi menga himmating, shoh?

Itlarga berib gar aylading xor,
Itlar emas erdi oshnoxo‘r.

It bildi qadrni, sen bilmading,
It qildi rioya, qilmading sen.

It etsa rioya ustuxonni,
Nokas kishi aylagay jafoni...

Shoh ko‘rdiki,
ish chatoq emishdir,
Insofdin o‘zi yiroq emishdir.

Tarqaldi xumori, ketdi mastlik,
Chun etmadi boshqa itparastlik.

Maqsad bu hikoyadin chunondir,
Ehson-u karam — hisori jondir.

Majnun dag‘i bergan ul yemish-la,
Tiklar edi tegrasida qal’a.

Yirtqichlar esa oyoqda qoim,
Ul qal’aga soqchi erdi doim.

Majnun chu ular bila yurardi,
O‘ltirsa, ular-la o‘ltirardi.

Sen ham shuni orzu etsang har kez,
Xunobi jahonni ichma hargiz.

Hamxonang agar xalifanomdir,
Sendin yesa, senga u g‘ulomdir...

## Majnun Haq taolo dargohiga yuzlanib, iltijo etgani

Tun ravshan edi, misoli kunduz,
Ko‘k gulshan edi, tamomi yulduz.

Zarrin edi boshdin oxir osmon,
Chun ko‘ksida shoda-shoda marjon.

Sayyora taqib bilaguzugin,
Ufuqqa oyoq bosardi sekin.

Shaytonga olov otib Shahob[1] ham,
“Lo havl valo” o‘qir damo-dam.

Tun nofasidin havo muattar,
Oy gavharidin zamin munavvar.

Ul nofa-yu gavhar erdi andoq,
Ziynatli, atrli erdi ofoq.

Anjumki, falakda yonmish erdi,
O‘t-shu’la sochib, bezanmish erdi.

Yuz turfa bo‘lib yonardi yulduz,
Ko‘k sahni yoyilmish erdi so‘ngsiz.

Osmon uza chiqmish erdi osmon,
Qutb ustida qurmish erdi qo‘rg‘on.

Farqat esa otini surardi,
Shat oldida kemasi turardi.

Parvinda libos sarig‘-u azroq,[2]
Zar nayzasiga qadardi bayroq.

[1] **Shahob** — uchar yulduz.
[2] **Azroq** — moviy.

Oy tegrasiga chiziq chizib zar,
Atlas yopinib, tabassum aylar.

Andoqki, Kamonchilar shu palla
Oy ustiga yog‘dirardi muhra.

Ne erdi Atorud unda holi,
Osmonga otilgan o‘q misoli.

Zuhroki, Sitom anga egardi,
Go‘yoki o‘shanga manglay erdi.

Oftob anga tig‘ edi jahonso‘z,
Tun yoshirin, oshkor kunduz.

Mirrixda adovat erdi yaksar,
Yov ko‘ziga mil chekishni istar.

Birjis qo‘lida uzukdi alhol,
Yeng ostida jumla baxt-u iqbol.

Kayvon beliga egov osibdir,
Tig‘larni egovlab, etgay o‘tkir.

Shohkim, shu qadar erur jaloli,
Bo‘lsin shu jahon aro jamoli!

Shoh xizmatida bo‘lib mudomiy,
Yetding shu maqomga,
ey Nizomiy!

Ul manzili burjdin shu onda,
Bir zilzila qo‘pdi osmonda.

Aksi Hamal ul hilolxanda
Ko‘k ko‘ksiga soldi shu’la shunda.

Govi falak[1] ul chu govi daryo,
Bo‘ynida guhar edi Surayyo.

Javzoda chu qo‘sh edi kamarband,
O‘z taxtida o‘ltirardi xursand.

Huq’a kiyibon libosi zevar,
Ul Xun’a qulog‘iga pichirlar.

Xarchangda u changali Ziroyi,
Tirnoq botirardi chun Siboyi.

Nusra edi bo‘yla gavharafshon,
Turfa tarafi edi zarafshon.

Jabha, yorug‘ erdi so‘l-u sog‘i,
Oldida yonardi yuz chirog‘i.

Qalbasad o‘t olib Asaddin,
Ud otashidek yonardi qizg‘in.

Uzro yuz ediki, Sunbula, bas,
Be sarfa u dona sarfa etmas.

G‘afr oldida Kosayi yatimon,[2]
Tashlar edi ul o‘shanga uch non.

Mizon chu zaboni mardi dono,
So‘ylar edi, tinglar ul Zabono.

Avvo u Samoki hech shamshir,
Amri ila tozisin quvar sher.

Iklil beribon Qalabga tojin,
Aqrab Kamonga ul — xirojin.

[1] **Govi falak** — ho‘kiz burji.
[2] **G‘afr, Kosayi yatimon** (yetimlar kosasi) — yulduz turkumlari.

Har dam ko‘rinar esa Na’oim,
Balda etar uch qo‘lini qoim.

Jaddi, boshidin ayrudir gar,
Afsonayi “Sarbuzi”ni tinglar.

Zabeh vahim ichra jim qolibdir,
Sa’d Axbiyadin jilov olibdir.

Bal xayri duoda bo‘lmasa ul,
Ochgaymidi subhidamda qo‘sh qo‘l?

Dalv boshida oftob — yog‘du,
Xomush turar erdi, og‘zida suv.

Qo‘sh bayt bitib erdi chun chekib zar,
Bul ersa Muqaddam, ul Muaxxar.

Xotun Rasho teva uzra mas’ud,
Hamroh edi unga Botialhut.

Yulduz yo‘li uzra, boqsang endi,
Ijromi buruj[1] suvoriy erdi.

Batnulhamal erdi chun siyog‘i,
Sepoyaga bog‘li to‘rt oyog‘i.

Ayyuq qo‘li qudratin ko‘ring, hay,
Tojdoshlaridin balandda turgay.

Ko‘k ersa qozon, qozonchi yulduz,
Solgay u qozonga murch ila tuz.

Nasrayn yozibon qanot shul dam,
Toirdir o‘zi, Voqedir ham.

[1] **Ijromi buruj** — falakning o‘n ikki burjiga mansub yulduzlar.

Sha'roda yamoniy odati, bas,
She'r so'ylamas ersa-da, etar raqs.

Mabsuta charoh ila tirikdir,
Maqbuza u Zog' ko'zin o'yibdir.

Sayyofki o'ynatur qilichni,
Sher bo'yniga urgay ul qilichni.

Fard yulduzi yakka erdi zotan,
Porlardi janub uzra ravshan.

Uch yulduz ila Sarir endi
To'rtinchi falakka tobe erdi.

Ul muhri Samoklar erdi har gal,
Gohida Romeh-u, gohi Ag'zal.

O'tkir ko'zi-la boqib Suho jim,
Hamdamlarini etardi ajrim.

Tobon — dami bo'ri ul sahargoh,
Yusuf kabi tark aylamish choh.

Qo'ymasdi falak aylanishni,
Aylantirar ul Banotina'shni.[1]

Qori Na'sh uza erur suvoriy,
Na'shdin ne zamon yiroq Qori?..

Majnun etibon nazorasozlik,
Charx birla etardi huqqabozlik.

Zuhroga boqib, so'z ochdi avval:
"Ey baxtga o'zing tayanch, muavval,

[1] **Banotina'sh** — yetti og'ayni yulduzlari.

Ey Zuhrayi ravshan-u tunafruz,
Ey toleyi davlat uzra yulduz.

Ey ahli nishotga mash'ali nur,
Ey ahli g'azalga manbai dur!

Kaftingda erur kaliti har kom,
Jur'ang ila mayga lim to'lur jom.

Ey muhri nigini — tojdorlik,
Xotuni saroyi komgorlik.

Ey mayling o'lib mudom latifro'y,
Ey xulqing o'lib mudom atrsoy,

Lutfingki erur, boridin soch,
Qarshimda umid darichasin och!

Yordinki, firog'i beomon ul,
Yetkaz nafase, davoyi jon ul!"

Chun Mushtariy ochdi yuzni so'ngra,
So'z boshladi shunda Mushtariy-la:

"Ey Mushtariy, ey sitorayi baxt,
Ey va'dasi rost, sodiqul va'd,

Eyki nazari jonfazolik,
Ey niyati ul jahonkusholik,

Ey munshiyi nomayi inoyat,
Fath-u zafaringda har viloyat!

Ey azming o'lib qarori olam,
Tushgaydir iziga kori olam.

Baxt topgusi sen ila balandlik,
Dil topgusi sen-la zo'rmandlik.

Shafqat qil-u bir nazora ayla,
Shu dardi dilimga chora ayla.

Mardlar ishin ul menga etgil,
Shu baxtiqaroligim aritgil.

Yetkaz menga yordin nishone,
Keltur menga atrini hamone!"

Ko'rdiki, ko'rib u munchakim xor,
Qochmoqqa u barcha erdi tayyor.

Bildiki, eshit-la huqqabozlik,
Yetmas anga zarra chorasozlik.

Oh chekdi angakim, chorasiz Ul,
Tanhov-u baland-u beniyoz Ul.

Dediki: "Ayo, O'zingga ohim,
Sendek yana qayda ul panohim?

Ey Zuhrav-u Mushtariy g'uloming,
Sarnomayi jumla nom — noming.

Ey ilming o'shandin oldi tahsil,
Ehsoning o'lur o'shandin hosil.

Sendindir adoyi jumla maqsud,
Sendin hama ul saxovat-u jud.

Sendin hama kuch olur balandlar,
Sendin — u najoti mustamandlar.

Ey jumla shu bandalarga sen band,
Ey jumla basharga sen Xudovand.

Ey yetti falak imoratingdir,
Ey barcha vujud iboratingdir.

Ey olti jihat baland-u pastlik,
Quldir, ishi senga zerdastlik.

Har ko‘zki, yetishsa senga, ohu,
Ko‘rganda qolur u ko‘zdin ayru.

Kim senga it ersa, gavhari pok,
Sendin esa ayru, boshiga xok.

Men — xok, suv bo‘lib, eribman,
Ko‘rgilki, nechuk xarob erurmen.

Rahm etki, men ojiz-u g‘aribmen,
Sen benasib etma rahmatingdin.

Etgil u inoyati Xudolik,
Bergil shu tunimga ro‘shnolik.

Ishqimni vafo xujasta qilsin,
Baxtim bahonadin qutulsin!”

Aytib necha so‘zni, ufladi ul,
Aytdi-yu shu so‘zni, uxladi ul.

Uyqusida chun ko‘rindi baxti,
Avj birla o‘sar edi daraxti.

Uchdi u daraxt butog‘idin qush,
Qo‘ndi uning oldiga kelib xush.

So‘ng og‘zini ochdi-yu sarosar,
Majnun toji uzra to‘kdi gavhar...

Tush ko‘rguchi so‘ngra ochdi ko‘zni,
Tong nuriga chaydi olam o‘zni.

Tong husnida erdi tozaqonlik,
Aylardi nishot-u mehribonlik.

Majnun dili shod edi u tushdin,
Olmishdi qanot o'ziga qushdin.

Oshiqqa visolki chun maholdir,
Shodlik anga tushdir-u xayoldir.

## Majnunga Laylidan maktub yetgani

Kun erdi kiroyi olamafruz,
Ravshan edi nuri birla har ko'z.

Subh yetdi bihisht olamidin,
Yellarda nafas edi Masihdin.

Ul baxtiki o'ng tarafda erdi,
O'ng yoqdin anga ko'rindi, keldi.

Davlatki itobga to'ymish erdi,
Zor etsa-da, endi kelmish erdi.

Ul ishq-u balo asiri Majnun,
Ul ko'ngli shikasta-yu jigarxun.

Tog' boshida o'ltirardi ul dam,
Atrofida necha dom-u dad jam.

Nogoh ko'tarildi dashtaro chang,
Gard erdiki, misli to'tiyorang.

To soqqacha yetdi ul g'ubore,
So'ng unda ko'rindi shahsuvore.

Kim erdi u kimsa? — Porayi nur,
Chun keldi-yu tushdi otidin ul.

Majnun tanidi, harif erdi,[1]
Nasli-nasabi najib erdi.

[1] **Harif** — bu erda ulfat ma'nosida.

Ilki bila bir ishorat etdi.
Bor lashkari yerga boshin egdi.

O‘zi esa bordi, mehri xoslik,
Rasmi ila etdi dilnavozlik:

“Ey najmi yamoniy, bu sayr ne?
Men kimman-u, sen kim-u xayr ne?

Chehrang agarchi dilnavozdir,
Ko‘nglimda bu qo‘rquvim-da rostdir.

Yo‘q-yo‘q, uni ajdaho degaymen,
Arqon ko‘riboq, ilonmi deyman.

Yolg‘on eshitib, ko‘rib ziyonlar,
Siynamga qadaldi ne tikonlar.

Chun etdi ular dilimni abgor,
Ko‘ksimda necha jarohatim bor.

Gar senda ham ersa shu matoh chin,
Kel, yaxshisi, so‘zni ochma aydin”.

Ul kimsa eshitdi, bas, egildi,
Majnunning oyog‘iga yiqildi:

“Ey sha’ni xo‘jasta-yu baland nom,
Tobe senga shuncha dad ila dom.

Ohu senga jonni sadqa etgay,
Sher amr-u ishoratingni kutgay.

Bordir xabarim har tariyqdin,
Ya’niki rafiqqa ul rafiqdin.

Maxfiy senga aytgulik so‘zim bor,
Aytmas uni mendin o‘zga zinhor.

Gar etsang ijozat, unda aytay,
Yo‘q-yo‘q desang, ul izimga qaytay”.

Oshiq bo‘lib unchakim umidvor,
Dediki, siringni ayla oshkor.

Payg‘omchi shu onda berdi payg‘om:
“Baxtimga shu tavsanim bo‘lib rom,

Bordim kezib ul falon vatangoh,
Ko‘rdim sanam unda, erdi chun moh.

Yo‘q, oy dema, erdi oftobe,
Oy chehrasi uzra bir niqobe.

Sarv erdi, emasdi sarvi bebar,
Bog‘ erdi, u bog‘i xulddin afzal.

Shirinsuxan erdi, so‘zlasa u,
Suvdek so‘zi birla uxlagay suv.

Ohu ko‘zi birla boqsa bir on,
Sherni etar erdi lol-u hayron.

Zulfi siyahi misoli “jim”e,
Qaddi “alif” u dahoni “mim”e.

Derdiki, ulardin erdi “jom”im,
Chun jomi jahonnamoy nomim.

Jon ofati nargisi xumori,
Ko‘rsa kishi qolmas ixtiyori.

Ham qoshi kamon-u toq edi, bas,
Toq erdi-yu jufti birla payvast.

Jodumanish erdi misli rayhon,
Rayhon nafas erdi, atri rizvon.

Alqissa, u husn ila sehrdi,
Ko‘zdin yaralib, nafasdin erdi.

Lek ishqdin erdi g‘amnishonlik,
Avzonda necha notavonlik.

Qaddi egilib, bukilmish erdi,
Ko‘z yoshi oqib, to‘kilmish erdi.

Nay erdi magarki xayzuroniy,[1]
Xayri edi, rangi arg‘uvoniy.

Xayrisi sariqmas, erdi zar ul,
Nay erdi-yu, erdi nayshakar ul.

Ul qal’ayi joni uzra doim
Tosh yog‘dirar erdi charxi zolim.

Sultonu Ayoz erdi hamdast,
Sarhang xarob-u posbon mast.

Yoriga umidni boylab har dam,
Qo‘rquvda yashardi eridin ham.

Gul uzra to‘kar edi gulobin,
Oy yashnatar erdi oftobin.

Ko‘z yoshi to‘kib, chekardi hasrat,
Uyg‘ondi dilimda unga shafqat.

“Kimsan, — dedim, — ayt, yig‘i nechundir?
Bu nola-yu zor kim uchundir?”

Lab ochdi javobga, dedi: “Tingla,
Sepding jigarimga tuz so‘zing-la!

[1] **Xayzuron** — bambuk.

Layli edim avval, endi afzun,
Majnunligim ichra mingta Majnun!

Ul oshiq esa chun oshiqi zor,
Oshuftamen unga necha ming bor.

Ul garchi nishonagohi darddir,
Mendek ayol ermas ul, marddir.[1]

Ishq shevasi ichra dovyurak u,
Hech kimsadin unda yo‘q qo‘rquv.

Mendek sira chekmagay alamni,
Istar yeriga bosar qadamni.

Miskinman-u kimsasizki, bir dam,
Bir kimsaga g‘amdin urmagum dam.

Qo‘rqamen, etib bu yo‘lda xomlig‘,
Olgaymen o‘zimga badnomlig‘.

Og‘uni gulob deya totarmen,
Otashni xashak ila yoparmen.

Gar bir tarafim — g‘ami g‘aribdir,
O‘zga tarafim — g‘ami raqibdir.

Men ikki arodadirmen har on,
Shu kashmakash ichra zor-u nolon.

Jahl etgali erga jur’atim yo‘q,
Qochmoqqa atodin qudratim yo‘q.

Ishqim gahi amr etar firoqdin:
Kaklik kabi qoch bu qarg‘a-zog‘din!

[1] **Mard** — bu yerda er kishi, erkak ma’nosida.

Nomus gahi deydi: tek o‘tirgin,
Kaklikdin hamisha kuchli lochin!

Xotin kishi garchi pahlavondir,
Xotindir hamisha, begumondir.

Xotin kishi jangda gar to‘kar qon,
Xotindir, atalsa-da arslon.

G‘amdin qutulishga topmadim yo‘l,
Topshirdim o‘zimni g‘amga butkul.

Xun etdi dilimni yor xayoli,
Mensiz bu zamon ne kechdi holi?

Mensiz ne kitobdin olgay ilhom,
Ne holat ila kechirgay ayyom?

Bosgay u qadamni qaysi rohda?
Nonushtasi qaysi xonaqohda?

Kim birla anis-u suhbar aylar?
Kimlarga o‘zini ulfat aylar?

Andin esang, ey musofir, ogoh,
Bergil xabarini bizga, illo!”

Chun so‘zlari yoqdi jon-u ko‘ngil,
Jim turmagim erdi noravo ul.

Har neki o‘zingdin erdi ma’lum,
Etdim shu zamon anga takallum.

Dedimki, ul oshig‘i adodir,
Bor ulfat-u do‘stdin judodir.

Ishqingda sabo hamdam unga,
Ohu ila sher mahram unga.

Ishqingki, shikasta etmish erdi,
Ayrildi atodanam ul endi.

Har kun anga chun xor-u xorlik,
Tortar alam ichra zor-u zorlik.

Goh so‘ylagay ishq-u mehnating u,
Ko‘z yoshi to‘kar alamda duv-duv.

Goh marsiyat aytar otadin boz,
Toshlar eshitib, chiqargay ovoz”.

So‘ng bor-ku qasoidi haloling,
Aks etmish ularda hasbi holing.

Aytdim necha bayt, eshitdi ul moh,
Chekdi necha karra o‘rtanib oh.

Bas, titradi yerga bosh qo‘yib jim,
Andoqki, u jonni etdi taslim.

Kechdi nafase, ko‘tardi boshin,
Oh chekdi, oqizdi qonli yoshin.

Yig‘lab, necha chekdi nola, faryod,
Faryod-la otangni ayladi yod.

Bekasling aytar erdi har dam,
Aytar edi, ham chekar edi g‘am.

Chun necha chekarda oh-u zorlig‘,
Ahdimda u ko‘rdi ustuvorlig‘.

Dediki: ayo, toza ko‘ngil,
Aftoda ko‘ngilni sen ko‘targil!

Qay kun bu makonni tark etarsen,
Azmi safar aylabon, ketarsen.

O‘tsang o‘sha manzilim yoqdin,
(Ko‘rsatdi u chodirin yiroqdin).

Kutgum seni ko‘z tikib yo‘lingga,
Bir noma bitib beray qo‘lingga.

Etgil menga yordaming nihoniy,
Yetkaz o‘sha yori jonga oni...

Shu so‘zni dedi-yu, turdi darhol,
Men dog‘i yo‘limga yurdim alhol.

Bas, ertasi kun buyurganidek,
Bordim eshigiga oshiqib tek.

Ko‘rdimki, kiyibdi ko‘k joma,
Topshirdi o‘pib qo‘limga noma.

Chun nomaga bosdi mo‘hri anduh,
Ya’ni karamul kitobi xatmuh...[1]

Bas, so‘zni musofir ul tugatdi,
So‘ng nomani o‘pdi-yu uzatdi.

Majnun ko‘rib ulki erdi noma,
Har ne edi, etdi pora-pora.

So‘ng boshin egib misoli pargor,
Charx urdi shu onda, balki, yuz bor.

Mast singari so‘ng yiqildi qalqib,
O‘zdin ketib, ammo qo‘lda maktub.

So‘ng hushiga keldi ko‘z ochib ul,
Yetgan edi dardiga tahammul...

[1] Kitobning ma’nosi uning xotimasidadir...

## Majnun Laylining maktubini o‘qigani

Chun ochdi u nomani shitoban,
Avvalda shu so‘z edi xitoban:

“Xatboshi — ul ismi Podshohdir,
Jonbaxsh-u aziz, xiradpanohdir.

Izmida hamisha kordonlar,
Farmonida jumla bezabonlar.

Ajratguchi oqlig-u qarolik,
Rizq berguchi barchaga safolik.

Anjum ila ko‘kni ravshan etgan,
Mardum ila yerni gulshan etgan,

Fardi azaliy va zuljaloliy,
Hayyi abadiy va loyazoliy!..

Jon berdi, jahonni berdi senga,
Bundan-da buyuk xazina qayda?

Jonni yoritib aql-xiraddan,
Har ikkisin ayladi muzayyan.

Dur-ru guhareki necha sochdi,
Chun yo‘lni hadisi ishqqa ochdi...

Bu nomaki maqsud erdi menga,
Bir g‘amza yozdi dardmandga.

Yozdim uni men, asir-u noshod,
Yetsin senga, ey qafasdin ozod!

Ey yori qadimahd, nechuksen?
Ey Mahdiyi yetti mahd, nechuksen?

Ey xozini ganji oshnolik,
Sendin o‘sha ishqqa ro‘shnolik!

Ey rang berib tog‘ga qoning,
Tosh uzra aqiqdek endi joning!

Ey chashmayi Xizr tun — qaroda,
Parnovayi sham subhgohda,

Ey sendin o‘shal jahongadir sho‘r,[1]
Hamdam senga necha bir qulon-go‘r.

Ey zaxmgahi malomatim sen,
Ham qofilayi qiyomatim sen.

Ey rahm sira aylamay tanig‘a,
O‘t urgan hayoti xirmaniga.

Ey menga ravo etib vafoni,
Yor aylagan o‘ziga jafoni!

Men senga berib ko‘ngilni har dam,
Kam etmading iltifotni sen ham.

Ey yor, nechuksen, ayt, ne holda?
Men sen ila, sen nechuk xayolda?

Baxtingmen-u, zaxmayi firoqmen,
Juftingmen-u, ayrumen, yiroqmen...

Erim hisobda er emish ul,
Bir kecha menim-la yotmamish ul.

[1] **Sho‘r** — bu yerda iztirob, tug‘yon ma’nosida.

Men garchi nikohli, erlimen, rost,
Durrimga to‘qingan ermas olmos.

Ganji guharim erur mo‘hrli,
Gulg‘uncha tarim erur mo‘hrli.

Ey garchi ayondir unda erlik,
Sensiz ne emish menga u sherlik?

Savsanni gar eslatur sarimsoq,
Gul atrini bermas unda yaproq.

Bodring sariq ersa, kunjga[1] o‘xshar,
Shakli, jasadi turunjga o‘xshar.

Nordon esa-da, turunjxo‘ylik,
Ammo emas ul turunjbo‘ylik.

Kosh erdi, ey orzuyi jahonim,
Bo‘lsayding o‘zing hamoshiyonim.

Kim toysa bu yo‘ldin, yiqilsin,
O‘lsin, o‘ligi eshakda kelsin.

Sensiz uchib ul falakka ohim,
O‘rtansa ko‘ngil, nedir gunohim?

Ko‘ngilki, rizoying istamas gar,
Tashvishi qazodin o‘lsa afzal.

Har kimsaki senga aylagay qasd,
Qursin qo‘li, bitsin undayin dast.

Bir tola mo‘ying menga jahondir,
Guldir u ko‘yingda, gar tikondir.

[1] **Kunj** — bukri.

Masxan chu Xizr makoni senga,
Bergil u Xizr suyini menga.

Men — oymen-u, sen — u oftob-nur,
Sen birla ko‘zimda nur, ziyodir.

Sendin bu qadamda ortda qoldim,
Afv ayla, buni bo‘yinga oldim.

Otang vafotin ul eshitdim,
Ohlar chekibon, yaqoni yirtdim.

Urdim yuzimga tarsaki ham,
Go‘yoki o‘lmish erdi otam.

Tortib ko‘zimga gul kabi mil,
To‘nimni binafshadek etib nil.[1]

Hamdarding o‘lib men hamoni,
Tutdim base motam-u azoni.

Yoningga magar borolmadim, oh,
Etdim hama o‘zga shartni ijro.

Sendin shu tanim yiroq erur, bas,
Jonim esa har nafasda payvast.

Chun barcha g‘aming dilimdadir, hay,
Sabr aylamak unga chora bo‘lgay.

Bas, necha kun oshiyon bu xona,
Lozim shu murosayi zamona.

Bu xonaki, ob-u rangi bordir,
Ul barchaga bo‘yla tang-u tordir.

[1] **Nil** — ko‘k, moviy ma’nosida.

Eshak kabi go‘lliging unut qil,
O‘tguvchi umrga boq, sukut qil.

Ko‘p yig‘lama, ayla sabr-u toqat,
Yo‘l o‘zgadir, o‘zga unda holat.

Ko‘nglingga yo‘latma g‘am, avayla,
Sabring-la sitamga chora ayla.

Men ham o‘sha dard-u g‘amga yormen,
Lekin qadam uzra ustuvormen.

Oqil kishi yig‘lamas, hamoni
Kuldirsa g‘animni yig‘lagoni.

Dono kishi aylamas sira yod,
Ul g‘amniki, dushmanin etar shod.

Ey shuncha olib nafaski, borsen,
Shod bo‘l bu aroda, baski borsen.

Boq ungaki, aylanur jahon, bas,
Charx aylanur ul, zamon-da tinmas.

Dehqonki yeriga ul sochar don,
Olgay o‘sha doni birla xirmon.

Xurmoki, bugun o‘sib, ko‘kargay,
Bas, ertaga yaxshi meva bergay.

Ul g‘unchaki barg aro nihondir,
Gul-gul ochilurdin ul nishondir.

Bekas demas o‘zni, chekma qayg‘u,
Men bormen,
axir! Shu bas emasmu?

Bu yo‘lda ravomi oh-u voying?
Bekimsaga kimsadir Xudoying!

Otam deya yoqma o‘zni chun barq,
Ko‘z yoshiga etmagil taning g‘arq.

Gar ketsa ota, o‘g‘il omondir,
Bog‘ ketsa, nishona gul omondir...”

Majnun o‘qib ulki nomayi yor,
Bir g‘unchadek o‘zni etdi oshkor.

“Yo Rab!” der edi, magar mast erdi,
Bir lahza o‘ziga kelmas erdi.

So‘ng o‘ziga keldi ul nihoyat,
Zo‘r berdi yig‘iga necha soat.

So‘ng ochdi xabarchiga quchog‘in,
Goh qo‘lini o‘pdi, goh oyog‘in.

Yo‘qdir, dedi ul, qog‘oz-u xoma,
Nechuk etayin javobi noma?

Qosid belidin yechib kamarni,
Har neki zar-ur edi, ularni.

Oldi, ne ajabki ul hamono,
Qog‘oz, qalam ayladi muhayyo.

Majnun yuritib qalamki, otash,
Ming nuqtani etdi safhaga naqsh.

Ko‘nglidagi barcha dard-u g‘amni
To‘kdi u, yig‘latib qalamni.

Chun noma tugandi, bitdi butkul,
Topshirdi uni xabarchiga ul.

Qosid olibon, yugurdi-yeldi,
Eltib, o‘sha intizorga berdi.

Layli uni ochdi och nazar-la,
Ko‘z yoshlari tomdi safha uzra...

## Majnunning Layliga javob maktubi

So‘z avvalida xo‘jasta pargor
Shoh nomi ediki, do‘st, madadkor.

Donoyi nihon-u oshkoro,
Bermish hama tosh, guharga oro.

Izmida sipehr-u anjum har dam,
Amrida u Na’shu qizlari ham.

Ko‘ngilga beruvchi oshnolik,
Tunlarga beruvchi ro‘shnolik.

Kelgay u sabab bahori xandon,
Bechoraga chora etgay ehson...

So‘ngra u jigar kabobligidin
Aytib, ravishi xarobligidin.

Yozmishdi: “Bu noma beqarordin,
Sensiz u ado-yu intizordin.

Yo‘q, yo‘q, bu xato, qonga botgan,
O‘z qonini so‘ngra senga sotgan.

Bir kimsaki, ul kalitdir, aytsam,
Qandoq senga yetgay ul, xazinam?

Men xoki g'uboring ersam andoq,
Sen obi zilol kimga mundoq?

Poyi qadamingda past esam men,
Sen qaysi kamarga qo'l cho'zarsen?

Men dardi dilingni bunda cheksam,
Sen qaysi ko'ngilga doru, malham?

Men sendin olib o'zimga toshni,
Sen kimga egarsen unda boshni?

Ey ka'bam o'shal jamoli ro'ying,
Mehrob menga ostoni ko'ying.

Ey marhami yuz hazar siyna,
Dur mayda-yu, may shisha ichra!

Ey toj, boshimdamassen, evoh,
Torojing uyimda tinmas aslo.

Ey ganj, seni olibdir ag'yor,
Do'stlarga u ganj aro ilon bor.

Ey bog'i Eram, ayt, qayonsen?
Firdavsi falak kabi nihonsen.

Bandi tugunim sening qo'lingda,
Savdoyi dilim kushodi senda.

Bul cho'p-og'ochki udi beshang,[1]
Sindirmaki, ul haloki teshang.

[1] **Udi beshang** — o'rmoningda o'sgan ud.

Xor etma meni, urma, xokmen,
Mehr-u karam ayla, dardnokmen.

Lutf-u karam et, bahoring o'lgum,
Ursang, ezilib, g'uboring o'lgum.

Tuproqni aya, yetmasin dard,
Lutfing gul etar, jafolaring gard.

Poyingda egildi boshim, ey yor,
Qahr-u g'azabing-la etma abgor.

Yo'l berma chunonki, jahl etarmen,
Suv berma chunonki, men to'karmen.

Ketsa oradin hayo-vu ozarm,
Bo'lgay hama behayo-vu besharm.

Bo'ri ravishini berma itga,
Sherdek tutar unda boshni tikka.

Ganjina ulashma har gadoga,
Ul ganjina yo'l ochar xatoga.

Men-ku shu yo'lingda
yuk tashib qul,
Sen xoja bo'lib boshimda turgil.

Qalqonmen o'zingga, etmagil yer,
Tashlar esang, unda men shamshir.

Tosh otma o'zingga, etma diltang,
Hay, aylama lashkaring bila jang.

Nish urma o'zingga o'rtanursen,
Sog'lom vujuding yaro qilursen.

Mehr-u karam et, uni avayla,
Ozodni o‘zingga banda ayla.

Sendin dili ranja bo‘lmasin qul,
Surmangni ko‘zingdin olmasin ul.

Har xojaki, bu kifoyati yo‘q,
Hukmi amali, viloyati yo‘q.

Kasb aylasa kimki bu hunarni,
Pulsiz-da qul aylar o‘zgalarni.

Men bo‘yla g‘uloming erta-yu kech,
Sen ayla g‘ulom-u sotmagil hech.

Boshim uza tutma, yoqma o‘tni,
Qo‘zg‘atma sira dimog‘da o‘tni.

Har tanda g‘azab ila g‘irevdir,
Har odamiy oshnoyi devdir.

Deving chiqar ersa, bil, hamono,
Bir boshqasi bo‘lgay unda paydo.

Men tikan chopay, sen-da esh bo‘l,
Men sen bila xush, sen-da xush bo‘l!

Chekdim shu ko‘yingda dard-u hasrat,
Etsang ne bo‘lurdi rahm-u shafqat?

Oh cheksam o‘shal g‘amingda, ko‘rgil,
Ko‘klarga uchar-da, muz bo‘lar ul.

Ey o‘zgani yor-u hamdam etgan,
Chun o‘ziga juft-u mahram etgan!

Bir karra eshitmading salomim,
Muz uzrami yozding unda nomim?

Menga suxaningni pech-pechdir,
Yo‘qdir bari, balki hech-hechdir.

Bir na’l bermay abrashimga,[1]
Yuz na’l otding otashimga.

Tongimni tuni qaroga burding,
Tig‘ solding-u so‘ngra oh urding.

Dil berdim o‘zingga, etmading dod,[2]
Jon bersam agar, etarmiding yod?

Til birla dilim yaro etarsen,
Men yondim-u, sen safo etarsen.

Har kimsa cho‘zib, uzatsa so‘zni,
Forig‘mi etar yarodin o‘zni?

Savsan tilini uzun etib chun,
Tig‘ boshiga tushdi, bo‘ldi ostin.

Gar yor esa menga chin xaridor,
Etgay edi yuzni ham padidor.

Men xastaga ne nadomat erdi,
Ko‘rsat uni, ne karomat erdi?

Ahdingni buzib o‘tirganingmi?
Bir boshqaga yuzni burganingmi?

Til birla menga firibsozlik,
Lek o‘zgaga sidq-u ishqibozlik?

Sevsang, qani ohi sodiqing ul?
Men birla dame muvofiqing ul?

[1] **Abrash** — chavkar ot.
[2] **Dod** — rahm-u shafqat.

Ishqingda o‘shal muvofiqing yo‘q,
Bu bo‘ylaki, ishqi sodiqing yo‘q.

Sen forig‘i g‘amki, bediling bor,
Yoningda kishing, muomiling bor.

Men ulki, yuzingga zor, kuyarmen,
Ko‘yingda hamisha bosh qo‘yarmen.

Men fol ochamen ko‘yingda yuz bor,
Ko‘rsam deya ul yuzingni, ey yor!

Osudaki ul, yuzing ko‘rar, bas,
Chun men kabi qayg‘u, g‘amda ermas.

Xurram men emas, ul tavongar,
Chun ilkida sen, dur-ru gavhar.

Bulbulga makon erur magar bog‘,
Anjirni yeguvchi qarg‘adir, zog‘.

Bog‘bon dilidin anor ichar suv,
Bir xastaga so‘ng yemish bo‘lar u.

Dunyoda hamisha bo‘ylakim ranj,
Muhtoj sen-u, lek zamindadir ganj.

Kim ko‘rmish o‘shalki la’li billur,
Tosh panjasidin xalos bo‘libdir?

Ul oyki, umid o‘shal ziyodin,
Qay kun qutularkan ajdahodin?

Bol — bolaridin nishon qolgay,
Qush uchsa gar, oshiyon qolgay.

Andoq ochilib xazina bori,
Eshikda qolur xazinadori.

Dehqoni xasis tark etur bog‘,
Bulbul ila hamnishin bo‘lur zog‘.

Gul bog‘chada gul libosi atlas,
Uzmish uni bir habash, qaro, mast.

Oyinani gar g‘ubor olgay,
Ganj o‘rnida, lek ilon o‘lgay.

Qo‘rg‘onchasidin chiqdi bonu,
Yo‘q erdi eshikda posboni.

Gar shami nuring yiroq mendin,
Parvonani ayru tutma andin.

O‘ldirdi meni magar malomat,
Bo‘lsin Ibni Salom salomat.

Ey yaxshi-yomon mijozimam sen,
Dardim o‘zing-u, ilojimam sen.

Qo‘rg‘oning agarchi ohanindir,
Durri guharing sadafnishindir.

Ul halqayi zulfi purshikanjing
Sochgay o‘sha ajdahoga ganjing.

Ma’lumki, yiroq tutib garovdin,
Do‘st do‘stini qizg‘anur birovdin.

Tushgay menga yuz havas hamisha,
Gar senga qo‘narsa bitta pashsha.

Oshiq kishidan-da ko‘ri bo‘lmas,
Ul pashsha ko‘ringay unga kargas.[1]

[1] **Kargas** — kalxat.

Ul pashshani sen kabi shakardin
To haydamaguncha tinchimasmen.

Bor erdi yigitki, bir javonmard,
Yo‘q pulni sanab yurardi har vaqt.

Yo‘q gulga nuqul chekar edi oh,
Yo‘q durga etardi oh-u evoh.

Ishqingda yetishdi bunga boshim,
Labtashnamen-u ko‘zimda yoshim.

Savdoyim u ko‘rganingdin ortiq,
Majnunmen eshitganingdin ortiq.

Sen birla yo‘qotdim o‘zligimni,
Bexudlik aro ko‘rarmen o‘zni.

Ishq etmasa dilni bo‘ylakim mast,
Ishq ko‘yida ul tariqcha ermas.

Etmam tamah lablaringdin, ey yor,
Bir bo‘sa bo‘lurdi menga yodgor.

Ul damki ufori lutf sochsang,
Yo nofayi anbarinni ochsang,

Atringni sabo bilan ufurgil,
Mushkingni yuzim, ko‘zimga surgil.

Kosh bog‘i ruxingga yetmishimda,
Bir xurmo yesam edi tushimda.

Ul jomi mayingdin, ey dilorom,
Ichsam edi, yetsa jonga orom.

Yo Rab, na xush ul mayi mug‘ona,
Ilking ila tutsa gar zamona.

Yonimda o‘tirsang erdi bir pas,
Bo‘lsam o‘sha jomi may ila mast.

Ilking va labingdin ul payonay,
Goh bo‘sa simirsam erdi, goh may.

Chun qirmizi ersa ul zarifing,
Turgaymu qarab, o‘par harifing.

Bol rangi aqiqdir-u, chuchukdir,
Totgil buni, mazasi nechukdir?

Goh shahdi labingdin aylayin no‘sh,
Goh sadqa bo‘lay senga, hamog‘ush.

Gohi zanaxingga qo‘lni sursam,
Gohida shirin labingni so‘rsam,

Bul barchasi aslida fasona,
Sen birla so‘z aytgali bahona.

Diydoring umidida to‘kib ashk,
Goho etamen o‘zimdanam rashk.

Soldim chu tamah oyog‘iga band,
Bormen shu hikoyating-la xursand.

Ming kecha o‘zing-la gar o‘tirgum,
Boqmasmen o‘shal yuzingga bir zum.

Ishqingki yurakda bo‘ylakim, yor,
Suratga mening ne hojatim bor?

Sharr bo‘ldi menga, sharif sen-la,
Ishq bo‘ldi menga, harif sen-la.

Ishqingki qachon ko‘rsatur yuz,
Sen g‘oyib o‘lursen unda, gulyuz.

Ishqing u rafiqi rozim o‘lsin,
Zaxming jigarnavozim o‘lsin!

Zaxmingga agarchi marhame yo‘q,
Sen ersang omonda, bas, g‘ame yo‘q.

Gar menga g‘am-u firoq bo‘lgay,
Sendin o‘shalar yiroq bo‘lgay!

Qari eshagim yiqilsa nochor,
Eltsin seni manzilingga tulpor.

Idborim[1] agar esa nihoniy,
Iqbol senga yori jovidoniy!

Har boshki u tutmas ersa roying,
Bo‘lsin uzilib, zeri poying...”.

## Tog‘asi Salimi Omiriy Majnunni ko‘rishga kelgani

Sarrofi suxanki lafzidir zar,
Tizdi yana rishtasiga gavhar...

Ki bor edi bir tag‘oyi Majnun,
Ma’lum edi unga holi Majnun.

Sohib hunare, halolzoda,
Chun husni fazilati ziyoda.

El derdi: Salimi Omiriy ul,
Har chorada misli Somiriy ul.

Oshufta ko‘ngilga malham erdi,
Yillar bo‘yi yor-u hamdam erdi.

[1] **Idbor** — baxtsizlik.

Majnunga chu to‘n ila taomin
Har oy sayin ul etardi ta’min.

Bir kun niyat aylabon najib ul,
Yo‘l oldi qayonda deb g‘arib ul.

Izlab necha dashti qumda yurdi,
Devona o‘shal ko‘rinmas erdi.

Tog‘ bag‘rida topdi ul nihoyat,
Aftoda, g‘arib edi bag‘oyat.

El vahshatidin qochib tamoman,
Atrofida erdi necha hayvon.

Omir ko‘rib unda dad-u domin,
Berdi chu yiroqdin ul salomin.

Majnun eshitib salom andin,
So‘rdi chu nishon-u nom andin.

Dediki, men ul Salimi Omir,
Bag‘rim shu zamonadin yarodir.

Tog‘angmen, axir,
ne holda, ey fard,
Ko‘rdim seni, tortasen alam, dard.

Mahzun-u shikastahol bo‘libsen,
Ayt, nega xabashmisol bo‘libsen?

Majnun tanidi, chaqirdi shul dam,
Chun etdi tag‘oni o‘zga hamdam.

Suhbat shu aroda har nishone,
Osuda kechdi bir zamone.

Chun ko‘rdi Salim, oshiq unda,
Andoqki, kafansiz erdi go‘rda.

Egnidagi to‘nni yechdi darhol,
Majnunga berib, dedi: kiyib ol.

Bu to‘ni haloldirki, kiygil,
Sen menga halolzodalik qil.

Dediki: “Tanim yiroq to‘ndin,
Men o‘tmen-u, ul esa o‘tindin.

Sen o‘ylamaki nazora etgum,
Kiysam uni, pora-porą etgum”.

Andoqki Salim o‘tindi g‘oyat,
Kiydirdi to‘nni ul, nihoyat.

So‘ng sufra yozib, taom qo‘ydi,
Halvo bila non ziyoda erdi.

Ko‘p qistadi so‘ng yemakka, lekin
Tuz totmadi Majnun ul yemakdin.

Etmas edi hech taom tanovul,
Bergay edi sher-u ohuga ul.

So‘rdi tog‘asi: “Ey jigarso‘z,
Nedir yemishing u kecha-kunduz?

Ovqat iladir tirik maqoming,
Aytgil menga ul nedir taoming?”

Dediki: “Ayo Salim noming,
Tavqeyi salomatim saloming!

Ovqat yemayin qurg‘adi tan,
Chun qolmadi ishtaha tamoman.

Tunlar yotishim tosh uzra, albat,
Ochlikdin azob erur maishat.

Gar ochlik azobi oshsa haddin,
Izlab topamen yelim daraxtdin.

Goh menga yemish bo‘lur giyoh-da,
Ul magar haftamas, bir oyda.

Ko‘nglim quti menga har gohi,
Bilsang, u nasimi subhgohi.

Har atri saboki, dilbarimdin,
Jonim topamen tanimga andin.

Tark ayladim har nechuk yemishni,
Etmasmen o‘zimga parvarishni.

Bir luqma tomoqdin o‘tmagay non,
Yutsam, bo‘g‘ilarmen, o‘rtanur jon.

Oriq tanim uzra muncha xo‘rlik,
Yot bo‘ldi menga taomxo‘rlik.

Ko‘nglim tilamas taomni zinhor,
Yonimda vale yeguvchilar bor.

Har gal ular oldiga qo‘yarmen,
Sher yeydi-yu, men esam to‘yarmen”.

Chun ko‘rdi Salimki, ul hunarmand
Nondin kechibon, giyohga xursand.

Etmay bu yemishga e’tirozin,
Shirin dedi unga e’tirofin:

“Qushga havas ersa donayi dom,
Domiga uni tushirgay ayyom.

Har kimda havoyi dona bisyor,
Ranj-u xatari zamona bisyor.

Kim sen kabi qoneyi giyohdir,
O‘z olami ichra podshodir...”.

## Hikoyat

Azmi safar etdi shohi nomdor,
Yo‘l bosdi savor uza hashamdor.

Bir zohid uyi ko‘rindi nogoh,
Darvesh edikim, jahondin ogoh.

Shoh o‘yladi: vo ajab, nechuk ul
Vayronani chun makon etibdir?

Xos mahramidin so‘rdi so‘ngra:
“Bu kimsa nechuk yashar bu yerda?

Ul qayda yotar, nedir taomi?
Ham qayga yetar ekan maqomi?

Zohid, dedilar, baski mashhur,
Uyqu va taomdin ul yiroqdir.

Eldin u yiroqda tutmish o‘zni,
Chun sabr-u chidamga otmish o‘zni...

Zohid xabarini tingladi shoh,
Xos hojibini jo‘natdi ongoh.

Hojibki o‘shal yugurdi-yeldi,
Zohidni savol etishga keldi.

So‘rdiki: “Jahondin, ey, uzib band,
Turguvchi xaroba uyda xursand!

Bu joyda ishing ne emishdir,
Bu go‘shada senga ne yemishdir?”

Zohid olib bir hovuch giyoh gul,
(Ohular uchun xo‘rok edi ul).

Dediki: mana, mening taomim,
Shunda menga quvvati tamomim.

Hojib esa kibri podsholik,
Aylab dediki, bu ne balolik!

Shoh xizmatin et kechib bu ishdin,
Bir yo‘la qutil giyoh yeyishdin...

Zohid dedi: “Bu nechuk masaldir?
O‘t-maysa deb aytmagil, asaldir.

Sen ham bu giyohni bilganingda,
Shoh xizmatidin kecharding unda”.

Bu so‘zni eshitdi shoh ul dam,
Otdin o‘zin otdi yerga ildam.

Zohid poyiga yiqildi, zorlik
Aylab, o‘pib, etdi xokisorlik...

Xursand hamisha nozanindir,
Xursandligi — kishvari azimdir.

Majnun chu eshitdi bu fasona,
Turdi va o‘tirdi shodumona.

Yod ayladi do‘stlarin zamone,
Har do‘stidin istadi nishone.

So‘ylar va yig‘lar erdi bot-bot,
So‘ng onayi zorin ayladi yod.

So‘rdi: “U shikastabol nechukdir?
Ul ko‘ngli siniqda hol nechukdir?

Oldida uning chu yuz qaromen,
Avvalda qaro, hanuz qaromen.

Bilsam edi kosh ramzu holin,
Ko‘rsam edi oftob jamolin...”.

Ko‘rdiki Salim, u jigarresh,[1]
Yonmish dili, onasin sog‘inmish.

Bas, bo‘yla eshitdi nolasin ul,
Keltirdi qoshiga onasin ul...

## Onasi Majnunni ko‘rishga kelgani

Chun ona ko‘rib uni yiroqdin,
Oh chekdi o‘kinch, alam, firoqdin.

O‘g‘li yuzi zardu za’farondi,
Oyinani zang bosmish endi.

Tik qomatini ko‘rib duto ul,
Qoldi qo‘l-oyoqsiz ona butkul...

Ko‘z yoshi-la goh yuzini yuvdi,
Goh sochlariga taroq urdi.

Boshdin to oyog‘ini silab so‘ng,
Yosh to‘kdi yarolar uzra ho‘ng-ho‘ng.

Kafti ila necha shishni siypab,
Ham necha yarosi ersa, boylab.

[1] **Jigarresh** — jigari xasta.

Ham boshini yuvdi shu zamoni,
Ham oldi oyog‘idin tikonni.

Ko‘rsatdi o‘g‘ilga mehribonlik,
Har nechaki ersa, mehrijonlik.

So‘ng so‘rdi: “Bolam, bu qilmishing ne?
Ishq yo‘lida bo‘yla bo‘lmishing ne?

Ko‘rgilki, ajal qo‘lida olmos,
Sen bunda havoyi ishq ila mast.

Ketdi otang ul shikoyatolud,
Ketmoq gali menga ham yetar zud.

Turgil-da, uyingga yur hamoni,
Tark ayla bu g‘amli oshiyonni.

Kunduzda u qushmi, jonivor chun,
Ketgay bari in-u oshiyondin.

Tun pardasi yerga yoysa zulmat,
Qaytgay bari oshiyonga albat.

Tokaygacha xalqdin ayru, pinhon,
Yurgaysen azobda, zor-u sarson?

To‘rt kunlik umrda qo‘y firoqni,
O‘z to‘shaging uzra cho‘z oyoqni.

Tokaygacha maskaning bo‘lur g‘or,
Mahram senga shu qumursqa-yu mor?

Gar chaqsa ilon, u jon zavoli,
Bosgay shu taningni so‘ng chumoli.

Jonni dema tosh parcha, o‘ltir,
Jon birla talashma muncha, o‘ltir.

G‘am birla bu jonni etma ranjon,
Ko‘ngling tosh emas, temir emas jon”.

Chun onasi chekdi baski nola,
Majnun dilini yoritdi shu’la.

Dediki: “Ayo boshimda tojim,
Dunyoda g‘ururim-u quvonchim!

Men — donayi gavhari adoying,
Jannat ko‘yi menga xoki poying.

Yo‘q ersa magar aqlga rohim,
Bu yerda mening nadir gunohim?

Basdirki, ishim bu yerga yetmish,
Ish haddin oshib, yiroqqa ketmish.

Jahd-u amalim berarmi naf, gar
Bo‘lmog‘i uning esa muqarrar?

Ming bora boshimga indi bu ish,
Bas, choradin o‘tdi endi bu ish!

Ishq ersa bu nav baloyi zoring,
Ishq ichra bo‘lurmu ixtiyoring?

Kosh erdi, ona, jon qushim bot
Etsam shu zamon qafasdin ozod!

Domingga tushirma, onajonim,
Shu ikki qafasga solma jonim!

Kech, ona, bolangga yolborishdin,
Qo‘rqarmen uyimda men o‘lishdin!

Chun uyga borib, o‘lish ne afzal?
Undan ko‘ra dashtda yurgan afzal.

Men uyda o‘lishni istamam, qo‘y,
Hayvonlar ila etishga hoy-huy.

Eltib meni uyga ne etarsen?
Qaytarmen-u boz olib ketarsen.

Dersanki, uyimga qayt, yetar, bas,
Bu jonim o‘shal uyingga sig‘mas.

Qo‘ygil meni, menda bo‘ylakim dard,
Men dardzadamen, uyingga sen qayt”.

Aytdi shuni-yu bosh etib xam,
O‘pdi onasi oyog‘ini ham.

Chun etmadi ona posi royin,
Uzr istadi, o‘pdi xoki poyin.

Bas, yig‘ladi ona, tushdi shashtdin,
So‘ng aytdi vido-yu qaytdi dashtdin.

So‘ng ota kabi bo‘lib dilafgor,
Tark etdi jahonni onayi zor...

Har kun jahonda bir jafodir,
Insof bila ayt, bu ne vafodir?

Dunyoki uning vafosi yo‘qdir,
Oshnoligi yo‘q, safosi yo‘qdir.

Ahdini buzuvchi, qulf ochar ul,
Dehqonki, magar urug‘ sochar ul.

So‘ng yerda yetishtirar boshoqni,
Pishsa yetilib, solar o‘roqni.

Tunlarda yonar chirog‘i bordir,
Jonlarga dudi va dog‘i bordir.

Tong otsa-yu yel ufursa ul dam,
Qolmas nuri, so‘ngay ul chiroq ham.

Gardun yoqadir charog‘ini boz,
Kuydirgusi bizni ul charog‘boz!

Gar solsa falak tugunni, chundir,
Har joygaki borsa, ul tugundir.

Qolmas tuguni, kushoda bo‘lgay,
To‘rt otdin[1] agar piyoda bo‘lgay.

Jon rishtasi ul tugunni qo‘yma,
Ta’b rishtasidek tugunni bo‘lma.

Ud aylasa gar tugunnamolig‘,
Sen nofadin et tugunkusholig‘...

## Majnun onasining vafot etganidan xabar topgani

Ul shahsuvori charxi gardon
Daf etdi raqibni, ochdi maydon.

Ofoq elidin cho‘chibmi ayni,
Ko‘k toqiga qo‘ydi jomi mayni.

Tun chokini tutdi tong, so‘kdi,
Sindirdi u jomni, mayni to‘kdi.

Majnun ruhida edi ravonlik,
Aylardi nuqul qasidaxonlik.

So‘ylardi qasidadin qasida,
Ochgaydi jaridadin jarida.[2]

[1] **To‘rt ot** — to‘rt unsur: tuproq, havo, suv va otash.
[2] **Jarida** — daftar.

Bilmasdi anosi ul nechukdir,
Holbuki jahondin ul kechibdir...

Keldi yana ul Salimi dildor,
Shu xasta, shikastadilga g'amxor.

To'n kiydirib ul, taom berdi,
Motamzadalardek oh urdi.

Dediki: "O'shal balorasida,
Har lahza tikib yo'lingga diyda,

Qaytmas yo'liga ravona bo'ldi,
Otang kabi g'am-alamda o'ldi..."

Majnun eshitib bu gapni, hayhot,
Musht boshiga urdi, chekdi faryod.

Faryod chekib, oqizdi ko'z yosh,
Sindirdi magarki shishani tosh.

O'zni necha bir alamga qordi,
So'ng ota-ona boshiga bordi.

Har ikki qabrga urdi o'zni,
Har ikki qabrga surdi yuzni.

Dard chekdi chunon, davosi qayda?
O'lganga bu dorudin ne foyda?

Majnun dilidin uchib nidosi,
Jam bo'ldi boshida aqrabosi.

Ko'rdi hama, yig'lar erdi ul zor,
Tuproqqa cho'kib tani, zaif xor.

Poyiga yiqildilar alamdin,
Yosh to'kdilar unga har tarafdin.

Har ko‘zda edi jafoyi dardi,
Har ko‘z anga deb gulob to‘kardi.

Bas, hushga kelib u, tortdi hushyor,
Haqqiga duolar uchdi bisyor.

Qaytargali uyga, qistab harchand,
Tutgil, dedilar vatanda maskan.

Oh urdi-yu yo‘lga tushdi birdan,
Ayrildi hamon o‘shal guruhdan.

Kezdi yana tog‘-u dashtni sarson,
Dil zor-u shikasta-yu jigar qon.

Ortida besh-olti jonivori,
Na kimsaga yor, na kimsa yori.

Sajjodani otdi tark etib dayr,
Chun ko‘rmadi sharri ichra bir xayr.

Umri bosibon chaqin kabi yo‘l,
Yetmas edi unga cho‘zsa ham qo‘l.

Umringki, u oxiri zavoldir,
Ming yil yasha, bir damingcha bordir.

Bergay o‘limingdin ul xabarni,
Kim ko‘rmish ul ishvadin samarni?

Ey g‘ofil, o‘shalki o‘lmog‘ing bor,
So‘rguvchiga jonni bermog‘ing bor.

Bas, muncha firoq-dimoq qilursen?
O‘zdin ajaling yiroq bilursen?

Bildingmi, shu dahri oshiyonda,
Sen kimsan-u, manziling qayonda?

Har zarraki bir maqomi bordir,
Quvvatga to‘lish maromi bordir.

Lekin o‘sha Ko‘hi Qof yanglig‘,
Tog‘ oldida qad-du qiymati yo‘q.

Cheksiz shu ekinzor ichra andoq,
Bir novdamisen va yoki yaproq?

Ko‘rgil shu falakni, ne chamandir,
Boshing uza kengdir-u balanddir.

Boq arshi falakka, so‘ng bilursen,
Shu bahri muhitda kim erursen?

Fikringda vale haqiqating bor,
O‘z o‘lchoving, o‘z tariqating bor.

Tog‘ bo‘lsa-da qad-du qomating, bas,
Shu chambara gumbaz oldida past.

Pastlikdin oshib o‘tolsang, ey sen,
Men ham shu jahonda bor demassen.

Tuproqqa o‘tir-da, chekma ohing,
Tuproq ila yop ayb, gunohing.

Zavqing hali bor esa, o‘zing bot
Shu hojati xalqdin ayla ozod.

Uch-to‘rt u mixingki zangli ermish,
Ilkingga zakot ila yig‘ilmish.

Uch-to‘rt chaqa yig‘ganingga xursand,
Dersanki, jahonda men Xudovand.

Bo‘lsa shu jahonga gar niyozing,
Kechgay base oh-u voh-la sozing.

Qo‘y, bo‘lma niyozmand, eyki odam,
Yetgay senga sarbalandlik ul dam.

It bo‘lma birovga non istab,
Yo bo‘lma mushuk xon[1] istab.

Sen mash’aladek ye dastranjing,
Yo sham kabi ozuq ayla ganjing.

Yetgay senga sunnati Nizomiy,
Sultoni jahon bo‘lur g‘uloming...

## Layli Majnunni chorlagani

Layliki, na lo‘bati hisori,
Ul bonuyi qal’ayi imori,

Yurgay edi o‘rtanib-kuyib zor,
Ming dard-u alamga ul giriftor.

Yori kabi diltang erdi asru,
Miskin edi, ro‘zgori qayg‘u.

Chun halqada bandsiz-u tugunsiz,
Zindoniy-u mahbus erdi ul qiz.

Eri eshigida erdi posbon,

[1] **Xon** — dasturxon.

Ko‘ksini talardi tig‘i hijron.
Bosgan qadamin sanar edi er,
Tun chog‘i banogoh qochmasin der.

Aylar edi qizga mehribonlik,
Har lahza ado-yu jon fishonlik.

Layli yuziga chekib kadarni,
Solmas edi ul tomon nazarni.

Bir gal o‘zi qoldi yakka-yolg‘iz,
Tun zulmat-u hujra posbonsiz.

Payt poyladi, asta chiqdi uydin,
Izlardi najotni ko‘cha-ko‘ydin.

Yo‘l uzra o‘tirdi zor-u diltang,
Uy birla arosi erdi farsang.

Bir kimsa yo‘liqsa, derdi, nogoh,
Shoyadki hadisi yordin ogoh.

Nogoh ko‘rindi mo‘ysafid pir,
Lutfini ayon etdi taqdir.

Chol erdi ajab Xizrnamo ul,
Yo‘lchi edi, yo‘lda rahnamo ul.

Qiz so‘rdi salom berib anga xush:
“Bormi xabaring falak ne etmish?

Ul oshiqi zor vahshat obod,
Dasht qo‘ynida kimni aylagay yod?”

Pir unga mehr-la dedi: “Ey moh,
Sensiz u Yusufga go‘shadir choh.

Ul dengiz erurki, mavj urar, mavj,
Oydir, qulamish tark etib avj.

Ovoz qo‘yib, o‘ylakim munodiy,
Kezgay u hamisha dasht-u vodiy.

Layli! — deya baski har qadamda,
Laylini so‘rar u har maqomda.

Ne holdadir, o‘zidin xabar yo‘q,
Layli yo‘lidin bo‘lak guzar yo‘q...”.

Layli eshitib ne erdi ahvol,
Sarvi qadi bo‘ldi noladin dol.

Nargis ko‘zi, ul chekardi nola,
Guldek yuziga oqizdi jola.

Dediki: “Men ul rafiqi dilso‘z,
Men deb u azobda kecha-kunduz.

Men dog‘i chekarmen uncha qayg‘u,
G‘am ayrudur unda, menda ayru.

Tog‘ boshida izlasa u mohim,
Choh qa’rida men chekarmen ohim...”

So‘ng gavhar olib quloqdin ildam,
O‘pdi va uzatdi pirga shul dam.

“Olgil, — dedi, — bor-u, shu nafas qayt,
Ul yori aziz-la hamnafas qayt.

Keltir uni, men boqib yiroqdin,
Siylay nazarimni ishtiyoqdin.

Keltir uni, hech adashma rohda,
O‘tqiz falon nishonagohda.

Keltir yaqinimga, men kelurmen,
Pinhona anga nazar solurmen.

Ko‘rgum uni, ob-u rangi qandoq?
Chun vazni vafoda sangi qandoq?

Balki, u qulay topar-da naytin,
Kuylar menga necha toza baytin.

Ki bahri dilim ochilsa zora,
Ko‘ngilda tugun yechilsa zora...”.

Pir belga tugib o‘shal guharni,
Tark ayladi durri shohvarni.

Yo‘l uzra kiyimlar oldi bir on,
Oshiq u yalang‘och erdi, uryon.

So‘ng yeldi-yugurdi o‘ylakim bod,
Goh kezdi xaroba, gohi obod.

Axtardi shu holda necha bir kun,
Axtargani hech emasdi ma’lum.

Va ko‘rdi nihoyat, o‘ltirar ul,
Tog‘ poyida yakka, zor-u malul.

Atrofida erdi necha hayvon,
Go‘yoki xazina uzra posbon.

Majnun ko‘rib cholni ul yiroqdin,
Mayl etdi kamoli ishtiyoqdin.

Hayvonlariga buyurdi: yuvvosh!
Mehmonga ko‘tarmangiz, dedi, bosh.

Hayvonlari chetga tortdi o‘zni,
Chol keldi-yu, bas, tanitdi o‘zni.

Tuproqqa tanini tashlab avval,
Aytdi necha uz-ru ofarinlar.

“Ishq mulki, — dedi, — sening-la obod,
Ishq bo‘lsin-u, unda bo‘l umrbod.

Sen Xizr bo‘lib quyoshni sipqar,
Zabt ayla jahonni chun Skandar.

Layliki, jamilayi jahondir,
Ishqingda kuyib, adoyi jondir.

Yo‘llar senga jonidin salomin,
Keltirdim irodati payomin.

Ko‘pdan beri ko‘rmamish yuzingni,
Bir dona eshitmamish so‘zingni.

Istar seni bir nafas ko‘rgay,
Qarshingda, yuzing ko‘rib, o‘tirgay.

Sen ham dag‘i gul yuzin ko‘rib shod,
Etgaysen o‘zingni g‘amdin ozod.

Bir-ikki g‘azal o‘qib, mushavvash,
Ishq otashiga solursen otash.

Xurmon chamani bor und, bilsang,
Jonlarga safodir unda yursang.

Har novda-butog‘i ko‘kka yetmish,
Ko‘k maysa, giyohi yerni tutmish.

Ko‘rgaysen o‘shal bahoring unda,
Har bo‘lgusi jumla koring unda!”

So‘ng xurjunida to‘n erdi, xil’at,
Kiydirdi uni etib dalolat.

Majnun anga berdi, bas, rizolik,
Ki etmadi boshqa norizolik.

Ergashdi hamon, yugurdi-yeldi,
Chun obihayotni topgan erdi.

Chanqoq bosarmidi Firotdin?
Yel yuzni burarmu atriyotdin?

Hayvonlari erdi unga hamroh,
Lashkar edilar magarki, ul shoh.

Omad ko‘mak aylamishdi anga,
Keldi o‘sha go‘shayi chamanga.

Xurmo tagiga kelib o‘tirdi,
Hayvon galasini chetga surdi.

Chol bordi murod etib samarni,
Yetkazdi sanamga xushxabarni.

Xirgohida erdi, xushxabardin
Monandi paridek uchdi andin.

Qolganda aroda o‘n qadam yo‘l,
Tin oldi-yu, boshqa yurmadi ul.

Cholga dedi: rahnamoyi nodir,
Yurmoq menga endi noravodir.

Men bo‘ylaki shamdek yonarmen,
Yursam yana, butkul o‘rtanarmen.

Erim magar uyquda erur, hay,
Lekin Xudo uxlamas, u ko‘rgay.

Ko‘nglim yo‘q o‘shal erimga mutloq,
Lekin borayin gunohga qandoq?

Yursam yana, ul haloḳatimdir,
Ishq mahzabida malomatimdir.

Ul yaxshiki menga, aybdin to
Pok ersa shu daftarim, musaffo.

Odob-u adolat ichra tursam,
Bo‘lgay mening ul xijolatim kam.

Majnunki u oshiqi tamomdir,
Bundan nari unga ham haromdir.

Qantdek tili birla so‘ylasin, ayt,
Men soriga necha dilrabo bayt.

Ul aytsin-u, men anga bo‘lay xush,
Ul bersin-u, boda, men etay no‘sh...

Chol tingladi gulbahorni shul dam,
Bordi bo‘lak ul bahorga ildam.

Ko‘rdi, yiqilib yotar edi u,
Hushdin edi ayru, jondin ayru.

Afsus, dedi chol, oh chekdi,
Hasrat-la yuziga yosh to‘kdi.

Ko‘z ochdi u shefta, o‘zga keldi,
Shirin tili bo‘yla so‘zga keldi.

Bas, cholga dediki: “So‘yla sirni,
Tuydim ne bahordin ul atirni?

Yo‘q-yo‘q, dema, bo‘yi navbahor ul,
Yor zulfining atridin ufor ul.

Yor atriga to‘ldi shu jahonim,
Har epkiniga fido shu jonim!”

Chol etdi sinov-la sinchkovlik,
Dediki: “Xato erur judolik.

Istar esang, ul boshingga kelgay,
Orasta bo‘lib qoshingga kelgay.

Qolmay necha orzu-yu havasda,
Yoningda ko‘rarsen har nafasda!”

“Yo‘q, yo‘q, — dedi Majnun, —
ey javonmard,
Ortma menga bo‘yla bir mashaqqat.

May bo‘yiki etdi shunchalar mast,
Jomiga nechuk cho‘zarmen ul dast?”

Avj ohang ila taratdi ovoz,
Chun ayladi necha baytni og‘oz.

## Majnun Layliga atab g‘azal o‘qigani

Sen qayda-yu, oh, biz qayonda?
Sen kimniki, biz sening bu yonda!

Biz ulki navoyi benavo tan,
Bismillah, agar harifimizsan.

Yo‘qsillik olib, jon sotarmiz,
Atlasni qo‘yib, palos yoparmiz.

Ul mashmashayi zamondin ozod,
G‘am biz bila, biz aning ila shod.

Tashnajigar-u g‘ariqi obmiz,
Shabko‘r-u nadimi oftobmiz.

Gumroh-u, vale rahnamo — biz,
Mulk yo‘g‘-u malik-u podsho — biz.

Nom uzra chu nomimiz ajoyib,
Oy singari yo‘l yarimda — g‘oyib.

Bemo‘hra etarmiz huqqabozlik,
Bechora raqibga raxshtozlik.

Oshiqqa g‘amingsiz bir qadam yo‘q,
G‘amdoring erurmiz, o‘zga g‘am yo‘q.

Olamda agarchi sustkormiz,
Undan nariga ko‘chishga bormiz.

Aytgil menga: ey, g‘amimda o‘l, yor!
O‘lmoqqa o‘zim hamisha tayyor!

Aytgil menga kunda yoki tunda,
Ko‘chmoqqa nog‘ora chalgum unda.

Ey yori shigarf, bo‘yladir kor,
Ayyorsen-u oshig‘ing-da ayyor.

Ayyorki, u chun sotar g‘uluvni,
O‘ldirgay o‘zini ham aduvni.

O‘z qonini kimki to‘ksa har dam,
Ul yaxshi-yomonga aylamas rahm.

Bo‘rida suruvdin ersa qo‘rquv,
Gap borki, namatga burkanur u.

Xushdir shu tuning deb aytma, mahvash,
Sensiz menga tun bo‘lurmu dilkash?

Kelmay turib, ketmaging ne endi?
Ekmay turib, o‘rmaging ne endi?

Jonimga qadamni bosma, ey gul,
Bir jonga sig‘armi ikki ko‘ngil?

Jonim hali chiqmadi shu tandin,
Sen boshqa bahona etma andin.

Jon ustida ming azobi yuk bor,
Kel, marhamat ayla, jonni qutqor!

Jon ber menga, yor, shu jondin afzal,
Ish ayla birorta andin afzal.

Har jonki, o‘shal labingdin ermas,
Yetmog‘i uning labimga ermas.

Ul jonki, labingdin armug‘ondir,
Ganjinayi umri jovidondir.

Ey yor, kam ermas ul gadoying,
Ammo men ado-yu mubtaloying.

Yoding ila men tirikmen har dam,
Osuda-yu tandurust-u xurram.

Yodingni ko‘ngil gar etmasa yod,
Ko‘ngilmiki, dushmanimdir ul, yot.

Men sensiz-u, sen qayda mensiz?
Bu ikki tan ichra bir ko‘ngilmiz.

Ul dilki, sening erur, savobdir,
Bu dilki, mening erur, xarobdir.

Sen birla yashashga qayda imkon,
Bo‘lmas esa bir ko‘ngilda yuz jon!

Tortarmen o‘zimga rishtani, rost,
To ikkisi bitta bo‘lgay, olmos.

Mo‘hri dilimiz yagona bo‘lgay,
Ikki deganing begona bo‘lgay.

Bodomki, sikka nag‘zi bordir,
Bir tan aro ikki mag‘zi bordir.

Men sen ila, boshqasi ne ermish?
Kafshdirki,
oyoqdin ul yechilmish.

Borim o‘sha nur erur sendin,
Sendin ne yiroq, yiroqmen andin.

Kim bo‘ldi u tan, nedir maqomi
Mo‘hring uza zarb etilsa nomi?

Boshim u g‘amingga loyiq ermas,
Qayg‘u, alamingga loyiq ermas.

Jonimki aroda mustamanddir,
Men birla emas u, sen bilandir.

Garchi menga bog‘lisen, parizod,
Ozodsen o‘zing, ey sarvi ozod!

Men bo‘ylaki bepanoh-u payvand,
Amringga belimda shay kamarband.

Har daf’a sabo esib ko‘yingdin,
G‘am zangini olgay ul ko‘ngildin.

Andoqki hamisha jonfazosen,
Ozurda belimga mo‘miyosen!

Sen itdil-u posboning it yuz,
Men xoki rohing, ko‘yingda yolg‘iz.

Itbon senga koshki bo‘lsam erdi,
Itlar bila so‘ng o‘tirsam erdi.

Ko‘rgilki, yonimda necha yirtqich,
Itdir bari, qonxo‘r-u qopang‘ich.

Men muflis-u senda mol-u davlat,
Men xoli-yu, senda hol-u savlat.[1]

Oltin, kumush ichrasen bahorhol,
Xoling diram ersa, zar xalxol.

[1] Men kimsasizman, sening ortingda odamlaring bor...

To xoli diramvashingni bildim,
Xalxoling o‘shal diramga oldim.

Ko‘k uzra bulut bahor yig‘lar,
Majnun senga intizor yig‘lar.

Charx oy yuzidin jamolin ochgay,
Majnun u yuzingda folin ochgay.

Hindu — u qaro posbondir,
Majnun eshigingda hamchunondir.

Bulbulda gul ishqi birla garddir,
Majnunda firoqing uchra darddir.

Xalq gavhar-u la’lni deb qazir kon,
Majnun seni deb jon chekar, jon.

Yo Rab, ne xush ittifoqing,
Gar men sari ersa ishtiyoqing.

Oy porlasa ko‘kda, tun ravshan,
Men bo‘lsam-u, sen va bog‘i gulshan.

O‘ltirsak ikov bo‘lib hamog‘ush,
Sevgi mayi ersa no‘sh uza no‘sh.

Bag‘rimga seni bosardim har on,
Tosh ichra etib guharni pinhon.

Bo‘lsam o‘sha nargising ila mast,
Cho‘zsam o‘sha sunbuling sari dast.

Sochingni tugunga kon etsam,
Qoshingni yana kamon etsam.

Noringga gahi qo‘lim uzatsam,
Olmangni gahi qo‘limda tutsam.

Goh olmadek o‘psam erdi noring,
Goh tishlasam olma-yu anoring.

Siynang uzà sochlaring tushirsam,
Sirg‘angga gahi qo‘limni sursam.

Gohi qasabing varaqlasaydim,
Xurmongga badiha so‘ylasaydim.

Bog‘ingda binafsha eksam, ey gul,
Goh etsam o‘shal binafshani gul.

Gohida seni quchib o‘tirsam,
G‘am nomasini qo‘lingga bersam.

Yo Rab, ne bo‘lurdi bu, nechuk roy,
Gar bo‘lsa, na xush bo‘lur edi, hoy!

Xushdir shu qo‘shiq aro ovozim,
Gar yarmida sinmas ersa sozim.

Sho‘ridasar etma muncha, ey yor,
Zer-u zabar etma muncha, ey yor!

Ul joyda turib, meni chaqirma,
Bul joy menga xush erur, gapirma.

Na vahm-u hadik, na xijolat,
Yetmas menga kimsadin malolat.

Gar tursang-u yo o‘tirsangam, bas,
Bir kimsa kelib, so‘roqqa tutmas.

Yolg‘iz necha bezabon-u xomush,
Yaxshi-yomon ul bari faromush...

Ovoralik ichra chora, albat,
Bir go‘shada xilvat ichra rohat.

Ilkingni tutar kishi yo‘q ersa,
Chalgaymu oyoqdin unda kimsa?

Oldingda chu do‘sti ravshaning yo‘q,
Ortingda demakki dushmaning yo‘q.

Ul joy senga joymi, bimi jondir,
Noahl-u g‘ayur har zamondir.

Tark ayla u joyni xurram-u shod,
Ki bundadir asli Eminobod.

Yor bo‘l menga to umrki yordir,
Har ishning o‘lur zamoni bordir.

Ko‘rsatma buloqni oftobdek,
Aldatma yiroqdin ul sarobdek.

Men tashna bo‘lib yuzingga, ey jon,
Faryod etamen o‘zingga, ey jon.

Rahm ayla-yu dilga ber tasallo,
Xunobi dilimni etma daryo.

Bilgum g‘amingda g‘am chekishni,
Bilgum yana sen-la may ichishni.

Etma bu masalni sen faromush:
“Uxlaydi quyon, agar yugurmish”.

May berki, shikastamen, yurak xun,
Xunoba ichar u necha bir kun.

Bazmingda sharob xujastafoldir,
Chun bog‘i bihishtda may haloldir.

Andoqki dimog‘ xush erur, bas,
Ul may dema, bo‘yi may etar mast.

Daryo simirurmen, ey soqiy,
Qolmas qadahimda qatra boqiy.

Yoding bila ichmagim erur xush,
Zahr ersa-da, ul asal erur, no‘sh.

Mastingmen o‘zim, kel, qutqor,
Mastona bo‘lib jom sipqor.

May sipqorilur sabuhda har on,
Qolmas o‘sha parda ichra pinhon.

Sultonki, to‘shalni bog‘da izlar,
Ganjinani shabchirog‘-la izlar.

Bas, o‘g‘ridir ul, chun chekib ranj,
Tun zulmati ichra izlagay ganj.

Har xonaki becharog‘ bo‘lgay,
Zindondir, agarchi bog‘ bo‘lgay.

Ishqing g‘amida dilim zabundir,
Qo‘l ursam anga, qo‘lim-da xundir.

Xushdir menga, mast bo‘lib damo-dam,
Zulfing girihiga qo‘lni sursam.

Zulfing uchidin tutib beozor,
Eltsam seni shunda ko‘yi bozor.

Har lahza sabuhiy aylab anda,
Tepki yesam erdi har qadamda...

Yo Rab, menga ayla bo‘ylakim ro‘z,
Lutf aylasin ul buti jahonso‘z!..”

Aytdi shuni, tutdi rohi sahro,
Bag‘ri to‘la qon, dimog‘da safro.

Ul sarvi ravon yoqib ko‘ngilni,
Xirgohi tarafga oldi yo‘lni...

## Salom Bag‘dodiyning Majnun ila ko‘rishgani

Donoyi suxan chu ayladi yod,
Bor erdi najib, ahli Bag‘dod.

Oshiq yigit erdi, oshnoro‘y,
Aqli yetuk erdi ham adil bo‘y.

Ne seli baloni ko‘rmish erdi,
Ishq ichra jafoni ko‘rmish erdi.

Ishq ko‘yida boshiga tushib g‘am,
Anduh chekib erdi, necha ranj ham.

Ismini Salom demishdi barcha,
Iqboli Salom demishdi ancha.

Ishq olami ichra erdi cholok,
Ash’or o‘qimoqqa ko‘p havasnok.

Qays qissasidin jahonga toza
Tushgan edi ul zamon ovoza.

She'rida ayondi ta'bi poki,
Ma'lum edi ishqdin haloki.

She'rini o'qirkan har alamkash
Ul soriga ot surardi yakkash.

Manzil osha bo'yla toki Bag'dod
Yetgay edi ul fig'on-u faryod.

Ul nazmi halolidin go'zallar
Kuylar edi bazm aro g'azallar.

Chun yetdi Salomga ham,
hamoni
Ko'rgum dedi ul shikasta jonni.

Shaylab tuyasini, yo'lga tushdi,
Har lahza nigohi cho'lga tushdi.

Hay, qayda, deya g'arib-u diltang,
Kezding tog'-u dashtni necha farsang.

Topdi, necha kun ovora bo'lgach,
Tosh uzra yotar edi yalang'och.

Atrofida bordi necha hayvon,
Halqa olib erdi necha hayvon.

Ul ersa chekardi oh-u zorin,
Aytardi ularga dilda borin.

Ko'rdiki, yo'lovchi jahd aylab,
Ul sori kelar edi jadallab.

Bong urdi, o‘shal yuvosh-u yirtqich,
Yotdi bari yerga bosh qo‘yib tinch.

Chun ko‘rdi Salom uning qiyomin,
Jon birla anga dedi salomin.

Majnun u nazokatin ko‘rarkan,
Lutf ayladi shu salomga monand.

So‘rdi, dili erdi so‘zda zohir:
“Qaydin kelursen, ey musofir?”

Dedi:
“Niyatimga sen nishona,
Sarson bo‘lishimga ham bahona!

Andin kelishim — u shahri Bag‘dod,
Ko‘rsam seni, aylasam dilim shod...

Men azmi safarga bundan avval
Jazm etmadim otlanib biror gal.

Sen deb shu safarga jazm etdim,
Boiski, g‘azallaring eshitdim.

Chun menga Xudoyim etdi ro‘zi,
Ko‘rdim shu yuzingni, yetdi ro‘zi.

Qolgan shu umrni endi har dam
Sen birla kechirsam erdi hamdam.

Xoki qadaming o‘pib mudom men,
Hukm-u karamingga bosh egurmen!

Sensiz nafas olmagaymen aslo,
Sen birla nafas olurmen, illo.

Har she'r so'zingdin ersa bunyod,
Jon birla hamisha aylagum yod.

Har so'zki, o'shal ko'ngil asiram,
Osuda bo'lur o'qib zamirim.

Gustohlik etar esam, ravo qil,
Ko'ngilga ko'ngilni oshno qil.

Sen so'yla, so'zingni tinglay har on,
Men ham shu yoningda bitta hayvon.

Mendek yigit ersa gar senga qul,
Bir zarra ziyon etmagay ul.

Ishq javrini men-da tortganim bor,
Ishqim meni aylamish edi xor...".

## Majnun Salom Bag'dodiyga javob bergani

Majnun eshitib uning xitobin,
Kuldi, anga berdi shu javobin:

"Ey xojayi xub-u nozparvard,
Yo'l xavf-u xatarli, dard uza dard.

Sen mardim emas, agarchi mardsen,
Yuzdan bir u dardni chekmagansen.

Shu dom-u dad, o'zga yo'q vaqoyim,
Izmimda na poying-u na poyim!

Kelgay, ochay endi men aroni,
Solma yaram ustiga yaroni.

Menga shu o‘zimdanam maloldir,
Sen birla chiqishmagim maholdir.

Senga ne yetar yurib izimdan?
Dev qochgay o‘zimdan-u so‘zimdan.

Har kun necha manzil-u ma’voyim,
Har kecha xarobazor joyim.

Men vahshiy-u sen basharsen, inson,
Yaxshi edikim basharni topsang.

Gar senda o‘shal temirga toqat,
Ohim seni aylagay betoqat.

Sen suvsan-u menda ersa otash,
Bir kecha suving berarmi bardosh?

Men muflisuzor, yo‘q vaqoyim,
Mehmon etishga qayda royim?

Gar ersa navoyi benavolik,
Bu menman-u rohi oshnolik.

Men mag‘iz, sen andin ayru po‘stsen,
Men xudkush-u sen o‘zingga do‘stsen.

Beldin kamarimni men bo‘shatsam,
Boylarsen uni belingga mahkam.

Men etsam o‘zimni gar faromush,
Sen o‘zga birov ila hamog‘ush.

Men birla nechuk hamnishast sen,
Men butshikan-u, butparast — sen?

Qoldir meni shu makonda xolik,
Mendin senga yetmas oshnolik.

Izlab meni shuncha yo‘l yuribsen,
Qurboning o‘layki, ranj ko‘ribsen.

Topding meni chun g‘arib, aytgil
“Allohu maak” deb, ortga qaytgil.[1]

Xushlik ila qaytmas ersang, aytay,
Ranj bila mashaqqating qochirgay!”

Bas, tingladi ul Salomi nekbaxt,
Xush kelmadi unga bu nasihat.

Dediki: “Gapirma bu maqoling,
Man aylama tashnadin ziloling.

Qo‘ygil, seni deb chekay niyozim,
Qiblangga qarab o‘qiy namozim.

Gar sajdada bir xatoga yetgum,
Uzrim so‘rab unda sajda etgum”.

Yolvordi yana, o‘tindi ul, bas,
Majnun esa boshqa etmadi bahs.

Shod bo‘ldi Salom, sufra yozdi,
Halvo-yu kulichalarni tizdi.

Dediki: “Manim-la xushcha o‘ltir,
Lutf-u karam ayla, nonni sindir.

Harchandki yemaslik odating bor,
Bir-ikki totinmog‘ing-da darkor.

[1] Allohga topshirdim...

Mard ta'bi-la garchi mard bo'lgay,
Quvvat anga shu yemish-la kelgay".

Majnun dedi: "Bu hisobda men toq,
Quvdim u yemakxo'rimni mutloq.

Inson shu mak-la topdi kuchni,
U tarbiyat aylagay vujudni.

Bordir u qadar zamiri pokim,
Andin yemasam-da yo'q halokim".

Chun ko'rdi Salom, bu jigarso'z
Uyqu va taomni bilmas hargiz.

Bir joyda turishga yo'q qarori,
Bir kimsaga yo'q e'tibori...

Dedi anga mehr-u iltifot-la:
"Mayliga baloni ulfat ayla.

Doim shu diling alamda qolmas,
Charxi falak aylanur, tinmas.

Har lahza yurib, shitob etar ul,
Hukmin yuritib, itob etar ul.

To ko'zni yumib ocharsen har on,
Yuz zavq-u farahga bergay imkon.

G'am yetsa-da, bo'lma g'amgin, illo,
Tuproqqa qorishmagaysen aslo.

Xushhol yasha, garchi dardmandsen,
Gar yig'lasang, oxiri kularsen.

Men ham shu qadar shikasta erdim,
Dilxasta-yu poybasta erdim.

Yetdi nuri marhamat Xudodin,
Bir yo'la qutuldim ul balodin.

Tortgaysen, unutma, sen-da xomush,
Bo'lgay g'am-u hasrating faromush.

Bu shu'la — mehr sharoridandir,
Yoshlik o'tining haroridandir.

Yoshlik dag'i yel erur, o'tar, bas,
So'ngay o'ti, ul o'choqda qolmas".

Majnun eshitib bu gapni nogoh,
Tebrandi, alamli chekdi bir oh.

Dedi: "Nazaringda men mastmen,
Oshuftaman-u havoparastmen?

Ishq shohimen ul, ishim jalolat,
Nafsim meni aylamas xijolat.

Shahvat menga bo'lmas endi hokim,
Bordin mening ul g'usuli pokim.

Oloyishi nafsni tindiribmen,
Bozori havoni sindiribmen.

Ishq ichra xulosayi vujudmen,
Ishq — otash-u otash ichra udmen.

Ishq keldi-yu, etdi xos xona,
Ko'chimni ko'tardim ul zamona.

Men garchi hisobda shunchaki bor,
Yo‘qmen vale, borim ul faqat yor.

Kam bo‘lgusi ishq-u ishq aro g‘am,
Gar anjumi osmon bo‘lur kam.

Ishqimning adosi bo‘lgay unda,
Qumlar sanalursa gar zaminda.

Yetding so‘z-u suhbatimga, bilgil,
Aybni gapirishdin o‘zni tiygil.

Ko‘rgil, ne emishdir o‘z holing,
Tark ayla u ta’nayi maqoling...

Necha o‘git aytdi ul qo‘mondon,
Ki ishni sarishta ayla har on.

Sen etma sovuqlik ul, qizarmen,
Oxirda hisob-kitob tuzarmen.

Chindan-da salomat ersa bozor,
Bosmas qadamini o‘g‘ri-tarror.

Ko‘ngil qora yursa mojarodin,
Insof-u hayo ketar arodin...

Aytdi necha hikmati ajabni,
Berdi necha so‘z ila adabni.

Ul darsinikim harif eshitdi,
Har harfiga ayru diqqat etdi.

Hech kimsaga yuklama malomat,
Dedi, senga kelmagay nadomat.

Sen qo‘lda kamonni tut avaylab,
Otgil uni to‘g‘ri, ehtiyotlab.

Sust otsang uni, malolat etgay,
Qattiq otishing xijolat etgay.

Gar qulfni ochishni istar esang,
Sinchikla birinchi, yaxshi o'rgan.

Arqon kelur avval-u,
keyin choh,
Yo'l qayda, oyoqsiz ersa hamroh?"

Chun dashti qaroda necha bir kun
Hamdam edilar Salom-u Majnun.

Maskanki o'shal qaroda erdi,
Durdona g'azal aroda erdi.

Har baytki o'qir edi jahongard,
Yod olgay edi hamon javonmard.

Majnun zaif erdi, xasta holi,
Uyqu va yemakdin erdi xoli.

Bechora Salomda ham edi dard,
Na uyqu tatir edi, na ovqat.

Chun sufrada qolmagach vaqoye,
Majnunga xayr dedi, vidoye.

Manzil sari yurdi, ul sho'rangiz
Hayvonlari birla qoldi yolg'iz.

Yo'l bosdi, yetishdi so'yi Bag'dod,
Etmishdi necha qasidani yod.

Har yerda qasidakim o'qirdi,
Mardum eshitardi, oh derdi...

## Laylining eri Ibni Salom vafot etgani

Har nuqtaki, ish nishoni bordir,
Boriga zar-urat ixtiyordir.

Junbushdadir har ne ersa mavjud,
Ul huqqadin unga dur maqsud.

Qog‘oz iki bet ochur varaqdin,
Olgay u nishonni ikki yoqdin.

Bu betda esa hisobi tabdir,
Ul betda erur hisobi taqdir.

Bul ikki hisobda ziddiyat bor,
Bilmas buni kotibi hisobdor.

Gul dersan, agarchi gul nomi,
Sanchilsa, ko‘ringay ul tikoni.

Ishkomdagi g‘o‘rada ne surat,
Totsang, mazasi uzumdir, albat.

Ochlik seni garchi sust etgay,
Hazm etga-yu, tandurust etgay.

Bu ziddiyat ersa voqe har gal,
Taslim anga bo‘lmog‘ingdir afzal.

Alqissa, bu qissa chun masaldir,
Sen o‘ylaki, sirka ul asaldir...

Layliki charog‘ edi chamanga,
Ranj o‘ziga, ganj o‘zgalarga.

Ganj erdiki, qoshida iloni,
Chun halqaga olmish erdi oni.

Garchi guhar erdi ul bahoda,
Oydek edi komi ajdahoda.

Har lahza yashab shikanja ichra,
La'l erdi magarki tosh uzra.

Eri etib unga posbonlik,
Aylar edi necha mehribonlik.

Layli yonar erdi har nafasda,
Go'yoki pari edi qafasda.

Ko'nglida sabr edi, tahammul,
Aylardi firib uza firib ul.

Er ketganida fig'oni ortib,
Er kelsa, turardi yoshin artib.

Sofiy esa, chun fig'on etardi,
Quyqa yetar ersa, dard yutardi.

Istardi u g'amdin oshkoro
Yig'lab base, topsa bir tasallo.

Pinhonga g'aming jon egovlar,
Ul jonga egovni kim xohlar?

Er hashmati, el sharmi har on
Aylar edi zulfidek parishon.

Begona kishi ko'rinsa yo'lda,
Qalqar edi bir umid-la dilda.

Yig‘lar edi, yig‘lar erdi chandon,
To yerga yiqilmaguncha nolon.

Lek kelsa oyoq sadosi tashdin,
O‘zni tiyar erdi yosh to‘kishdin.

Bir sham kabi shunda parpirardi,
Ko‘z yoshini artibon, kulardi.

Zolim falak aylar erdi chun g‘ash,
O‘rtardi ko‘ngilni ul parivash.

Lek gardishi charxi bemadoro
Etdi amalini oshkoro.

Eri yetisholmayin anga, zor,
G‘am-g‘ussa chekib, yiqildi bemor.

Yuz berdi mijozida chatoqlik,
Darz ketdi Ibn Salomda sog‘lik.

Jon-u tanidin harorat o‘tdi,
Yondirdi tamom, dimoqqa yetdi.

Rohat mijozidin yo‘qoldi,
Oromi siniq idishga qoldi.

Tekshirdi tabib tutib tomirni,
Ko‘rdi necha chorayi zar-urni.

Dorusiga xushxabarni joylab,
Chun tarbiyati mizoj aylab,

Jahd etdiki, ketdi jilla sustlik,
Yuz berdi kasalda tandurustlik.

Xullas, tuzaldi xasta andak,
Ozg'in tani ham et oldi jindak.

Parhezga rioyat etmadi ul,
Ters tutdi tabibning amriga yo'l.

Parhez na daf'i bir ziyondir,
Doru kabi foydasi ayondir.

Rohatda esang, sabot bergay,
Og'riqda esang, najot bergay.

Ranj ersa, boshida mingta doru,
Ganj ersa, qoshida mingta qayg'u.

Ul xastaki o'zni yaxshi sezdi,
Parhezini shu aroda buzdi.

Tushdi tani boz isitma, o'tga,
Ketgan kasali qaytdi ortga.

Avvalgi kasalda xastaholdi,
Chun boshqasi keldi, jonni oldi.

Tuproq namiqqan erdi suvdin,
Loy bo'ldi keyingi gal andin.

Bir zilzila qo'pgan erdi bexos,
Darz tushdi devorga chappa-yu rost.

Chun zilzila qo'pgan erdi takror,
Dosh bermadi, bas, yiqildi devor.

Ul Ibni Salom bo'lib ramaqjon,
Yotdi necha kun shikasta, nolon.

So‘ng yetmadi ofiyatga boshqa,
Tan shishasi, bas, urildi toshga.

Qo‘l chekdi jahon-u xonumondin,
Ham joni qutuldi shu jahondin.

Ketdi, ketamiz, kimsa qolmas,
Charx qarzini olmaguncha qo‘ymas.

Ul qarzi jahon magar giyohdir,
Qo‘rqqil, u mudom so‘rashga qodir.

Jahd ayla, qutul qarzidin to,
Qarzdor bo‘lib unga qolma aslo.

Qarz demaki, ul tuzoq senga,
Mix singari sanchilur taningga.

Sindir shu taningni, jonni qutqar,
Uch avji samoga chun kabutar.

Bu yetti xadangki, to‘rt bexlik,
To‘qqiz sipar ul, ming mixlik.

To‘smoqqa ajalni aylasa qasd,
Bir-bir yiqilur, keyin turolmas.

Har tongda o‘shal go‘zal ravoqdin
Olam uza o‘t tushar, yiroqdin.

Har shom shu xumki loysuvoq ul,
Chulg‘aydi tutunga ko‘kni butkul.

Bil aslnikim, bu joy ne ermish,
Otakadadir, tutunga to‘lmish.

Urgay senga o‘t kecha-kunduz,
Sen xurram-u shodsen, xabarsiz.

Bu ikki ziyonli qush damo-dam,
Teshgaylar u xurjuningni har dam.

Umring agarki katta xirmon,
Qolmas u xirmoningda bir don.

Yig‘ding nechakim, zarra qolmas,
Xoh birgina, xoh yuz qadam bos.

Umringki, u yuz mahol bo‘lgay,
Yuz yilga va yoki mingga to‘lgay.

Yo‘lingda ajab pusib turar ul,
Har neki deyildi, oqibat shul...

Layliga xabar yetishdi achchiq,
Turgan yerida u tushdi sapchib.

“Voy!” dediki, boshqa ham ne derdi,
Ne bo‘lsa-da, ul eri erdi.

Garchi eriga chekardi faryod,
Aslida etardi yorini yod.

Gar eri tufayli soch yulardi,
Yor hajrida asli soch yulardi.

Gar erini istab, oh chekardi,
Yor vaslini qo‘msab, oh chekardi.

Har yerdaki qayg‘u etsa izhor,
Er derdi-yu, dilda derdi “Ey yor!”

Yor ishqida ashk ravona aylar,
Erini faqat bahona aylar.

Gar nola chekardi eri haqda,
Yor shevasida yozardi nuqta.

Erim desa, ulki, po‘st erdi,
Mag‘zi hama “yor-u do‘st” erdi.

Bu rasmi arabki, qolsa ersiz,
Xotin birovga ochmagay yuz.

Mahkum etar o‘zni ikki yilga,
Ul kimsaga, kimsa boqmas unga.

Yig‘lar-da, base tazarru aytar,
Arzi ham etib o‘qirdi baytlar.

Layliki bahona topdi holi,
Xirgohini xalqdin etdi xoli.

Er motami rasmi ichra malul,
G‘am birla o‘tirdi yuzma-yuz ul.

Topmishdi bahona u balodin,
Sabr-u chidamin surib arodin.

G‘am-qayg‘uda kechdi shom-nahori,
Chun yetti falakka yetdi zori.

Sho‘ridalik unga dastak erdi,
Yuz-betiga tarsaki urardi.

Erkin nafasin olardi dilda,
Xavf-u xatar endi yo‘qdi yo‘lda...

## Xazon ayyomi yetgani, Layli vafot etgani

Shartdirki, xazon yetishsa har chog‘,
Xunoba sochar chamanda yaproq.

Har novda, butoqda to‘planib xun,
Chak-chak tomar endi kun demak, tun.

Suv shishasi ham sovib qolibdir,
Bog‘ chehrasi za’faron bo‘libdir.

Ko‘r, shox-u butoq zavoli qanday,
Barglar bari tuproq uzra yotgay.

Nargis tuya ustiga chekar raxt,
Shamshod yiqilur-da, tark etar taxt.

Bog‘ qo‘ynida yosuman-da so‘lmish,
Gul nomayi g‘amni qo‘lga olmish.

Bog‘ manglayi uzra soch yozib xok,
Turgay o‘ralib, chu mori Zahhok.

Yellar esar ersa bo‘yla yovqur,
Yaproq to‘kilurni tut ma’zur.

Yellar ufurib, xazon sochurlar,
Yaproqlar uchib-qo‘nib, qochurlar.

Ul charx, samoyi lojuvardiy,
Top-tozadir endi, yo‘q gardi.

Tulki adashibmi, yo‘lda yotmish,
Qizg‘ish tukidek qonga botmish.

Bog‘ qo‘ynida gul-chechak ranjur,
Sharbatga to‘lib, uzum maxmur.

Gul qaychisi qo‘lda, hindu bog‘bon
Zanjiy bola boshin uzgay har on.

Shox toriga osilib behilar
Turgay, taratib chamanga hidlar.

Olma yetilib, bo‘lib shirin tan,
So‘rgay anordin:
“Ey, nechuksan?”

Ko‘ksi yorilib anor-butkul,
Qonlar oqizur o‘ziga gul-gul.

Pista ochib og‘zini, boqarmish,
Unnob labini tishlab olmish.

Norinj bezatib rangi-ro‘yin,
Olmish turunjdin atri-bo‘yin.

Dehqonda mayi mug‘onadir, hay,
Sarmast bo‘lib, uyi sori yurgay.

Mavsumi xazon yetib, shu davron
Sarg‘aydi so‘lib gul-u guliston...

Laylidaki erdi sarbalandlik,
Tortdi uni chohi dardmandlik.

Ko‘z tegdi, so‘lib bahor-u bog‘i,
Qoldi xira miltirab charog‘i.

Ul boshki, ro‘moli qayg‘u har gal,
Bir boshqa ro‘molni bildi afzal.

Bo‘ldi tani nozik-u qasabpo‘sh,
Chun tori qasab zaif-u beto‘sh.

Oy erdi to‘lin, hilol bo‘ldi,
Sarv erdi baland, xayol bo‘ldi.

Savdoyi dili boshga urdi,
Bosh og‘rig‘i ul ko‘ngilga kirdi.

Yoz otashi jolani quritdi,
Yel esdi-yu lolani quritdi.

Ul kunki, u yoridin judodir,
Sarvi guli sarv emas, giyohdir.

Chun dardi firoq ila egildi,
Savdosi u birni o‘n qildi.

Ish ungacha yetdikim, bayakbor,
Holdin toyib ul yiqildi bemor.

Tablarza[1] taniga in qurdi,
Gul lablariga uchuq yugurdi.

Bolishga cho‘zildi zodi sarvi,
Tushdi o‘sha sarvdin tazarvi.

Don erdi, vale ekindin ayru,
Ro‘moli yuzida — dard-u anduh.

Chorlab onasin u roz ochdi,
Bir yo‘la g‘am-u niyoz ochdi:

“Ey onayi mehribon, ne tabdir?
Sut birla bolang zahar ichibdir!

[1] **Tablarza** — isitma qaltirog‘i.

Tugdim jam etib ko‘chishga borim,
Shaylandi ketishga joni zorim.

Qonlar yutamen, bu ne yiriklik?
Ohlar chekamen, bu ne tiriklik?

Dardimni nihon etib yurardim,
Dildan shu og‘izga yetdi dardim.

Jonimki bugun labimga keldi,
Rozimni ayon etarmen endi.

Oshkor etib ul sirimni butkul,
Men yo‘lga tusharmen, ona, sog‘ bo‘l!

Bo‘ynimga qo‘lingni sol bir bor,
Bo‘yningda emas xunim zinhor.

Ul lahzaki, ona, jon berarmen,
Yor hajr-u firoqida o‘larmen.

Surmamni uning g‘uboridin chek,
Nilimni uning nisoridin chek.

Ko‘z yoshing ila boshimni namla,
Atrimni jigar xuningdin ayla.

Sochgil kafanimga za’faron gul,
Ohi saharingni ayla kofur![1]

Qon sur kafanimgaki, shahidmen,
Bayramga magarki shaylanibmen.

Orasta etib kelindek andoq,
Oxirda makonim ayla tuproq.

[1] **Kofur** — oq xushbo‘y modda, kamfara.

Ovoram o‘shal bo‘larkan ogoh,
Tark aylaganim bu vatangoh,

Yeldek yugurib u qoshimga kelgay,
Qonlar yutibon, boshimga kelgay.

Qabrim boshida g‘arib-u g‘amnok,
Oy istar o‘shanda, lek ko‘rar xok.

Tuprog‘im uza u zor-u nolon,
O‘ltirgusi oh chekib, parishon.

Yordir menga ul, xujasta yorim,
Mendin senga do‘sti yodgorim.

Bu xasta dilim nidosi senga,
Xor boqma, muruvvat ayla unga!

U dilki, u topmamish, ravo qil,
Ul qissaki, sen bilursen, aytgil.

Ul erdi menga aziz, yagona,
Mendek uni sen aziz tut, ona!

Ayt,
Layli qo‘yib saroyi dilgir,
Ul lahzaki, uzdi bandi zanjir.

Mehring-la taniga tortdi xokin,
Yoding ila berdi joni pokin.

Ul ishqida yori sodiq erdi,
Jon erdiki, senga oshiq erdi.

So‘r holini ul shikasta jondin,
Ishqing ila ketdi u jahondin.

Sen erding uning jahonda bori,
Yo‘q erdi g‘amingdin o‘zga kori.

Ul lahzaki ul g‘amingda o‘ldi,
Yo‘l ozig‘i unga ul g‘am erdi.

Garchi bugun ustida uyum xok,
Ishq-u havasing-la zor-u dardnok,

Kelgaymu debon entikar ul,
Har lahza yo‘lingga ko‘z tikar ul.

Unga tuyular shu on kelursen,
Har lahza so‘rar: qachon kelursen?

Qutqar uni dardi intizordin,
Joy ol o‘zingga shu qatordin...”

Aytdi shuni, ko‘zga oldi namni,
Qaytmas sari qo‘ydi so‘ng qadamni.

Chun rozi nihonin aytdi nolon,
Jonon talabida berdi ul jon.

Bas, jonini ul Xudoga berdi,
Ona boshida qiyomat erdi...

U yechdi ro‘molin, oldi qo‘lga,
Oq sochini yozdi, berdi yelga.

Farzandi firoqida dili dog‘,
Soch yuldi-yu, soldi yuzga tirnoq.

Har navhaki erdi, nola qildi,
Har tolaki sochi erdi, yuldi.

Farzandi aziziga chekib un,
Chun obihayotiga to‘kib xun,

Goh yuziga ona surdi yuzni,
Goh poyiga ona bosdi ko‘zni.

Yosh to‘kdi chunon, chekib fig‘onlar,
Ul chashmadin oqdi baski qonlar.

G‘am ko‘ksini chok-chok etdi,
Faryodi uchib, falakka yetdi.

Ul navhaki toshni ham etib xun,
Qilgaydi keyin aqiqi gulgun.

Yulduz ila oyni boylar erdi,
Jonlarni yoqib, kul aylar erdi...

So‘ng onayi zor qizin sarosar
Orasta etib, sochdi anbar.

Topshirdi keyin qabrga andoq,
Tuproqqa yetishdi bo‘yla tuproq.

Layli qutuldi g‘am-hisordin,
G‘am dog‘i o‘shal xazinadordin.

Bu chohki, asir chiqib ketolmas,
Bir kimsa eshikni berkitolmas.

Har banda boshida ko‘r bu kunni,
Bir kimsa yecharmi bu tugunni?

Oqili zamon kam emas, mo‘l,
Lek kori falakka kim topar yo‘l?

Ko‘rsang boqib ul balanddin har kez,
Tun zulmati yoprilib kelur tez.

Cho‘zsa senga qo‘lni, naylagaysen,
Dunyoni faromush aylagaysen.

Biz ojiz-u xor, bo‘ylakim xok,
Asrori falakka yetmas idrok.

Bu obi ravonki, rangi ko‘kdir,
Tinmay oqizur, chora yo‘qdir.

Ul berdi kelinga chun zavolin,
Bir qatra ichirmadi zilolin.

Kirdi shu qabrga Layli andin,
Devori xazinasi temirdin.

So‘ng jumla arab firoqi ichra,
O‘rtandi yaqin-yirog‘i ichra.

Qabri edi ravzayi jinon ul,
Oshiqqa bahor-u bo‘ston ul.

Tuprog‘i shukuhli erdi, tobnok,
Hojatgahi xalq edi, aziz, pok...

## Majnun Layli vafotini eshitib, faryod chekkani

Kotibki surar edi qalamni,
So‘ng safhaga chekdi shu raqamni...

Majnuni shikastadil nogoh
Bo‘ldi chu vafoti yordin ogoh.

Bas, yig‘ladi achchiq-achchiq ul zor,
Chun yig‘lamagan jahonda kim bor?

Motam tutib ul qaro kiydi,
Yor hajr-u firoqi ichra kuydi.

Yor boshiga yetdi misli o‘tdek,
Yosh to‘kdi, o‘kirdi chun bulutdek.

Yor mashhadi to‘ldi mavji xunga,
Bir g‘ulg‘ula tushdi dahri dunga.

Qon yoshi ko‘zidin oqdi har yon,
Mardumni qochirdi oh-u afg‘on.

Ohi g‘ami uchdi ko‘kka andoq,
Tang qoldi jahon, qoraydi ofoq.

Yor qabri magarki erdi bir ganj,
Chirmashdi ilon kabi chekib ranj.

To‘kdi sirishki lolagun ul,
Yor qabriga ekdi lola, sunbul.

Sham singari kuydi pok-u bedud,
So‘ng soldi nidoyi otasholud:

“Voh-voh, netayin, ne chora aylay,
Sham singari jon-u tan kuygay!

Daylamkulah erdi ul diliston,
Shu jumla jahonda bog‘-u bo‘ston.

Bu dahr nechun jafosin etdi?
Tig‘ soldi, qo‘limdin oldi-ketdi.

Ilkimda chamandek erdi bir gul,
Yel esdi, yulib, sovurdi butkul.

Sarvi chamanimki erdi ozod,
Changoli ajaldin o'ldi barbod.

Gul ochdi bahorda ul daraxtim,
Dardoki, xazonga do'ndi baxtim.

Bir dasta binafsham erdi ko'rkam,
Pokiza edi, dilimdan o'sgan.

Bedodgar o'shalni keldi, ko'rdi,
Men ekkan edim, vale u o'rdi.

Rayhonni jahonda tanlagandim,
Andoq guli nozni ko'rmagandim.

O'g'ri qo'li yetdi toza gulga,
Sindirdi gulimni, otdi yo'lga..."

Yor daxmasi uzra ul egib bosh,
So'ylardi, ko'zidin oqizib yosh:

"Ey toza gulim, jahonda netding?
Ko'rmay shu jahonni, tarkin etding!

Mahshargacha uyquda nechuksen?
Go'r zulmati qo'ynida nechuksen?

Ul xoli azizlaring nechukdir?
Ohu kabi ko'zlaring nechukdir?

Ne holda aqiq dudoqlaring ul?
Ne holda qizil yanoqlaring ul?

Naqshingni ne rang ila chekurlar?
Atringni qayoqqa tarqaturlar?

Chashmingda ne noz-u ishva endi?
Qaddingda ne ko'rk-u jilva endi?

Sarving guli qaysi gul diyorda?
Bazming-chi, u qaysi lolazorda?

Holing ne kechar ziyonda, ey yor,
Andoqki makoning endi ul g'or?

G'ordir o'sha, go'shayi ilondir,
Ey oy, senga ne yomon makondir!

G'oringda g'aming yegumki, yorsen,
Chun g'am yemayinki, yori g'orsen?

Ganjsenki, zaminda bo'yla foling,
Ganj ermasang, ayt, nechuk bu holing?

Har ganjki, u g'or ichinda bo'lgay,
Yonida uning iloni turgay.

Men, o'ylaki ul iloni ranjmen,
Qabring uza posboni ganjmen.

Ovora eding yo'lda qumdek,
Osudasen endi chohda suvdek.

Oydek shu g'aribliging nasibdir,
Ne bunda g'aribki, oy g'aribdir.

Suratda ko'zimdin ul nihonsen,
Siyratda vale tanimda jonsen.

Gar surating ul ko‘zimdin ayru,
Bir lahza emas o‘zimdin ayru.

Naqshingki aroni tark etibdir,
Lek o‘rniga shu g‘aming yetibdir.

Yodingki, hamisha ul murodim,
Yodingni sira qo‘yarmi yodim?

Yo‘q menga g‘amingdek unchakim g‘am,
Xoh tursam-u, xoh agar o‘tirsam.

Oting chopar erṣa mendin oldin,
Boiski, mening cho‘loqdir otim.

Vayrona jahonni tark etding,
Ul bog‘i chaman Eramga ketding.

Ey yor, yechib tugunni tezdan,
Men ham boraman sening izingdan.

Parvonaman endi sham — mahding,
Qalbimda o‘shal vafoyi ahding.

Yoningda makonim o‘lsa ul xok,
Qonim kafaningni aylagay pok!

Joying u bihisht saroyda bo‘lsin,
Joning harami Xudoyda bo‘lsin!

Qandili ravoning ul ravoniy,
Yoqsin uni nuri jovidoniy...”

Aytdi shuni-yu, turdi andin,
Charx urdi-yu, uzdi dastbandin.

Yo‘l oldi viloyatiga shul on,
Old-ortida necha turli hayvon.

Ko‘ch tevasini surar edi: hayt!
Hijron g‘amidin o‘qir edi bayt.

Bor dardini joylamishdi so‘zga,
Chun harfi vafo yo‘q erdi o‘zga.

Tuproqqa to‘kardi qonli yoshin,
Toshlarga urardi g‘amli boshin.

Yo‘l ustida qolmadi tikon ham,
Yondirdi ularni nola birlan.

Yo‘llar uza toshki uchradi ul,
Qon rangi bilan bo‘yaldi butkul.

Ko‘z yoshlari unga ismin ayta,
Yor orzusi jonga tushdi qayta.

Sel singari toshqin erdi mayli,
Bordi yana ravzagohi Layli.

Bosh qo‘ydi qabrga, dardga toldi,
O‘pdi, necha ming o‘pichlar oldi.

Chun turbati ul buti vafodor
Boshida taraldi nola-yu zor.

U nola chekarkan oqizib yosh,
Hayvonlari turdi unga yondosh.

U zamzama aylaganda yig‘lab,
Hayvonlari turdilar chekib saf.

Posbon bo‘lishib turdilar, hay,
Bir kimsani yoniga yo‘latmay.

Chun ko‘rdi u necha dom-u dadni,
Xalq bosmadi ul tomon qadamni.

Yor birla ekanda yakka, xoli,
Qush kelmadi, kelmadi chumoli.

Ko‘ngil varag‘in qaro etardi,
Umrini havas taboh etardi.

Ko‘y itlari birla necha kunlar
Esh bo‘ldiki, o‘lmoq erdi afzal.

Yor qabrini qibla aylabon goh,
Dasht sori yana chopardi nogoh.

Andoqki, chumoli ko‘zi — joyi,
Go‘rdin yana go‘rga erdi poyi.

Jon-u tani chun ketib madordin,
Kelgan edi nomasi qadardin...

**Salom Bag‘dodiy Majnunni yana izlab kelgani**

Ishq tarixini bituvchi kotib,
Bizga arabiy bitikdin aytib,

Dediki, Salom, o‘shal giriftor
Majnun sari yo‘lga tushdi takror.

Yuvgum deya chun g‘ubor-u g‘ashni,
Bir oycha u kezdi tog‘-u dashtni.

Choptirdi ulovni har tomone,
Yo‘q erdi u xastadin nishone.

Lek topdi nihoyat, to‘shagi tosh,
Yotmishdi yalangoyoq, yalang bosh.

Singandi tamom parri boli,
Oxirgi nafasda erdi holi.

Jismida yarolar erdi bisyor,
Ham erdi ko‘ngil yarosi oshkor.

Chun boqdi, nigohida edi dard,
So‘rdiki: “Qayoqdin, ey javonmard?”

Dedi: “Men o‘sha Salomi ranjur
Keldim, niyatim — ziyoratingdur”.

Majnun tanidi, chaqirdi darhol,
Lutf etdi, quchog‘in ochdi xushhol.

Hayvonlarin haydabon dedi u:
“O‘t suvdan-u, soya nurdan ayru”.

So‘rdi: “Kelishing ravomi sendin,
Ozurda bo‘lib eding-ku mendin.

Men — g‘amzada,
sen — shod-u masrur,
Men birla nechuk rafoqating ul?

Avvalda chiqishmagandi sozing,
Oxirda nechuk bo‘lur niyozing?

Ammoki kelibsan, ey javonmard,
Aytmam senga endi: orqaga qayt!

Aytgil tilaging, ravo etay men,
Maqsadni gapir, ado etay men".

Ko'rsatdi Salom ehtiromin,
So'z ochdi shirin etib kalomin:

"Ey ulki in'oming erdi avval,
Shukronasin aytadurmen har gal.

Lutfingki, yetishgan erdim unga,
Ozuqa zaxira bo'ldi menga.

Ta'bingdin ajab xazina berding,
Men tashnaga ganji siyna berding.

Ul she'r-u qasidalarki, chun dur,
Ko'nglimni yoritdi, etdi masrur.

Qo'zg'oldi havaski, boz kelsam,
Bog'ingda kiroyi meva tersam.

Ra'ying esa, jon nisor etarmen,
Gar yo'qsa, turarmen-u, ketarmen.

Lekin ko'ramen, dilingda ortiq
She'r aytgali mayl-u rag'bating yo'q.

Ne tushdi boshingga, ne maloling,
Avvalgidek ermas endi holing?

Chun bol-u paring shikasta ko'rdim,
Ruhingni tobora xasta ko'rdim.

Aytgil menga, koring ul nechukdir?
Ne senga-yu, yoring ul nechukdir?"

Majnun eshitib savolda yorin,
Tark ayladi xush, unutdi borin.

Yotdi necha lahza zori aylab,
Ul dilbari, yori jonin o‘ylab.

Oh chekdi dediki: “Ey javonmard,
Kuydirdi jigarni bu alam, dard!

Qo‘ygil, o‘sha korni ne so‘rarsen?
Ey do‘st, yorni ne so‘rarsen?

Yorim qani? Maskani qaro yer,
Yolg‘on! Bu iftironi kim der?

Ul hurnasab-u vafosi rishtdir,
Darvozasi — darchayi bihishtdir.

Ul zinda-yu, lek charog‘i murda,
Men murda-yu, dog‘i birla zinda...”.

So‘z ochdi u necha shu varaqda,
Necha varaq ochdi u shu haqda.

So‘ng tutdi Salom qo‘lini, yurdi,
Yor qabriga bordi-yu, o‘tirdi.

Ko‘rgil, shu, dedi, u tanlagonim,
Ham jonim-u ham haloki jonim!..

Chun ko‘rdi Salom, shikasta, zor ul,
Yorsiz edi, baski beqaror ul.

Bu nolaga chun berolmadi dosh,
Yig‘lab u dag‘i oqizdi ko‘z yosh.

To‘kdi ko‘zidin ashki gulgun,
Har kiprigidin oqar edi xun.

Goh lutfi ila javob berardi,
G‘am yerdi gahi, savob berardi.

Dedi: “Bu xabarni tinglaguncha,
Dil shishasi sindi parcha-parcha.

Men dard-u g‘amingga botdim andoq,
Go‘yoki boshimdin urdi chaqmoq.

G‘am o‘tini senda ko‘rgan onim,
Valloh, u olovda yondi jonim!”

So‘ylab shu qabilda necha so‘zni,
Sochgaydi jarohat uzra tuzni.

Yonida bir-ikki oy turib ul,
Dardkash bo‘lib unga, oldi ko‘ngil.

Har baytki eshitgay erdi undan,
O‘n yildami yo shu oy-u kundan,

Har qissa-yu qit’a-yu qasida,
Yozgay edi, shay etib jarida.

Bul yozdi chunon, ul ersa aytdi,
So‘ng so‘rdi ijozat, uyga qaytdi.

Yozganlarin aylabon keyin yod,
Keltirdi, chu tuhfa oldi Bag‘dod.

## Layli ravzasi — qabri ustida Majnun jon bergani

Ustozi suxansaroyi davron
Bul qissaga berdi bo‘yla poyon.

Ul xirmani so‘xta — oh-u faryod,
Ko‘z yoshidin erdi bori bunyod.

Ko‘k boshda tegirmon unga qurdi,
Yanchdi uni, har tomon sovurdi.

Zor erdiki, bo‘ldi zori battar,
Sustlashdi tani nizori battar.

Jon xuddi chiqar maromga yetdi,
Kunduzi qoraydi, shomga yetdi...

Majnun yana g‘am havola aylab,
Yor qabriga keldi nola aylab.

Yor qabri uza yiqildi, yotdi,
Jon kemasi tiyra suvga botdi.

Bir xasta chumolidek yopishdi,
Ozurda ilon kabi qapishdi.

Baytlar o‘qidi og‘riq-og‘riq,
Ko‘z yoshini to‘kdi achchiq-achchiq.

Ko‘k soriga so‘ngra cho‘zdi qo‘lni,
Kaft ochdi hamon-u, yumdi ko‘zni:

“Ey har ne yaratgan ul Xudoyim,
Ul yoliging haqqi, tingla ohim!

Solgin nazaring mashaqqatimga,
Yetkaz meni yor hazratimga!

Jonimni sitamdin ayla ozod,
Manzili xarobim ayla obod!"

Aytib shuni, yerga ul qo'yib bosh,
Yor qabrini quchdi, sochdi ko'z yosh.

Yor qabrini quchgan ul zamoni,
"Yo do'st!" dedi,
Haqqa berdi jonni.

Ul o'tdi yo'l uzra shu guzardin,
Hay, bormi birovki o'tmas andin?

Bu rohi adamki, har ne bordir,
Shu ofati domga ul duchordir.

Chun zahmat aro kechar bu ayyom,
Anjomini kim etar saranjom?

Bormiki yaro, kabobi mushkul,
Tuz sepsa-da, hech tuzalmamish ul?

Har qayda yaroki, unda g'amdir,
Tirnoq ila tirnamak sitamdir.

Ey qari eshak kabi cho'loq-lang,
Chehrangga beribdi kahrabo rang.

Tut o'zni yiroqki, bu tegirmon
Bermas senga bir nafaslik imkon.

Sel bosdi, bu uyda turma zinhor,
Sel bosdi-ku, sel, o'tirma zinhor!

Gardun uni buzmasin, qani, tur,
Ko‘prikni bosib o‘tishga ulgur.

Bu nofi jahonki pech-pechdir,
Yeldir bari unda, hech-hechdir.

Qo‘y behuda gapni, etma ko‘rlik,
Yel birla bo‘lurmu hech tiriklik?

Rohat senga yo‘q jahonda, o‘g‘lon,
Ot surki, yiroqqa ketdi karvon.

Bu ajdaho, yetti boshli xunxor,
Tegrangni o‘rab, hujumga tayyor.

Hushyor anga boqmasang maboda,
Joying o‘sha komi ajdahoda.

Ul kampir erurki, ajdahofe’l,
Mardum u sababdin ajdaho der.

Qo‘ygil uni, ul jahoni xasta,
G‘irrom o‘yin o‘ynamoqqa usta.

Tig‘ urma birovga zimdan aslo,
Urgaysen uni o‘zingga, illo.

Tushgil amal otindan-da, har on
Ojizliging aylagil namoyon.

To sheri ajal zaxmat etgay,
Ajzingni ko‘rib, shafqat etgay.

Naxvat[1] ravishing emas, qo‘ygil,
Ul nonxurushing emas, qo‘ygil.

[1] **Naxvat** — g‘urur, kibr-u havo.

Tuproqda mehr izlagaysen,
Lek izlaganing so‘zlamaysen.

Bir qulfki u, bandi siynang ichra,
Tillosi qorin-xazinang ichra.

Zoldir u qari, agarki o‘lgay,
Tillosi hama o‘zingga qolgay.

Ko‘rsatmasa yuzni, ul humodir,
Ko‘rsatsa yuzini, ajdahodir.

Tuproqqa yopishmą ko‘p, g‘ubor ul,
Ta’b birla kelishma ko‘p, sharor ul.

Haddingni bilib,uzat oyog‘ing,
Ko‘k sahnida porlagay charog‘ing.

Tog‘ singari selga qarshi turma,
Gar tarsaki tushsa, yuz o‘girma.

Poyingdin uchirsa tosh agar na’l,
Olgil, o‘pib aytgil: “Ey yasha, la’l!”

Joming to‘la sirka ursa gar jo‘sh,
Ko‘z yumgil-u, so‘ngra no‘sh qil, no‘sh.

Bu yo‘lda vafo boshingga yetgay,
Joningni jafo eshikka eltgay.

Badxo‘r sabuh-la badxumordir,[1]
Xushxo‘rga sabuh xushguvordir.

Chun obi zilol xushravon bo‘l,
Har joyda latif-u mehribon bo‘l.

[1] **Sabuh** — saharda ichiladigan may.

Nopok esa, ko‘ngil aynitar suv,
Ul qayda-yu, qayda ul oqar suv?

Xokingdir o‘shal jahoni borlik,
Xokdek anga etma do‘st-u yorliq.

Dunyoyi azalki senga qolmas,
Sen sevma, o‘shalki senga qolmas.

## Majnun vafotidan qabilasining xabar topgani

Majnunki jahonni tark etib ul,
Qutqazdi jahondin o‘zni butkul.

Yor qabriga bosh qo‘yarkan endi,
Bas, uyquga toldi, ko‘zni yumdi.

Shu dudli saroyda olmadi tin,
Ko‘z yumdi-yu topdi bori tinchin.

Yor qabrini aylagancha manzil,
Bir oycha u yotdi, balki bir yil.

Hayvonlar uni o‘rab turardi,
Har yondin anga qarab turardi.

Ul uyquda erdi misli sulton,
Hayvonlari unga soqchi, posbon.

Go‘r girdi ularga erdi xona,
Manzil edi baski, vahshiyona.

Xalq unga boqar edi yiroqdin,
Qo‘rqar edi barcha dom-u daddin.

Boqqan ko‘rar erdi, necha hayvon
Ari inidek urardi g‘ujg‘on.

Qoq o‘rtada ul g‘arib-u xasta,
Orom olar erdi shu nafasda.

Tig‘ urguchi unda necha jonliq,
Podshoga etardi posbonliq.

Bilmas edilarki, shoh o‘lmish,
Toj-u kamarin shamol ko‘tarmish.

Borini u yorga bermish erdi,
Durrini g‘uborga bermish erdi.

Ul zilzilalarki etdi aflok,
Sochmish edi murda ustiga xok.

Yo‘q erdi u jismidin nishone,
Qolmish edi balki ustuxone.

Sher erdi-yu, bo‘ri erdi, yo‘lbars,
Bir jonni anga yaqin yo‘latmas.

Bir kimsa yaqin borolmas erdi,
Oldiga borib ko‘rolmas erdi.

Ul barchasi qo‘rqinch erdi, mash’um,
Ojiz edi dom-u dadga mardum.

Bir yilcha o‘tib, u barcha hayvon
Ovora bo‘lishdi, balki sarson.

Ayrimlari ketdi dasht-u qirga,
Ayrimlari o‘ldi, kirdi yerga.

Davronki, kalit qo‘lida erdi,
Ganj qulfiga soldi, ochdi endi.

Mardum yig‘ilib edi o‘shal on,
Kirmoqqa haramga topdi imkon.

Bas, ko‘rdi xaloyiq ul zamoni,
Qolmish edi yakka ustuxoni.

Hayrat ila boqdilar o‘shal zum,
Kimligi ularga bo‘ldi ma’lum.

Ovozasi so‘ng taraldi har yon,
Mulki arab ichra she’r-u doston.

So‘ng xesh-u tabor, aziz-u poklar
Jam bo‘ldi, alamli, dardnoklar.

Bas, yig‘ladilar nazora aylab,
To‘nlarni g‘am ichra pora aylab.

Tan qolipi gavharin sochib oq,
Monandi sadafdek erdi oppoq,

Dur birla aritdilar g‘uborin,
So‘ng surdilar ustiga uforin.

Atra taralardi muncha xushkim,
Ishq nofasi bermish erdi mushkin.

So‘ng motami rasmida egib bosh,
Daryo kabi barcha to‘kdilar yosh.

Ko‘z yoshi-la bo‘yla yuvdilar pok,
Xok ostida endi joy olur xok.

Go‘r-daxmada yo‘l ochib anga o‘ng,
Laylisi qoshiga qo‘ydilar so‘ng.

Shoh bo‘ldi sharobxonaga payvast,
Mast-soqiy-u paymonaga payvast.

Rohatda ular to qiyomat,
Bitdi hama ta’na-yu malomat.

Savgand[1] bu jahonda erdi bir ahd,
Maskan u jahonda bo‘ldi bir mahd.[2]

Bir turbat aro ular yotishdi,
Do‘stlar uni ravzagoh etishdi.

Ne ravza, o‘shandin ortiq erdi,
Hojatgahi jumla oshiq erdi.

Kelguvchi kelardi zor-u ranjur,
Ketguvchi ketardi shod-u masrur.

Chun ravzadin hech judo emasdi,
To hojati ul ravo emasdi.

Yo Rab, tan-u jonlari musaffo,
Tark etdi jahonni ikki shaydo.

Osoyish-u lutf ularga yor et,
Afv ayla, muruvvating nisor et.

Bu ishniki galma-gal qilursen,
Gal bizga qachon, o‘zing bilursen...

[1] **Savgand** — ont, qasam.
[2] **Mahd** — bu yerda qabr ma’nosida.

## Shirvonshoh nomiga kitob xotimasi

Shoho, maliko, jahonpanoho,
Yo‘q-yo‘q, bir emas, necha ming shoh!

Jamshid kabi shohi taxtgirsen,
Xurshid kabi toq-u benazirsen.

Shirvonshohi Kaykubodpaykar,
Xoqoni kabir — Abulmuzaffar.

Shirvonshoh demasmen, ul jahonshoh,
Kayxisravi soniy, Axsatanshoh.

Ey xatmi qironi podsholik,
Sensiz shu jahonda qayda shohlik!

Ey mafxari nasli odamizod,
Sen birla shu ikki olam obod.

Ey chashma, safosi misli daryo,
Poklik va buyuklik ichra tanho.

Ul kunki, u toleyi muborak,
Tojingni etib samoga torak,

Baxting ila shodumon erursen,
Bu nomani shavq ila o‘qirsen.

Ma’no kelinidir ul baharhol,
Goh ganjini, goh qizligin ol.

Shoyadki uni pisand etibsen,
Ahsant[1] deya iltifot etursen.

[1] **Ahsant** — tashakkur.

Shoho, anga bo‘yla iltifot et,
Sendin karam-u, mendin ummid.

Garchi dili pok-u, baxti firuz
So‘ylar senga so‘z nasihatomuz,

Bu nosihi[1] nusrati ilohiy,
Aytur necha pandi subhgohiy.

Ko‘rgilki, jahonda necha ibrat,
Qoldi necha toj-u mulki davlat.

Bedorsen agarchi favqulodda,
Bedorliging aylagil ziyoda.

Har yaxshiki, bir gunoh etibdir,
Rahm-u karam ayla, urma shamshir.

Shu sahni jahonda tuz jahoning,
Ne yaxshiki, qolsa unda noming.

Mulkingki, sazoyi royatingdir,[2]
Unda harami viloyatingdir.

Adl-u karaming karoni yo‘qdir,
Etsang yana ko‘p, ziyoni yo‘qdir.

Har ishki u davlating uchun, tuz,
Hech aylama sa’y-u g‘ayrating sust.

Sen ayla shukuhing, ulki ranjdir,
Pardozi agarchi koni ganjdir.

[1] **Nosih** — nasihatchi.
[2] **Royat** — bayroq.

Bir qilga ham etma noravolik,
Gar ersa rivoji podsholik.

Dushmanki, tilida aytur uzrin,
Uzriga ishonma, hayda, ketsin.

Qodir bo'l-u bo'l sabrli zinhor,
May ichgil-u, tut o'zingni hushyor.

Ilkingda agarchi kuch yetarlik,
Lek lutfi Xudodin ista yorlik.

Bir ishgaki ra'y etarsan har dam,
Kengash uni o'zgalar bilan ham.

Harb ichra qadamni sobit ayla,
Maydonga tusharkan, ikkilanma.

Goh yumshog'-u, gohi tund kishi ul,
Kech suhbatidin, o'zingni tiygil.

Har joyga qadam qo'yarda, bo'yla
Qaytib yana kelmagingni o'yla.

To'qqiz qadaming-la bitsa gar ish,
O'ninchi qadamga chekma tashvish.

Adlingni so'rovchilarni, illo,
Rostgo'y kishilarga et havola.

So'zingda chunonki ustuvor bo'l,
Xalq boylasin o'zni senga butkul.

Har kimsaki kelsa, sen sinov et,
Mumkinki, u nokas ersa, surbet.

Har kimsa so‘ziga etma bovar,
Tekshir so‘zini, aniqla avval.

Kichik dema dushmaningni zinhor,
Yetgay senga ul tikandin ozor.

Har kimga siringdin ochmagil so‘z,
Oxirda chekarsen oh-u afsus.

Urdingmi birovni, ot yiroqqa,
Hurmatlini solmagil firoqqa.

Har holdaki kechsa subh-u shoming,
Har lahza qadrla yaxshi noming.

Har necha haloling ersa boda,
Ketsin nari ul — haromzoda.

Gar boda icharsen, aylagil qasd,
Sen ichgil-u, dushmaningni et mast.

Ko‘p ichma bazmda, mast bo‘lma,
Oloyishi butparast bo‘lma.

Ul kunki xayoling ersa masrur,
Isriq tutatib, o‘zingga dam ur.

Ul kechaki sen shod-u xurram,
Et xayri duo o‘zingni ul dam.

May bazmida xush o‘tir, ochiq yuz,
Ortgay u sabab nishoti majlis.

O‘ltir u bazmda misli sherdek,
Bir kimsa ko‘zingga boqmasin tik.

Har yerda xarob esa imorat,
Ta'mir etibon, tuzatgil, albat.

Bir kimsaga ne itob etma,
Qatliga uning shitob etma.

Pok ayla ko'ngilni g'il-u g'ashdin,
Iqboling o'zi kirar eshikdin.

Har nechaki so'yladim fasona,
So'z aytgali erdi ul bahona.

Shohsan-ku jahonda, shohi shavkat,
Senga o'git aylamak ne hojat?

Har ishgaki rahnamo bo'lursen,
Xayr-u amaling ado qilursen.

Yaxshi kishilarning ol duosin,
Daf etgusi dahri dun balosin.

Ul damdaki xushliging davomiy,
Basdir senga himmati Nizomiy.

Yo Rabki, jamoli ul jahondor,
Hech ko'rmasin olam ichra ozor!

Har yerda murodin hosil ayla,
Lutf-u karamingni komil ayla.

Har jabhada mansur ayla, g'olib
Dushmanlarin ayla xor-u mag'lub.

Ber ilkiga jomi xisravoniy,
To'ldir anga obi zindagoniy.

Tut qatra menga sharobi jomin,
Bu nomada bitdim ushbu nomin.

Ul nomiga noma basta bo‘lsin,
Bosgan qadami xujasta bo‘lsin!

Bu noma bitildi, bas, tamomiy,
Al-minnatu lillah, ey Nizomiy!

Ul fotihasiki erdi mas’ud,
Chun oqibatin ham ayla mahmud!..

## MUNDARIJA

Shayx Nizomiy Ganjaviy haqida *(Gulbahor Ashurova)* ..... 3

**Jamol Kamol va Gulbahor Ashurova tarjimalari**

Qasidalar ..... 15
G'azallar ..... 19
Qit'alar ..... 31
Ruboiylar ..... 33
Hikmatlar ..... 42
"Layli va Majnun" dostoni ..... 51
Debocha ..... 51
Rasuli akram (s.a.v.) vasfida ..... 60
Hazrati Payg'ambarimiz (s.a.v.) me'roji ..... 64
Borliq yaratilishi xususida qat'iy burhon-u dalil ..... 70
Kitobning yozilish sababi ..... 79
Shirvonshoh Axsaton ibni Manuchehr madhida ..... 87
Yer o'pib aytur ..... 94
Farzandimni Shirvonshoh farzandligiga topshirganim ..... 97
Hasadgo'y va munkirlar dastidan shikoyat ..... 100
Shikoyat uzri ..... 105
Farzandim Muhammad Nizomiyga nasihat ..... 106
Ayrim o'tgan yaqinlarimni yod etganim ..... 109
Doston ibtidosi ..... 120
Layli va Majnun bir-birlarini sevib qolishgani ..... 127
Majnun ishqi nechuk ishq erdi ..... 131
Majnun Laylini ko'rishga borgani ..... 134
Majnunning otasi Layliga sovchilikka borgani ..... 137

Majnun Layli ishqida fig'on chekkani ..... 142
Otasi Majnunni Xonayi Ka'baga eltgani ..... 150
Layli qabilasi qasdidan Majnun otasining xabar topgani ..... 154
Otasi Majnunga nasihat etgani ..... 160
Majnun otasiga javob bergani ..... 164
Hikoyat ..... 166
Laylining ahvoli bayonida ..... 169
Laylining sayri bo'ston etgani ..... 175
Ibni Salom Layliga sovchi yuborgani ..... 182
Majnun Navfalga ta'nali so'zlar aytgani ..... 192
Navfalning Layli qabilasi ila jangga kirishgani ..... 193
Majnun Navfalga achchiq gaplar aytgani ..... 200
Navfal ikkinchi bor jang qilgani ..... 203
Majnun ohularni ozod etgani ..... 212
Majnun maralni qutqargani ..... 216
Majnun zog' ila so'zlashgani ..... 220
Bir kampir Majnunni Layli chodiriga boshlab borgani ..... 224
Otasi Laylini Ibni Salomga bergani ..... 230
Ibni Salom Laylini uyiga olib ketgani ..... 236
Laylining erga tegganidan Majnun xabar topgani ..... 238
Majnun xayolan Layli ila so'ylashib, shikoyat etgani ..... 243
Otasi Majnunni ko'rishga kelgani ..... 248
Majnun otasiga javob bergani ..... 256
Otasi Majnunga vido aytgani ..... 259
Majnun otasining vafotidan xabar topgani ..... 265
Majnun vahshiy hayvonlar ila do'st tutingani ..... 270
Hikoyat ..... 275
Majnun Haq taolo dargohiga yuzlanib, iltijo etgani ..... 279
Majnunga Laylidan maktub yetgani ..... 287
Majnun Laylining maktubini o'qigani ..... 295
Majnunning Layliga javob maktubi ..... 301
Tog'asi Salimi Omiriy Majnunni ko'rishga kelgani ..... 310

Hikoyat ..... 314
Onasi Majnunni ko'rishga kelgani ..... 316
Majnun onasining vafotidan xabar topgani ..... 320
Layli Majnunni chorlagani ..... 324
Majnun Layliga atab g'azal o'qigani ..... 332
Salom Bag'dodiyning Majnun ila ko'rishgani ..... 340
Majnun Salom Bag'dodiyga javob bergani ..... 343
Laylining eri Ibni Salom vafot etgani ..... 350
Xazon ayyomi yetgani, Layli vafot etgani ..... 357
Majnun Layli vafotini eshitib, faryod chekkani ..... 364
Salom Bag'dodiy Majnunni yana izlab kelgani ..... 370
Layli ravzasi — qabri ustida Majnun jon bergani ..... 375
Majnun vafotidan qabilasining xabar topgani ..... 379
Shirvonshoh nomiga kitob xotimasi ..... 383

N 57 Nizomiy Ganjaviy [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Gulbahor Ashurova. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 392 b.
ISBN 978-9943-8725-3-0

**UO'K 821.512.162-1**
**KBK 84(5Ozar)-5**

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

# NIZOMIY GANJAVIY

## 56-jild

*Adabiy-badiiy nashr*

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Malohat Ibrohimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^1/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 24,5. Nashriyot-hisob tabog'i 17,28.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 123-1/22 Buyurtma raqami № 22-339

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

# NIZOMIY GANJAVIY